

The background of the book cover is a detailed illustration. On the left, a woman in a brown dress and a patterned headscarf holds a young child. They are looking towards a cityscape. The city features a prominent tower with a globe at the top, a large domed building, and various other structures. The sky is filled with soft, white clouds. The overall style is reminiscent of a classic illustration or painting.

АХАД
ҚАЮМ

МЕНИНГ
ЮРТИМ

Шеърлар

кирилл, lotin

АҲАД ҚАЮМ

МЕНИНГ ЮРТИМ



Тошкент
«ТАҒАККУР»
2019

УЎК 372.111.1(024)
КБК 24.269.1Узб.
Қ-71

Такризчи:

Ботиржон ЭРГАШЕВ — Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси
аъзоси, шоир

Қаюм, Аҳад.

Менинг юртим: (шеърлар тўплами, кирилл ва лотин
ёзувида) / Аҳад Қаюм — Т.: Tafakkur, 2015. 376 б.

*Шеърят шундай бир санъатки, унинг сарҳадлари инсон
кўнглининг энг юза қисмини ҳам, тубсиз қаърини ҳам қамраб
олади. Аҳад Қаюм шеърлари шундай. Унинг сатрларида тил
учида турган сўзлар, қалбнинг ҳаммага хос кечинмалари,
гоҳида эса сиз айтмоқчи бўлган, лекин оддийгина қилиб айтиб
кўришни истамаганингиз ажиб дардлар акс этади.*

*Ушбу китобдан шоирнинг Ватан, халқ ва истиқлол мав-
зусидаги кўплаб шеърлари жой олган.*

УЎК 372.111.1(024)
КБК 24.269.1Узб.

МЕНИНГ ЮРТИМ БУНЧА ГЎЗАЛ, МЕНИНГ ЮРТИМ

Таърифи йўқ, танҳо азал менинг юртим,
Ёзсанг бўлар минг бир ғазал менинг юртим.
Дунё кезиб тополмайсиз бундай Ватан —
Менинг юртим бунча гўзал, менинг юртим.

Ватан учун кеча-кундуз хизматдаман,
Сенинг каби мен ҳам буюк мақсаддаман,
Чиройингга тилим лолдир, ҳайратдаман,
Менинг юртим бунча гўзал, менинг юртим.

Ҳар соҳада, ҳар бир касбда маҳорат бор,
Ёшу кекса, ҳар юракда жасорат бор,
Адолат бор бу диёрда, адолат бор,
Менинг юртим бунча гўзал, менинг юртим.

Бошқачадир бу тупроқнинг фарзандлари,
Дилни дилга боғлар маҳкам дилбандлари,
Тан олмоқда, қаранг, дунё давлатлари,
Менинг юртим бунча гўзал, менинг юртим.

Озод юртда, кўзларим шод, дилим озод,
Манзил сари кетмоқдаман, йўлим озод,
Юрт мустақил, Ватан обод, элим озод,
Менинг юртим бунча гўзал, менинг юртим.

Қанча манзил, маконларни бориб кўрдим,
Сенингчалик тупроқ йўқдир, шуни билдим,
Сени истар, сени севар фақат кўнглим,
Менинг юртим бунча гўзал, менинг юртим.

Таърифи йўқ, танҳо азал менинг юртим,
Ёзсанг бўлар минг бир ғазал менинг юртим.
Дунё кезиб тополмайсиз бундай Ватан —
Менинг юртим бунча гўзал, менинг юртим.

А
х
а
д
•
Қ
А
Ю
М
◎

КЎЗ ТЕГМАСИН ЎЗБЕКИСТОНГА

Шукр дейман қараб замонга,
Шундай гўзал жаннатмаконга,
Тинч, фаровон еру осмонга,
Сарбони бор шундай карвонга,
Кўз тегмасин Ўзбекистонга!

Кундан кунга янгидан янги,
Порлоқ отар келажак тонги,
Мустақилсан энди сен мангу,
Шукр дейман қараб замонга,
Кўз тегмасин Ўзбекистонга!

Илму ҳунар ривожда бугун,
Ёшлар қалби ишончда бугун,
Мадҳ этмайин ватанни нечун,
Шундай гўзал жаннатмаконга,
Кўз тегмасин Ўзбекистонга!

Бундай тупроқ қайда бор яна?
Ҳар инсоннинг кўнгли шод, мана,
Эзгуликлар қилар тантана,
Тинч, фаровон еру осмонга,
Кўз тегмасин Ўзбекистонга!

Фарзандимиз фарзандигача,
Неча аср ўтса ҳам қанча,
Хизматингга тайёрдир барча,
Сарбони бор шундай карвонга,
Кўз тегмасин Ўзбекистонга!

Аҳад Қажум, сенинг шодлигинг,
Ватанинг тинч, озоддир элинг,
Шу эл билан бу умр йўлинг,
Кўз тегмасин Ўзбекистонга!
Кўз тегмасин Ўзбекистонга!

СЕНИ СЕВАМАН, ВАТАН

Сўзимга ишон чиндан,
Сўрасалар гар мендан,
Жоним фидо шу элга,
Сени севаман, Ватан.

Йўл бердинг сен ишониб,
Ишончингни қозониб,
Хизматинг қилай ёниб,
Сени севаман, Ватан

Юрагимда бир титроқ,
Меҳринг қалбимга чироқ,
Ишон, ҳаммадан кўпроқ,
Сени севаман, Ватан!

Юлдузлисан, ойлисан,
Тўрт фаслинг куёшлисан,
Ҳаммадан чиройлисан,
Сени севаман, Ватан.

Сенсан ёруғ қошонам,
Бугун бахтли замонам,
Ўзинг меҳрибон онам,
Сени севаман, Ватан.

Мадҳингни куйлай қанча,
Ошифинг йўқдир манча,
Сўнгни нафасимгача,
Сени севаман, Ватан.

Сўзимга ишон чиндан,
Сўрасалар гар мендан,
Жоним фидо шу элга,
Сени севаман, Ватан.

●

М

Е

Н

И

Н

Г

●

Ю

Р

Т

И

М

А

ҳ

а

д

•

Қ

А

Ю

М

●

ЁЗАРМАН

Адабиёт шаъни билан ёзарман,
Одоб ила, маъни билан ёзарман,
Мен шунчаки изламасман қофия,
Юрагимнинг қони билан ёзарман!

Ёзадирман сифмай кетсам оламга,
Элнинг дарди қўшилади ноламга,
Раҳмим келиб хастагина онамга,
Юрагимнинг қони билан ёзарман!

Гоҳ ёзарман қайғу билан, ғам билан,
Гоҳо ёзгум кўзимдаги нам билан,
Зулмат ичра кетмоқдаман шам билан,
Юрагимнинг қони билан ёзарман!

Бу шеърларга кимлар ошиқ бўлибдир,
Баъзилари машҳур қўшиқ бўлибдир,
Кўнгил қулфин очган эшик бўлибдир,
Юрагимнинг қони билан ёзарман!

Ижодимга хиёнатни билмасман,
Сўзни сотиб тирикчилик қилмасман,
Дод деса ҳам жонга раҳм қилмасдан
Юрагимнинг қони билан ёзарман!

Мени илҳақ кутган кўзларим учун,
Азиз мухлисларим, дўстларим учун,
Ваъда бериб қўйган сўзларим учун,
Юрагимнинг қони билан ёзарман!

Ҳар кун хатлар келар, эй Аҳад Қаюм,
Бизлар сени яхши кўрамиз, ўғлим,
Остонамда пойлаб турса-да ўлим,
Юрагимнинг қони билан ёзарман!

Адабиёт шаъни билан ёзарман,
Одоб ила, маъни билан ёзарман,
Мен шунчаки изламасман қофия,
Юрагимнинг қони билан ёзарман!

МЕН СЕНДАН КЕЧМАЙМАН, ВАТАН

Аҳли донишлар ҳикмати,
Шудир сенинг тиллаларинг,
Юрт қалбига безак солгай,
Кўшиқлар-у яллаларинг,
Менга Ватан нималигин
Ўргатганда аллаларинг,
Ҳақ йўлида фидо бўлсин,
Сенга садқа руҳ ила тан,
Ҳаттоки кечсам ҳам жондан,
Мен сендан кечмайман, Ватан!

Оналарнинг пойларини
Эслатганда бозорларинг,
Оталарнинг жойларини
Излатганда мозорларинг,
Оғаларнинг тулпорларин
Қишнатганда виқорларинг,
Юрагимда минг бир титроқ,
Ахир сенинг фарзандингман,
Ҳаттоки кечсам ҳам жондан,
Мен сендан кечмайман, Ватан!

Бухородан кетганман-у,
Бухородан кечмаганман,
Ўзга элни қучган билан,
Ўз элимдан қочмаганман,
Япроқлари учган билан,
Илдизлари кўчмаганман,
Шофирконнинг шўр тупроғи,
Менга зардир, олтин, маъдан,
Ҳаттоки кечсам ҳам жондан,
Мен сендан кечмайман, Ватан!

☉

М

Е

Н

И

Н

Г

●

Ю

Р

Т

И

М

А
ҳ
а
д
•
Қ
А
Ю
М
●

Юрагимга санчилганда
Ифвогар каслар миш-миши,
Дўстларимни ранжитганда
Фаним нодон қилмиши,
Нима истар, нима сўрар,
Бугун дўстлар дил хониши,
Асл ўзбекнинг ўзлигин сиз
Сўрар бўлсангиз гар мандан,
Ҳаттоки кечсам ҳам жондан,
Мен сендан кечмайман, Ватан!

Ватан, Ватан деб ҳайқирар,
Аҳад Қаюм нима учун?
Кимдир дер манфаат учун,
Кимдир дер таъма учун,
Бу сўзнинг ўз маъноси бор,
Талқини бор ҳамма учун,
Жонимни ўтга солмоқ
Ниятим йўқдир қасддан,
Ҳаттоки кечсам ҳам жондан,
Мен сендан кечмайман, Ватан!

Аҳли донишлар ҳикмати,
Шудир сенинг тиллаларинг,
Юрт қалбига безак солгай,
Қўшиқлар-у яллаларинг,
Менга Ватан нималигин
Ўргатганда аллаларинг,
Ҳақ йўлида фидо бўлсин,
Сенга садқа руҳ ила тан,
Ҳаттоки кечсам ҳам жондан,
Мен сендан кечмайман, Ватан!



ЎЗБЕКИСТОН

Ватан не? Ватан иймон,
Унутма шуни, инсон,
Тўрт фасли ёруғ осмон,
ЎЗБЕКИСТОН!

Киндик қоним тушган юрт,
Дилда меҳри тошган юрт,
Яхшиликка шошган юрт,
ЎЗБЕКИСТОН!

Ҳар манзил, гўша обод,
Яна парвози озод,
Озод эл бахтидан шод,
ЎЗБЕКИСТОН!

Бўй чўздинг кўрди жаҳон,
Кимлигинг билди жаҳон,
Тупроғи олтин макон,
ЎЗБЕКИСТОН!

Мудом шундай бахтга тўл,
Яхши кунда ўйнаб-кул,
Бошимда гултожим бўл,
ЎЗБЕКИСТОН!

Ватан не? Ватан иймон,
Унутма шуни инсон,
Тўрт фасли ёруғ осмон,
ЎЗБЕКИСТОН!



М

Е

Н

И

Н

Г



Ю

Р

Т

И

М

А
ҳ
а
д
•
Қ
А
Ю
М
◎

ОНА ТУПРОҚ

Меҳрим бордир саҳроларинг,
Ҳар бир тош-у, ҳар қояннга,-----
Бош эгиб таъзим айласам,
Ҳар бир хас буғдойпояннга,
Ўзга элни тенг кўрмасман,
Бир қатра нур, бир сояннга,
Айт, сени менданам кўпроқ
Ким севар, эй ОНА ТУПРОҚ?

Бир оҳ урсам, битта оҳим,
Етди-ку етти фалакка,
Бир кун яшаса-да қаранг,
Ватан бордир капалакка,
Она тупроқ бир гардингни,
Алишмам етмиш малакка,
Айт, сени менданам кўпроқ
Ким севар, эй ОНА ТУПРОҚ?

Таърифингга сўз айтмоққа,
Кимдир ахир билганларим,
Сендан бир зум йироқ кетсам,
Қалбим ярим, бахтим ярим,
Ишон менга, эй онажон,
Ёлғон эмас айтганларим,
Айт, сени менданам кўпроқ
Ким севар, эй ОНА ТУПРОҚ?

Бободехқоним юзлари,
Отам бўлиб кўрингайдир,
Ҳар учратган мунис аёл,
Онам бўлиб кўрингайдир,
Ҳар бир ўзбек юраги бир,
Олам бўлиб кўрингайдир,
Айт, сени менданам кўпроқ
Ким севар, эй ОНА ТУПРОҚ?

Биз ким бўлдик назар этмай,
Оддий элнинг ҳаётини,
Дунёларга танитмасак,
Қошғарийнинг авлодини,
Ҳар лаҳзада ёдда тутсак,
Навоийнинг баётини,
Айт, сени бизданам кўпроқ
Ким севар, эй ОНА ТУПРОҚ?

Меҳрим бордир саҳроларинг,
Ҳар бир тош-у, ҳар қояннга,
Бош эгиб таъзим айласам,
Ҳар бир хас буғдойпояннга,
Ўзга элни тенг кўрмасман,
Бир қатра нур, бир сояннга,
Айт, сени менданам кўпроқ
Ким севар, эй ОНА ТУПРОҚ?

АДАБИЁТ, ЭШИКЛАРИНГ ОЧ

Адабиёт, эшикларинг оч,
Мен ҳам кўрай кўҳна архивни.
Мендан мажбур сўрамагин бож,
Кел, ёзайлик янги тарихни.

Адабиёт, қўл бер, дўстгинам,
Ҳурматингга бўлай сазовор.
Сенда бўлса бор ҳақиқат жам,
Мен бўлардим энг зўр ижодкор.



КЕЧОЛМАЙМАН ВАТАНДАН АСЛО

А

ҳ

а

д

•

Қ

А

Ю

М

◎

Ўзбекистон тенгсиз гавҳарим,
Сен топилмас, бебаҳо зарим,
Сендан бир кун йироққа кетсам,
Бахтим ярим, бу кўнгил ярим,
Мен кечарман жонимдан, аммо
Кечолмайман Ватандан асло.

Қанот бердинг, менга учгин деб,
Чўққиларни забт эт, қучгин деб,
Имкон бердинг янги тарихда,
Яна бир саҳифа очгин деб.
Мен кечарман жонимдан, аммо
Кечолмайман Ватандан асло.

Дунё кездим, гўзалдир чиндан,
Юртпарварлик ўтгандир қондан,
Келдим дейман, азиз дўстларим,
Мен мустақил Ўзбекистондан.
Мен кечарман жонимдан, аммо
Кечолмайман Ватандан асло.

Бизга жони куюксан, Ватан,
Онам каби суюксан, Ватан,
Отам каби асрайсан, мени,
Сен биз учун буюксан Ватан.
Мен кечарман жонимдан, аммо
Кечолмайман Ватандан асло.

Сенинг исминг юракда азиз,
Сен устозсан бизга, шубҳасиз,
Керак қилдинг шу тупроққа сен,
Сенсиз биз ҳам йўқмиз, шубҳасиз.
Мен кечарман жонимдан, аммо,
Кечолмайман Ватандан асло.

Сенинг порлоқ толеинг сўнмас,
Сен бўлмасанг, ижодим унмас,
Яшнаб турсанг, сен омон бўлсанг,
Аҳад Қаюм ёзишдан тинмас.
Мен кечарман жонимдан, аммо
Кечолмайман Ватандан асло.

ҲАЁТ ГЎЗАЛ

Ҳаёт гўзал, гўзал
Туйғулар билан,
Ҳаёт гўзал
Кувонч, кулгилар билан,
Ҳаёт гўзал
Меҳр-муҳаббат сабаб,
Ҳаёт гўзал
Ширин орзулар билан.

Атрофингда бўлса
Яқинлар, дўстлар,
Яхши ниятлардан
Яшнаса кўзлар,
Ҳар кўнгил дунёда
Бахтини излар,
Ҳаёт гўзал, гўзал
Туйғулар билан.



●
М
Е
Н
И
Н
Г
●
Ю
Р
Т
И
М

А
ҳ
а
д
•
Қ
А
Ю
М
●

ЎЗБЕКИСТОНДАН ҲАМ ЯХШИ ЖОЙ БОРМИ?

Бизниқидан гўзал
Оққан сой борми,
Ой битта, бундан ҳам
Гўзал ой борми,
Ватанини севган
Ҳар ўзбек учун,
Ўзбекистондан ҳам
Яхши жой борми?!

Тушингда кўрганинг
Ўнгда сўзлама,
Бегона юртларда
Манзил кўзлама,
Тупроғингдан азиз
Макон излама,
Ўзбекистондан ҳам
Яхши жой борми?!

Қара, ривожланиш,
Ўзгаришларга,
Дунё ҳавас қилган
Бундай ишларга,
Қанча имкон берди
Биздек ёшларга,
Ўзбекистондан ҳам
Яхши жой борми?!

Бахтга тўлиб яша,
Омадинг ёрми,
Асрагин, гуруринг,
Номусу орни,
Кўзларимга қараб
Айтгин эй юртдош,
Ўзбекистондан ҳам
Яхши жой борми?!

Бизнинг тувроқдан ҳам
Азиз бўлганда,
Кетган бўлар эди
Амир Темурлар.
Бизнинг тувроқдан ҳам
Азиз бўлганда,
Йиғлаб соғинмасди
Мирзо Бобурлар.

Аждодлар қабрини
Зиёрат қилинг,
Кўнгилда илмдан
Иморат қилинг,
Шундай саждагоҳга
Садоқат қилинг,
Ўзбекистондан ҳам
Яхши жой борми?!

Қай юртда урушлар,
Қайда нотинчлик,
Қай юртда касаллик,
Қай юртда очлик,
Бизда эса қаранг,
Осуда тинчлик,
Ўзбекистондан
Ҳам яхши жой борми?!

Бир вилоят номи
Шоир номида,
Ҳазрати Навоий
Қалб ардоғида,
Буюк карвонимнинг
Сарбони бордир,
Азиз Қорақалпоқ
Бир томонимда.

●
М
Е
Н
И
Н
Г
●
Ю
Р
Т
И
М

А
х
а
д
•
Қ
А
Ю
М
◎

Вақт топиб водийни
Саёҳат қилинг,
Самарқанд сайқалин
Мўъжиза билинг,
Бухорою Хива
Ҳайбатин кўринг,
Ўзбекистондан ҳам
Яхши жой борми?!

Боринг Сурхондарё
Томонларга сиз,
Қашқадарё, Жиззах,
Сирдарё тенгсиз,
Бугунги Тошкентни
Келиб кўринг сиз,
Ўзбекистондан ҳам
Яхши жой борми?!

Аҳад Қаюм ёзар
Севиб тупроғин,
Бир лаҳза босолмай
Қалбин титроғин,
Абадий яшнасин
Ватаним боғим,
Ўзбекистондан ҳам
Яхши жой борми?!

Бизникидан гўзал
Оққан сой борми,
Ой битта, бундан ҳам
Гўзал ой борми,
Ватанини севган
Ҳар ўзбек учун,
Ўзбекистондан ҳам
Яхши жой борми?!

ЯШАСИН БУ ВАТАН

Ўзбекистон ҳақда,
Ўзбеклар ҳақда,
Қанча кўшиқ айтдик,
Қанча шеър ёздик,
Шундай гўзал юрда
Яшамоқ бахт-да,
Яшасин бу ватан,
Ҳурлик, озодлик!

Ўзбекистон ҳақда,
Ўзбеклар ҳақда,
Сўзламоқ ўзи
Бир дунё шодлик,
Мустақил диёрнинг
Кўркига боқ-да,
Яшасин бу ватан,
Ҳурлик, озодлик!

Бахтнинг маконида
Ободсан, элим,
Тонларинг мусаффо,
Озодсан, элим,
Сенинг қувончингдан
Яшнайдир дилим,
Яшасин бу ватан,
Ҳурлик, озодлик!

Тарихинг чархида
Айланган тупроқ,
Аждодлар ўгинин
Бир-бир ёд олдик,
Сенинг исминг дилга
Солгай минг титроқ,
Яшасин бу ватан,
Ҳурлик, озодлик!

●
М
Е
Н
И
Н
Г
●
Ю
Р
Т
И
М

Abdulla Qodiriy nomidagi

viloyat AKM

INV № 169217 - 2019u

Ўзбекистон ҳақда,
Ўзбеклар ҳақда,
Давлатимиз исмин
Сўзлар еру кўк!
Эй дўстим, бу миллат
Гуллаган вақтда,
Яшасин бу ватан,
Хурлик, озодлик!

Ўзбекистон ҳақда,
Ўзбеклар ҳақда,
Қанча кўшиқ айтдик,
Қанча шеър ёздик,
Шундай гўзал юртда
Яшамоқ бахт-да,
Яшасин бу ватан,
Хурлик, озодлик!

ОТА-ОНА ҒАНИМАТ

Не қилдингиз, онангиз учун,
Қандай савоб, қандай яхшилик?
Бирор марта отангиз учун
Не қилдингиз, ахир, айтгулик?

Болам-чақам, тўй деб ташвиш деб,
Соғликдан ҳам кечасиз ҳатто.
Қўйибдилар буни тақдир деб,
Сўнг эртага кечикманг аммо.



АКАЛАР, УКАЛАР...

Акалар, укалар,
Опа-сингиллар,
Асранг бир-бирингиз,
Тўлсин кўнгиллар.
Яхши кун кўп бўлсин,
Меҳрдан яшнанг,
Дўстларим, дийдорга
Талпиниб яшанг.

Акалар, укалар,
Опа-сингиллар,
Орамизда ким бор,
Ким йўқ эртага.
Ҳасад эмас, ҳавас
Тўлсин юракда,
Ҳасад эмас, ҳавас
Қилинг барчага.

Шунда бахт эшигин
Очади сизга,
Шунда дил шодликдан
Яна енгиллар.
Яна насиб этсин
Учрашмоқ бизга,
Акалар, укалар,
Опа-сингиллар.



●

М

Е

Н

И

Н

Г

●

Ю

Р

Т

И

М

А СЕВИБ ЯШАНГ ШУНДАЙ ВАТАННИ

Ҳ

а

д

•

Қ

А

Ю

М

•

Юртим бахти кўнглим яшнатар,
Ягонадир жамолинг нақши,
Булбул дилим яна сайратар,
Элни севмоқ бунчалар яхши!
Гуллатайлик шундай чаманни,
Севиб яшанг, шундай ватанни!

Ҳар меҳмонни суйиб-яйратар,
Бошимизда ҳурлик бахт қуши,
Кўнглим бахтдан ифор таратар,
Элни севмоқ бунчалар яхши!
Гуллатайлик шундай чаманни,
Севиб яшанг, шундай ватанни!

Шундай халқни қандай севмайин,
Торингни ол, эй ҳофиз бахши,
Она тупроқ мадҳинг куйлайин,
Элни севмоқ бунчалар яхши!
Гуллатайлик шундай чаманни,
Севиб яшанг, шундай ватанни!

Юртим бахти кўнглим яшнатар,
Ягонадир жамолинг нақши,
Булбул дилим яна сайратар,
Элни севмоқ бунчалар яхши!
Гуллатайлик шундай чаманни,
Севиб яшанг, шундай ватанни!



ИШДАН ЧАРЧАБ КЕЛИБ

Ишдан чарчаб келиб, ҳаётдан тўйиб,
Кимгадир заҳримни сочгим келади,
Дўстдай елкасига бошимни қўйиб,
Кимгадир қалбимни очгим келади.

Кимгадир қўнғироқ қилсам банд бўлар,
Тонггача ёришмас ҳеч қўнгил хонам,
Мени шундай пайтда ким ҳам тушунар,
Қани шу пайт ҳаёт бўлсайди онам.

КЕЧАГИ КУНИНГНИ УНУТМА

Яшай десам бахтим йўқ дема,
Орзуйим кўп, ҳаққим йўқ дема,
Дўсту ёрдан ҳолин сўрмоққа,
Ишларим кўп, вақтим йўқ дема.

Ёш жонинг ташвишдан қаритма,
Қалбингни ёлғондан ҳоритма,
Эрта учун тер тўкаман деб,
Кечаги кунингни унутма!



●

М

Е

Н

И

Н

Г

●

Ю

Р

Т

И

М

А
х
а
д
•
Қ
А
Ю
М
◎

САМАРҚАНД, БУХОРО, ХИВА

Самарқанд, Бухоро, Хива – уч асар,
Учта буюк сураг.

Музейлар акси.

Аждодлардан қолган экспонатлар,
Хаёлда мавжланар ҳайратлар рақси.

Ҳар бир обида-ю, ҳар миноранинг,
Ярим заррасига арзирмиканман.
Ватан – буюкликка бордир далилинг,
Сенинг кудратингга тарих берар тан.

Самарқанд, Бухоро, Хива – уч меъмор,
Учта буюк тақдир.

Учта қабристон.

Учта қитъа каби кўҳна уч китоб,
Асрар она бўлиб шу ер, шу осмон!

Ватан ҳақда шеърлар ёзмай мақтаниб,
Буюк остоналар чангини артинг.
Яратгани учун шундай тупроққа,
Оллоҳга ҳар куни шукрлар айтинг.

Тарих китобини варақларканман,
Гоҳ яшнар, гоҳида санчади юрак!
Дунёни ҳайратга солган уч саҳна,
Самарқанд, Бухоро, Хива – уч эртақ.



ФАРҒОНАЖОН

Бағрингда ҳам соғинаман, кетгим келмас,
Сени қандай севишимни ҳеч ким билмас,
Кўзим кўриб сулув-сулув ўлкаларни,
Дунё кездим, ҳеч бириси сендай бўлмас,
Меҳри мендек чанқоқ борми, Фарғонажон!
Сендан гўзал тупроқ борми, Фарғонажон!

Меҳмонингни ўз болангдан кўп суясан,
Бегонага ўз болангдан кўп қуясан,
Фарғонажон, Фарғонажон, Фарғонажон,
Она каби дийдорлардан сен тўясан.
Жонга ортиқ титроқ борми, Фарғонажон!
Сендан гўзал тупроқ борми, Фарғонажон!

Бухоронинг минори деб кўп шеър ёздим,
Қашқадарё чинори деб кўп шеър ёздим,
Кўп шеър ёздим ўз туғилган элим ҳақда,
Сени кўриб мен ақдан рости оздим.
Бундан ортиқ мароқ борми, Фарғонажон!
Сендан гўзал тупроқ борми, Фарғонажон!

Шоирларнинг тушидаги боғларми бу?
Эркин Воҳид ҳайрат олган тоғларми бу?
Қадам қўйсам асло қайтиб кетгим келмас,
Умримдаги энг бахтиёр чоғларми бу?
Нега деган сўроқ борми, Фарғонажон!
Сендан гўзал тупроқ борми, Фарғонажон!

Аҳад Қаюм, мингта шеър ёз, минг қўшиқ айт,
Фарзандидек сени ўғлим деб кутган пайт,
Ҳеч ерда йўқ бағри очиқ бу одамлар,
Ўзбекистон деган юртда борлиги бахт.
Бағрингдек кенг қучоқ борми, Фарғонажон!
Сендан гўзал тупроқ борми, Фарғонажон!

●

М

Б

Н

И

Н

Г

●

Ю

Р

Т

И

М

А
х
а
д
•
Қ
А
Ю
М
◎

УСТОЗ МУАЛЛИМ

Билим маскан, ҳаёт дарсини,
Чақиб бериб илм мағзини,
Сизга доим шогирд таҳсини,
Беринг илм, беринг таълим
Ёш авлодга, УСТОЗ МУАЛЛИМ!

Ўқитувчи — тарбиябешиқ,
Ўқитувчи дунёга эшиқ,
Ўқитувчи ўқувчига илк
Беринг илм, беринг таълим
Ёш авлодга, УСТОЗ МУАЛЛИМ!

Минг ўргилсак кам бошингиздан,
Минг ўпсак кам бу пойингиздан,
Навойи ҳам ўрганган сиздан,
Беринг илм, беринг таълим
Ёш авлодга, УСТОЗ МУАЛЛИМ!

Сизда жамдир фан, тараққиёт,
Тарихи эл, тил-адабиёт,
Сизлар борки юрт, миллат обод,
Беринг илм, беринг таълим
Ёш авлодга, УСТОЗ МУАЛЛИМ!

Шоир қилган Аҳад Қаюмни,
Юртга танитгандир исмимни,
Моҳир этган хунар, касбимни,
Беринг илм, беринг таълим
Ёш авлодга, УСТОЗ МУАЛЛИМ!



ВАТАН ДЕМАСАМ

Осмонга танишдир,
Юлдузнинг тили,
Дарёга танишдир,
Денгизнинг тили,
Япроққа танишдир,
Илдизнинг тили,
Ким бўлдим шу
Юртнинг ғамин емасам,
Тупроғим демасам,
Ватан демасам.

Сочимнинг учидан
Тирноғимгача,
Нафасим сановчи
Томоғимгача,
Дилда кимман деган
Сўроғимгача,
Юрагидан асрий
Дардин юлмасам,
Ватан деб суянган
Фарзанд бўлмасам.

Туғилдимки бир дард
Кўксим ёндирар,
Инсон бир камини
Қайда тўлдирар,
Инсон инсонлигин
Қайда билдирар,
Яхши-ёмон кунда
Мен деб турмасам,
Йўлимни яхшилик
Томон бурмасам.

●

М

Е

Н

И

Н

Г

●

Ю

Р

Т

И

М

А
ҳ
а
д
•
Қ
А
Ю
М
◎

Отамдан ҳолинг не
Дея сўрмасам.
Онамнинг дардини
Қўзга илмасам,
Асли кимлигимни
Ўйлаб кўрмасам,
Ким бўлдим шу юртнинг
Ғамин емасам,
Тупроғим демасам,
Ватан демасам.

Осмонга танишдир
Юлдузнинг тили,
Дарёга танишдир
Денгизнинг тили,
Япроққа танишдир
Илдизнинг тили,
Ким бўлдим шу
Юртнинг ғамин емасам,
Тупроғим демасам,
Ватан демасам.

ЧИН БАХТ

Меҳнат қилмай, роҳат топа олмайсиз,
Иззат қилмай, ҳурмат топа олмайсиз,
Меҳр бермай, меҳр кўрмоқ истаманг,
Ёлғон яшаб, чин бахт топа олмайсиз.

Унутманг устозлар ҳар ўғит сўзин,
Умр жуда қисқа, шошилинг, дўстим,
Вақт оқар дарёдир бермагай изн,
Сўнг эртага фурсат топа олмайсиз.

АСКАРЛАР (Кўшиқ)

Ватанни асрайди ҳарбийлар доим,
Шу она тупроқни дейди ўз уйим,
Юртим ҳар сарҳади чегарам, кўшним,
Сиз сабаб билмаймиз хавфу хатарлар,
АСКАРЛАР, АСКАРЛАР, БИЗНИНГ
АСКАРЛАР!

Ота маконим деб ором билмайин,
Сиз сабаб чалади эл тинчлик куйин,
Эл хизмати жуда оғирдир, қийин,
Сергак, огоҳ бўлинг шому саҳарлар,
АСКАРЛАР, АСКАРЛАР, БИЗНИНГ
АСКАРЛАР!

Асрангсиз ҳар зарра тупроғимизни,
Кўкларга кўтаринг байроғимизни,
Ҳар битта илдизу япроғимизни,
Душман нигоҳлардан доим асрарлар,
АСКАРЛАР, АСКАРЛАР, БИЗНИНГ
АСКАРЛАР!

Ёдда тутинг Темур ҳикматларини,
Мирзо Улуғбекнинг хизматларини,
Тинглаб Навоийнинг дилдардларини,
Ватан ишончини доим оқларлар,
АСКАРЛАР, АСКАРЛАР, БИЗНИНГ
АСКАРЛАР!

Кекса, ёш, ўспирин, ёркагу аёл,
Бу юртда ҳар оқшом ухлар бемалол,
Бурчни адо этинг, дўстларим, ҳалол,
Диёрим, фаҳрим деб қадам босарлар,
АСКАРЛАР, АСКАРЛАР, БИЗНИНГ
АСКАРЛАР!

Ватанни асрайди ҳарбийлар доим,
Шу она тупроқни дейди ўз уйим...

⊙

М

Е

Н

И

Н

Г

•

Ю

Р

Т

И

М

А
х
а
д
•
Қ
А
Ю
М
◎

ЯГОНАСАН, МУҚАДДАС ВАТАН

Гулбўстон, нур ўраган маскан,
Дунёни, гул ўраган гулшан,
Мустақилсан, эй она тупроқ,
Ягонасан, муқаддас Ватан!

Алпомишнинг олтин бешиги,
Барчинойнинг янграр кўшиги,
Сенга очиқ дунё эшиги,
Ягонасан, муқаддас Ватан!

Темурдай зот туғилган диёр,
Навоийни қилгандинг ошкор,
Бухорийнинг ўчмас ёди бор,
Ягонасан, муқаддас Ватан!

Отам каби навқиронсан сен,
Онам каби меҳрибонсан сен,
Олам каби чароғонсан сен,
Ягонасан, муқаддас Ватан!

Ватан десам, ёнгай юрагим,
Сен орзумсан, сенсан тилагим,
Бахтим каби ўзинг керагим,
Ягонасан, муқаддас Ватан!

Аҳад нечун ёнади бугун,
Ёлғонлардан тонади бугун,
Келажакнинг чин бахти учун,
Ягонасан, муқаддас Ватан!

Гулбўстон, нур ўраган маскан,
Дунёни гул ўраган гулшан,
Мустақилсан, эй она тупроқ,
Ягонасан, муқаддас Ватан!

9 МАЙ

Шараф деб миллат юкин,
Ватанга бўлиб устун,
Юртим деб ютганлар хун,
Ўчмагайдир чироғи,
Нурга тўлгай тупроғи.
Ҳалоллаб она сутин,
Юзлари ёруғ бутун,
Қайтганда қадри бутун,
Унутилгай қийноғи,
Олтин бўлай тупроғи.
Қайдан тинчлик шамоли,
Юртнинг бахту камоли?
Бўлмас марднинг заволи,
Эсса озод байроғи,
Тилга киргай тупроғи.
Дарёларинг азиздир,
Аждодларинг денгиздир,
Фидоларинг тенгсиздир,
Шудир дилнинг сўроғи,
Мангу тургай тупроғи.
Ўтганларни хотирлаб,
Яна номларин эслаб,
Бугун қолдим мен ўйлаб,
Недир жоннинг титроғи,
Ҳаққи эсланар чоғи,
Кўмилмагай мозори,
Тилга киргай тупроғи.

НАҚОРАТ:

Ёдимизга, ёдимизга,
Сиз — азизлар, жонимизга,
Ёнимизда, ёнимизда,
Яшагайсиз қонимизда.
ЎЗБЕКИСТОН ГУЛЛАГАЙ!

●
М
Е
Н
И
Н
Г
●
Ю
Р
Т
И
М

А

ҳ

а

д

•

Қ

А

Ю

М

◎

ШУ ВАТАН

(Кўшиқ)

Она замин ва инсон,
Жону тандир, жону тан,
Беминнат ота макон,
Шу Ватандир, шу Ватан!

Асрагайдир мардлари,
Дилдан артиб гардларин,
Бахтдир менга дардлари,
Шу Ватандир, шу Ватан!

Яна такрор айтаман,
Туғилсам гар қайтадан,
Менга азиз ҳаммадан,
Шу Ватандир, шу Ватан!

Бунда толеъ юлдузим,
Шунда дўстлар иллизим,
Шамси ўчмас кундузим,
Шу Ватандир, шу Ватан!

Жондек азиз бу маскан,
Бағрида гуллар чаман,
Саҳролари ҳам гулшан,
Шу Ватандир, шу Ватан!

Ота-бобомдан мерос,
Элпарварлик бизга хос,
Қадди-бастим этган рост,
Шу Ватандир, шу Ватан!

Гўзал эрур гўзалдан,
Донг таратган азалдан,
Тушмаган шеър, ғазалдан,
Шу Ватандир, шу Ватан!

Тингланг наво куйларин,
Кўринг байрам тўйларин,
Тузган умр йўлларим,
Шу Ватандир, шу Ватан!

Кўрдим қанча диёрлар,
Қонга сингди шиорлар,
Кўнгил нима, хуморлар,
Шу Ватандир, шу Ватан!

Аҳаднинг ҳар сўзини,
Йўқотмасдан изини,
Ёруғ айлар юзини,
Шу Ватандир, шу Ватан!

Она замин ва инсон,
Жону тандир, жону тан,
Беминнат ота макон,
Шу Ватандир, шу Ватан!

УСТОЗ ВА ШОГИРД

Тиғдек санчиб устознинг сўзи,
Очилди-ку шогирднинг кўзи,
Ўшал сўзга амал қилолмай,
Йиғлар эди устознинг ўзи.



●

М

Е

Н

И

Н

Г

●

Ю

Р

Т

И

М

А
ҳ
а
д
•
Қ
А
Ю
М
◎

ЎЗБЕГИМНИНГ ТҶЙИ

Кезиб қанча миллат-элатни,
Қўриб қайтдим турли одатни,
Тополмадим жонга роҳатни,
Она юртинг бўйи бошқача,
Ўзбегимнинг тўйи бошқача.

Кўзлардаги сурурга қаранг,
Даврадаги файз, нурга қаранг,
Тиллардаги шукрга қаранг,
Қимнинг хаёл, ўйи бошқача,
Ўзбегимнинг тўйи бошқача.

Дўстлар, қўлга қўлни боғлайди,
Хизмат учун белни боғлайди,
Яқин дийдор дилни чоғлайди,
Хушнуд ёшлар сўйи бошқача,
Ўзбегимнинг тўйи бошқача.

Сиз ҳам келиб яйрангиз бир дам,
Унутингиз, нима ташвиш ғам,
Бўлолсангиз Аҳадга ҳамдам,
Унинг наво куйи бошқача
Ўзбегимнинг тўйи бошқача.

Кезиб қанча миллат-элатни,
Қўриб қайтдим турли одатни,
Тополмадим жонга роҳатни,
Она юртинг бўйи бошқача,
Ўзбегимнинг тўйи бошқача.



ОНАМ МЕНИ ДАРД БИЛАН ТУҚҚАН

Онам мени дард билан туққан,
ДАРД билан мен эгизак эдик...
Иккимиз ҳам ака-укадек
Бир она бағрида улғайдик...

Сен ўзингни кўрсат, ака, деб,
У мени шаҳарга юборди.
Ўғил бўлиб укалик қилиб,
Онамнинг ёнида у қолди.

Отамни ҳам ёлғиз қолдирмай,
ДАРД онамни гулдек асрайди.
Шаҳардаги бедард акаси,
Онасини ҳеч ўйламайди...

Истеъдодин сарфлаб эрта-кеч,
Ўзини кўрсата олмайди...

ЯШНАСА ҲАМ ФАҚАТ ВАТАН ЯШНАСИН

Топдим, зарҳикматлар
Оққан чашмасин,
Изланг, биздек юртга
Меҳри ташнасин,
Ҳар ўзбек шу эл деб
Нафас олсин у,
Ҳар ўзбек шу эл деб
Қадам ташласин...
Яшнаса ҳам фақат
Ватан яшнасин,
Яшаса тоабад
Ватан яшасин!
Ҳар кимга яхшилик



М
Е
Н
И
Н
Г
•
Ю
Р
Т
И
М

А
ҳ
а
д
•
Қ
А
Ю
М
◎

Йўллаган диёр,
Меҳрнинг тафтидан
Гуллаган диёр,
Ҳар бир илдииздан
Япроғигача,
Ёруғ манзилларни
Тилаган диёр!
Яшнаса ҳам фақат
Ватан яшнасин,
Яшаса тоабад
Ватан яшасин!

Кекса, ёш, ўспирин,
Боласигача,
Юрт кездим деҳқоннинг
Даласигача,
Оналарнинг мунгли
Алласигача,
Олтиндан азиздир
Ҳар қарич тупроқ,
Ватан бор ҳофизнинг
Ялласигача...
Яшнаса ҳам фақат
Ватан яшнасин,
Яшаса тоабад
Ватан яшасин!

Бизнинг бошқалардан
Ҳеч камимиз йўқ,
Ўзимиз, кўзимиз,
Бу кўнглимиз тўқ,
Бизнинг эл олдида
Кўп хизматимиз,
Бизнинг эл олдида
Ниятимиз кўп.
Яшнаса ҳам фақат
Ватан яшнасин,
Яшаса тоабад
Ватан яшасин!

Ўзини таниган
Ўзбекка ўхшаб,
Келяпмиз аждодлар
Издан яшаб,
Отам рози бўлса
Оллоҳ рози деб,
Жаннатни оналар
Пойига тўшаб...
Яшнаса ҳам фақат
Ватан яшнасин,
Яшаса тоабад
Ватан яшасин!

Бориб айтинг ўша
Элфурушларга,
Ватанфурушларга,
Тилфурушларга,
Бобосин изини
Кўмган нокасга,
Ватанни бермаймиз
Йўлфурушларга.
Яшнаса ҳам фақат
Ватан яшнасин,
Яшаса тоабад
Ватан яшасин!

Топдим, зарҳикматлар
Оққан чашмасин,
Изланг, биздек юртга
Меҳри ташнасин,
Ҳар ўзбек шу эл деб
Нафас олсину,
Ҳар ўзбек шу эл деб
Қадам ташласин...
Яшнаса ҳам фақат
Ватан яшнасин,
Яшаса тоабад
Ватан яшасин!

◎

М

Е

Н

И

Н

Г

●

Ю

Р

Т

И

М

УСТОЗИМДАН АЙИРМА, ОЛЛОҲ

А

ҳ

а

д

•

Қ

А

Ю

М

•

Фалакларнинг қўйнида учган,
Парвозимдан айирма, Оллоҳ.

Ота-онам ўрнида турган,
Устозимдан айирма, Оллоҳ.

Қай бахтли кун учратдинг менга,
Дединг, энди лойиқ бўл унга,
Етказдирган мени шу кунга,
Устозимдан айирма, Оллоҳ.

Тилла қилиб, қоп-қора тошни,
Баланд кўтар, деди бу бошни,
Кўзларимдан оқизма ёшни,
Устозимдан айирма, Оллоҳ.

Шайтон йўлдан адаштирган чоғ,
Мен у номга келтирмайин доғ,
Ёлғиз бошин асрагин ўзинг,
Устозимдан айирма, Оллоҳ.

Одам бўл деб ортимдан юрди,
Боласидай тарбия берди,
Бу дунёда не роҳат кўрди?
Устозимдан айирма, Оллоҳ.



ҚУТЛОВ

Ёшлик фасли сўлимга ўхшар,
Осмонда ой тўлингга ўхшар,
Бу дунёда шодлик тимсоли,
Куёв билан келинга ўхшар,
Бутун олам бахти сизгадир,
Бу кун давра тахти сизгадир!

Бир узукка қўйган кўздексиз,
Энг ширин айтилар сўздексиз,
Ота-она орзуси амал,
Сизга қараб қувончи чексиз,
Аҳду вафо нақди сизгадир,
Бу кун давра тахти сизгадир!

Бўйдоқ ва шўх куёвжўралар,
Қизлар томон аста мўралар,
Бизнинг юртда кўча-кўйдамас,
Тўйда қизнинг қўли сўралар,
Орзу-истак вақти сизгадир,
Бу кун давра тахти сизгадир!

Шодликлари кўзида ошкор,
Тилак тилаб такрор ва такрор,
Ҳавас ила сизга боқишар,
Узоқ яқиндан келган дўст, ёр,
Эртанги кун шаҳди сизгадир,
Бу кун давра тахти сизгадир!

Ёшлик фасли сўлимга ўхшар,
Осмонда ой тўлингга ўхшар,
Бу дунёда шодлик тимсоли,
Куёв билан келинга ўхшар,
Бутун олам бахти сизгадир,
Бу кун давра тахти сизгадир.

●

М

Е

Н

И

Н

Г

●

Ю

Р

Т

И

М

ЎЗБЕКИСТОН КЕЛАЖАГИ БУЮК ДАВЛАТ

А

ҳ

а

д

•

Қ

А

Ю

М

•

Ватан десам; томирларим титрагайдир,
Ватан десам, таърифга сўз етмагайдир,
Ватан десам, кўнглим қувнар сўз очмоққа,
Ватан десам, юрак ғамга ботмагайдир.
Мустақиллик — Ватан бахти, азиз неъмат,
Ўзбекистон келажаги буюк давлат!

Олисларни кўзлар бизнинг ёшларимиз,
Бахт манзилин излар бизнинг ёшларимиз,
Юксакларга кўтаргайдир Ватан мадҳин,
Истиқболдан сўзлар бизнинг ёшларимиз.
Истиқлолнинг боши баланд, умри абад,
Ўзбекистон келажаги буюк давлат!

Бу муқаддас замин узра озод элим,
Гуллаб-яшнаб равнақ топар обод элим,
Баланд кўтар озод юртинг байроғини,
Тараққиёт чўққисида номзод элим,
Ҳар бир ўзбек шу тупроқ деб ёнгай албат,
Ўзбекистон келажаги буюк давлат!

Ит ҳуради, карвон ўтар, сарбон чидар,
Мунофиқ дўст ярим йўлда ташлаб кетар,
Манзилгача боролмагай элфурушлар,
Худобезор динфурушлар, элфурушлар,
Юрт тинч бўлсин, деб тангридан сўрар Аҳад,
Ўзбекистон келажаги буюк давлат!

Ватан десам, томирларим титрагайдир,
Ватан десам, таърифга сўз етмагайдир,
Ватан десам, кўнглим қувнар сўз очмоққа,
Ватан десам, юрак ғамга ботмагайдир.
Мустақиллик — Ватан бахти, азиз неъмат,
Ўзбекистон келажаги буюк давлат!

БОЛА

Ерга урса кўкка сапчир тили чиқмай,
Билганидан қолмаса гар сўзни уқмай.
Гоҳ елкада, гоҳ кўчада тиним билмай,
Ўжар, бебош, шўх бўлмайдди қайси бола,
Асли ҳар бир хонадоннинг файзи бола.
Ўрин бўлак, ўғил бўлсин, ё қиз бўлсин,
Ортингиздан қоладиган бир из бўлсин.
Гўдакларнинг шовқинидан ҳовли тўлсин,
Аввал бошдан ўзбек борки дарди бола,
Унинг учун бу ҳаётнинг қадри бола.
Ўзингиз ҳам бир эсланг-а ёшлигингиз,
Қани энди бир лаҳзага қайтса дейсиз,
Танбеҳ бериб фарзандингиз ғамин ейсиз,
Баъзан эса сиздан иззат кутар бола,
Ранжитсангиз гоҳо ичга ютар бола.
Эрка бўлса қулоғидан тортаверманг,
Елкасига вазифалар ортаверманг,
Ширин сўзни канда қилмай ҳеч аяманг,
Нафис гулдек нозик гунча бўлар бола,
Нима бўлса улғайгунча бўлар бола.
Нозик гунча бир кун гулга киражакдир,
Боғингизга бўй таратиб туражакдир,
Бу бўстонинг номи, дўстлар, келажакдир,
Келажакка нишонадир ҳар бир бола,
Сиздан қолар кошонадир ҳар бир бола.
Ерга урса кўкка сапчир тили чиқмай,
Билганидан қолмаса гар сўзни уқмай.
Гоҳ елкада, гоҳ кўчада тиним билмай,
Ўжар, бебош, шўх бўлмайдди қайси бола,
Асли ҳар бир хонадоннинг файзи бола

☉
М
Е
Н
И
Н
Г
●
Ю
Р
Т
И
М



ОРЗУ-ҲАВАС ҚИЛАР ИНСОН ФАРЗАНДИ ДЕБ

А
ҳ

а Бу ҳаётда кимлар ўқсир изим йўқ деб,
д Кимлар йиғлар шодон ўтган рўзим йўқ деб,
• Ҳеч ким айтмас, бу дунёдан кўнглим тўқ деб,
Қ Жонини ҳам аямайин дилбанди деб,
Орзу-ҳавас қилар инсон фарзанди деб.

А
Ю
М
●

Жигарбанди қайғусидан ғамга тўлиб,
Гар боласи шодон кулса бирга кулиб,
Гоҳо сувлар кечиб, гоҳо ўтда ёниб,
Жонини ҳам аямайин дилбанди деб,
Орзу-ҳавас қилар инсон фарзанди деб.

Қилганларим эрта бир кун қайтади деб,
Қадрим билиб, болам раҳмат айтади деб,
Эл ичида ўз ўрнини топади деб,
Жонини ҳам аямайин дилбанди деб,
Орзу-ҳавас қилар инсон фарзанди деб.

Фарзанд учун ота-она меҳрин бериб,
Меҳр ичра пинҳон бўлган сеҳрин бериб,
Юздан ошиб юрсам дейди бахтин кўриб,
Жонини ҳам аямайин дилбанди деб,
Орзу-ҳавас қилар инсон фарзанди деб.

Бу ҳаётда кимлар ўқсир изим йўқ деб,
Кимлар йиғлар шодон ўтган рўзим йўқ деб,
Ҳеч ким айтмас, бу дунёдан кўнглим тўқ деб,
Жонини ҳам аямайин дилбанди деб,
Орзу-ҳавас қилар инсон фарзанди деб.



УСТОЗИМ ШУ ХАЛҚ

Кўнгилдан таралса
Шеър, қўшиқ-наво,
Дилдан чиққан садо
Дилга боргайдир,
Мен бир жилгадирман
Ватан, сен — дарё,
Элдан чиққан садо
Элга боргайдир.
Мен тинглаган созим,
Овозим шу халқ,
Азиз она юртим,
Устозим шу халқ.

Она бўлиб бахтим
Тилаган диёр,
Ота бўлиб бошим
Силаган диёр,
Ҳаёт мактабимда
Муаллим ўзинг,
Ёруғ манзилларга
Йўллаган диёр.
Осмоним, қанотим,
Парвозим шу халқ,
Азиз она юртим,
Устозим шу халқ.

Сендан таълим олган
Не-не даҳолар,
Не-не донолару,
Ақли расолар,
Она бўлиб, аммо ўз
Фарзандидан
Вафолар кўрмаган
Гоҳи вафолар.
Дилимга дилдошим
Ҳамрозим шу халқ,
Азиз она юртим,
Устозим шу халқ.

●
М
Е
Н
И
Н
Г
●
Ю
Р
Т
И
М

А
х
а
д
•
Қ
А
Ю
М
●

Тупроғи зар, қадри
Азиз ўлкасан,
Жаннатмакон юртим,
Тенгсиз ўлкасан,
Майда туйғуларни
Ўчириб ёддан,
Буюк муҳаббатни
Ёқдинг дилга сан.
Елкамга елкадош
Чин дўстим шу халқ,
Азиз она юртим,
Устозим шу халқ.

Сени бир кўрмоққа
Кимлар зор, сенинг,
Толейинг нурафшон,
Бахтинг ёр сенинг,
Унутма лаббай деб
Хизматингга шай
Аҳад Қаюм деган
Ўғлинг бор сенинг.
Берди шоир деган
Лавозим шу халқ,
Азиз она юртим,
Устозим шу халқ.

Кўнгилдан таралса
Шеър, кўшиқ-наво,
Дилдан чиққан садо
Дилга боргайдир,
Мен бир жилғадирман,
Ватан, сен — дарё,
Элдан чиққан садо
Элга боргайдир.
Мен тинглаган созим,
Овозим шу халқ,
Азиз она юртим,
Устозим шу халқ.

ИЖОД МАШАҚҚАТЛИ ЙЎЛ

Ижод машаққатли йўл,
Кўпдир истеъдоддилар.
Кимдир нолиса нукул,
Кимгадир омад келар.

Адабиёт кенг даргоҳ,
Кўпдир янги вакиллар.
Эй дўст, сен халқингга боқ,
Озод эл нима истар.

Ёзувчию шоирлар,
Устозсиз пиру комил.
Бошланди янги давр,
Ижод машаққатли йўл...

ЯНГИ ЙИЛ

Мен сендан кўп нарса
Сўраганим йўқ,
Дилларга қувончу
Сурур олиб кел,
Кечаги кунимдан
Менинг кўнглим тўқ,
Эртага ҳам шундай
Бўлсин янги йил.

Эртага ҳам менга
Ҳамроҳ қил бахтни,
Доим бутун сақла
Дилдаги шахдни,
Дўсту ёр бузмасин
Ваъдаю аҳдни,
Янги умидларга
Тўлсин янги йил.

Юракларда армон
Қотиб қолмасин,
Дўстларим гафлатга

●
М
Е
Н
И
Н
Г
●
Ю
Р
Т
И
М

А
х
а
д
•
Қ
А
Ю
М
◎

Ботиб қолмасин,
Ким олисни кўзлар,
Асло толмасин,
Яхшиларнинг бахти
Кулсин янги йил.

Янги оқ қоғоздек
Тоза, беғубор,
Ер юзини қоплаб
Ёғди опшоқ қор,
Ям-яшил арчага
Бергину ифор,
Ёнида қорбобо
Турсин янги йил.

Сени энг интизор
Кутган болалар,
Эшикда совғалар
Кутган болалар,
Энди улфайганин
Унутган улар,
Қалби боладек соф
Юрсин янги йил.

Сен эса келасан
Кетаверасан,
Бошимдан бир силаб
Ўтаверасан,
Сехрли кўшиғинг
Айтаверасан,
Майли, ҳар гал шундай
Кирсин янги йил.

Мен сендан кўп нарса
Сўраганим йўқ,
Дилларга қувончу
Сурур олиб кел,
Кечаги кунимдан
Менинг кўнглим тўқ,
Эртага ҳам шундай
Бўлсин янги йил.

СЕН ПУЛНИНГ ҚУЛИ БЎЛМА

Биров кетидан юрма,
Ўзингнинг йўлинг бўлсин,
Сен пулнинг қули бўлма,
Пул сенинг қулинг бўлсин.

МАҲАЛЛАМ

Маҳалла тарбия
Ўчоғи азал,
Маҳалла урф-одат
Қучоғи азал,
Маҳалла оқибат
Чироғи азал,
Миллий қадриятга
Эшик маҳаллам,
Кўҳна маърифатга
Бешик маҳаллам!

Нурга тўла кундуз,
Кечаларимиз,
Файзин кўринг келиб
Кўчаларимиз,
Фарзандниҳолимиз,
Кўчатларимиз,
Ризқу барокатга
Эшик маҳаллам,
Ҳалол ҳаракатга
Бешик маҳаллам!

Ҳар битта хонадон
Аҳилдир, иноқ,
Қўшининг қўшнига
Меҳри кўп қайноқ,
Яхшилар ёнингда
Яхшидир қандоқ,
Меҳру саховатга

●

М

Е

Н

И

Н

Г

●

Ю

Р

Т

И

М

Эшик маҳаллам,
 Илму заковатга
 Бешик маҳаллам!

Отамдай азиздир
 Кекса оқсоқол,
 Онамдай азиздир
 Бунда ҳар аёл,
 Бирга жам, яқинлар,
 Қариндош, дўст, ёр,
 Катта жамиятга
 Эшик маҳаллам,
 Аҳил жамоатга
 Бешик маҳаллам!

Шундай тинч замонда
 Орзулар гуллар,
 Қариндош, жигарбанд,
 Яқиндир диллар,
 Пок, соф кўнгилларда
 Поклик туғилар,
 Қадру оқибатга
 Эшик маҳаллам,
 Номус, ориятга
 Бешик маҳаллам!

Аҳад Қаюм деган
 Исмини айтиб,
 Номимни юртимга
 Қўйдинг таратиб,
 Раҳмат, оламларга
 Бахтим яйратиб,
 Гўзал фазилатга
 Эшик маҳаллам,
 Кўҳна аслиятга
 Бешик маҳаллам!

НАВРЎЗ

Куёшли, нурафшон
Тонглар отганда,
Навбаҳор майсаси
Қўшиқ айтганда,
Хушҳаво боғларга
Кушлар қайтганда,
Бу йил бутун бўлсин
Деймиз ризқи рўз,
Бизни йўқлаб келса
Яна бир НАВРЎЗ!

Туну кун тинмайин
Шитирлар ёмғир,
Бизга неларнидир
Шивирлар ёмғир,
Ёқимли шамоллар
Эсганда фир-фир,
Олам уйғонганда
Кувнаб кетар кўз,
Бизни йўқлаб келса
Яна бир НАВРЎЗ!

Белида белбоғи
Эгнида чопон,
Ҳатто чўлларни ҳам
Қилгани бўстон,
Кўчат эк, кўкарсин,
Дер бободехқон,
Елкада кетмони
Ҳалолдир нон, туз,
Дейди: Кут-барака
Келтирсин НАВРЎЗ!



М

Е

Н

И

Н

Г

•

Ю

Р

Т

И

М

А

ҳ

а

Баҳорни тўлдириб
Ўйнар капалак,
Бир зум ёмғир ёғса,
Яна камалак,

д

•

Қ

А

Ю

Дошқозонда тинмай
Қайнар сумалак,
Шоирлар шодлигин
Айтсам тил ожиз,
Илҳомлар мавсумин
Бошлайди НАВРЎЗ!

М

◎

Кўнгилни сеҳрлаб
Сал ғойибона,
Тиллардан учган ҳар
Сўз шоирона,
Ҳофизлар ҳам куйлаб
Қўшиқ тарона,
Кутлашар башарни
Қўлларида соз,
Дейдилар: Бу йил тўй
Кўпайсин, НАВРЎЗ!

Қуёшли, нурафшон
Тонглар отганда,
Навбаҳор майсаси
Қўшиқ айтганда,
Хушҳаво боғларга
Қушлар қайтганда,
Бу йил бутун бўлсин
Деймиз ризқи рўз,
Бизни йўқлаб келса
Яна бир НАВРЎЗ!



БАЙРАМ ТАБРИГИ

Кутлуғ айём арафасида,
Бахту қувонч муштарак бўлсин,
Янги куннинг сарлавҳасида,
Байрамингиз муборак бўлсин!

Дил сўзларим қабул эт, юртим,
Ниятингга мудом ет, юртим,
Синовлардан омон ўт, юртим,
Байрамингиз муборак бўлсин!

Бошга толе, бахт қуши қўнсин,
Ёш авлодлар улғайсин, унсин,
Яхшиларнинг омади қулсин,
Байрамингиз муборак бўлсин!

Дарду ғамдан йироқ юрингиз,
Тинч, осуда даврон сурингиз,
Хушнуд дамни кўпин кўрингиз,
Байрамингиз муборак бўлсин!

Бу кун сизга тилак тиладим,
Яшаб толмас юрак тиладим,
Табригимни дилдан йўладим,
Байрамингиз муборак бўлсин!



М
Е
Н
И
Н
Г
•
Ю
Р
Т
И
М

А
х
а
д
•
Қ
А
Ю
М
●

СҮНГГИ ҚҰНҒИРОҚ

Ўтиб кетди, болалик ҳам
Илк муҳаббат ҳам,
Йўлингни жим кузатгайман
Кўзларимда нам,
Дилим титрар синфдош қиз
Сени эсласам,
Ўхшардик биз бир жуфт
Қушга синфдош,
Энди йўлларимиз
Бошқа синфдош.

Бизга зафар тила,
Хайр, мактабим,
Янги сафар тила
Хайр, мактабим,
Омон бўл, болалик,
Сайр, мактабим,
Улғайдик яна бир
Ёшга синфдош,
Энди йўлларимиз
Бошқа синфдош.

Чалинди яна бир
Сўнгги қўнғироқ,
Эртага биз бундан
Кетгаймиз йироқ,
Азиз устозларни
Унутма бироқ,
Улғайдик яна бир
Ёшга синфдош,
Энди йўлларимиз
Бошқа синфдош.

Бахт омад ёр бўлсин
Қайда бўлсак ҳам,
Шу диёрдан олис
Жойда бўлсак ҳам,
Қанча йиғласак ҳам,
Қанча кулсак ҳам,
Улғайдик яна бир
Ёшга синфдош,
Энди йўлларимиз
Бошқа синфдош.

Билимлар мағзини
Чақиб, уқингиз,
Билмаганингизни
Топиб ўқингиз,
Энг баланд чўққилар
Сизнинг чўққингиз,
Улғайдик яна бир
Ёшга синфдош,
Энди йўлларимиз
Бошқа синфдош.

Учраган тўсиқдан
Чўчиманг асло,
Ҳеч ким бузолмаган
Бўлса ҳам ҳатто,
Ёддан чиқармангиз
Дўстларни аммо,
Улғайдик яна бир
Ёшга синфдош,
Энди йўлларимиз
Бошқа синфдош.

Бизга зафар тила,
Хайр, мактабим...

●

М

Е

Н

И

Н

Г

●

Ю

Р

Т

И

М

А
ҳ
а
д
•
Қ
А
Ю
М
◎

МЕНИНГ КОЛЛЕЖИМ

Мустақил Ватанда
Ёруғ келажак,
Баркамол авлодни
Ёшлар қуражак,
Юртнинг устунимиз
Бизлар бўлажак,
Илм пойдевори —
Менинг Коллежим,
Билим харидори —
Менинг коллежим.

Илму фан ўчоғи,
Билим кучоғи,
Ёруғ манзил сари
Устоз сабоғи,
Зукко талабага
Китоб офтоби,
Ватан ифтихори
Менинг коллежим,
Миллат номус-ори
Менинг коллежим.

Озод бу диёрда
Озод қушлармиз,
Юрт хизматиға шай
Номзод ёшлармиз,
Янги манзилларга
Элни бошлармиз,
Истиқлол ниҳоли
Менинг коллежим,
Келажак иқболи
Менинг коллежим.

Шу ерда бошланар
Касбу ҳунарим,
Ҳаётим эртасин
Безаган зарим,
Шу ерда бошланар
Бу умр йўлим,
Билимлар майдони
Менинг коллежим,
Озод юрт айвони
Менинг коллежим...

Мустақил Ватанда
Ёруғ келажак,
Баркамол авлодни
Ёшлар қуражак,
Юртнинг устунимиз
Бизлар бўлажак,
Илм пойдевори
Менинг коллежим,
Билим харидори
Менинг коллежим.



М

Е

Н

И

Н

Г



Ю

Р

Т

И

М

А
ҳ
а
д
•
Қ
А
Ю
М
◎

МАКТАБ

Умр карвонига
Илк тетапоя,
Нурли манзилларга
Илк зинапоя,
Сендадир ҳар доим
Ҳаётнинг боши,
Сендадир тафаккур
Келажак, гоя,
Илм хазинаси
Дурдона мактаб,
Юксак чўққиларга
Остона мактаб...

Бизни яхшиликка
Қаратган устоз,
Қалбимизга меҳр
Таратган устоз,
Бир умр сўзингиз
Ёдда тутгаймиз,
Азизсиз, минг билим
Ўргатган устоз.
Келажак авлодга
Кошона мактаб,
Билимга пойдевор
Ягона мактаб.

Сен илк бор тутқаздинг
Қалам, дафтарни,
Танитдинг зиёдан
Дуру гавҳарни,
Кўнглимни ёритиб
Нурафшон этдинг,
Ўргатдинг шеър нима,
Назм, ғазални.

Китоб ўқимасга
Бегона мактаб,

Ишѣқмас болага
Ғамхона мактаб.

Тингла Аҳад Қажум
Сўзин, эй гўдак,
Танигин оламнинг
Юзин, эй гўдак,
Ҳаёт нодонбозор,
Ғирром майдонмас,
Танлагин буюклар.
Изин, эй гўдак,
Бир эрмак ўйинчоқ
Нодонга мактаб,
Донони кўтарар
Осмонга мактаб.

Умр карвонига
Илк тетапоя,
Нурли манзилларга
Илк зинапоя,
Сендадир ҳар доим
Ҳаётнинг боши,
Сендадир тафаккур
Келажак, ғоя,
Илм хазинаси
Дурдона мактаб,
Юксак чўққиларга
Остона мактаб.



◎

М

Е

Н

И

Н

Г

•

Ю

Р

Т

И

М

А

ҳ

а

д

•

Қ

А

Ю

М

⑥

ТАЛАБАЛИК

Талабалик олтин

Давр дейдилар,
Кимга насиб қилар,
Кимга эса йўқ.
Кимлардир бу номни
Қадрин билдилар,
Кимлардир бу номга
Келтирдилар доғ.
Ёруғ келажакка
Шаҳд талабалик
Умрнинг гул даври
Бахт талабалик.

Мустақил Ватанда
Азиздир инсон,
Озод юрт овози
Кўкларни тутгай,
Эй, талаба дўстим,
Сени ушбу он,
Энг юксак чўққилар
Олдинда кутгай,
Инсон учун омад
Нақд талабалик,
Юксак чўққиларга
Аҳд талабалик.

Кимдир бошлар
Ҳаёт остонасини,
Кимдир бошлар
Севги афсонасини,
Ўзбекнинг кимлигин
Танитинг элга,
Яшнатинг ҳар
Илм кошонасини.

Комил кўнгилларга
Мос талабалик,
Илм интилганга
Хос талабалик...

Келажакнинг
Эгалари ўзингиз,
Баҳор каби яшнар
Қошу кўзингиз,
Аждодларинг
Қаторига кўшилинг,
Янги аср буюқларин
Тизингиз,
Билимсизлик томон
Қасд талабалик,
Илм соҳибига
Дўст талабалик.

Талабалик олтин
Давр дейдилар,
Кимга насиб қилар,
Кимга эса йўқ,
Кимлардир бу номни
Қадрин билдилар,
Кимлардир бу номга
Келтирдилар доғ,
Ёруғ келажакка
Шаҳд талабалик,
Умрнинг гул даври
Бахт талабалик.



◎

М

Е

Н

И

Н

Г

●

Ю

Р

Т

И

М

А

БИЗНИНГ КОНСТИТУЦИЯ

Ҳ

Энг сара қонунлардан,

а

Қомусим — офтобрўя,

д

Ёзилган тилла ҳарфдан,

БИЗНИНГ КОНСТИТУЦИЯ!

•

Қ

Беринг бир аҳамият,

А

Жамдир давлат, жамият,

Ю

Ҳар модда юксакният,

БИЗНИНГ КОНСТИТУЦИЯ!

М

Саккизинчи декабр,

◎

Доим қилингай қадр,

Озод Ватан ҳақдадир,

БИЗНИНГ КОНСТИТУЦИЯ!

Байроқ нима, герб нима,

Ватан нима, юрт нима,

Сўра ундан тортинма,

БИЗНИНГ КОНСТИТУЦИЯ!

Бизнинг конституция!

Ҳар юракка бўлсин жо,

Шундай озод Ватанда,

Тинчлик сўнмасин асло.

Спортми ё санъатми,

Фан ё маданиятми,

Жамлар маънавиятни,

БИЗНИНГ КОНСТИТУЦИЯ!

Мустақиллик неъматдир,

Қадрин билган Аҳаддир,

Уқиб-ўргансанг бахтдир,

БИЗНИНГ КОНСТИТУЦИЯ!

Энг сара қонунлардан,

Қомусим-офтобрўя,

Ёзилган тилла ҳарфдан,

БИЗНИНГ КОНСТИТУЦИЯ!

ТЕМИРЙЎЛЧИЛАР

Ватан хизмати деб,
Билмай ҳаловат,
Борсин деб манзилга
Инсон саломат,
Кўрсатгали,
Матонату жасорат,
Қанча узоқларни
Яқин йўл қилар,
БИЗНИНГ ТЕМИРЙЎЛЛАР,
ТЕМИРЙЎЛЧИЛАР.

Юртни ўйламоққа
Буюк дил керак,
Тоғдай сабр керак,
Темир қўл керак,
Юртга қон томирдек
Темирйўл керак.
Ёруғ келажакка
Ишора булар,
БИЗНИНГ ТЕМИРЙЎЛЛАР,
ТЕМИРЙЎЛЧИЛАР.

Фаниминг сўзига
Тескари бориб,
Бутун Осиёни
Ҳайратга солиб,
Учар поездларинг
Келтириволиб,
Сўзин исботлаган,
Сўзида турар,
БИЗНИНГ ТЕМИРЙЎЛЛАР,
ТЕМИРЙЎЛЧИЛАР.

●
М
Е
Н
И
Н
Г
●
Ю
Р
Т
И
М

А
х
а
—
д
•
Қ
А
Ю
М
●

Эй дўстим, бу томон
Назар сол бугун,
Ўзбекнинг шаҳидан
Дунё-лол-бугун.

Шижоатда ким бор
Бизлардан устун,
Яхшилик истайди,
Яхшилик тилар,
**БИЗНИНГ ТЕМИРЙЎЛЛАР,
ТЕМИРЙЎЛЧИЛАР.**

Бойсуну Қумқўрғон
Бир томон бўлса,
Афгон томондан ҳам
Раҳматлар келса,
Ҳатто ер остида
Манзиллар курса,
Янги асримизда
Янгича кунлар,
**БИЗНИНГ ТЕМИРЙЎЛЛАР,
ТЕМИРЙЎЛЧИЛАР.**

Йўли порлоқ бўлсин,
Карвони буюк,
Ниятлари буюк,
Сарбони буюк,
Тупроғи буюқдир,
Осмони буюк,
Моҳир чавандоздек
Отин чоптирар,
**БИЗНИНГ ТЕМИРЙЎЛЛАР,
ТЕМИРЙЎЛЧИЛАР.**



СПОРТ СОҒЛИК ГАРОВИДИР

Спорт соғлик гаровидир,
Бунда ҳар дард шифо топгай,
Ким соғликни қилса қадр,
Албат бир кун бахти чопгай.

Спорт соғлик гаровидир,
Соғлом танда соғ ақл дер,
Спорт билан бахтинг тўлдир,
Ишқмаслик ёмон ахир.

Ёруғ келажак учун,
Соғлом авлодлар керак,
Спорт соғликка устун,
Шуни истайди юрак.

Дори-дармон, шифохона,
Томон боргинг келмаса сен,
Ҳаракатда бўлгин яна,
Спорт соғликка устун.

Спорт соғлик гаровидир,
Бизнинг шиор, бизнинг шиор,
Шундан толе, бахтинг қидир,
Бўлмай десанг сен бемор!



М
Е
Н
И
Н
Г
•
Ю
Р
Т
И
М

А
ҳ
а
д
●
Қ
А
Ю
М
◎

ИШБИЛАРМОН ТАДБИРКОР

Юрт таянчидир, дўстлар,
Иқтисод, ҳисоб, бозор,
Ҳалолликдан қад ростлар,
ИШБИЛАРМОН ТАДБИРКОР!

Элнинг фойдасин излар,
Қайда талаб харидор,
Ватан равнақин кўзлар,
ИШБИЛАРМОН ТАДБИРКОР!

Қайда бор каму кўстлар,
Унда илм иқтидор,
Қулайлик томон мослар,
ИШБИЛАРМОН ТАДБИРКОР!

Эл корига мададкор,
Яхшиликка жонбозлар,
Ҳар мақтовга сазовор,
ИШБИЛАРМОН ТАДБИРКОР!

НАВОЙНИ БИЛМАГАН ОДАМ

Навоийни билмаган одам,
Ўқиб таҳлил қилмаган одам,
Ўзбекман деб яшаб юрибди,
Ҳали одам бўлмаган одам.

Навоийни билмаган одам,
Отасини билмагандай гап.
Ёзиб туриб ўзбек тилида,
Билмагандай худди бирор ҳарф.

ВАСИЯТ

Отангдан, онангдан
Олгин насиҳат.
Тирик жон, бугун бор,
Эрта фанимат.
Кексалар ўгити
Билсанг аслида,
Насиҳат эмасдир
Балки васият.

ДУШАНБАДАН ЯКШАНБАГАЧА

Ҳаётимни чамалаб кўрдим,
Қилинмаган ишларим қанча.
Кунларимни режалаб қўйдим,
ДУШАНБАДАН ЯКШАНБАГАЧА.

Ҳисоб билмас жайдари эдим,
Ўзни вақтнинг измига бердим,
Бир юракни еттига бўлдим,
ДУШАНБАДАН ЯКШАНБАГАЧА.

Бир жонимга етмишта мезон,
Нега вақтга бўйсунар инсон,
Кунлар, ойлар, йиллар қилди қон,
ДУШАНБАДАН ЯКШАНБАГАЧА.

Кимлардир шод, кимлардир хафа,
Бир зум тинмай айланар ҳафта,
Дардга тўлди бу умр дафтар,
ДУШАНБАДАН ЯКШАНБАГАЧА.

Душанбада дилга тўлар шаҳд,
Сешанбада гўё омад нақд,
Чоршанбада топганингда бахт,
Пайшанбада сарф этишдан қайт,

⑤

М

Е

Н

И

Н

Г

●

Ю

Р

Т

И

М

А
ҳ
а
д
•
Қ
А
Ю
М
●

Жума айтар бўлди энди вақт,
Эрта шанба, дам ол бир муддат,
Якшанбада охирги муҳлат,
ДУШАНБАДАН ЯКШАНБАГАЧА.

МУСТАҚИЛЛИК АБАДИЙ БЎЛСИН

Ўзбекистон бахтидан кулсин,
Юртим доим қувончга тўлсин,
Она халқим истаги шудир,
МУСТАҚИЛЛИК АБАДИЙ БЎЛСИН!

Бунга етмоқ осон бўлмади,
Ёруғ кунлар армон бўлмади,
Зимдан туриб кимлар кулмади,
МУСТАҚИЛЛИК АБАДИЙ БЎЛСИН!

МУСТАҚИЛЛИК АБАДИЙ БЎЛСИН!
Миллат учун, шу тупроқ учун,
Бутун дунё бизларни билсин,
Билсин яна ўзбекнинг кучин!

Пойижаннат онамсиз бизнинг,
Аямангиз дуойингизни,
Ота, очинг қўлларингизни,
МУСТАҚИЛЛИК АБАДИЙ БЎЛСИН!

Оҳ, бекафан кетганлар ҳаққи,
Роҳат топмай ўтганлар ҳаққи,
Энг зўр бўлсин шу ўзбек халқи,
МУСТАҚИЛЛИК АБАДИЙ БЎЛСИН!

Деманг, Аҳад сенга не ташвиш,
Ватан учун жонни офритиш,
Душман зоти олсину қарғиш,
МУСТАҚИЛЛИК АБАДИЙ БЎЛСИН!

ЎЗБЕКИСТОН МУҚАДДАС ЗАМИН

Яшанг дўстлар сезиб бахт таъмин,
Унутингиз кўнгилнинг ғамин,
Баланд тутинг юртнинг байроғин,
ЎЗБЕКИСТОН МУҚАДДАС ЗАМИН!

Ватан сўзин англар бу миллат,
Дунё ғамин тинглар бу миллат,
Сози баланд янграр бу миллат,
ЎЗБЕКИСТОН МУҚАДДАС ЗАМИН!

Суви олтин, тупроғи олтин,
Қиёси йўқ меҳрибон халқин,
Кўринг бугун ўзбекнинг бахтин,
ЎЗБЕКИСТОН МУҚАДДАС ЗАМИН!

Сўзларимни тингла, эй ғаним,
Ватан буюк билганим маним,
Ўзбек яна кўтарди қадрин,
ЎЗБЕКИСТОН МУҚАДДАС ЗАМИН!

Шундай экан, нега куйламай,
Келажагин нега ўйламай,
Дардларини нега тингламай,
ЎЗБЕКИСТОН МУҚАДДАС ЗАМИН!

Аҳад Қаяом қадди баланддир,
Ижод билан туну кун банддир,
Юрт меҳрига қалби пайванддир,
ЎЗБЕКИСТОН МУҚАДДАС ЗАМИН!

Яшанг дўстлар сезиб бахт таъмин,
Унутингиз кўнгилнинг ғамин...



М

Е

Н

И

Н

Г



Ю

Р

Т

И

М

А

БИЗДАН ОБОД ВАТАН ҚОЛСИН

ҳ

Келажакнинг авлодлари — Сиз,
Ишончисиз Ўзбекистоннинг.

а

д

Мустақиллик номзодлари — Сиз,
Таянчисиз Ўзбекистоннинг.

•

Қ

Навойнинг зурёдлари — Сиз,
Суянчисиз Ўзбекистоннинг.

А

**БИЗДАН ОЗОД ВАТАН ҚОЛСИН,
БИЗДАН ОБОД ВАТАН ҚОЛСИН!**

Ю

М

◎

Ўзга элда шоҳ бўлгунча,
Ўз элингда гадо бўл дер,
Юрт номини доғ қилгунча,
Жонни юртга фидо қил дер.
Бешигингни хор қилгунча,
Остонагни тилло қил дер.
**БИЗДАН ОЗОД ВАТАН ҚОЛСИН,
БИЗДАН ОБОД ВАТАН ҚОЛСИН!**

Йигирма биринчи аср,
Бизнинг асримиз бўлсин,
Шу миллат топиб қадр,
Дайрасин, ўйнаб кулсин,
Ўзбек деган гўзал эл,
Балолардан қутулсин,
**БИЗДАН ОЗОД ВАТАН ҚОЛСИН,
БИЗДАН ОБОД ВАТАН ҚОЛСИН!**

Аҳад сўзлар алам билан,
Нола айлар қалам билан,
Ким бахтимиз кўролмаса,
Ифво қилмай юролмаса,
Ўйнашмасин нолам билан,
Кўзимдаги жолам билан,
**БИЗДАН ОЗОД ВАТАН ҚОЛСИН,
БИЗДАН ОБОД ВАТАН ҚОЛСИН!**

ЮРТ БОЙЛИГИ

Ўзбекистон — эй жаннат диёр,
Сенда униб-ўсдик бахтиёр,
Тупроғингни кўзга сургаймиз,
Ватан меҳри чунки бизда бор.
БОБОДЕҲҚОН, ПАХТА ВА ДАЛА,
ЮРТ БОЙЛИГИ, БУ — ХИРМОН, ҒАЛЛА!

Бир парча нон қўлга етгунча,
Эгатларда тонг оттирган сен.
Таъзим, бошим ерга теккунча,
Қуёшни ҳам уйғонтирган сен.
БОБОДЕҲҚОН, ПАХТА ВА ДАЛА,
ЮРТ БОЙЛИГИ, БУ — ХИРМОН, ҒАЛЛА!

Мустақил юрт байроғи баланд,
Бизнинг диёр жаннатга пайванд,
Бошинг энди сен баланд тутгин,
Эл деб жонин берган, эй фарзанд.
БОБОДЕҲҚОН, ПАХТА ВА ДАЛА,
ЮРТ БОЙЛИГИ, БУ — ХИРМОН, ҒАЛЛА!

Ўзи гоҳи яланғоч қолиб,
Дунёларни кийинтирган эл.
Фидойилик мақомин олиб,
Яхшиликка боғлагансан бел.
БОБОДЕҲҚОН, ПАХТА ВА ДАЛА,
ЮРТ БОЙЛИГИ, БУ — ХИРМОН, ҒАЛЛА!

Қалам тутиб Аҳад Қаюмга,
Дединг, бизни куйла, мадҳингга
Файзи нурлар солгандир ўзи,
Яратганим сенинг, қалбингга.
БОБОДЕҲҚОН ПАХТА ВА ДАЛА,
ЮРТ БОЙЛИГИ, БУ — ХИРМОН, ҒАЛЛА!

●

М

Е

Н

И

Н

Г

●

Ю

Р

Т

И

М

А

Ҳ

а

д

•

Қ

А

Ю

М

●

ТУҒИЛГАН КУН...

Йилда бир марта
Нишонланса ҳам,
Қалбингда пинҳона
Ўқийди афсун.
Оламнинг қувончи
Гўё шунда жам,
Бир умр эсланар кун
Туғилган кун.

Бу кунда улғайиб
Яна бир ёшга,
Бир зум хотиралар
Айланар бошга.
Ўксинманг кўриб оқ
Тушганин сочга,
Ёшликни эсланар кун
Туғилган кун.

Кимлар учун бу кун
Байрамдек татир,
Юракларни чертиб
Қайта уйғотар,
Гўё бир маҳалда
Бахт тонги отар,
Шодликдан сўзланар кун
Туғилган кун.

Яқинларинг келиб
Дилга ўт ёқса,
Кўнглингга ўзгача
Оҳанглар оқса.
Қадри билингайдир
Олисдан боқса,
Гоҳ кўмсаб изланар кун
Туғилган кун.

Қанча яқин келса
Шунча кўп кутиб,
Дарду ғамларни ҳам
Бироз унутиб.
Дийдорнинг энг соҳир
Таъмидан тотиб,
Юракдан розланар кун
Туғилган кун.

Атрофдан ёғилса
Совғаю табрик,
Аҳаддан бўлсин шу
Сизга эсдалик.
Ҳаётингиз ўтсин
Бир камсиз бутун,
Яхшилик кўзланар кун
Туғилган кун.

Йилида бир марта
Нишонланса ҳам,
Қалбингда пинҳона
Ўқийди афсун.
Оламнинг қувончи
Гўё шунда жам,
Бир умр эсланар кун
Туғилган кун.

ИЖОД БУ...

Ижод бу қалбимнинг қайғуси эрур,
Ижод бу дардимнинг кўзгуси эрур,
Минг йиллик музларнинг жилғаси Аҳад,
Денгизга айланмоқ орзуси эрур.

●

М

Е

Н

И

Н

Г

●

Ю

Р

Т

И

М

А САККИЗИНЧИ МАРТ БАЙРАМИДА

Ҳ

Қўшиқ айтманг шамолларга сиз,

а

Юз тутманг ҳеч заволларга сиз,

д

Бахт улашинг аёлларга сиз,

•

Ширин сўзлар айтинг камида.

САККИЗИНЧИ МАРТ БАЙРАМИДА!

Қ

Тингланг кўнгил хитобларини,

А

Очинг тарих китобларини,

Ю

Кўринг аёл шитобларини,

М

Лаззат бўлинг ҳаёт шамида,

•

САККИЗИНЧИ МАРТ БАЙРАМИДА!

Аритманг ҳеч лабда кулгини,

Юрак севар бундай туйғуни,

Олинг, дўстлар, қўлга чолғуни,

Нур таратинг умр шамида,

САККИЗИНЧИ МАРТ БАЙРАМИДА!

Йироқ кетсанг, зор кутган улар,

Азоб чекиб, дард ютган улар,

Сиз деб ўзин унутган улар,

Май тутайлик бир ишқ жомида,

САККИЗИНЧИ МАРТ БАЙРАМИДА!

БОҒБОН КЎПАЙДИ

Орзуни кўп қилдим, армон кўпайди,

Маслаҳат ош қилдим, нодон кўпайди.

Ер очдим, сув келди, кейин боғ бўлди,

Мевага кирганда боғбон кўпайди.

ЯНГИ ҲАЁТ КОШОНАСИ ҚУТЛУҒ КЕЛСИН

Дуо қилинг, ҳар яхшининг бахти кулсин,
Эшигидан яқинлари йўқлаб турсин,
Сурур тўлсин кўзларида,
Шукр бўлсин сўзларида,
Худо берган толе уйин асрай билсин.
Бахт қасрининг остонаси қутлуғ келсин,
ЯНГИ ҲАЁТ КОШОНАСИ ҚУТЛУҒ
КЕЛСИН.

Қоқилмасин ўзи чопган майдонида,
Кора булут бўлмасин ҳеч осмонида,
Ҳеч ким йўлин тўсолмасин,
Шиддатини кесолмасин,
Камида тоғ шаҳди бўлсин имконида,
Толеида ёнган чироғ тўлиқ келсин,
ЯНГИ ҲАЁТ КОШОНАСИ ҚУТЛУҒ
КЕЛСИН.

Умри талош бўлмасин ҳеч саробларга,
Дил бермасин асли ёлғон хитобларга,
Сабр енгсин кайғуларин,
Тоза тутсин туйғуларин,
Қалби кўчсин қадри асрий китобларга,
Эл олдида пешонаси ёруғ бўлсин,
ЯНГИ ҲАЁТ КОШОНАСИ ҚУТЛУҒ
КЕЛСИН.

Яхшиларнинг кўзларида бўлмасин нам,
Ўтмасинким бу дунёдан ҳеч бири кам,
Шундай фараҳ онларида,
Жон булайлик жонларида,
Эсласалар гоҳо Аҳад шоирни ҳам,
Окибатли дўстнинг ўрни улуғ бўлсин,
ЯНГИ ҲАЁТ КОШОНАСИ ҚУТЛУҒ
КЕЛСИН.

●

М

Е

Н

И

Н

Г

●

Ю

Р

Т

И

М

А
ҳ
а
д
•
Қ
А
Ю
М
●

САНЪАТИМ

Ноласи оламни
Қучган санъатим,
Элнинг дарду гами
Қўчган санъатим,
Қўнгил осмонида
Учган санъатим,
Дунё баҳрида юз
Очган санъатим,
Дилларга ўз меҳрин
Сочган санъатим!

Санъатим, кимларни
Қилолдинг буюк,
Санъатим, ўзингсан
Эл ичра суюк,
Санъатим, фифонинг
Бунча ҳам куюк,
Дилларга ўз меҳрин
Сочган санъатим,
Ноласи оламни
Қучган санъатим!

Сен билан қалбимнинг
Овози туташ,
Ундаги оққушлар
Парвози туташ,
Юрак чалаётган тор,
Сози туташ
Энг соф чашмадан сув
Ичган санъатим,
Дунё баҳрида юз
Очган санъатим!

Гоҳ миллат оҳининг
Бир саси бўлдинг,
Армонидан сўйлаб
Нафаси бўлдинг,
Сенга интиланнинг
Ҳаваси бўлдинг,
Мудом яхшиликка
Шошган санъатим,
Дилларга ўз меҳрин
Сочган санъатим!

Санъатим, сенинг сас,
Садойинг менман,
Санъатим, йўлингда
Адойинг менман,
Санъатим, санъатим
Фидойинг менман,
Ноласи оламини
Кучган санъатим!
Элнинг дарду ғами
Кўчган санъатим!

Ноласи оламини
Кучган санъатим,
Элнинг дарду ғами
Кўчган санъатим,
Кўнгил осмонида
Учган санъатим,
Дунё баҳрида юз
Очган санъатим,
Дилларга ўз меҳрин
Сочган санъатим!



М

Е

Н

И

Н

Г



Ю

Р

Т

И

М

А

ДУБЛЯЖ САНЪАТИ

ҳ

Хорижий бир фильм актёридан

а

Сезамиз нимадир, ичида дарди,

д

Ва хурсанд бўламиз дубляж боридан,

•

Санъатда энг қийин

Қ

Дубляж санъати!

А

Бадиий фильм ё хужжатли фильм,

Ю

Битта микрофонда дунёнинг қалби,

М

Овоз усталарин нафаси олтин,

●

Санъатда энг қийин

Дубляж санъати!

Йигирманчи аср ўзбек дубляжи,

Ҳаттоки дунёга довуғ таратди,

Эски киноларнинг бошқача гашти,

Санъатда энг қийин

Дубляж санъати!

Ҳамза Умаровдан тортиб бу йўлда,

Афзал Рафиқовнинг кўпдир хизмати,

Буларнинг овози ўн минглаб ролда,

Санъатда энг қийин

Дубляж санъати!

Жуда оғир деймиз театр, кино,

Деймиз актёрнинг борми таланти,

Тўғри-ку, очигин тан олинг аммо,

Санъатда энг қийин

Дубляж санъати!

Хорижий бир фильм актёридан

Сезамиз нимадир, ичида дарди,

Ва хурсанд бўламиз дубляж боридан,

Санъатда энг қийин

Дубляж санъати!

КИМ ҮЙЛАЙДИ БУ ВАТАННИ

Элнинг асрий дардларини биз сўйламасак,
Ҳасратларин, нолаларин биз куйламасак,
Ўз жонини асрар сотқин ўзга диёрда,
Ким ўйлайди бу Ватанни биз ўйламасак!

Шу юртнинг нон тузини еб тупурди кимлар,
Оддий халқнинг номидан деб гапирди кимлар,
Бир ғов келса ўз айбини яширди кимлар,
Ким кўтарар бу Ватанни биз кўтармасак!

Ҳар бир жойнинг ўз тошию тарозиси бор,
Бу ёшларнинг, келажакнинг ўз орзуси бор,
Юрагида киммиз деган бир туйғуси бор,
Ким англайди бу Ватанни биз англамасак!

Бир кун келиб оғир, енгил кунлар ўтади,
Бу Ватан ҳам манзилига омон етади,
Келажакнинг чўққиларин маҳкам тутуди,
Ким ярайди бу Ватанга биз ярамасак!

Шукр дейман келажакка садоларинг бор,
Яхши-ёмон кунларингда фидоларинг бор,
Жилғалари тоза бўлган дарёларинг бор,
Ким тинглайди бу Ватанни биз тингламасак!

Бу шавкату шонингга кўз тикканлар қанча,
Дўстингман деб молингга кўз тикканлар қанча,
Ханжар тутиб жонингга кўз тикканлар қанча,
Ким асрайди бу Ватанни биз асрамасак!

Устимиздан отлар солиб янчиб кетдилар,
Боболарим қабрин хокин сочиб кетдилар,
Кимсан, деган эди тарих, қочиб кетдилар,
Ким ўнглайди бу Ватанни биз ўнгламасак!

●

М

Е

Н

И

Н

Г

●

Ю

Р

Т

И

М

А Кимдир сенга кўлин чўзса манфаат билан,
ҳ Яхшиликлар қилмоқ бўлса бир миннат билан,
а Ҳар ерларда вайсайверса ҳар иллат билан,
д Ким мақтайди бу Ватанни биз мақтамасак!

• Қадринг бордир, ўзингники, тонгларинг ёруғ,
Қ Яхшиларга бахт улашган кунларинг ёруғ,
А Юлдузларинг, ойларинг бор тунларинг ёруғ,
Ким кўкараб бу Ватанда биз кўкармасак!

Ю Ҳар бир кунни, ҳар бир тонгни ғанимат
М билинг,

• Тинчликни, хотиржамликни бир неъмат
билинг,

Истасангиз инсон зотин бир миллат билинг,
Ким юксалар бу Ватанда биз юксалмасак!

Жаҳонаро бугун яна ўрнимиз бордир,
Ўзимизнинг байроғимиз, гербимиз бордир,
Ҳеч ерда йўқ меҳнатсевар элимиз бордир,
Ким яйрайди бу Ватанда биз яйрамасак!

Тиклайлик-да бугун яна Темурийларни,
Асли қайдан билсин ҳамма Бобурийларни,
Руҳларини шод этайлик Навоийларни,
Ким тиклайди бу Ватанни биз тикламасак!

“Дил ба ёру, даст ба кор”ни айтгани учун,
Нақшбандий қадри яна қайтгани учун,
Бухорийю, Термизийлар ётгани учун,
Ким яшайди бу Ватанда биз яшамасак!

Шу Ватан деб фидо бўлган бағри куюкка,
Жангларида қалқон бўлган кўкси уюққа,
Жалолиддин жони қурбон шундай буюкка,
Ким ўхшайди бу Ватанда биз ўхшамасак!

Шу юрт ичра номи улуғ азизларинг бор,
Илҳом сиғмас шоирлару ҳофизларинг бор,
Қувват бергин, номдору, номсизларинг бор,
Ким куюнар бу Ватанга биз куюнмасак!

Яхшиларнинг қаторида сафим бўлса гар,
Халқим учун бахтиёрман нафим бўлса гар,
Аҳад толмас хизматингдан умрим бўлса гар,
Ким суянар бу Ватанга биз суянмасак!

ЧАРЧАДИМ

Чарчадим...

Қайтадан бошланмас умр,
Япроқдай ҳилпираб турибди жоним,
Соғиндим
Бахт қасрин остонасини,
Пушаймонда ўтар наҳот ҳар оним.

Ёшлик. Баҳор эдинг,
Гоҳ чақмоқ, ёмғир,
Қайдан кутилмаган момоқалдироқ.
Ўйласам баъзи бир хатоларимни,
Қалтироқ босади дилни қалтироқ...



●
М
Е
Н
И
Н
Г
●
Ю
Р
Т
И
М

А
Ҳ
а
д
●
Қ
А
Ю
М
◎

ДУНЁДА ЭНГ ГЎЗАЛ АЁЛ КИМ

Дунёда энг гўзал аёл ким?
У сингил, у опа, у она, у ёр.
Дунёда энг гўзал аёл ким?
Сендан-да кўп сенга вафодор.

Дунёда энг гўзал аёл ким?
Ошпоқ тонгда нурдай беғубор.
Дунёда энг гўзал аёл ким?
Гул яшнатар дилни гулрухсор.

Дунёда энг гўзал аёл ким?
Фаришталар унга харидор.
Дунёда энг гўзал аёл ким?
Ҳар қандай мақтовга сазовор.

Дунёда энг гўзал аёл ким?
Гўзалликда қалби бетакрор.
Дунёда энг гўзал аёл ким?
Дарди билан яшар бахтиёр.

Дунёда энг гўзал аёл ким?
Мақтовларни айлайди инкор.
Дунёда энг гўзал аёл ким?
Эргашади ортидан баҳор...

Аҳад Қаюм таъриф айлаган,
Дунёда энг гўзал аёл ким?
Отам умрин ёруғ айлаган
Ўзингдирсан, эй онажоним!!!



ДУЊЕДА ЭНГ АЗИЗ СИЙМОДИР АЁЛ

Кўрку нафосатин
Таърифлаш маҳол,
Гўзаллик, покликка
Энг лойиқ тимсол.
Меҳру муҳаббати
Чашмадек зилол,
Садоқат, вафога
Ҳар доим мисол.
Чин сўзни айтганда
Олмағиз малол,
ДУЊЕДА ЭНГ АЗИЗ
СИЙМОДИР АЁЛ.

Исмин тилга олсам
Ёришар осмон,
Лутфин эъзоласам
Ярашар ҳар он.
Қалбин гар тингласам
Жўш урар тугён,
Дардин куйга солиб
Дилим бўлди қон.
Тилагим, ҳеч маҳал
Кўрмасин завол,
ДУЊЕДА ЭНГ АЗИЗ
СИЙМОДИР АЁЛ.

Ҳаётда паст-баланд
Довонлар кўпдир,
Дилни ўртагувчи
Армонлар кўпдир.
Бир манзил излаган
Қарвонлар кўпдир,
Рост деб айтилгувчи
Ёлғонлар кўпдир.
Ҳар замон ортидан
Эргашсин иқбол,
ДУЊЕДА ЭНГ АЗИЗ
СИЙМОДИР АЁЛ.

Унсиз ўйлар ичра
Фарқ бўлиб гоҳо,

●
М
Е
Н
И
Н
Г
●
Ю
Р
Т
И
М

А
х
а
д
•
Қ
А
Ю
М
◎

Хаёлларим сокин
Сузганда танҳо.
Кўнгил тубларидан
Чиқариб садо,
Муаттар-сае билан
Берганда маъно.
Нафис жилоларин
Кўрсатар хаёл,
ДУЊЁДА ЭНГ АЗИЗ
СИЙМОДИР АЁЛ.

Қалбларни яшнатар
Гулдек нафаси,
Оламда ягона
Меҳрин шуъласи.
Яратганнинг бизга
Улуғ туҳфаси,
Бахтиёр онларнинг
Орзу-ҳаваси.
Ҳамиша ортидан
Нур сочсин баҳор,
ДУЊЁДА ЭНГ АЗИЗ
СИЙМОДИР АЁЛ.

Кўрку нафосатин
Таърифлаш маҳол,
Гўзаллик, покликка
Энг лойиқ тимсол.
Меҳру муҳаббати
Чашмадек зилол,
Садоқат, вафога
Ҳар доим мисол.
Чин сўзни айтганда
Олмангиз малол,
ДУЊЁДА ЭНГ АЗИЗ
СИЙМОДИР АЁЛ.

УСТОЗИМ

Илму тафаккурдан
Дилга йўл очган,
Қалбларга беминнат
Меҳрини сочган,
Гўё қуёш тафти
Юзига кўчган,
Сиз сабаб ҳар маҳал
Баланд парвозим,
БАХТИМГА БОР БЎЛИНГ,
АЗИЗ УСТОЗИМ!

Шогирдлар камолин
Ўйлаб туну кун,
Ҳаловат билмасдан
Бағрин этиб хун,
Келажак авлоднинг
Тақдири учун,
Жонинг аямаган
Бўлганда лозим,
БАХТИМГА БОР БЎЛИНГ,
АЗИЗ УСТОЗИМ!

Ким учун дунёда
Шухрати азиз,
Кимгадир ҳақ йўлда
Заҳмати азиз,
Сизга-чи, эл-юртнинг
Раҳмати азиз,
Мудом баланд эрур
Сизга эъзозим,
БАХТИМГА БОР БЎЛИНГ,
АЗИЗ УСТОЗИМ!

●

М

Е

Н

И

Н

Г

●

Ю

Р

Т

И

М

А
ҳ
а
д
•
Қ
А
Ю
М
●

Зулматда шамчироқ
Йўлни ёритар,
Илм ҳар лаҳзада
Бизга қор этар,
Интиланганга доим
Омад ёр этар,
Кўзим олисдадир,
Кўлимда созим,
БАХТИМГА БОР БЎЛИНГ,
АЗИЗ УСТОЗИМ!

Тинглашга улгурмай
Қалбин сасини,
Англайди ўзгалар
Дил ноласини,
Баъзан эркалолмай
Ўз боласини,
Бизларга бахш этган
Баҳору ёзин,
БАХТИМГА БОР БЎЛИНГ,
АЗИЗ УСТОЗИМ!

Инсонга дуч бўлмай
Турфа хил йўллар,
Гоҳи тоғлар ошса,
Гоҳ кезар чўллар,
Баъзан таъқиб этса,
Чақмоқлар, дўллар,
Ҳеч вақт адашмагай
Ақл тарозим,
БАХТИМГА БОР БЎЛИНГ,
АЗИЗ УСТОЗИМ!



БИЗНИНГ ЖУРНАЛИСТЛАР

Дунёнинг нариги
Томонида айт,
Нималар бўляпти
Ким хабар берар.
Элнинг хизматига
Тайёрдир бу пайт,
БИЗНИНГ ЖУРНАЛИСТЛАР,
МАТБУОТЧИЛАР!

Газета, журналми
Ёки интернет,
Ойнаи жаҳонда
Бугун не гаплар?
Ёки радиоба
Кулоғингни тут,
БИЗНИНГ ЖУРНАЛИСТЛАР,
МАТБУОТЧИЛАР!

Оммавий ахборот
Воситалари,
Энг сўнги янгилик
Ҳаммасин билар,
Юрт учун жонкуяр
Бўлар аксари,
БИЗНИНГ ЖУРНАЛИСТЛАР,
МАТБУОТЧИЛАР!

Бирор ижодкорнинг
Ички дунёсин...
Машхур санъаткорлар
Қайдан танилар?
Халққа таништирган
Бир-бир ҳаммани
БИЗНИНГ ЖУРНАЛИСТЛАР,
МАТБУОТЧИЛАР!

●

М

Е

Н

И

Н

Г

●

Ю

Р

Т

И

М

А
х
а
д
•
Қ
А
Ю
М
◎

Шулар ёмон деса
Қимнидир ёмон,
Ё кимни мақтаса
У кўтарилар,
Барибир нияти
Яхшилик томон,
**БИЗНИНГ ЖУРНАЛИСТЛАР,
МАТБУОТЧИЛАР!**

Аҳаджон Қаюмов
Деган талаба,
Аҳад Қаюмман деб
Интервью берар,
Борингизга шукр
Минг маротаба,
**БИЗНИНГ ЖУРНАЛИСТЛАР,
МАТБУОТЧИЛАР!**

Дунёнинг нариги
Томонида айт,
Нималар бўляпти
Ким хабар берар?
Элнинг хизматига
Тайёрдир бу пайт,
**БИЗНИНГ ЖУРНАЛИСТЛАР,
МАТБУОТЧИЛАР!**

ҲАҚИҚАТ

Пастга оқади кўз ёш,
Пешонанг шўрин ювмас,
Аччиқ бўлади доим,
Ҳақиқат ширин бўлмас.

БУХОРО

Бағрида сақлангай
Тарих ровони,
Элимнинг кўҳна бир
Қадим макони,
Дунёга овоза
Шавкату шони,
Асрлардан бергай
Нидо Бухоро!
Жоним сенга бўлсин
Фидо, Бухоро!

Имкон бер дилдаги
Сўзим айтайин,
Равнақ топ ҳар маҳал
Завол кўрмайин,
Нек бахт заминдасан
Яшна кун сайин,
Шодлигу қувончга
Тўлсин Бухоро!
Ҳамиша иқболинг
Кулсин, Бухоро!

Қайда бўлмай,
Қалбим сенга ошиқар,
Меҳринг юрагимга
Зиёдек оқар.
Сенинг мадҳинг куйлаш
Дилга хуш ёқар,
Менга азиз ҳар бир
Гардинг, Бухоро!
Бергин, майли, олай
Дардинг, Бухоро!

●

М

Е

Н

И

Н

Г

●

Ю

Р

Т

И

М

А
ҳ
а
д
•
Қ
А
Ю
М
◎

Сендан олис кетгач,
Қадринг билдим мен,
Сенга дилбанд бўлиб,
Нима қилдим мен?
Гоҳ эслаб соғинсам
Бағрим тилдим мен,
Онамдек меҳрибон
Юзинг, Бухоро!
Отамдек мадақдор
Ўзинг, Бухоро!

Ҳар қарич тупроғинг
Сўйлар ривоят,
Олис ўтмишингдан
Қилгай ҳикоят,
Ҳар гардинг муқаддас
Билгайман ғоят,
Кўкси тўла армон,
Ғамгин Бухоро!
Ҳасратларинг бунча,
Рангин, Бухоро?!

Бағрида сақлангай
Тарих ровони,
Элимнинг кўҳна бир
Қадим макони,
Дунёга овоза
Шавкату шони,
Асрлардан бергай
Нидо Бухоро!
Жоним сенга бўлсин
Фидо, Бухоро!



ТИЛАК

(XXI аср ёшларига)

Янги минг йилликнинг
Пойдевори Сиз,
Буюклар сафининг
Сўнг номзодлари.
Ватан келажагин
Сизлар қурасиз,
Эркин асримизнинг
Ёш авлодлари.

Билим олмоқликка
Бор Сизда ғайрат,
Фақат олға юриб,
Қоқилманг ҳеч вақт,
Ҳамроҳ булсин Сизга,
Доимо омад,
Эркин асримизнинг
Ёш авлодлари.

Шод қилинг боболар
Руҳи покини,
Бухорий, Термизий
Зурриёдлари.
Сақланг кўҳна тарих
Шон-шукуҳини,
Эркин асримизнинг
Ёш авлодлари.

Юрт эртасин ўйламоқ
Фарздир Сизга,
Миллатнинг ишонган
Куч, нажотлари.
Шу тупроқ мукаддас
Ҳар биримизга,
Эркин асримизнинг
Ёш авлодлари.

●

М

Е

Н

И

Н

Г

●

Ю

Р

Т

И

М

А
х
а
д
•
Қ
А
Ю
М
◎

Порлоқ минг йилликнинг
Пойдевори Сиз,
Даҳолар сафининг
Чин номзодлари..
Ватан келажагин
Сизлар қурасиз,
Эркин асримизнинг
Ёш авлодлари.

Озод асримизнинг
Ёш авлодлари...

СЎРАШАДИ ДЎСТЛАРИМ

Сўрашади дўстларим,
Сенда ҳам дард борми деб,
Қулади-ю кўзларим,
Йиғлайди қалбим ўксиб.

Дунёнинг ташвишидан,
Ғам тўлади ичимга,
Армоним бўлган билан,
Айтолмайман ҳеч кимга.

Дард сўзини бахт билан,
Алмаштирдим луғатда,
Бахтимдир дардим менинг,
Дард ҳам бахтдир Аҳадга.



САНЪАТ

Қил устида карвондир санъат,
Ғамдеворда нарвондир санъат,
Дилбўстонда боғбондир санъат,
Дилсаройда султондир санъат.

Ҳар кўнгилда соҳибмеҳмондир,
Кимга орзу, кимга армондир,
Кўзёшлардан сизган маржондир,
Қил устида карвондир санъат.

Санъат — ҳаёт умрнинг сози,
Санъат — ҳар бир қалбнинг овози,
Санъат — дарнинг бахтга парвози,
Ғамдеворда нарвондир санъат.

Малҳам топгай ёлғиз кўнгиллар,
Шоирлару ҳофиз кўнгиллар,
Безакланар ожиз кўнгиллар,
Дилбўстонда боғбондир санъат.

Шоир этган Аҳад Қаюмни,
Рўёбларга сочиб орзумни,
Ошкор этган пинҳон туйғумни,
Дилсаройда султондир санъат.

Қил устида карвондир санъат,
Ғамдеворда нарвондир санъат,
Дилбўстонда боғбондир санъат,
Дилсаройда султондир санъат.



●

М

Е

Н

И

Н

Г

●

Ю

Р

Т

И

М

А
Ҳ
а
д
•
Қ
А
Ю
М
◎

ШУКР ҚИЛИБ ЯШАШ КЕРАК

Тақдирда борини кўриб юрибмиз,
Секин ризқимизни-териб юрибмиз,
Ким дўсту ким душман, билиб юрибмиз,
Бирни кўриб, ўнни кўриб, фикр қилиб,
Шукр қилиб яшаш керак, шукр қилиб!

Оёғимиз юриб тургани бахт-ку,
Кўзларимиз кўриб тургани бахт-ку,
Юрагимиз уриб тургани бахт-ку,
Бирни кўриб, ўнни кўриб, фикр қилиб,
Шукр қилиб яшаш керак, шукр қилиб!

Бойлик деб, бахтидан кечганни кўрдик,
Иймонмас, ёлғонни қучганни кўрдик,
Пул учун лафзидан қочганни кўрдик,
Бирни кўриб, ўнни кўриб, фикр қилиб,
Шукр қилиб яшаш керак, шукр қилиб!

Бу дунё ўткинчи, бу дунё бир кам,
Ўтиб кетар ҳар бир ғанимат бу дам,
Ҳаловат топайлик, дилни босмай ғам,
Бирни кўриб, ўнни кўриб, фикр қилиб,
Шукр қилиб яшаш керак, шукр қилиб!

Ҳаёт жуда қисқа, қайтмас бу фурсат,
Ёзганидан ортиқ бўлмайти албат,
Хотиржамлик билан ўтган ҳар кун бахт,
Бирни кўриб, ўнни кўриб, фикр қилиб,
Шукр қилиб яшаш керак, шукр қилиб!

Аҳад Қаюм истар, азизлар, сиздан,
Бахт манзили йироқ кетмайин биздан,
Чиройли ёд қолсин ҳар битта издан,
Бирни кўриб, ўнни кўриб, фикр қилиб,
Шукр қилиб яшаш керак, шукр қилиб!

БУ МИЛЛАТ

Бошидан опса ҳам
Ўзин ташвиши,
Ўзгалар ғамини
Ейди бу миллат.
Елкада турса ҳам
Замоннинг тоши,
Дунёни кўтарсам
Дейди бу миллат.

Ким яшар савлати,
Сохтаси билан,
Қизикмас жамият
Эртаси билан...
Беминнат оқ олтин
Пахтаси билан,
Дунёни безатиб
Кўйди бу миллат.

Биз ўзбекмиз, дўстлар,
Шуни унутманг,
Асли кимлигимиз
Билиб яшайлик,
Уйғонинг, эй халқим,
Ғафлатда ётманг,
Элим деб, юртим деб
Ёниб яшайлик.

Мустақиллик олий,
Азиз неъматдир,
Ватан қадри азиз,
Жондан қимматдир,
Меҳр бера олсак
Она тупроққа,
Бу фарзандлик бурч,
Ҳам буюк ҳимматдир!

●

М

Е

Н

И

Н

Г

●

Ю

Р

Т

И

М

А

БИЗНИНГ ФУТБОЛ

х

Озод диёр Ўзбекистон,

а

Спорт — соғлом танда иқбол;

д

Юртга тиргак, Ватанга шон,

•

Бизнинг футбол, бизнинг футбол!

Қ

Ҳаёт ўзи қизиқ ўйин,

А

Кимга осон, кимга қийин,

Ю

Юксалавер борган сайин,

М

Бизнинг футбол, бизнинг футбол!

◎

Мустақил юрт номи баланд,

Сен шу номни оқла, фарзанд,

Ҳеч майдонда емасин панд,

Бизнинг футбол, бизнинг футбол!

Яхшиликка кўп баҳона,

Сизга ўйин тўп баҳона,

Ҳакамлар фидокорона,

Бизнинг футбол, бизнинг футбол!

Тоғиб тарих илдизларин,

Сизга омад юлдузларин,

Йўқотмасин мухлисларин,

Бизнинг футбол, бизнинг футбол!

Озод диёр Ўзбекистон,

Спорт — соғлом танда иқбол,

Юртга тиргак, Ватанга шон,

Бизнинг футбол, бизнинг футбол!



ТОШКЕНТ

Ёзсанг сифмас ғазал, **ТОШКЕНТИМ**,
Дўстга дўстсан азал, **ТОШКЕНТИМ**,
Тарихинг бор дунёга дoston,
Бағринг очик, гўзал,
ТОШКЕНТИМ.

Меҳмонингга меҳринг бўлакча,
Мезбондирсан сеҳринг бўлакча,
Қадринг бўлак бахтинг бўлакча,
Жаҳон ичра гавҳар
ТОШКЕНТИМ.

Кимларнинг дилида армонсан,
Кимларнинг тилида дostonсан,
Кимларга манзилу маконсан,
Кучоғи кенг шаҳар
ТОШКЕНТИМ.

Эрта бахти кулажаксан сен,
Жуда буюк бўлажаксан сен,
Бизга ёруғ келажаксан сен.
Бошлаб қутлуғ сафар
ТОШКЕНТИМ.

Ёзсанг сифмас ғазал, **ТОШКЕНТИМ**,
Дўстга дўстсан азал, **ТОШКЕНТИМ**,
Тарихинг бор дунёга дoston,
Бағринг очик, гўзал,
ТОШКЕНТИМ.



●
М
Е
Н
И
Н
Г
●
Ю
Р
Т
И
М

МЕНИНГ ЎЛКАМ

Тарихда буюклар
 Занжирин тузган,
 Қўйнида жаҳонзабт
 Темурлар ўсган,
 Меҳр булоғидан
 Гуллаган маскан,
 Маъво топилмагай
 Бундан-да кўркам,
 Бу менинг ўлкамдир,
 Бу менинг ўлкам.

Элнинг заҳматидан
 Чўллар боғ бўлди,
 Ғаллаю пахтадан
 Хирмон тоғ бўлди,
 Ким юртга қўлашди,
 Толеи кулди.
 Яхшига ёндашган
 Ўтмагай бир кам,
 Бу менинг ўлкамдир,
 Бу менинг ўлкам.

Қушларга ин бўлур
 Ердаги хас ҳам,
 Бирдек нафас олур
 Соғу нокас ҳам
 Мен сизга бирма-бир
 Таърифин айтсам,
 Давронлар залворин
 Кўтарган елкам,
 Бу менинг ўлкамдир,
 Бу менинг ўлкам.

Баҳорда оромбахш
Анҳор, сойлари,
Ёшлар билан тўлар
Кўча-кўйлари,
Бунда ўзгачадир
Байрам тўйлари,
Тинчлик нашидасин
Тотишар хуррам,
Бу менинг ўлкамдир,
Бу менинг ўлкам.

Мен сенга заррача
Сўзладим алҳол,
Сўзларимга ишон
Эй соҳибжамол,
Покиза севгидан
Қилганда хаёл,
Бир бора назар сол
Атрофга, эркам,
Бу менинг ўлкамдир,
Бу менинг ўлкам.

Тарихда буюклар
Занжирин тузган,
Кўйнида жаҳонзабт
Темурлар ўсган,
Меҳр булоғидан
Гуллаган маскан,
Маъво топилмагай
Бундан-да кўркам,
Бу менинг ўлкамдир,
Бу менинг ўлкам.



М

Е

Н

И

Н

Г

•

Ю

Р

Т

И

М

А

ТҮЙДАН КЕЙИН

ҳ

а

д

•

Қ

А

Ю

М

•

Қўшиқ айтсанг ярашади куйдан кейин,
Доно одам ўй суради ўйдан кейин,

Ният қилар уйда бола туғилганда,
Ўзбек яна тўй бошлайди тўйдан кейин.

Кўрсам дейди фарзандининг бахтларини,
Қурсам дейди толейидан тахтларини,
Ўзгартирмай неча йиллик одатларини,
Ўзбек яна тўй бошлайди тўйдан кейин.

Бундай кунда қашимас ҳеч бошларини,
Ҳисобламас яхши кунда харжларини,
Санамайин тўкилган оқ сочларини,
Ўзбек яна тўй бошлайди тўйдан кейин.

Сабр қилар оғир-енгил кунлар кўриб,
Пишиб кетган ҳар бир дардни енгавериб,
Ҳар қандайин ғам-ташвишни четга суриб,
Ўзбек тагин тўй бошлайди тўйдан кейин.

Баъзилар бор шердан олиб, филга берар,
Салом берсанг, алигини пулга берар,
Унга қаранг топганини элга берар,
Ўзбек яна тўй бошлайди тўйдан кейин.

Кўнгил уйи обод бўлар сўзлар билан,
Яхши-ёмон кунда бўлинг дўстлар билан,
Қўл берсангиз, Аҳад шоир сизлар билан,
Ўзбек яна тўй бошлайди тўйдан кейин.



ВАТАНИМНИ СОФИНАМАН

Баҳор ҳиди тарк этмасин чаманимни,
Асра, Оллоҳ, ҳар бир дуру маъданимни,
Қайда бўлмай икки кўзим орқададир,
Ватанимни соғинаман, Ватанимни.

Устозларим тилидаги гавҳарларим,
Минг файз ила кулган шому саҳарларим,
Мени кутган қишлоғиму, шаҳарларим,
Ватанимни соғинаман, Ватанимни.

Қайда бўлмай, қайда юрмай, меҳри тортар,
Болалигим ўтган жойлар сеҳри тортар,
Ота-бобом ётган жойлар мени чорлар,
Ватанимни соғинаман, Ватанимни.

Ярим кўнглим, бири ками тўлган билан,
Давлат, омад, ҳамма нарсам бўлган билан,
Юролмайман дилдан мағрур, қаддим баланд,
Ватанимни соғинаман, Ватанимни.

Бегонадир, юзларию кўзлари ҳам,
Юрагимга ётдир айтган сўзлари ҳам,
Нима қилай, ўзбекмас-да ўзлари ҳам,
Ватанимни соғинаман, Ватанимни.

Нима дейсиз, ўз юртимга қойилман-да,
Она ватан меҳрига мен мойилман-да,
Кўнгил билан ҳисоблашган шоирман-да,
Ватанимни соғинаман, Ватанимни.

Кимдир дейди, эсингни йиғ, Аҳад Қажум,
Дунё кезгин, йиғгин бойлик, тилло, буюм,
Нима қилай, кўнмайди-да бунга кўнглим,
Ватанимни соғинаман, Ватанимни.

◎
М
Е
Н
И
Н
Г
●
Ю
Р
Т
И
М

А

Ҳ

а

д

•

Қ

А

Ю

М

◎

ВАТАН НИМА...

Ватан нима? Ватан, бу—
Жондай азиз бир туйғу,
Қайда бўлсанг ҳам, кўнглинг
Ватанда яшар мангу!

Ватан нима? Ватан, бу—
Сен япроқсан, илдиз у,
Сен осмонсан, юлдуз у,
Дарё бўлсанг, илдиз у...

Ватан нима? Ватан, бу —
Саждагоҳдай маскан бу,
Ҳар туйғудан баланд бу,
Жонингга жон дилбанд бу.

Бир бор ўйлаганмисан,
Қалбинг қийнаганмисан,
Дилдан сўраганмисан,
Ватан нима, ВАТАН бу?

Онам кўзидаги дард,
Отам сўзидаги шарт,
Ватан нима? Ватан, бу,—
Болам дилидаги шахд!

Ватан нима? Ватан, бу —
Жондай азиз бир туйғу,
Қайда бўлсанг ҳам, кўнглинг
Ватанда яшар мангу!



ВАТАН ОМОН БЎЛСИН

Ҳар борган манзилу,
Жойларимиз ҳам,
Ҳар ирмоғу анҳор,
Сойларимиз ҳам,
Исмингдан қоришгай
Куйларимиз ҳам,
Ҳар битта ноламиз
Мингта “оҳ” бўлсин,
Ватан омон бўлсин,
Ватан бор бўлсин!

Ҳар битта гўдагинг,
Беку Хоқоним,
Ўғил Темур бўлса,
Қиз — Бибихоним,
Тунни тонгта улар
Бободехқоним,
Пахта-ю, ғалладан
Хирмон тоғ бўлсин,
Ватан омон бўлсин,
Ватан бор бўлсин!

Аҳли донишларинг
Маскани ичра,
Кўнгилнинг ифору,
Маҳзани ичра,
Қўллар обод этар,
Гулшанинг ичра,
Ҳар босилган қадам,
Гуллаб боғ бўлсин,
Ватан омон бўлсин,
Ватан бор бўлсин!

●

М

Е

Н

И

Н

Г

●

Ю

Р

Т

И

М

А
ҳ
а
д
•
Қ
А
Ю
М
◎

Қадрини қаричлаб
Ўлчамаган юрт,
Иймоннинг қаҳрига
Учрамаган юрт,
Япроғи илдиздан
Ажрамаган юрт,
Аҳаднинг ҳам мудом,
Бахти чоғ бўлсин,
Ватан омон бўлсин,
Ватан бор бўлсин!

Ҳар борган манзилу
Жойларимиз ҳам,
Ҳар ирмоғу анҳор
Сойларимиз ҳам,
Исмингдан қоришгай
Куйларимиз ҳам,
Ҳар битта ноламиз
Мингта “оҳ” бўлсин,
Ватан омон бўлсин,
Ватан бор бўлсин!



ЎЗБЕКНИНГ БАЙРАМЛАРИ

Яхши кунда гуллагай,
Қалбимнинг оламлари,
Мудом яшнар ўлмагай,
Ўзбекнинг байрамлари!

Йўл айланиб йўл ошар,
Йил айланиб йил ошар,
Қим ўзарга беллашар,
Ўзбекнинг байрамлари!

Кўнглим гавҳари зари,
Яшнайди ёшу қари,
Қўпайсин борган сари,
Ўзбекнинг байрамлари!

Қувнашиб хуш давралар,
Қандай ажиб лаҳзалар,
Бахт элчиси саналар,
Ўзбекнинг байрамлари!

Аҳад Қаяом куйлаган,
Ёниб-жўшиб куйлаган,
Тўйни тўйга улаган,
Ўзбекнинг байрамлари!

Яхши кунда гуллагай,
Қалбимнинг оламлари,
Мудом яшнар ўлмагай,
Ўзбекнинг байрамлари!



◎

М

Е

Н

И

Н

Г

◎

Ю

Р

Т

И

М

А
ҳ
а
д
•
Қ
А
Ю
М
●

ВАТАНГА МУНОСИБ ФАРЗАНД БЎЛАЙЛИК

Юракка жо қилиб
Элнинг дардини,
Кўзга тўтиё деб
Ҳар бир гардини,
Шу элга бош эгиб
Билиб қадрини,
Юрт учун жон берган
Аждодлар ҳақи,
Ватанга муносиб
Фарзанд бўлайлик.

Онадек муқаддас
Билиб тупроғин,
Жонидек асролган
Ҳар хас япроғин,
Миллатнинг ишонган
Суянган тоғи,
Юрт учун жон берган
Аждодлар ҳақи,
Ватанга муносиб
Фарзанд бўлайлик.

Шу заминда ўсиб
Улғайдик, мана,
Парвозимиз озод,
Билмадик таъна,
Айтинг, эй дўстларим,
Не керак яна?
Юрт учун жон берган
Аждодлар ҳақи,
Ватанга муносиб
Фарзанд бўлайлик.

Гийбату гиналар
Дилхонанг бузар,
Фаришта ҳам аҳил
Ўлкада кезар,
Аҳилга ёндашиб
Бирлашган ўзар,
Юрт учун жон берган
Аждодлар ҳақи,
Ватанга муносиб
Фарзанд бўлайлик.

Мардларга макондир
Бизнинг бу диёр,
Ҳар йигитнинг дилда
Номус-ори бор,
Элнинг яхши-ёмон
Кунида тайёр,
Юрт учун жон берган
Аждодлар ҳақи,
Ватанга муносиб
Фарзанд бўлайлик.

Эй Ватан, бошимда
Соғ-омон тургин,
Қалбда мангу ёруғ
Масканим бўлгин,
Аждодим йўлини
Бизга ҳам бергин,
Юрт учун жон берган
Аждодлар ҳақи,
Ватанга муносиб
Фарзанд бўлайлик.



◎

М

Е

Н

И

Н

Г

●

Ю

Р

Т

И

М

А
Ҳ
а
д
●
Қ
А
Ю
М
◎

ШУКРОНА

Ўтаётган ҳар бир кунга
Шукрона қилиб,
Дўсту ёринг дийдорини
Фанимат билиб,
Энг олий бахт ўз юртингда
Толеинг кулиб,
Эл кунига ярасанг гар
Ҳеч бўлмайсан хор,
Бу кунларга етганлар бор,
Етмаганлар бор.

Кимлар олдин, кимлар кейин
Ўтиб кетадир,
Билганларин ичларига
Ютиб кетадир,
Қай бирлари манзил
Томон бориб етадир,
Дунё экан савдосига
Авраган бозор,
Бу кунларга етганлар бор,
Етмаганлар бор.

Ватан деса қалби уйғоқ
Бедорлар бордир,
Малҳам кутиб, дили хаста
Беморлар бордир,
Ҳар лаҳзаси йилга арзир
Баҳорлар бордир,
Тўрт-беш кунлик ғамхонада
Яшанг бахтиёр,
Бу кунларга етганлар бор,
Етмаганлар бор.

Рўзфорингиз бисотида
Ками бўлса ҳам,
Дилингизни дарду армон
Фами бўлса ҳам,
Кўзингизнинг пинҳон тутган
Нами бўлса ҳам,
Шукронангиз қилаверинг
Такрор ва такрор,
Бу кунларга етганлар бор,
Етмаганлар бор.

Оқибатдек иморат ҳам
Ногоҳ қуласа,
Меҳр булоғидан оққан
Чашма тугаса,
Дуо қилинг, Аҳад сизга
Меҳр тиласа,
Ортингиздан бир яхши сўз
Қолсин-да ёдгор,
Бу кунларга етганлар бор,
Етмаганлар бор.

Ўтаётган ҳар бир кунга
Шукрона қилиб,
Дўсту ёринг дийдорини
Ғанимат билиб,
Энг олий бахт ўз юртингда
Толеинг кулиб,
Эл кунига ярасанг гар
Ҳеч бўлмайсан хор,
Бу кунларга етганлар бор,
Етмаганлар бор.

◎

М

Е

Н

И

Н

Г

●

Ю

Р

Т

И

М

А

ҳ

а

д

•

Қ

А

Ю

М

◎

ВАТАН

Тупроғи тиллога тенг,
Менга азиз ҳаммадан,
Бағри осмонданам кенг,
Ватан!

Отам қаддин ростлаган,
Онам дил пардозлаган,
Шоир дилим созлаган,
Ватан!

Кел, биродар, кел, эй дўст,
Юртим ҳақда очдим сўз,
Биз қош бўлсак, удир кўз,
Ватан!

Киндик қоним тушган юрт,
Яхшиликка шошган юрт,
Меҳридарё тошган юрт,
Ватан!

Аҳаддек куйчи ўғлин,
Тоғдек кўтариб кўнглин,
Тилагандир оқ йўлин,
Ватан!

Тупроғи тиллога тенг,
Менга азиз ҳаммадан,
Бағри осмонданам кенг,
Ватан!

Ватан, сен қонтомирим,
Баҳоримсан, ёмғирим,
Пешонамсан, тақдирим,
Ватан!

НУРЛИ-НУРЛИ ЁРУҒ МАНЗИЛЛАР

Нурли-нурли ёруғ манзиллар,
Чорлайверар бизни бахт томон.
Бормисиз, эй дилга яқинлар,
Бормисиз, эй дўстларим, омон.

Нурли-нурли ёруғ манзиллар,
Қўл чўзмоқда бизларга ҳамон.
Бормисиз, эй қалби соҳирлар,
Бормисиз, эй эски қадрдон.

Нурли-нурли ёруғ манзиллар,
Карвонимиз этинг нурафшон.
Чап бермасин бизга разиллар,
Иймонимиз бизга шараф-шон.

Нурли-нурли ёруғ манзиллар,
Осмонимда бўлингиз нарвон.
Йўлимизда тўшалган гуллар,
Манзиллардай ёруғдир даврон.

Нурли-нурли ёруғ манзиллар,
Сизга бўлсин шу рўйи жаҳон.
Шу толега муштоқдир диллар,
Қалбимизга бўлинг сиз меҳмон.

ВАТАН УЧУН

Ўзи учун нелар қилмади бу зот,
Ишлатиб ақлию қанча фаросат,
Ватан учун айтгин, не қилдинг десам,
Тили ҳам айланмай қолди-ку, ҳайҳот!

●
М
Е
Н
И
Н
Г
●
Ю
Р
Т
И
М

А
ҳ
а
д
•
Қ
А
Ю
М
◎

ШИФОКОРЛАР

Устоз Ибн сино
Таълимин олиб,
Ҳар талпинган жонга
Бергайсиз малҳам.
Толмангиз ҳар дарднинг
Давосин топиб,
Соғлом келажакка
Кўйингиз қадам.
Сиз сабаб дард нима
Билмас беморлар,
Тану жон табиби
Сиз шифокорлар!

Биттагина кичик
Муаммомизни,
Дунёга ёямиз
Гоҳ ўрни келса.
Гаровларга қўйиб
Ҳаётингизни,
Ёрдамга шошасиз
Гоҳ ўрни келса.
Оёққа туради
Қанча ночорлар,
Тану жон табиби
Сиз шифокорлар!

Оппоқ кўнгил билан
Оппоқ либосда,
Дунёни қутқарган
Фаришталардай.
Дарддан халос этиб
Кейин бир пасда,
Тузалиб кет дейсиз
Касал бўлма, ҳай,

Қанча хазонбоғлар
Бўлди гулзорлар,
Тану жон табиби
Сиз шифокорлар!

Сизсиз Аҳаддайн
Бемор шоирлар,
Ўтгизга ҳам тўлмай
Ўлиб кетарди,
Сизсиз яхшиликка
Доим мойиллар,
Табибсиз бу олам
Ғамга чўқади.
Сиз учун кам билинг
Мадҳу ашъорлар,
Тану жон табиби
Сиз шифокорлар!

Устоз Ибн Сино
Таълимин олиб,
Ҳар талпинган жонга
Бергайсиз малҳам.
Толмангиз ҳар дарднинг
Давосин топиб,
Соғлом келажакка
Кўйингиз қадам.
Сиз сабаб дард нима
Билмас беморлар,
Тану жон табиби
Сиз шифокорлар!



●
М
Е
Н
И
Н
Г
●
Ю
Р
Т
И
М

ИНСОННИНГ БЎЛМАСИН ҚАЛБИ НОГИРОН

А

ҳ

а

д

•

Қ

А

Ю

М

◎

Дардингизга шифо сўранг беморлар,
Сизга раҳми келар, Оллоҳ меҳрибон,
Тананинг кемтигин тузатса бўлар,
Инсоннинг бўлмасин қалби ногирон!

Ҳар битта инсоннинг кўнгил олами,
Ташқи кўринишда бўлганда аён,
Кўринган бўларди ҳамманинг ками,
Инсоннинг бўлмасин қалби ногирон!

Оёғи йўқ, қўли, кўзи йўқлар бор,
Онасидан хаста туғилганлар хор,
Уларнинг азоби юзида ошкор,
Инсоннинг бўлмасин қалби ногирон!

Ҳаммамиз ногирон аслида, дўстлар,
Ҳаммамиз касалмиз, оғир дардлигимиз,
Ким мансаб, ким шуҳрат, бойлик ғамида,
Юқимли дард етган касал қалбимиз...

Хор-зор бўлиб ётган бечорага биз,
Жирканиб қараймиз устидан кулиб,
Наққошнинг устидан кулган бўламиз,
Нақшга беписанд биз баҳо бериб.

Эй сиз, қанотида имкони борлар,
Ана, ёнингизда меҳрга зорлар,
Оллоҳнинг ҳукми бу муҳтож, ночорлар,
Инсоннинг бўлмасин қалби ногирон!

Китобингиз ўқидик Аҳад Қаюм дер,
Дейдилар бизга ҳам атаб ёзинг шеър,
Сизларни кўрмасам кўзим бўлсин кўр,
Инсоннинг бўлмасин қалби ногирон!

БИР ЯХШИ НОМ ҚОЛСИН

Пул билан ўлчаманг
Инсоннинг қадрин,
Битта чин дўст изланг
Ёруғ оламдан.
Мол-давлат ўлчолмас
Кўнгилнинг нархин,
Бир яхши ном қолсин
Сиздек одамдан.

Мансаб, ўрин, жойни
Талашмоқ хато,
Бахтни бойлик билан
Ўлчаманг асло,
Яшамоқдан бўлсин
Доим бир маъно,
Бир яхши ном қолсин
Сиздек одамдан.

Кимдир дер маслаҳат
Бермоқ осондир,
Муаммолар ичра
Ёнмоқ ёмондир,
Тушуниб етасиз
Бунга қачондир,
Бир яхши ном қолсин
Сиздек одамдан.

Кўлингизни муштлаб,
Тўкманг ғазабни,
Яхшилар яшайлик
Асраб асабни,
Ҳалол, тоза яшаб,
Қадрлаб касбни,
Бир яхши ном қолсин
Сиздек одамдан.

●

М

Е

Н

И

Н

Г

●

Ю

Р

Т

И

М

А
ҳ
а
д
•
Қ
А
Ю
М
◎

Тўғри, режадаги
Ишлар ҳали кўп,
Ёрдам кўлин чўзар
Ғоҳида дўст йўқ,
Юракни оғритманг
Дилга солиб чўғ,
Бир яхши ном қолсин
Сиздек одамдан.

Аҳад Қаюм, билгин
Дунё бевафо,
Ким нафсига қулдир,
Дарди бедаво,
Кўнгилга қулф османг,
Қилманг бенаво,
Бир яхши ном қолсин
Сиздек одамдан.

Пул билан ўлчаманг
Инсоннинг қадрин,
Битта чин дўст изланг
Ёруғ оламдан.
Мол-давлат ўлчолмас
Кўнгилнинг нархин,
Бир яхши ном қолсин
Сиздек одамдан.

КЎНГИЛ ГАВҲАРИ

Кўлингдан кетса ҳам, энг асл гавҳар,
Ўксинма, боримдан бўлдим деб жудо.
Кўнгил гавҳарингдан олиб тур хабар,
Уни йўқотишдан асрасин Худо.

ҲАЁТДАГИ ЭНГ ЧИРОЙЛИ КУН

Ҳаётдаги энг чиройли кун,
Кунинг ўтса яхшилик учун.
Ҳаётдаги энг чиройли кун,
Юрак сезса оқибат кучин.

Ҳаётдаги энг чиройли кун,
Дил қувончдан яшнаса мамнун,
Чин дўстларинг ёнингда бўлса,
Юрагингда қолмайди тугун.

Осмонлардан кутиб омадни,
Йўқотмагин ердаги бахтни.
Сўнг эртага қайтаролмайсан,
Бир лаҳзага орқага вақтни.

Ҳаётдаги энг чиройли кун,
Бажарсанг сен фарзандлик бурчинг,
Ота-онанг, оиланг учун,
Бутун умр сарфлагин кучинг.

Дўстларим бор бахтимга устун,
Яшаяпман қалбим шод-мамнун.
Ҳаётдаги энг чиройли кун,
Энг бахтли кун, албатта, бугун.

ШУНДАЙ КАТТА ОЛАМ ИЧРА

Шундай катта олам ичра
Кичкина бир одамман,
Кичкина бир одам ичра
Ўзи катта оламман!!!



М
Е
Н
И
Н
Г
•
Ю
Р
Т
И
М

А

БУГУН ШУНДАЙ КУНКИ

ҳ

а

д

•

Қ

А

Ю

М

•

Бугун шундай кунки яхши ниятлар,
Ва яхши инсонлар учрашган кундир.
Бугун шундай кунки дўсти дилбандлар,
Ва қалби осмонлар учрашган кундир.

Дўстларим дийдори дардимга даво,
Дўстларим дийдори қалбимга шифо,
Хуш ниятли дилга бахти ёр бўлсин,
Бахтимга дўстларим доим бор бўлсин!

Омад! Мансаб! Бойлик! Бусиз яшайман,
Жондай дўстларимсиз, ахир мен кимман?!
Эй марди дўст, оқибат деган сўз учун,
Дўстлар, яшаяпман, балки сиз учун.

Сизсиз ёлғиз карвон бўлиб қолардим,
Балки бешикдаёқ ўлиб қолардим,
Не кунлар солмади душман бошимга,
Шукрим, бўлдингиз сизлар қошимда.

Бугун шундай кунки, орзу-армонлар,
Омад ортингиздан эргашган кундир,
Бир умр кутилган ахир бу онлар,
Кўзимиз қувончни талашган кундир.

Бугун шундай кунки, бахту омадлар,
Ва соҳибсийратлар учрашган кундир,
Бугун шундай кунки, яхши одатлар,
Ва соҳибсавлатлар учрашган кундир.

Бу дунё аслида айлана гардун,
Эй дўст, яшаяпмиз биз нима учун?
Дунёга келдикми, яшайлик шодон,
Яхши инсон учун бермоқ керак жон.

Яхши кунда кўплаб ёғилса тилак,
Яхши кунда кийилар кўйлак,
Яхши кунда шундай ёришар юрак,
Сизга бахт либоси ярашган кундир.

Ҳофиз, нолангдан айт, эй созаңда, чал,
Бу ҳаёт шунчалар азобки чигал.
Одам яшар қондош дилбанди учун,
Бахтқасрин куради фарзанди учун.

Эй фарзанд, унутма отангинг дарсин,
Унутма онангга фарзандлик қарзинг.
Ватан омон бўлса оила бутун,
Дунёда ҳеч жой йўқ Ватандан устун!

Мусофир юртларда юрган дўстларим,
Оллоҳдан сизларга омад сўрадим.
Ҳеч кимнинг кўзидан оқмасин ёши,
Доим баланд бўлсин ЎЗБЕКнинг боши.

Бугун шундай кунки соҳибсуратлар,
Ва соҳибжуръатлар учрашган кундир,
Бугун шундай кунки яхши сифатлар,
Ва дўсти Аҳадлар учрашган кундир...

ТИЛАК

Кувончдан бахт томон шошади юрак,
Тўю томошалар тинчликдан дарак,
Шодликка тўлдириг бахт остонасин,
Яширманг кўнгилда не бўлса истак.

Дўсту ёр бирлашиб бўлса бир билак,
Ҳар меҳмон азизсиз ўрнингиз бўлак,
Дунёда энг катта яхшилик нима,
Битта ширин сўзу, бир гўзал тилак

●
М
Е
Н
И
Н
Г
●
Ю
Р
Т
И
М

А

МЕҲР ТИЛАДИМ

х

Мен сиз билан дўсту биродар,
Насиб этса қиёмат қадар,

а

д

Омон бўлинг, кўрмангиз қадар,
Оқибату иймон сўрадим,
Қалбингиздан меҳр тиладим.

•

Қ

А

Ю

М

©

Бу дунёга келганмиз нечун,
Бир яхши ёд қолдирмоқ учун,
Вафо қилмас бу фоний очун,
Йўлингизга интиқ қарадим,
Қалбингиздан меҳр тиладим.

Бу кун шундай ёруғ кун экан,
Дарду ғамдан дариг кун экан,
Бахт улашар улуғ кун экан,
Мен бу кунни йилга уладим,
Қалбингиздан меҳр тиладим.

Яхшилиқдан мен толмайман ҳеч,
Аҳад ҳамроҳ сизга эрта-кеч,
Садоқат, бу — шундай соҳир куч,
Мен шу кучдан сеҳр тиладим,
Қалбингиздан меҳр тиладим.

Мен сиз билан дўсту биродар,
Насиб этса қиёмат қадар,
Омон бўлинг, кўрмангиз қадар,
Оқибату иймон сўрадим,
Қалбингиздан меҳр тиладим.



ДЎСТ ШУНДАЙ БЎЛАРКИ

Дўст шундай бўларки,
Ёнингда туриб,
Сирингни фош этмас ишонганингда,
Ғам чексанг ғамингни сен билан ютиб,
Сен билан шод кулсин қувонганингда.

Дўст шундай бўларки,
Ранжисанг ундан,
Шубҳаю гумонга кўмилганингда,
Эшигингни ҳатлаб, кечмайди сендан,
Номингни булғамас сен тонганингда.

Кимлигини бир кун исботлайди у,
Қалбингдан ўчирар аразгинангни,
Сендан ўзмоқликни қилмайди орзу,
Буткул унутади қилган таънангни.

Дўст шундай бўларки,
Олислаб кетсанг,
Ойда, йилда бир бор йўқламасанг ҳам,
Ришталаринг узиб ҳаволаб кетсанг,
Сен учун қалбида фақат ейди ғам.

Дўст шундай бўларки,
Синамоқ бўлиб,
Мен учун жонингни бер десанг агар,
Кўксидан юрагин шарт узиб олиб,
Шу заҳот ма ол деб қўлида тутар.

Дўст шундай бўларки,
Ёнингда туриб,
Сирингни фош этмас ишонганингда,
Ғам чексанг ғамингни сен билан ютиб,
Сен билан шод кулсин қувонганингда.

●

М

Е

Н

И

Н

Г

●

Ю

Р

Т

И

М

А

ҳ

а

д

•

Қ

А

Ю

М

●

АГАР АЁЛ ИСТАСА

Агар аёл истаса,
Йигитни шер қилади,
Агар аёл истаса,
Эркакни ер қилади.

Агар аёл истаса,
Қасрни гўр қилади.
Агар аёл истаса,
Бахт таъмин шўр қилади.

Агар аёл истаса,
Йўфингни бор қилади.
Агар аёл истаса,
Баҳоринг қор қилади.

Агар аёл истаса,
Хасни чинор қилади.
Агар аёл ис
таса,
Пахсанг минор қилади.

Агар аёл истаса,
Эркакни хор қилади.
Милён макрин ишлатиб,
Дунёйинг тор қилади.

Агар аёл истаса,
Аҳадни зор қилади.
Агар аёл истаса,
Бахтига ёр қилади.

Агар аёл истаса,
Йигитни шер қилади,
Агар аёл истаса,
Эркакни ер қилади.

МУҲАББАТ ЁШ ТАНЛАМАЙДИ, КҮНГИЛ ТАНЛАР

Ҳар бир ошиқ боққа кирса бир гул танлар,
Нолалари қалбига мос булбул танлар,
Одамларга парво қилманг одамларга,
Муҳаббат ёш танламайди, кўнгил танлар.

Ёшим ўтгач севдим деса ҳайрон бўлманг,
Сочингдаги оқни сана дея кулманг,
Зинҳор ўтган йилларни сиз ҳисоб қилманг,
Муҳаббат ёш танламайди, кўнгил танлар.

Севмаганлар ширин бахтни қайдан билсин,
Дили йўқлар бу неъматни қайдан билсин,
Бағри музлар муҳаббатни қайдан билсин,
Муҳаббат ёш танламайди, кўнгил танлар.

Севги сиздан сўраб эшик қоқмас экан,
Кўнгил сўзин асло ақл уқмас экан,
Билсангиз у тош юракка сиғмас экан,
Муҳаббат ёш танламайди, кўнгил танлар.

Кўрмай боқинг муҳаббатнинг кўзларига,
Юзингизни маҳкам босинг юзларига,
Шубҳа қилманг Аҳад Қаюм сўзларига,
Муҳаббат ёш танламайди, кўнгил танлар.

Ҳар бир ошиқ боққа кирса бир гул танлар,
Нолалари қалбига мос булбул танлар,
Одамларга парво қилманг, одамларга,
Муҳаббат ёш танламайди, кўнгил танлар.



ҚИЗЛАРНИНГ МУҲАББАТИ

А

ҳ

а

д

•

Қ

А

Ю

М

◎

Нимадан келиб чиқар,
Бахтеизлик мусибати,
Бир атиргулга ўхшар
Қизларнинг муҳаббати!

Қўл тегмаган гулгунча,
Ўн саккизга тўлгунча,
Жуда нозик тушунча
Қизларнинг муҳаббати!

Йигит севса, албатта,
Бориб айтади шартта,
Дилда қолар аламда
Қизларнинг муҳаббати!

Ичида қолар дарди,
Хазонкўйлақдир бахти,
Арзон этар гулқадрин
Қизларнинг муҳаббати!

Сўзин боғлаб сўзига,
Қаролмай ишқ кўзига,
Душман бўлар ўзига
Қизларнинг муҳаббати!

Аҳад, недур бу ғавғо,
Битта бошда минг савдо,
Ўзбекчиликда хато
Қизларнинг муҳаббати!

Нимадан келиб чиқар,
Бахтсизлик мусибати,
Бир атиргулга ўхшар
Қизларнинг муҳаббати!

ОТА-ОНА ДУОСИ

Аллоҳ еткизса гар кам бўлмагайсан,
Тузи ҳалол касбу кордан қолмасанг.
Йўқса, бутун умр ғамда яшайсан
ОТА-ОНАНГ ДУОСИНИ ОЛМАСАНГ!

Ҳар доим дуо ол мадад бўлгайдир,
Ризқинг бутун бўлиб бахтинг кулгайдир.
Доим нимадандир кўнгил тўлмайдир,
ОТА-ОНАНГ ДУОСИНИ ОЛМАСАНГ!

Шукр қил кам бўлса гар бисотингда,
Нимадир қолдирмоқ бўлгин ортингда.
Эгарсиз қолгайсан саман отингда,
ОТА-ОНАНГ ДУОСИНИ ОЛМАСАНГ!

Ахир, билолмайсан эртанг не бўлар,
Дардмандлар тузалиб, соғ юрган ўлар.
Ҳаётинг ғунчаси очилмай сўлар,
ОТА-ОНАНГ ДУОСИНИ ОЛМАСАНГ!

Пайт бермай камаринг боғла, эй дўстим,
Яхши иш бошласанг ҳамроҳ ман ўзим.
Ўткинчи ғавғолар топмагай тўзим,
ОТА-ОНАНГ ДУОСИНИ ОЛМАСАНГ!

Аҳаднинг сўзидан шубҳага борма,
Сал оғирроқ ботса кўнглингга олма.
Олидан бахт излаб бекорга толма,
ОТА-ОНАНГ ДУОСИНИ ОЛМАСАНГ!

Аллоҳ еткизса гар кам бўлмагайсан,
Тузи ҳалол касбу кордан қолмасанг.
Йўқса, бутун умр ғамда яшайсан
ОТА-ОНАНГ ДУОСИНИ ОЛМАСАНГ!

●
М
Е
Н
И
Н
Г
●
Ю
Р
Т
И
М

А
ҳ
а
д
●
Қ
А
Ю
М
◎

ОНАЛАР ҲИНАСИН ШУНДАЙ ДАВРАДА

Келину қизларнинг жамолин кўриб,
Фарзандин қувончин камолин кўриб,
Шундай кун кўзлари қувончга тўлиб,
Кўнгиллар қувнасин шундай даврада,
Оналар ҳинасин шундай даврада.

Яхши-ёмон кунлар бошдан ўтганди,
Ахир, бу кунларни қанча кутганди,
Бугун энг бахтиёр унинг дилбанди,
Кўнгиллар қувнасин шундай даврада,
Оналар ҳинасин шундай даврада.

Дўстлар тилдан тушмас шундайин ҳикмат,
Оналар оёғи остида жаннат,
Беозор, дуокор, меҳри беминнат,
Кўнгиллар қувнасин шундай даврада,
Оналар ҳинасин шундай даврада.

Уйнинг фариштаси онажонимиз,
Яхши кунлар келди меҳрибонимиз,
Баракага тўлди дастурхонимиз,
Кўнгиллар қувнасин шундай даврада,
Оналар ҳинасин шундай даврада.

Келину қизларнинг жамолин кўриб,
Фарзандин қувончин, камолин кўриб,
Шундай кун кўзлари қувончга тўлиб,
Кўнгиллар қувнасин шундай даврада,
Оналар ҳинасин шундай даврада.

ДИЛИМ

Дилим — дарё, ундан фақат сен оқасан,
Дилим — юлдуз, унга фақат сен боқасан.

Дилим — узук, уни фақат сен тақасан,
Дилим — бемор, дардин фақат сен топасан.

Дилим — тушдир, уни ўзинг уйғотасан,
Дилим — уфқдир, қуёшдек келиб ботасан,

Дилим — нурдир, сен янада ёритасан,
Дилим — хурдир, унинг жуфти фариштасан.

Дилим — тоғдир, юксакларга қаратасан,
Дилим — булут, ёмғирларнинг юртидасан,

Дилим — гулдир, гулғунчанинг кафтидасан,
Дилим — чўғдир, муҳаббатнинг тафтидасан.

Дилим — ошиқ, шому саҳар тилидасан,
Дилим — шоир, ҳар бир ёзган сатридасан,

Дилим — денгиз, уммонларнинг қаъридасан,
Дилим — баҳор, сен кўкламнинг бағридасан.

Дилим — дарё, ундан фақат сен оқасан,
Дилим — юлдуз, унга фақат сен боқасан,



●

М

Е

Н

И

Н

Г

●

Ю

Р

Т

И

М

А

ҳ

а

д

•

Қ

А

Ю

М

◎

АЁЛ БОР ДУНЁДА

Аёл бор дунёда бахт бор, иқбол бор,

Аёл бор дунёда ширин-хаёл бор, -----

Аёл бор дунёда ишқ бор, висол бор,

Аёл бор дунёда соҳибжамол бор.

Аёл бор дунёда парирухсор бор,

Аёл бор дунёда ул гулрухсор бор,

Аёл бор дунёда гул бор, баҳор бор,

Аёл бор дунёда ошиғи зор бор.

Аёл бор дунёда гулга мисол бор,

Аёл бор дунёда дилга тимсол бор,

Аёл бор дунёда малак дилдор бор,

Аёл бор дунёда васли дийдор бор.

Аёл бор дунёда ҳофизу тор бор,

Аёл бор дунёда кўшиқ, ашъор бор,

Аёл бор дунёда Аҳадга ёр бор,

Аёл бор дунёда лаблари ол бор.

ВАТАННИ СЕВ

Ватанни сев, ватан деб яша,

Ватан билан сен гулла, яшна,

Ватан учун нафас ол, дўстим,

Доим бўлгин ватанга ташна.

Она юртим, элим, тупроғим,

Илдизларим, гулим, япроғим,

Ватан бизга отадай улуғ,

Онамиздай меҳри чироғим...

ҲАЗИЛКАШЛАРГА

Қувноқлар, зукколар ҳамда донолар,
Сўзлари бой, кулги ўхшатишларга,
Ҳеч ким хафа бўлмас таҳсинда қолар,
Ҳазиллар ярашар ҳазилкашларга!

Юзингизга кулги югурса хандон,
Сизлар роҳат олинг, сиз бўлинг шодон,
Фикрлари чаққон, сўзлари бийрон,
Ҳазиллар ярашар ҳазилкашларга!

Санъат фидолари заҳматкашларга,
Меҳр йўлидаги меҳнаткашларга,
Омад юлдузлари эргашиб юрсин,
Ҳазиллар ярашар ҳазилкашларга!

Аёлни чаёнга ўхшатган шулар,
Болани шайтонга ўхшатган шулар,
Хотинини туққан қайнонасини,
Кобраю илонга ўхшатган шулар,
Саҳнада бу одат мумкин ёшларга,
Ҳазиллар ярашар ҳазилкашларга!

Чин дилдан истаймиз самимиятни,
Кулинг, ардоқлангсиз шундай неъматни,
Хато тушунмангсиз, дўстлар, Аҳадни,
Ҳазиллар ярашар ҳазилкашларга!

Қувноқлар, зукколар ҳамда донолар,
Сўзлари бой, кулги ўхшатишларга,
Ҳеч ким хафа бўлмас таҳсинда қолар,
Ҳазиллар ярашар ҳазилкашларга!



М

Е

Н

И

Н

Г

●

Ю

Р

Т

И

М

А

Ҳ

а

д

•

Қ

А

Ю

М

•

ОҚИБАТ

Ота бўлмай, тушунмайсан отангни,
Эна бўлмай, тушунмайсан онангни.
Ҳаволарга сарф этмайин кучингни,
Адо этгин сен фарзандлик бурчингни.

Сен ёлғончи ялдоларга учмагин,
Молю дунё, тиллоларга учмагин.
Сенга ёрдам бергай рўзи охират,
Оқибатдир, оқибатдир, оқибат.

Онанг пойин бир бор тавоф айласанг,
Шу амал деб не тонг жаннатга тушсанг.
Агар бугун хабар олсанг отангдан,
Бу яхшилик эрта қайтар болангдан.

Савобларга тўлсин десанг гар рўзим,
Оқибатнинг жиловин қўйма, дўстим.

НАСИҲАТ

Отам кўп насиҳат қилар уқтириб,
Шошилмагин, ўғлим, бўлгин эҳтиёт,
Сен менинг ёшимга етгунча ҳали,
Ҳали улгурасан олдинда ҳаёт.

Отамга ҳам, қаранг, уқтирар бобом,
Шошилмагин дейди, бўлгин эҳтиёт.
Сен менинг ёшимга етгунча ҳали,
Ҳали улгурасан олдинда ҳаёт.

ЯҚИН ҰТМИШ

Кимдир ишонади, кимдир эса йўқ,
Ёмон қийналганман ҳаёт йўлида,
Душманларимдан-ку менинг кўнглим тўқ,
Ишончлар йиғлади дўстим қўлида!

Нетай, мен бировга ўхшаёлмасам,
Кимларгадир қараб яшаёлмасам,
Қорани бу оқ деб, йўқни бор қилиб,
Нодонни яхши деб мақтаёлмасам...

Кимдир ишонади, кимдир эса йўқ,
Бахтсиз сарсон ўтди қанча йилларим,
Очлик, юпунликда иссиқми, совуқ,
Омадсиздай эди барча йўлларим.

Бир кун жаҳлим чиқди!
Йиғлаб юбордим,
Наҳотки, шунчалар бахтсиз одамман,
Отамдан бироз пул сўраб ёлвордим,
Наҳотки, шунга ҳам ҳақсиз одамман.

Кимдир ишонади, кимдир эса йўқ,
Икки кунда бир ҳам овқатланмасдан,
Бир кунда иккита китоб ўқирдим,
Жонимни қийнардим, атайлаб, қасддан.

Кунлар ўтар эди шундай судралиб,
Энг арзон ижара уйлардан безиб,
Бир куни бор-ей деб юкларим олиб,
Қишлоғимга қайтдим умидим узиб.

— Ота — дедим, — энди ҳаммаси тамом,
На шоир, на актёр, на одам бўлдим,
Математик бўлсин деганди бобом,
Ўзимни бекорга оловга урдим.

☉

М

Е

Н

И

Н

Г

•

Ю

Р

Т

И

М

А
ҳ
а
д
•
Қ
А
Ю
М
•

Отам менга раҳм қилмай қўйганди,
— Ол, — деди қўлимга кетмонни тутиб —
Бу роль ўйнаш эмас, қўшиқчиликмас,
Талтайиб кетибсан шаҳарда юриб...

Алам қилиб кетди,
Ичимга ютдим,
Отамнинг нигоҳи дилга санчди ўқ,
Ўша кун даладан шеър ёзиб қайтдим,
Кимдир ишонади, кимдир эса йўқ.

Менга қараб учта синглим йиғларди,
Онам қийналарди ҳолимга қараб,
Мени севган ўша актриса қиз,
Бир бора ортимдан бормади сўраб...

— Бирор иш топайлик, — дедим бувимга,
Бувим деди: — Уйлан, ана сенга иш.
Бувимнинг айтганин қилсам бўларкан,
Бувим ўтиб қолди келмасидан қиш.

Худога таваккал қилдим сўнг яна,
Ҳеч кимнинг гапига кулоқ солмадим,
Бир даста шеъримни кучоқлаб, мана,
Ортга қайтдим сўнг бор синай омадим...

Шеърларим босмади бироро газета,
Эшигин очмади битта нашриёт,
Наҳотки, истейдод йўқ эди менда,
Шаҳдимни синдирма, эй адабиёт.

Дилдаги гапларим,
Минглаб шеърларим,
Наҳотки, ҳеч кимга керак бўлмаса,
Бир қишлоқдан келган мендай актёр,
Омадин тополмай ночор йиғласа.

Умидимни узиб режиссёрлардан,
Таниқли, таниқсиз санъаткорлардан,
Охир яна ортга қайтмоқчи эдим,
Жавоб келиб қолди бастакорлардан.

Бир нечта шеърларим куйга солиниб,
Санъаткорлар ижро эта бошлади,
Исмим халқ ичида тилга олиниб,
Бошимдан булутлар кета бошлади.

Кўз очиб-юмгунча яшин тезликда,
Омад тулпорида кўрдим ўзимни,
Яратган шарманда қилмади, шукр,
Ўзи ёруғ қилди юзимни...

Қимдир ишонади, кимдир эса йўқ,
Ўтмишимдан бутун йиғлаб гапирсам,
Ортимда қарасам юрагимда чўғ,
Рост бўлсин юракдан ўчиб кетган FАM.

Қимдир ишонади, кимдир эса йўқ,
Ёш бошимдан ўтди қанча тухматлар,
Қанча ноҳақлигу, қанча номардлик,
Кўнгил синдиришу, қанча ғурбатлар.

Энди сиз ҳам менга ишонинг, ота,
Сизга ҳасратларим энди айтиш йўқ,
Ватаним деб катта йўлга чиққанман,
Ишонинг, ҳеч қачон ортга қайтиш йўқ...

Қимдир ишонади, кимдир эса йўқ,
Ёмон қийналганман ҳаёт йўлида,
Душманларимдан-ку менинг кўнглим тўқ,
Ишончлар йиғлади дўстим кўлида!



А
ҳ
а
д
•
Қ
А
Ю
М
◎

ОҚИБАТ ЙЎҚОЛДИ НЕЧУН

Ўғилнинг отага меҳри йўқ, қаранг,
Аканинг ўкага қадри йўқ, қаранг,
Қорнидан талашиб тушган жигарлар
Онасин йўқлашга вақти йўқ, қаранг,
Сизларга не бўлди, одамлар, бугун,
Орада оқибат йўқолди нечун?

Бошингга қўнганда давлатқуш омад,
Атрофингда тўлар сохтадўст улфат,
Ўликми, тирикми деб бир йўқламас,
Елканга озгина тушганда кулфат,
Наҳотки, сотарлар дўстни пул учун,
Ўртада оқибат йўқолди нечун?

Жон қўшнинг йилда бир олмаса хабар,
Яқинлар чет элда юрса дарбадар,
Жигаринг озгина яхшилик қилиб,
Саломни миннатдан бошласа агар,
Наҳотки, мол-дунё одамдан устун,
Орада оқибат йўқолди нечун?

Бу миллат меҳрдан қадин ростлаган,
Ватаннинг юзига оёқ босмаган,
Сайёҳлар атайин кўриб кетарди,
Ўзбек дарвозага занжир осмаган,
Оҳ, кулфлар осилди, қалбда кўрғошин,
Орада оқибат йўқолди нечун?

Онага талпинган гўдакдек шогирд,
Улуғ устозининг таълимин олиб,
Сал ўтмай рақобат тишларин қайрар,
Устознинг бор илмин эгаллаб бўлиб,
Бир ифлос манманлик булғабди ичин,
Адо этолмабди қасамин, бурчин...

Эй Аҳад, беш кунлик дунё ўткинчи,
Яшамокдан маъно недур, айтгин-чи?
Ҳайвондек нафс қувса инсон боласи,
Виждон куйиб кетса дилнинг таянчи,
Ҳеч ким бўлолмайти дунёга устун,
Орада оқибат йўқолди нечун?

Севган ошиқларда вафо қолмади,
Ёшлар муҳаббатнинг дарсин олмади,
Эркакмижоз аёлларнинг юзини,
Аёлмижоз эркаклар кўролмади,
Сеза олмадилар либосда ичин,
Ўртада оқибат йўқолди нечун?

Ўғилнинг отага меҳри йўқ, қаранг,
Аканинг укага қадри йўқ, қаранг,
Қорнидан талашиб тушган жигарлар,
Онасин йўқлашга вақти йўқ, қаранг...
Сизларга не бўлди, одамлар, бугун,
Орада оқибат йўқолди нечун?

БЕМОРЛАРДАН ҲОЛИН СЎРАНГ, БЕМОРЛАРДАН

Кам бўлмасин, жигарларим, дўст, ёрим деб,
Болам, чақам, уйим, жойим, рўзгорим деб,
Яхшилигин аямади ҳеч кимсадан,
Керак экан элу юртга даркорим деб.
Куч-қуввати кетиб қолса мадорлардан,
Беморлардан ҳолин сўранг, беморлардан.
Керагида фойдаланиб, бор бўлган кун,
Ёлғизлатиб қўйманг сизга зор бўлган кун,
Сиқилма денг, яхши кунлар олдинда денг,
Қўзларига кенг уйлари тор бўлган кун.
Ўчирмангиз ўринларин қаторлардан,
Беморлардан ҳолин сўранг, беморлардан.
Кўзин тикиб, кеча-кундуз йўлингизга,
У муштоқдир бугун битта ширин сўзга,
Умид беринг, ҳали узоқ яшайсан денг,
Бу дунёдан умидини узган кўзга.

●

М

Е

Н

И

Н

Г

●

Ю

Р

Т

И

М

А У ҳаётга қайтар гўзал дийдорлардан,
 ҳ Беморлардан ҳолин сўранг, беморлардан.
 а Илдингиз суғоргувчи дарё эди,
 д Оҳ десангиз ёнингизда тайёр эди,
 • Қай муаммо юзингизни сарғайтирса,
 Қ Табиб эди, дардингизга шифо эди.
 А Ярим жони хаста ётган бедорлардан,
 Ю Беморлардан ҳолин сўранг, беморлардан.
 М Айрим дардга шифокор ҳам ожиз бўлар,
 ☉ Кексалар дер одам тафтин одам олар,
 Жон оғриси гоҳо дори дармон эмас,
 Кўнгил бир дўст ёрдамига муҳтож қолар,
 Безиб кетса, тўйиб кетса озорлардан,
 Беморлардан ҳолин сўранг, беморлардан.
 Бу яхшилик, яхши кунда қайтар бир кун,
 Бемор кўзлар йиғламасин асло юм-юм,
 Эшикларин очиб киринг мўъжизадек,
 Дўстлар, сиздан шуни тилар Аҳад Қайюм.
 Соғлик сўраб, умр сўраб баҳорлардан,
 Беморлардан ҳолин сўранг, беморлардан.

БАҲОР МУБОРАК!

Ошиқлик фаслига
 Алёр муборак,
 Табриклайман такрор,
 Такрор муборак,
 Ёшлик айёми бу,
 Бахт айёми бу,
 Дўстлар, барчангизга
 БАҲОР МУБОРАК!

Ҳамма бир-бирини
 Қутлайди шодон,
 Лолақизғалдоқлар
 Ранглари алвон,
 Эй дил, шодликка тўл,
 Яйрагин, қувон,
 Дўстлар, барчангизга
 БАҲОР МУБОРАК!

Яшариш фасли бу,
Яшнариш фасли,
Кўкламда уйғонар
Табиат асли,
Кўринг мўъжизанинг
Ям-яшил қасрин,
Дўстлар, барчангизга
БАҲОР МУБОРАК!

Совуқ қаҳратоннинг
Авжи палласи,
Қорнинг ваҳимаси,
Қишнинг чилласи,
Уйғониш фаслининг
Гўзал алласи,
Дўстлар, барчангизга
БАҲОР МУБОРАК!

Мен шундай хурсандман,
Шодман бахтимдан,
Она тупроғимдан,
Озод халқимдан,
Яхшиликдан дилда
Сўрайман тилак,
Дўстлар, ҳаммангизга
БАҲОР МУБОРАК!

Янгидан толеи
Кулсин ҳар кимнинг,
Ризқ-рўзи бутундир,
Шукр, элимнинг,
Шодлигини кўринг
Аҳад Қаюмнинг,
Дўстлар, барчангизга
БАҲОР МУБОРАК!

Ошиқлик фаслига
Алёр муборак,
Табриқлайман такрор,

●

М

Е

Н

И

Н

Г

●

Ю

Р

Т

И

М

А
Ҳ
а
д
•
Қ
А
Ю
М
●

Такрор муборақ,
Ёшлиқ айёми бу,
Бахт айёми бу,
Дўстлар, барчангизга—
БАҲОР МУБОРАК!

ЯНГИ ЙИЛ

Қорни ўйинчоқдек ўйнар янги йил,
Яхшилиқ қўшиғин куйлар янги йил,
Қорбобою қорқиз арчаси билан,
Бутун ер юзини қутлар янги йил.

Бу йил ҳам янги йил, яхши йил бўлсин,
Бу дунё шодликка, қувончга тўлсин,
Бахтли бўлинг! Сизга энг ширин тилақ,
Энг гўзал орзулар, энг гўзал эртақ.

Бу йил нималардан сўйлар янги йил,
Дилни ҳавасларга бойлар янги йил,
Элнинг нимаси кўп, яхши куни кўп,
Кўпайсин байрамлар, тўйлар янги йил.

Янги йил, янги йил, энг гўзал кундир,
Кексаю ёш бирдек унга мафтундир,
Бир кунда шунча кўп бахт берасанки,
Бир кунлик шодлигинг йилдан узундир.

Ким учун парвозга бир қанот бутун,
Хаёллар бесарҳад кенг, озод бу кун.
Одамлар кўчада байрам қиляпти,
Аҳад Қайом учун ҳисобот бу кун.

Қорни ўйинчоқдек ўйнар янги йил.
Яхшилиқ қўшиғин куйлар янги йил,
Қорбобою қорқиз арчаси билан,
Бутун ер юзини қутлар янги йил.

УМР ЙЎЛДОШИМ

Ёстиқларга бир кун ботса гар бошим,
Мени сотиб кетса дўсту сирдошим,
Сарғайган юзларим ювса кўз ёшим,
Ўша кун мен учун ким ачинар ким?
Энг аввал куюнар умр йўлдошим!

Бағримда улғайиб таниблар ҳаёт,
Ёнимда оларлар тарбия, сабот,
Фарзандларим кетар учириб қанот,
Ёстиқларга бир кун ботса гар бошим,
Энг аввал куюнар умр йўлдошим!

Тирик жон, хасталик қучиши мумкин,
Омад қуши бошдан учиши мумкин,
Ҳатто мухлисларим кечиши мумкин,
Мени сотиб кетса дўсту сирдошим,
Энг аввал куюнар умр йўлдошим!

Қариндош жигарим, олам ғанимат,
Отам ғаниматдир, онам ғанимат,
Сарғайган юзларим ювса кўз ёшим,
Ёшим қирқдан ошиб, келиб бир фурсат,
Энг аввал куюнар умр йўлдошим!

Қолса меҳрибонлар йиғлашиб юм-юм,
Қабринг узра маъюс ким соғинар ким?
Сени дилдан эслаб, эй Аҳад Қаюм,
Ўша кун мен учун ким ачинар ким?
Энг аввал куюнар умр йўлдошим!



●
М
Е
Н
И
Н
Г
●
Ю
Р
Т
И
М

А
ҳ
а
д
•
Қ
А
Ю
М
◎

ДЎСТЛАРИМ, ОДАМГА ОДАМ ҒАНИМАТ

Бахтим ўткинчидир, нолам ғанимат,
Бу кунлар ғанимат, олам ғанимат,
Қадрлаб яшайлик гўзал ҳаётни —
Дўстларим, одамга одам ғанимат.

Бошга бало бўлар тилнинг офати,
Унутманг, битмайди дил жароҳати,
Тиригида бўлсин ҳар кимнинг қадри,
Дўстларим, одамга одам ғанимат.

Бахт бойликда эмас, инсонийликда,
Иймондан қимматроқ ҳеч нарса йўқ-да,
Шошма, тирикчилик демагин, тўхта,
Дўстларим, одамга одам ғанимат.

Меҳрибон, яқиним соғиндим сизни,
Оқибат риштаси боғласин бизни,
Меҳр-муҳаббатга бурайлик юзни,
Дўстларим, одамга одам ғанимат.

Яхшиликдан бўлсин ҳар қандай суҳбат,
Бошингга балодир иғвою тухмат,
Дийдорга тўяйлик, не берар ғийбат,
Дўстларим, одамга одам ғанимат.

Кимга омад чошиб керилиб кетса,
Бойликка, мансабга берилиб кетса,
Ортидан не қолар дунёдан ўтса,
Дўстларим, одамга одам ғанимат.

Бугун бизга насиб этибди дийдор,
Эртага кимдир йўқ, кимдир эса бор,
Ота-онангизни этманг интизор,
Дўстларим, одамга одам ғанимат.

Қалбини тушунгин Аҳад Қаюмнинг,
Яхшилик безайди менинг йўлимни,
Фарқин англаб олинг ҳаёт, ўлимнинг,
Дўстларим, одамга одам фанимат.

Бу кунлар фанимат, олам фанимат,
Отам фаниматдир, онам фанимат,
Яхшилик тилайлик бир-биримизга,
Дўстларим, одамга одам фанимат.

ЭРТА-ИНДИН ДЕБ ЮРАВЕРСАНГ

Эрта-индин деб юраверсанг,
Тугамайди ташвишинг бир он.
Энг бахтлиман бугун мен дегин,
Ўзинг учун яшагин инсон.

Эрта-индин деб юраверсанг,
Ким-кимлар йўқ эртага, ахир.
Фанимат бил ҳар битта дамни,
Имкон бермас эртага тақдир.

Ўзинг учун яшагин инсон.
Хабар олгин ота-онангдан,
Кўзингни юм, чуқур нафас ол,
Барча ғаминг чиқсин танингдан.

Ибодат қил, Худодан сўра,
Ўзинг билан қилаверма жанг.
Умринг тугаб қолади, Аҳад,
Эрта-индин деб юраверсанг.



А
ҳ
ā
д
●
Қ
А
Ю
М
◎

ЙИҒЛАМАСИН ОЖИЗА АЁЛ

Бунча зебо, бу гўзал хилқат,
Таърифӣ йўқ, мўъжиза аёл,
Қафтимизда асрайлик фақат,
Йиғламасин ожиза аёл!

Севгисини рашкка йўймангиз,
Дийдоридан севиб тўймангиз,
Уни асло ёлғиз қўймангиз,
Йиғламасин ожиза аёл!

Тоғлар ҳайрон аёл сабридан,
Меҳр қайнар ўтли бағридан,
Ўксимасин номард жабридан,
Йиғламасин ожиза аёл!

Аёл борки, дунё мунаввар,
Аёл борки, бу ҳаёт гўзал,
Аёл борки, гўзал шеър, ғазал,
Йиғламасин ожиза аёл!

Гул умрига бўлиб тиргақлар,
Бахтдан завққа тўлсин юраклар,
Ҳушёр бўлинг, азиз эркақлар,
Йиғламасин ожиза аёл!

Аҳад Қаюм сўрайди сиздан,
Онаси бор ҳар ўғил-қиздан,
Бахтли яшаб ўтсин ҳар аёл,
Онажонлар ошсинлар юздан.
У сингилдир, у опа, у ёр,
Йиғламасин ожиза аёл!



ШУНДАЙ АЁЛ ЭДИ МЕНИНГ ВОЛИДАМ

Шундай аёл эди
Менинг волидам,
Фарзанд учун ҳатто
Жонин берарди,
Бирор бир ишимни
Маслаҳат қилсам,
Отангдан сўрай-чи,
Болам, дер эди.

Онам борлигида
Тириклигида,
Ҳаёт гўзал эди,
Яшаш зўр эди.
“Она, соғлигингиз
Яхшими?” десам,
Отангдан сўрай-чи
Болам, дер эди.

Отамнинг ишлари
Юришмай қолса,
Онам йиғлар эди,
Қийналар эди,
“Мен қандай боламан,
Онажон?” десам,
Отангдан сўрай-чи,
Болам, дер эди.

Онамнинг биргина
Шу сўзларида,
Бутун бир тарбия
Китоби бордай,
Юрагимга чизган
Нур изларида,
Онам хотираси
Қалбимга ёрдай.
Эсимда, бир куни

●

М

Е

Н

И

Н

Г

●

Ю

Р

Т

И

М

Касалхонада,
 Онам ётар эди
 Дардга қамалиб,
 Қўлимга бир гижим
 Қоғоз бердилар,
 Ўкириб юбордим
 Қоғозни ўқиб.

“Ўғлим, мендан хафа
 Эмасмисизлар?”
 Мактубда шундайин
 Сўзлар бор эди.
 “Биздан розимисиз,
 Онажон?” десам,
 Отангдан сўрай-чи,
 Болам, дер эди.

Менинг йўлимга зор,
 Жуфти ҳалолим,
 Сенинг меҳринг билан
 Дардим арийди.
 Маслаҳат сўраса
 Болаларимиз,
 Отангдан сўрайлик
 Десанг қанийди.

Менга керак эмас
 Севги изҳори,
 Ёки Париждаги
 Романтикалар,
 Фарзандига ҳар бир
 Ўзбек аёли,
 Отангни қадрла
 Деб ўргатсалар.

Шундай аёл эди
 Менинг волидам,
 Фарзанд учун ҳатто
 Жонин берарди,

Касалхонада,
 Онам ётар эди
 Дардга қамалиб,
 Қўлимга бир гижим
 Қоғоз бердилар,
 Ўкириб юбордим
 Қоғозни ўқиб.

“Ўғлим, мендан хафа
 Эмасмисизлар?”
 Мактубда шундайин
 Сўзлар бор эди.
 “Биздан розимисиз,
 Онажон?” десам,
 Отангдан сўрай-чи,
 Болам, дер эди.

Менинг йўлимга зор,
 Жуфти ҳалолим,
 Сенинг меҳринг билан
 Дардим арийди.
 Маслаҳат сўраса
 Болаларимиз,
 Отангдан сўрайлик
 Десанг қанийди.

Менга керак эмас
 Севги изҳори,
 Ёки Париждаги
 Романтикалар,
 Фарзандига ҳар бир
 Ўзбек аёли,
 Отангни қадрла
 Деб ўргатсалар.

Шундай аёл эди
 Менинг волидам,
 Фарзанд учун ҳатто
 Жонин берарди,

А

ЭЙ ДҮСТ

ҳ

а

д

•

Қ

А

Ю

М

●

Туғилмоқ, яшамоқ ҳар бир бошда бор,
 Кимларга омад ёр, кимлар бахтга зор.
 Қимнингдир гул умри сўлганда бекор,
 Уйла, бу умрнинг савдосин, эй дўст,
 Тингла бу кўнгилнинг садосин, эй дўст.

Эй дўст, яхшиликнинг умри узоқдур,
 Ёмоннинг ҳар босган изи тузоқдур.
 Ёлғончилик недур, охири чоҳдур,
 Олгин ота-онанг дуосин, эй дўст,
 Хато ёзма кўнгил иншосин, эй дўст.

Бахтнинг илдизи бу сабр деганим,
 Эй дўст, бесабрлик жабр деганим.
 Яхшилик охири қадр деганим,
 Тушун, зарҳикматлар маъносин, эй дўст,
 Кўтарма нодонлар ғавғосин, эй дўст.

Севгини рад этмоқ гуноҳдир азал,
 Ўзга юрт Ватандан бўлолмас афзал.
 Энг аввал дилхонанг безатгин гўзал,
 Топгайсан ҳар дарднинг даъвосин, эй дўст,
 Қилмагин буюклик даъвосин, эй дўст.

Атрофга боқ, сендан пастроқларам кўп,
 Душманлар ичида дўстроқларам кўп.
 Гулзорлар ичинда тузоқларам кўп,
 Оларсан роҳатлар жазосин, эй дўст,
 Орттирма жонингнинг жафосин, эй дўст.

Сен учун Аҳаддан шарҳи насиҳат,
 Бир яхши, бир куни ёмон вазият.
 Бир куни чекмайин десанг азият,
 Танигин оламлар подшосин, эй дўст,
 Қилмагин гумроҳлар хатосин, эй дўст.

СИНИШИМНИ СОҒИНДИ КИМЛАР

Кулишимни соғинди кимлар,
Сўлишимни соғинди кимлар.
Ёнишимни кутганлар ҳам бор,
Синишимни соғинди кимлар...
Дўстингман деб чоҳ қаздилар, оҳ—
Мен у чоҳга сиғмадим бироқ.
Гоҳо аёл макрига учдим,
Гоҳ кўнгил оғусин ичдим...

Дўсти жоним, жондан азизсан,
Оқибатнинг занжирин туз сан.
Юрагимга урсалар ханжар,
Ёнимда тур қиёматгача.
Эгик бошим соғинди кимлар,
Қўзда ёшим соғинди кимлар.
Улишимни кутганлар ҳам бор,
Тинишимни соғинди кимлар.

Инграйверар ичимда юрак,
Йиглайверар не қилмоқ керак.
Ака-ука қариндошдан гоҳ,
Бегоналар келади мардроқ.

О, севгилим хиёнатларинг,
Қалбим йиртар жиноятларинг.
Эҳ, зерикдим ёлғонлардан ман,
Чарчаб кетдим ёмонлардан ман...
Юрак оғрир мазорим имлар,
Ўлсам кўзим босганда қумлар.
Севишимни кутганлар ҳам бор,
Совишимни соғинди кимлар.

Фоний дунё ҳавасидан кеч,
Ёлғонларнинг ҳаммасидан кеч.
Пул, аёллар, кўнгилхушликлар,
Тириклайин гўрингга тикар.

●
М
Е
Н
И
Н
Г
●
Ю
Р
Т
И
М

А Эркакман деб кўкрак керганлар,
ҳ Қилмишлари аёлдан баттар...
а Пок номимни қориб ғийбатга,
д Савлатимни кўролмадилар.

• Ҳаёт, отам бағрини яшнат,
Қ Онажоним кўзёшларин арт.
А Ифлос, душман ҳасадчилардан,
Ю Қачон буткул қутуламан айт.
М Олдиндадир ҳали чин-ҳазил,
○ Олдиндадир ҳали йўл-манзил.
Айтишимни кутганлар ҳам бор,
Қайтишимни соғинди кимлар...
Ғамлар кўрса мурғак елкамда.
Ота-онам сиқилади-да.
Баъзиларга ўхшаб сотилиб,
Кечмаганман она Ватандан...

Бухородан кетиб Тошкентга
Наф тексин деб она элимга.
АҲАД ҚАЮМ ижод йўлида,
Яхши ният туккан дилига.
Ўлишимни кутганларам бор,
Тинишимни соғинди кимлар,
Кўнишимни соғинди кимлар,
Синишимни соғинди кимлар...

Навоийнинг дилхонасидан,
Умар Ҳайём майхонасидан.
Ҳофиз элим таронасидан,
Муҳаббатнинг гулхонасидан.
Ижодхона кошонасидан,
Адабиёт остонасидан.
Кетишимни кутганларам бор,
Келишимни соғинди кимлар.
Кулишимни соғинди кимлар,
Сўлишимни соғинди кимлар...

АЗИЗЛАРИМ, ДИЙДОРИНГИЗ ҒАНИМАТ

Кимга айтай юракдаги дардимни,
Сиздан бошқа ким ҳам билар қадримни,
Пойингизга тўқай соғинчларимни,
Бугун ёнимдасиз шу ҳам бир неъмат,
Азизларим, дийдорингиз ғанимат.

Бошимга иш тушса келган ёнимга,
Қонингиз туташдир томир, қонимга,
Юрагимга мадад, жонсиз жонимга,
Шу қайноқ меҳрингиз мен учун ҳиммат,
Яқинларим дийдорингиз ғанимат.

Мени ўйлаб тунлар ором билмаган,
Болам дея, не кунларни кўрмаган,
Оламга яхшилик сочиб тинмаган,
Онажоним, дийдорингиз ғанимат,
Отажоним, дийдорингиз ғанимат.

Гоҳо дилга дунё тордек сифмади,
Менга қараб жон талашиб йиғлади,
Гарчи бугун яна омад йўқлади,
Сенинг ҳар нафасинг жонимдан қиммат,
Суюклигим дийдорингиз ғанимат.

Яхшиликлар муҳаббатдан туғилсин,
Ҳасадгўйлар боши энди эгилсин,
Нолаларим юрак торингиз чертсин,
Доим номим ёруғ айлангиз фақат,
Фарзандларим дийдорингиз ғанимат.

Аҳаднинг сўзларин олиб насихат,
Бироз ҳасрат тўкса берингиз рухсат,
Савобдир яхшилик ҳақдаги суҳбат,
Олган нафасимиз экан омонат,
Бу кунларим дийдорингиз ғанимат.

●
М
Е
Н
И
Н
Г
●
Ю
Р
Т
И
М

ЭЙ ИНСОН, КЎЗИНГНИ ОЧ

А

ҳ

а

д

•

Қ

А

Ю

М

◎

Бир томонда яхшилик,
Бир томонда ёмонлик,
Бир томонда ҳақиқат,
Бир томонда тубанлик,
Бир томонда худбинлик,
Бир томонда манманлик,
Эй инсон кўзингни оч,
Бошдан эмасдир бу бош,
Эй инсон, кўзингни оч,
Бошингга урилмай тош!

Билиб қўй, ёруғликдан
Зулматгача бир қадам,
Омадни қўлдан берсанг,
Кулфатгача бир қадам,
Муҳаббатинг сотсалар
Нафратгача бир қадам,
Эй инсон, кўзингни оч,
Бахтинг бўлмайин талош,
Эй инсон, кўзингни оч,
Бошингга урилмай тош!

Орттирай деб мол-давлат,
Бошингга орттирма дард,
Ота-онанг ғанимат,
Кетиб қолмайин фурсат,
Акангга қил оқибат,
Укангга қил оқибат,
Яхшилик қил, яхшилик,
Дунёга меҳрингни соч,
Эй инсон, кўзингни оч,
Бошингга урилмай тош!

Омад келса шукр қил,
Кулфат эшик қоқмасдан,
Ёруғликдан баҳра ол,
Зулмат эшик қоқмасдан,
Минг китоб ўқисангу
Маъносини уқмасдан,
Бир устоз этагин тут,
Отадай меҳри куёш,
Эй инсон, кўзингни оч,
Бошингга урилмай тош!

Қузғунларга ем бўлмай,
Қаноти синса бургут,
Тошдан баттар хор бўлмай,
Заргар бўлмаса ёқут,
Гўр қазма сен ўзингга,
Ўзингга ясаб тобут,
Эй инсон, кўзингни оч,
Ёлғонинг бўлмайин фош,
Эй инсон, кўзингни оч,
Бошингга урилмай тош!

Ҳаёт кўҳна иморат,
Курашмоқдан иборат,
Бир томонда диёнат,
Бир томонда хиёнат,
Бир томонда адолат,
Бир томонда разолат,
Ким ўғрию, ким тўғри,
Ким баланд ёки ким паст,
Эй инсон, кўзингни оч,
Кўзингга тўлмайин ёш,
Эй инсон, кўзингни оч,
Бошингга урилмай тош!
Унутмагин донолар

●

М

Е

Н

И

Н

Г

●

Ю

Р

Т

И

М

А

ҳ

а

д

•

Қ

А

Ю

М

◎

Сўзин билиб айтади,
Бировга озор берма,
Фарзандингга қайтади,
Эҳтиёт бўл, душманинг
Хатоларинг кутади,
Эй инсон, кўзингни оч,
Ёмон хаёллардан қоч,
Эй инсон, кўзингни оч,
Бошингга урилмай тош!

Бу тўрт кунлик дунёда,
Бир бошда бор бир ўлим,
Минг шукр, тақдиримдан
Тўладир маним кўнглим,
Шукр қилиб яшашни
Сўрайди Аҳад Қаюм,
Эй инсон, кўзингни оч,
Кетиб қолмасин қувонч,
Эй инсон, кўзингни оч,
Бошингга урилмай тош.

Бир томонда яхшилик,
Бир томонда ёмонлик,
Бир томонда ҳақиқат,
Бир томонда тубанлик,
Бир томонда худбинлик,
Бир томонда манманлик,
Эй инсон, кўзингни оч,
Тошдан эмасдир бу бош,
Эй инсон, кўзингни оч,
Бошингга урилмай тош!



ОНАМГА ХАТ

Бу ҳаётнинг лой кўчалари,
Оёғимни тойирди, она.
Бухорога кўп боролмайман,
Тошкент бизни айирди, она!
Йил санайди бечора отам,
Қачон сизни бахтли қиламан,
Тошкентларда ижод қилсам ҳам,
Бухорони яхши кўраман!
Нима қилай, Ватаним учун
Бир фидокор жангчи бўлай деб,
Кўрсатсин деб қуролнинг кучин,
Тиғдан ўтқир шеърларим ёзиб.
Хотинининг бағрида писиб,
Ётадиган мудроқлар эмас,
Ватан учун кўксини тутиб,
Фидокорлар керак унга бас.
Соғинасиз, йиғлайсиз кел, деб,
Ижод мендан устунми, дейсиз,
Хатлар ёзиб шаҳарга ҳар кун,
Қайтиб бергин ўғлимни, дейсиз...
Менинг битта қурбоним билан,
Ўзбекистон яна гулласа,
Рози бўлинг, онажон, мендан,
Халқим мени дилдан қўлласа.
Меҳнаткаш эл дардини ёзиб,
Ўғлингман деб ёзарман ёна,
Энди фақат сизнинг фарзандмас,
Бутун юртнинг ўғлиман, она.
Йил санайди бечора отам,
Қачон сизни бахтли қиламан,
Тошкентларда ижод қилсам ҳам,
Бухорони яхши кўраман!

●

М

Е

Н

И

Н

Г

●

Ю

Р

Т

И

М

А

ҚАРИЯЛАР УЙИ

ҳ

а

д

•

Қ

А

Ю

М

◎

Қариялар уйи жонли театр,
Фожиали китоб, энг дардли кино,
Қариялар уйи, мурдасиз қабр,
Бахт сўзи бегона, совуқ бир бино...

Кўзларда қадрнинг мунгли мактуби,
Тарбия аламдан ураверар дўқ,
Қариялар уйи, умидсиз сабр,
ДУНЁ — ҳар инсоннинг уволидан кўрқ.

Ногиронга ёрдам бера олмайсан,
На илож, Оллоҳим шундай яратган,
Етимнинг-ку бошин аста силайсан,
Аммо буларни-чи, ҳаёт қарғатган!

Айб йўқдир буларнинг фарзандларида,
Ўзлари шунақа тарбия берган,
Кимнинг манфаати бўлса қўл чўзиб,
Савобдан фойда йўқ дея ўргатган.

Мабодо адашган бўлсам минг узр,
Оталар, оналар, кекса нигоҳлар,
Арпа экиб буғдой ўрмаган ҳеч ким,
Ҳар бало ўзингиз ўргатган ҳунар...

Уларнинг жазоси не дерсиз балки,
Аччиқни кесади аччиқ ҳақиқат,
Оқпадарнинг ўғли оқпадар бўлмай,
Унга ҳам фарзанди қайтармай албат.

Қариялар уйи жонли театр,
Фожиали китоб, энг дардли кино,
Қариялар уйи, мурдасиз қабр,
Бахт сўзи бегона, совуқ бир бино...

БАРИБИР БОШҚАЧА РАДИО ТИНГЛАШ

Ярим тун, кўнглимга дунё сиғмайди,
Хаёллар сураман ишларим тингач,
Эски хотиралар қалбим қўмсайди,
Барибир бошқача радио тинглаш!

Шундай ривожланган янги асрда,
Кимдир дер янгилик ҳақда гапир-да,
Менга эса ёқар юракни англаш,
Барибир бошқача радио тинглаш!

Мумтоз қўшиқлардан ғазалларгача,
Тинглагум, бадий асарларгача,
Шеърми, қўшиқми ё масалларгача,
Барибир бошқача радио тинглаш!

Телевизор, интернет, ҳаммаси бўлак,
Менга асабимнинг тинчлиги керак,
Агар сокинликни истаса юрак,
Барибир бошқача радио тинглаш!

Кимдир дер замон тез, оқибат чалқаш,
Тарбия йўллари айқашу уйқаш,
Ётволиб китоблар ўқиш бошқая
Барибир бошқача радио тинглаш!

Аҳад Қаяом яшар тўлқинлар ичра,
Бўлар-бўлмас гапдан қулоғи чарчаб,
Дунё ғавғоларин бир зумга ташлаб,
Барибир бошқача радио тинглаш!

Ярим тун, кўнглимга дунё сиғмайди,
Хаёллар сураман ишларим тингач,
Эски хотиралар қалбим қўмсайди,
Барибир бошқача радио тинглаш!

●

М

Е

Н

И

Н

Г

●

Ю

Р

Т

И

М

МЕН ВАТАНГА НИМА БЕРДИМ ДЕБ ЯШАНГ

Юртнй баландпарвоз
 Сўзлар биланмас,
 Беминнат, хокисор
 Сўз билан бошланг,
 Устозлар ўгити
 Улуғ ҳикматдарс,
 Ҳар тонгда Ватан деб
 Сиз қадам ташланг,
 Ватан менга нима
 Берди деб эмас,
 Мен Ватанга нима
 Бердим деб яшанг.

Тупроқни топтамай
 Бир гаюр, нокас,
 Буюк остонага
 Жонингиз тўшанг,
 Эй дўстлар, юрт номин
 Кўтарайлик бас,
 Аждодлар исмига
 Муносиб яшанг,
 Ватан менга нима
 Берди деб эмас,
 Мен Ватанга нима
 Бердим деб яшанг.

Ҳар куни Ватан деб
 Олинг сиз нафас,
 Озод байроғини
 Баландроқ ушланг,
 Бутун дунё қилсин
 Бизларга ҳавас,
 Чўққилар забт этинг,
 Довонлар ошинг.
 Ватан менга нима

Берди деб эмас,
Мен Ватанга нима
Бердим деб яшанг.

Озод Ўзбекистон,
Ўзбегим учун,
Обод Ўзбекистон,
Хур элим учун,
Мустақиллик, бирлик
Шу юртим учун,
Фахрим, ифтихорим,
Гурурим учун,
Қулсангиз Ватаннинг
Бахтидан кулинг,
Йиғласангиз Ватан
Бахти деб йиғланг,
Ватан менга нима
Берди деб эмас,
Мен Ватанга нима
Бердим деб яшанг.

Шоирми, ҳофизми
Ёки бастакор,
Қаранг ҳар соҳада
Халқим бахтиёр,
Элнинг бахтини ёз
Эй Аҳад Қаяом,
Юрт деб яшамоқни
Қилгин ихтиёр,
Гулбўстон, шундай нур
Ўраган маскан,
Шодликка чўмилинг,
Қалбингиз хушланг,
Ватан менга нима
Берди деб эмас,
Мен Ватанга нима
Бердим деб яшанг.

●
М
Е
Н
И
Н
Г
●
Ю
Р
Т
И
М

А

ОТА-ОНАНГ РОЗИ ҚИЛ АВВАЛ

х

а

д

•

Қ

А

Ю

М

◎

Эй фарзанд, ўйла мукаммал,
Эскирмас бу ҳикмати азал,
Дўсту ёринг танишдан олдин,
Ота-онанг рози қил аввал!

Отда юрсанг йўлдан қоч дема,
Ота-онам ҳали ёш дема,
Дуосин ол фурсатни берма,
Ота-онанг рози қил аввал!

Орзу-ҳавас бойлик ё мансаб,
Бўлган кунинг барини тўплаб,
Охири сен кетарсан ташлаб,
Қоларсан-ку улардан ажраб,
Бутун умр кафтингда асраб,
Ота-онанг рози қил аввал!

Охир йиғлаб қолмагин яна,
Пушаймонлар вайронасида,
Оқибатнинг остонасида,
Ота-онанг рози қил аввал!

Сотқин дўстга қўлингни берма,
Айёр кўзга дилингни берма,
Чақирганда асло куттирма,
Ота-онанг рози қил аввал!

Улфайтирган сени у бедор,
Гоҳ қувончда, гоҳида бемор,
Дунёни қўй, бор, ёнига бор,
Ота-онанг рози қил аввал!

Аҳад Қаюм насиҳат сўзи,
Дерлар дунё беш кунлик ўзи,
Йиғламасин уларнинг кўзи,
Ота-онанг рози қил аввал!

БАХТИ БОРЛАР ШУКРЛИ БЎЛСИН

Бу дунё ўткинчи, бу дунё бир кам,
Кимнидир бахт йўқлар, кимни эса ғам,
Ким ҳаётдан шодон, кимнинг кўзи нам,
Бахти борлар шукрли бўлсин,
Дарди борлар сабрли бўлсин.

Ким баланд чўққини пастга алмашар,
Тилладай бахтини хасга алмашар,
Душманни бир содиқ дўстга алмашар,
Бахти борлар шукрли бўлсин,
Дарди борлар сабрли бўлсин.

Йўқчиликда бурда нонни қадр этиб,
Туз ҳам тотмай, қаро кунга сабр этиб,
Омад келса, яқинларга жабр этиб,
Бахти борлар шукрли бўлсин,
Дарди борлар сабрли бўлсин.

Ношукрлик бошга бир кун офат солар,
Ношукрлик эл ичра, оҳ, расво қилар,
Ношукрлик шайтонийлик пайдо қилар,
Бахти борлар шукрли бўлсин,
Дарди борлар сабрли бўлсин.

Ашъор битиб Аҳад, айт, нени излар,
Фақат яхшилиқни у сизга кўзлар,
Тўғри йўлдан адашмайлик асло, дўстлар,
Бахти борлар шукрли бўлсин,
Дарди борлар сабрли бўлсин.

Бу дунё ўткинчи, бу дунё бир кам,
Кимнидир бахт йўқлар, кимни эса ғам,
Ким ҳаётдан шодон, кимнинг кўзи нам,
Бахти борлар шукрли бўлсин,
Дарди борлар сабрли бўлсин.

●
М
Е
Н
И
Н
Г
●
Ю
Р
Т
И
М

ВАТАН

Дуо олиб қилсак
Элнинг хизматин,
То жонимиз тирик
Экан шу танда.
Эсга олиб аждодларнинг
Ҳикматин,
Ватан қурмоқ керак
Шундай Ватанда!

Яхшилар номини
Биз ёд этайлик,
Элни чорлаб юртни
Обод этайлик,
Яна якдил халқни
Бунёд этайлик,
Ватан қурмоқ керак
Шундай Ватанда!

Бахтинг кулиб бўй
Қўшилсин бўйингга,
Оллоҳ ўзи назар
Қилсин уйингга,
Кўзларинг яшнасин
Байрам тўйингда,
Ватан қурмоқ керак
Шундай Ватанда!

Умр китобида
Саҳифамиз кўп,
Синовларга тўла
Дақиқамиз кўп,
Ҳали юрт олдида
Вазифамиз кўп,
Ватан қурмоқ керак
Шундай Ватанда!

Мана шу эл дейлик
Менинг бисотим,
Тоза ўтган дейлик
Етти авлодим,
Минг йилга арзисин
Ҳар битта одим,
Ватан қурмоқ керак
Шундай Ватанда!

Халқим келажаги
Юксалиб борар,
Ёруғ манзиллари
Сари интилар,
Дўстлар эрта учун
Нимамиз қолар,
Ватан қурмоқ керак
Шундай Ватанда!

Шу заминда равон
Бўлсин йўлимиз,
Юлдузларга етсин
Чўзсак қўлимиз,
Омон бўлсин
Меҳмондўст шу элимиз,
Ватан қурмоқ керак
Шундай Ватанда!

Ҳар ким ҳам ўз
Эртасини ўйлагай,
Сўйлаганда
Дилидагин сўйлагай,
Халқим деган инсон
Яшар, ўлмагай,
Ватан қурмоқ керак
Шундай Ватанда!

●
М
Е
Н
И
Н
Г
●
Ю
Р
Т
И
М

Эй Аҳад, ижодинг
Имконингдадир,
Тўғри йўлда юрмоқ
Виждонингдадир,
Ватан учун яшаш
Иймонингдадир,
Ватан қурмоқ керак
Шундай Ватанда!

Дуо олиб қилсак
Элнинг хизматин,
То жонимиз тирик
Экан шу танда.
Эсга олиб аждодларнинг
Ҳикматин,
Ватан қурмоқ керак
Шундай Ватанда!

ҚУДРАТ ВА ЗУЛМАТ

Қулфатга элтгувчи
Йўл экан лаззат,
Омадга элтгувчи
Йўл экан кулфат,
Чорасизлик — чора,
Гоҳ бахтсизлик — бахт,
Қудратга элтгувчи
Йўл экан зулмат!



БАЙРАМ ТАБРИГИ

Қутлуғ айём арафасида,
Бахту қувонч муштарақ бўлсин,
Янги куннинг бир муждасида,
Байрамингиз муборақ бўлсин!

Дил сўзларим қабул эт, юртим,
Ниятингга мудом ет, юртим,
Синовлардан омон ўт, юртим,
Байрамингиз муборақ бўлсин!

Бошга толеъ бахт қуши қўнсин,
Ёш авлодлар улғайсин, унсин,
Яхшиларнинг омади кулсин,
Байрамингиз муборақ бўлсин!

Дарду ғамдан йироқ юрингиз,
Тинч, осуда даврон сурунгиз,
Хушнуд дамни қўпин қўрингиз,
Байрамингиз муборақ бўлсин!

Бу кун сизга тилақ тиладим,
Яшаб толмас юрак тиладим,
Табригимни дилдан йўлладим,
Байрамингиз муборақ бўлсин!

УМР

Умр — чархпалак,
Юрак — гилдирак,
Кўнгил — жабркўл,
Меҳр — бир челақ...

Умр — чархпалак,
Яшамоқ керак.
Йўқотмоқ асли,
Топмоқдан дарак...

●
М
Е
Н
И
Н
Г
●
Ю
Р
Т
И
М

А

ҚАДАМЛАР ҲИКМАТИ

ҳ

а

д

•

Қ

А

Ю

М

◎

Холис ҳукм сари бу умр карвон,
Қалбим нигоҳлари олисни кўзлар.
Кўзларим умидда, йўлларим равон,
Қадамлар ҳикматин ўйлайман, дўстлар.

Йиғладим, оқибат остонасида,
Киролмай, муҳаббат кошонасига,
Сонсиз гуноҳларнинг вайронасида,
Қадамлар ҳикматин ўйлайман, дўстлар.

Бу дунёда ҳар ким бир йўл излайди,
Кимдир пул, кимлардир кўнгил излайди,
Кимдир ғамнок, кимдир бахтдан сўзлайди,
Қадамлар ҳикматин ўйлайман дўстлар.

Ёвга инсоф тилаб, дўстга ярасам,
Ҳақдан янги кунга мазмун сўрасам,
Дилимда минг афсус ортга қарасам,
Қадамлар ҳикматин ўйлайман, дўстлар.

Қай бир қадам менга омад келтирди,
Қай бир қадам менга қулфат келтирди,
Гоҳ олдимда минглаб ёлғон йўл турди,
Қадамлар ҳикматин ўйлайман, дўстлар.

Қўзгуга тикилиб, кўзимга боқсам,
Узимни излайман, ўзимга боқсам,
Наҳот, шу мен дейман изимга боқсам,
Қадамлар ҳикматин ўйлайман, дўстлар.

Юрак амри билан ақл чалкашди,
Оёқ эса аросатда адашди,
Ким молим, ким жонимга кўз қадашди,
Қадамлар ҳикматин ўйлайман, дўстлар.

Ватанда азиздур, ҳар бир қарич ер,
Кимдир шу тупроқдан ҳаром-ҳариш ер,
Ҳали манзилгача бордир қанча йўл,
Қадамлар ҳикматин ўйлайман, дўстлар.

АЙТИНГ-ЧИ, ЭРТАГА БИЗДАН НЕ ҚОЛАР

Дунёга бир марта келади одам,
Бир марта яшайди, бир марта ўлар.
Дўстларим бир савол сўрасам сиздан,
Айтинг-чи, эртага биздан не қолар?

Кимлардир бир умр мол-дунё йиғса,
Кимдир шон-шуҳрати билан мақтанар.
Ҳавойилик билан умримиз ўтса,
Айтинг-чи, эртага биздан не қолар?

Унутма, эй дўстим, унутма ғаним,
Инсон бу дунёга бир марта келар.
Фурсатим ғанимат, безовта қўнглим,
Айтинг-чи, эртага биздан не қолар?

Тарих бешафқатдир, дунё ваъдабоз,
Ёлғонлар кулингни кўкка совулар.
Тунлари юлдузга боқғум беовоз,
Айтинг-чи, эртага биздан не қолар?

Севгилим, юрагим қўлингда бугун,
Мени қўйвор дея сенга ёлворар.
Қалбимда очилмай ётар бир тугун,
Айтинг-чи, эртага биздан не қолар?

Тушларим айланиб борар ростига,
Баъзида ҳаёт ҳам тушдек туюлар.
Биз дардлар орттирсак дардлар устига,
Айтинг-чи, эртага биздан не қолар?



ЧАҚАЛОҚЛАР БЎШАТМАСИҢ БЕШИГИҢНИ

А
ҳ
а
д
•
Қ
А
Ю
М
⊙

Дерларки остонадан бошланар Ватан,
Жарангласа тулпорларнинг туёқлари.
Ватан не деб сўрасангиз, дўстлар, мендан,
Мендан аввал тилга кирар тупроқларим.
Остонаси тилло бўлсин эшигингнинг,
Чақалоқлар бўшатмасин бешигингни.

Гулни эксанг унса ҳамки гултувакда,
Илдизлари тошни тешиб қайга борар.
Минг асрни илдизлаган бу юракда,
Ҳар оқшомда дунё келиб дилин ёрар.
Эскиртирмас Алпомишнинг кўшигини,
Чақалоқлар бўшатмасин бешигингни.

Байроқлар ҳам тикилгайдир бир матодан,
Маънолари жилоламиш рангларини.
Юртни асраб офатлардан бир балодан,
Кимлар сенга устун бўлди, англадингми?
Шуни ўйлаб бошингни бир қашидингми?
Чақалоқлар бўшатмасин бешигингни.

Етти ўлка кездирса ҳам тирикчилик,
Тиламчи ҳам Оллоҳ берган ризқин топар.
Ўзбекмиз-да, қонда оқар ўзбекчилик,
Кимлигимиз унутмайлик, эй биродар.
Болаларинг талашганда қошигингни,
Чақалоқлар бўшатмасин бешигингни.

Дерларки, остонадан бошланар Ватан,
Жарангласа тулпорларнинг туёқлари.
Ватан не деб сўрасангиз, дўстлар, мендан,
Мендан аввал тилга кирар тупроқларим.
Остонаси тилло бўлсин эшигингнинг,
Чақалоқлар бўшатмасин бешигингни.

БАҲОРНИ КУТАМАН

Йўқотсам кўнгилдан мадорни,
Йўқотса, тану жон қарорни,
Майса каби қорнинг остидан
Баҳорни кутаман, баҳорни.

Кўнглимга сиғмаса муҳаббат,
Юракда қолмаса бир тоқат,
Атиргулдан тутғали сават,
Баҳорни кутаман, баҳорни.

Қалбим эса ҳасратлар юки,
Армонлардан чарчасам ёки,
Баҳорнинг ўзида, ҳаттоки,
Баҳорни кутаман, баҳорни.

Кирғали илҳомнинг қасрига,
Қайтганда бу дунё аслига,
Яшаш-чун ёшликнинг фаслига
Баҳорни кутаман, баҳорни.

Кўнглимни чоғ этган дилдордек,
Киприқларим ҳатто хумордек,
Баъзида висолдек, дийдордек,
Баҳорни кутаман, баҳорни.

Йўқотсам, кўнгилдан мадорни,
Йўқотса, тану жон қарорни,
Майса каби, қорнинг остидан
Баҳорни кутаман, баҳорни.



М

Е

Н

И

Н

Г



Ю

Р

Т

И

М

ЙИГИТ БЎЛСИН

Рустамга

А

ҳ

а

д

•

Қ

А

Ю

М

◎

Ватан деса ўт чақнасин юрагидан,
Катталардан олган дарси ўгит бўлсин.
Гуллар унсин чўлда зарби билагидан,
Шу юрт учун жони қалқон йигит бўлсин.

Отасига ўхшаб кетар қарашлари,
Бобосининг худди ўзи юришлари,
Катталардек хаёл суриб туришлари,
Сирти оддий, асли пурдон йигит бўлсин.

Дерлар бола билинади ёшлигидан,
Онаси кўп нолимасин шўхлигидан,
Келин қилса қизларнинг энг кўхлигидан,
Босиқлиги элда дoston йигит бўлсин.

Асл йигит яхшиликка камар боғлар
Манманларнинг тўдасидан қочар бўлар.
Ҳақ сўзини исботлайди, ўжар бўлар,
Шижоати дилда пинҳон йигит бўлсин,

Ўзбек деган элни таниб билди жаҳон,
Мийиғида кулганларни этиб ҳайрон.
Елкасида қанот бўлсин ҳалол виждон,
Бел боғласа кутар майдон йигит бўлсин.

Ким бўлса ҳам ўрни бўлсин эл сафида,
Ният қилдик, майли, полвон йигит бўлсин,
Одам бўлсин бўлганда ҳам энг камида,
Шухрати Рустаму дoston йигит бўлсин.

Ватан деса ўт чақнасин юрагидан,
Катталардан олган дарси ўгит бўлсин.
Гуллар унсин чўлда зарби билагидан,
Шу юрт учун жони қалқон йигит бўлсин.

БАРЧИНОЙНИНГ РҰМОЛИ ҚАНИ

Бугун қизлар сочин ўрмайди,
Эр йигитлар кураш билмайди,
Сўрашга ҳам тилим бормайди,
Алпомишнинг белбоғи қани?
Барчинойнинг рўмоли қани?

Қизлар киймас атлас қўйлақлар,
Қайга кетди арслон билақлар,
Шаҳар кезиб куяр юрақлар,
Алпомишнинг белбоғи қани?
Барчинойнинг рўмоли қани?

Бир ёним рус, бир ён Европа,
Шамолдек тез чопар бу мода,
Ўй сураман ғамимга бота,
Алпомишнинг белбоғи қани?
Барчинойнинг рўмоли қани?

Йўқни кўриб, йўқ-да десангиз,
Тўқни кўриб тўқ-да десангиз,
Қорани ҳам оқ-да десангиз,
Алпомишнинг белбоғи қани?
Барчинойнинг рўмоли қани?

Кумушбиби ҳаёсин излаб,
Отабеклар юрибди йиғлаб,
Аҳад Қаям қолмоқда сўраб,
Алпомишнинг белбоғи қани?
Барчинойнинг рўмоли қани?



●

М

Е

Н

И

Н

Г

●

Ю

Р

Т

И

М

ТАРИХДА

Жамол Камол ғазалига мухаммас

А

х

а Элим, сахрога айланган, денгизлар озму тарихда?

Әлим, сувсиз чириб ётган илдизлар озму тарихда?

д Элим, айтмоққа армонинг афсуслар озму тарихда?

• Элим, қатлингга қасд этган ёвузлар озму тарихда?

Қ Илондек судралиб ётган жосуслар озму тарихда?

А

Аммо сен кетмадинг идраб,
жойингда ётмадинг мудраб,

Ю

Кўлига ошу нон бердинг,
бировлар келса сув сўраб,

М

Шунча аср яшадингу қолмадинг
қўлларга қараб,

◎

Фанимлар келдилар тиг ўқталиб
ё замбарак судраб,

Кутайба, Фон Кауфман,
Кайковуслар озму тарихда?

Бугун оғиз жуфтладимми,
тарихингдан сўз очмакка,
Бугун ёлғон занжирларин
фурсати етти ечмакка,
Сен нишон бўлдинг
мудому бегона қаҳрин сочмакка,

Келишди барчаси нонингни еб,
қонингни ичмакка,

Наҳанглар, аждаҳолар,
ялмоғизлар озму тарихда?

Аслида илму маърифат,
осмонида нарвон бўлдинг,
Елкангга олиб бор юкин,
карвон бўлдинг, сарбон бўлдинг,

Қорнини тўйғазиб сўнгра,
ўзинг ожиз ёмон бўлдинг,

Талон бўлдинг, элим, занжирга
тушдинг нотавон бўлдинг,

Диёнатга тупурган шум
даюслар озму тарихда?

Юрагимнинг туб-тубида,
қандайдир тиконлар санчар,
Юрагимни қандайдир дард,
қайғу-ю аламлар янчар,
Ичингдаги душманларинг
бўғзингга ниш урди қанча,
Ўзингдан чиққанинг ҳам
гоҳ ўзингга сирмади ханжар,
Мунофиқ туғилар, зоғлар,
товуслар озму тарихда?

Заҳар бўлди ичар сувинг,
оғуга тўлди-ку ошинг,
Гўрда ҳам тик ётдинг гоҳо,
кимга керак бўлди лошинг,
Ёмғирдан тинмади баҳор,
қаҳратонда қолди қишинг,
Ёмонлар эгдилар бошинг,
ганимлар тўқдилар ёшинг,
Суриб, сургунча хайдошлар
ҳибслар озму тарихда?

Ёлғондан фойда йўқдурким,
буни айтдинг, буни билдинг,
Етти иқлим зиё олди,
савод бериб одам қилдинг,
Тузлуғингга тупурдилар, оҳ,
ўзинг иснодда қолдинг,
Фигон қилдинг, эдим қулликка қарши,
қўзғолон қилдинг,
Оловли йиллариндан ўтли
излар озму тарихда?

Ярим жонинг бўлсин омон,
ярим кўнглинг бўлсин омон,
Шоирларинг сўзин эшит,
элим, уйғон, элим, уйғон,
Фурсатни бой берма асло,
қўлингда бўлганда имкон,

●

М

Е

Н

И

Н

Г

●

Ю

Р

Т

И

М

А Курашга йўллади иймон,
ҳ курашда қўллади иймон,
а Курашчи мард йигит,
д мардона қизлар-озму-тарихда?_____

•
Қ Офтобни кўрсин баҳорлар,
А баҳорни кўрсин-у қишлар,
Ю Баҳорни кўрганда қишлар,
М ганимларинг тилин тишлар,
○ Кўлидан не келса қилди,
елкангдан тушсин деб тошлар,
Бугун қасрингга душманлар
заводлардан заҳар йўллар,
Заҳарни чора билган
чорасизлар озму тарихда?

Бекорга ота-онанг,
болангнинг ёшин тўқтирма,
Эй Аҳад, сен хатоларни
хато йўсинда уқтирма,
Керак, нокерак юмушга,
дилни гулханда ёқтирма,
Азиз номинг омон бўлсин,
элим, кўнглингни чўқтирма,
Сени деб жонидан кечган
азизлар озму тарихда?

АЖДОДЛАРНИНГ ШИДДАТИ

Аждодларнинг шиддатли
Қадамлари зарбидан.
Шаҳд ўсиб бораверар
Авлодларнинг қалбида.

ҚҰШИҚ

Юрак оҳим, дилхоҳим қўшиқ,
Дил сирымдан огоҳим қўшиқ,
Юкинғали даргоҳим қўшиқ,
Болаликдан ҳамроҳим қўшиқ.

Ич-ичимда недир ёнса ҳам,
Дўсту ёрнинг меҳри тинса ҳам,
Суйган гулим мендан тонса ҳам,
Болаликдан ҳамроҳим қўшиқ.

Дил ўзича танлайди маъшук,
Ким булбулга, ким гулга ошиқ,
Ёлғизликда дардларим ичган,
Болаликдан ҳамроҳим қўшиқ.

Қўшиқ дея, недан кечмадим,
Минг шукр бир ёниб ўчмадим,
Ёлғон хаёлларга учмадим,
Болаликдан ҳамроҳим қўшиқ.

Айтар сўзим сизга, азизим,
Очиқ экан шу икки кўзим,
Осмонимда ёнган юлдузим,
Болаликдан ҳамроҳим қўшиқ.

Ишқ майидан сархушман, мастман,
Кимга армон, кимга ҳавасман,
Озод юртда озод нафасман,
Болаликдан ҳамроҳим қўшиқ.



М

Е

Н

И

Н

Г

•

Ю

Р

Т

И

М

КАТТА БЎЛСАНГ

Акбар Алига

А

ҳ

а

д

•

Қ

А

Ю

М

◎

Катта бўлсанг ким бўласан, билиб ол, _____
Учувчи, қурувчи ё ўқитувчи.
Ундан аввал сен яхшилаб билим ол,
Ундан аввал бўлгин яхши ўқувчи.

Катта бўлсанг ким бўласан, ўйлаб ол,
Шифокорми, фидокорми, ижодкор.
Сўзларимни сен миянгга жойлаб ол,
Ундан аввал бўлгин яхши ўқувчи.

Катта бўлсанг ким бўласан, бир савол,
Рассомми, шоирми ёки бастакор?
Санъаткорми, актёр ё режиссёр,
Ундан аввал бўлгин яхши ўқувчи.

Балки сенга спорт ёқар, айтақол,
Баскетболми, теннисми ёки футбол,
Ундан аввал ҳамма фанни уқиб ол,
Ундан аввал бўлгин яхши ўқувчи.

Катта бўлиш қочиб кетмайди сира,
Чўққилар олдинда кутмоқда, қара,
Эрта сеникидир энг олдин марра,
Ундан аввал бўлгин яхши ўқувчи.

Катта бўлсанг ким бўласан ўйлаб ол,
Пахтакорми, прокурорми, тадбиркор.
Сўзларимни сен миянгга жойлаб ол,
Ундан аввал бўлгин яхши ўқувчи.

Катта бўлсанг ким бўласан, билиб ол,
Учувчи, қурувчи ё ўқитувчи.
Ундан аввал сен яхшилаб билим ол,
Ундан аввал бўлгин яхши ўқувчи.

ШУКР, ОЛЛОҲИМ

Иймон деган давлат бердинг,
шукр, Оллоҳим, шукр, Оллоҳ,
Ижод деган савлат бердинг,
шукр, Оллоҳим, шукр, Оллоҳ.
Бошим силаб бандам деддинг,
мудом ризқим бутун қилдинг,
Ҳалолимдан неъмат бердинг,
шукр, Оллоҳим, шукр, Оллоҳ.

Ибодатим қабул бўлди,
бутун яна бахтим кулди,
Юрагимга журъат бердинг,
шукр, Оллоҳим, шукр, Оллоҳ.
Муҳаббатнинг азобини,
ишқнинг аччиқ шаробини,
Севги деган қисмат бердинг,
шукр, Оллоҳим, шукр, Оллоҳ.

Сўйлаяпман эл дардини,
кўтарсам дейман қадрини,
Бунга ўзинг фурсат бердинг,
шукр, Оллоҳим, шукр, Оллоҳ.
Аҳад деган номинг олиб,
яшаяпман маъно териб,
Шундай яхши одат бердинг,
шукр, Оллоҳим, шукр, Оллоҳ.

САҲНА

Тоҳир Саидовга

Елкадаги ташвиши қолиб,
Томошага югурар саҳна.
Мухлисларин кўнглини олиб,
Яшашга ҳам улгурар саҳна.
Гоҳ қийналса ич-ичдан ёниб,
Неларнидир ўй сурар саҳна.
Чин ихлосманд меҳридан қониб,

●
М
Е
Н
И
Н
Г
●
Ю
Р
Т
И
М

А
ҳ
а
д
•
Қ
А
Ю
М
●

Юраги тўқ кун кўрар саҳна.
Дунё дардин ичига ютиб,
Гоҳ секин, гоҳ тез юрар саҳна.
Санъат учун фидолар кутиб,
Бедорликда кун кўрар саҳна.
Худо берган Тоҳир Саидни,
Бошларига кўтарар саҳна.
Шу юрт учун фидо артистни,
Кўкрагидан кўкарар саҳна.

БАХТ

Давлат билан ўлчанмайди бахт,
Савлат билан ўлчанмайди бахт,
Омад билан ўлчанмайди бахт,
Бахтим йўқ деб қилмагин армон,
Дўстим, умринг ўтмасин ёлгон.

Дилдан йиғлаб кула олсанг гар,
Кўзи очиқ юра олсанг гар,
Ўз кунингни кўра олсанг гар,
Бу дунёга қайтиб келмассан,

Яшашни бил, бахтсиз эмассан.
Кеча осмон қорайиб кетди,
Дунё менга торайиб кетди,
Сабр қилдим барчаси ўтди,
Йўқотмадим дилдан шаҳдимни,
Шукр яна топдим бахтимни.

Бахт дегани осмонда бўлмас,
Кўкда туриб кўзга кўринмас,
Излайверсанг бир каминг тўлмас,
Аҳад шоир дилидаги дард,
Унинг учун ахир катта бахт!

ТИЛИНГ БОШҚА, ДИЛИНГ БОШҚА БҮЛМАСИН

Манзил бошқа, йўлинг бошқа бўлмасин,
Ватанни сев, элинг бошқа бўлмасин,
Сохта сурат билан яшама асло,
Тилинг бошқа, дилинг бошқа бўлмасин.

Қимники кўнглида қора доғи бор,
Ўз дўстин кўролмай яшар феъли тор,
Ҳеч кимга заррача бермагин озор,
Тилинг бошқа, дилинг бошқа бўлмасин.

Қимга омад келса ҳасад қилмагин,
Қимдан омад кетса гийбат қилмагин,
Яхшини ёмон деб туҳмат қилмагин,
Тилинг бошқа, дилинг бошқа бўлмасин.

Йўқ жойдан бир иғво изламачилар,
Ўртани бузгувчи тузламачилар,
Ёмон кўпдир икки юзламачилар,
Тилинг бошқа, дилинг бошқа бўлмасин.

Дўстинг хато қилса айтгин юзига,
Аmmo алдамагин қараб кўзига,
Нима гапинг бўлса гапир ўзига,
Тилинг бошқа, дилинг бошқа бўлмасин.

Насиҳат айладинг сен, Аҳад Қажом,
Қимдир англамади, англаб етди ким,
Ёлғон сўзлагунча, жим яшагин, жим,
Тилинг бошқа, дилинг бошқа бўлмасин.



А

МАНМАНЛИК ЁМОН

Ҳ

а

д

Камтар бўл, камтар бўл, камтар бўл, инсон.
Билиб қўй, топмоқдан йўқотмоқ осон.
Ҳеч қачон берилма кибру ҳавога —
Манманлик ёмондир, манманлик ёмон.

Қ

А

Ю

Дўст бор, дастурхонда ошингни ейди,
Дўстлар бор, майдонда бошингни ейди,
Йиқилсанг, қўл чўзмас, баттар бўл дейди,
Манманлик ёмондир, манманлик ёмон.

М

●

Уч нарсанинг доим қочгин зарбидан,
Ичкилик, қарздорлик, аёл макридан,
Синиб кетиш осон шулар жабридан,
Манманлик ёмондир, манманлик ёмон.

Доим ота-онанг ёдингга солгин,
Қариндош, қондошдан сен хабар олгин,
Камтарлик дарсини мукаммал билгин,
Манманлик ёмондир, манманлик ёмон.

Қора доғ тушмасин дилингни асра,
Пул топсанг керилма, феълингни асра,
Ўзингни босиб ол тилингни асра,
Манманлик ёмондир, манманлик ёмон.

Яхшию ёмоннинг шарҳини қилгин,
Дўст билан душманнинг фарқини билгин,
Аҳад Қаюм сўзин қулоққа илгин,
Манманлик ёмондир, манманлик ёмон.

Камтар бўл, камтар бўл, камтар бўл, инсон.
Билиб қўй, топмоқдан йўқотмоқ осон.
Ҳеч қачон берилма кибру ҳавога —
Манманлик ёмондир, манманлик ёмон.

АЗИЗЛАРИМ

Ёнимдасиз жондай жигар, ёр, дўстларим,
Мени севган, мени кутган мухлисларим,
Мен аслида яшаяпман сиз бор учун,
Менинг бахтим шу эмасми, азизларим?!

Қалбим муштоқ кутган кунни кўзим кўрди,
Онам кўрмай кетган бахтни қизим кўрди,
Дил шодликни хаёлдамас ўзин кўрди,
Менинг бахтим шу эмасми, азизларим?!

Озод юртда, озод қанот парвозларим,
Шукр дейман ардоқландим, эъозландим,
Оилам тинч, бахтидан шод фарзандларим,
Менинг бахтим шу эмасми, азизларим?!

Осмонимда ёнар бугун юлдузларим,
Топганим сиз, меҳри дарё денгизларим,
Сизу бизга насиб этди дийдор бугун,
Менинг бахтим шу эмасми, азизларим?!

Кимдир менинг йўлларимга интизорми,
Эслайдиган, излайдиган кимдир борми?
Суҳбатимга, санъатимга интизорми?
Менинг бахтим шу эмасми, азизларим?!

Таъзимдаман, бош эгаман пойингизга,
Хизматдаман, сизнинг байрам тўйингизга,
Мени кўриб шод қайтсангиз уйингизга,
Менинг бахтим шу эмасми азизларим?!

Ёнимдасиз жондай жигар, ёр, дўстларим,
Мени севган, мени кутган мухлисларим,
Мен аслида яшаяпман сиз бор учун,
Менинг бахтим шу эмасми, азизларим?!

●

М

Е

Н

И

Н

Г

●

Ю

Р

Т

И

М

ЎТГАНЛАРНИНГ ЖОЙИ ЖАННАТДА БЎЛСИН

А

ҳ

а

д

•

Қ

А

Ю

М

●

Тириклик бир неъмат, ўлим бир ҳикмат,
Яхшиларнинг қabri раҳматга тўлсин,
Ҳотира нақшида қолгайлар албат,
Ўтганларнинг жойи жаннатда бўлсин!

Оқибатли бўлинг, қадрли бўлинг,
Ҳар ғанимат кунга шукрли бўлинг,
Қўз ёшингиз артинг, сабрли бўлинг,
Ўтганларнинг жойи жаннатда бўлсин!

Яхши сўзлар билан ёдга олайлик,
Доим ҳақларига дуо қилайлик,
Оллоҳдан муносиб ажрим сўрайлик,
Ўтганларнинг жойи жаннатда бўлсин!

Давралар тўрида эъзоз бўлдилар,
Меҳрибон дўст, ота, устоз бўлдилар,
Қалблар осмонида парвоз қилдилар,
Ўтганларнинг жойи жаннатда бўлсин!

Ким бевақт ўлимнинг оҳидан куяр,
Кимдир фарзандининг доғидан куяр,
Кимлардир ёлғизлик чоғидан куяр,
Ўтганларнинг жойи жаннатда бўлсин!

Тириклик бир неъмат, ўлим бир ҳикмат,
Яхшиларнинг қabri раҳматга тўлсин,
Ҳотира нақшида қолгайлар албат,
Ўтганларнинг жойи жаннатда бўлсин!



ЮРАҚДАН ЁЗИЛГАН ШЕЪР

Кўкни кўзлаган кўнгил,
Юксакларга етади,
Юракдан ёзилган шеър
Юракларга етади.

Ватан учун, халқ учун
Шаҳд билан ёзиш керак,
Худо берган истеъдод,
Дард билан ёзиш керак.

Йиғлаб ёзилган сатр,
Ҳар кўнгилни йиғлатар,
Шунчаки ёзилган шеър,
Оқ қоғозни булғатар.

Мукофот илинжида,
Мансабга ошиқ бўлиб,
Сўзни сотиб бўлмайти
Дардга хиёнат қилиб.

Қанча оққуш қанотин,
Қирқишдилар кўпланиб,
Ижод қилиш ўрнига,
Тош отарлар тўпланиб.

Тўрт қатор шеъринг агар,
Кўшиқ бўлиб янграса,
Биз учун ёзибди деб,
Эл юракдан тингласа.

Бошингга омад келса,
Ғийбат билан ейишар,
Меҳнатинг кўзга илмай,
Шухратга ўч дейишар.

●

М

Е

Н

И

Н

Г

●

Ю

Р

Т

И

М

А
Ҳ
а
д
•
Қ
А
Ю
М
◎

Қарғаларнинг булбулдек,
Тингланмаслиги-ку бахт,
Шукр, ҳамманинг юзин
Кўрсатади- ахир вақт.

Миллионлаб мухлиснинг
Меҳрин битта заррасин,
Улар қаердан билсин,
Самимий дил суҳбатин.

Ўзлари учолмайин,
Бошқани кўролмаслар,
Тутаб-тутаб кун кўриб,
Бир умр ёнолмаслар.

Ўйлама, Аҳад Қаяум,
Ранжитганда ифвогар.
Қарғалар булбулликка,
Бўлаверсин даъвогар.

Кўкни кўзлаган кўнгил,
Юксакларга етади,
Юракдан ёзилган шеър,
Юракларга етади.

УСТОЗГА ЭҲТИРОМ

Тақлид қилмай ўзга оҳанг овозларга,
Устозларга ҳавас қилдим, устозларга,
Шоирликни ҳавас қилган, жигарларим,
Эргашайлик сўз мулкига, ҳассосларга.

Яхши кун кўп байрам бўлди, ҳайит бўлди,
Қай ижодкор, қай замонга оид бўлди,
Бир пайтлар от чоптириб юрган йигит,
Қаранг, бугун Сирожиддин Саййид бўлди.

БИР БОР РАҲМАТ АЙТГАНМИСИЗ ҚҶШНИНГИЗГА

Ҳозир бўлар бир иш тушса бошингизга,
Туғишгандек жон куйдирар қошингизда,
Ую рўзғор ташвишлардан бироз ортиб,
Бир бор раҳмат айтганмисиз қўшнингизга?!
Маҳалла-кўй, борди-келди, салом-алик,
Қўшнингиз тинч бўлса агар қадингиз тик,
Ҳам қувончу ғамингизга бўлган шерик,
Бир бор раҳмат айтганмисиз қўшнингизга?!
Ортингиздан ғийбат гаплар сўзламаса,
Яқин бўлиб бир манфаат кўзламаса,
Рақиб бўлиб сиздан хато изламаса,
Бир бор раҳмат айтганмисиз қўшнингизга?!
Тўй-тадбирда ҳеч ёнимдан жилмайсиз деб,
Жигаримдан камроқ хизмат қилмайсиз деб,
Яхшилиқни асло миннат қилмайсиз деб,
Бир бор раҳмат айтганмисиз қўшнингизга?!
Азизларим, ёш қўшилсин ёшингизга,
Оллоҳ ўзи ёр бўлсин ҳар ишингизга,
Ҳар кун иссиқ-совуғингиз сўраб турган,
Бир бор раҳмат айтганмисиз қўшнингизга?!
Ён қўшнини жон қўшни деб одат билган,
Омад келса ҳасад эмас, ҳавас қилган,
Чин юракдан ҳурмат билан яхши кўрган,
Бир бор раҳмат айтганмисиз қўшнингизга?!
Қўшничилик минг йилчилик деган гап бор,
Аҳад Қажом айтар сизга такрор-такрор,
Қадрин билинг ғаниматдир бутун дийдор,
Бир бор раҳмат айтганмисиз қўшнингизга?!
Ҳозир бўлар бир иш тушса бошингизга,
Туғишгандек жон куйдирар қошингизда,
Ую рўзғор ташвишлардан бироз ортиб,
Бир бор раҳмат айтганмисиз қўшнингизга?!

●
М
Е
Н
И
Н
Г
●
Ю
Р
Т
И
М

А

ҫ

а

д

•

Қ

А

Ю

М

◎

Меҳр берган меҳр топмай қолмагай,
 Сабр қилган қадр топмай қолмагай,
 Яхшилар бахт топар, ёмонлар кулфат,
 Қаҳр қилган жабр топмай қолмагай.

Сўз қадрини билгай, рост сўзга муҳтож,
 Ёлғонларга эмас, бир ростга муҳтож,
 Ҳасадгўй ўзига душман орттирар,
 Мард йигит дўст излар, у дўстга муҳтож.

Меҳнат қилган роҳат топмай қолмагай,
 Гийбат қилган кулфат топмай қолмагай,
 Заҳмат чеккан раҳмат олар албатта,
 Гийбат қилган нафрат топмай қолмаган.

Дарёлар билгайдир денгизлар қадрин,
 Япроқлар ҳис қилгай илдишлар қадрин,
 Юлдузлар нур сочгай юлдузлар томон,
 Азизлар билгайдир азизлар қадрин.

Олимнинг боласи золим бўлмагай,
 Золимнинг боласи олим бўлмагай,
 Буғдой эккан арпа ўрмас ҳеч қачон,
 Доно билганини нодон билмагай.

Қайтар дунё ишин кўр, Аҳад Қажум,
 Кимдир олдда юрар, ортта юрар ким,
 Бу занжири савдо, минг бошда ғавғо,
 Туғилмоқ ҳақиқат, бир бошда ўлим.

Меҳр берган меҳр топмай қолмагай,
 Сабр қилган қадр топмай қолмагай,
 Яхшилар бахт топар, ёмонлар кулфат,
 Қаҳр қилган жабр топмай қолмагай.

УЗАТГАНДА ҚИЗИНГИЗНИ

Йиғламанг сиз онажон,
Йиғламанг сиз отажон,
Бахт тиланг борсин омон,
Узатганда қизингизни,
Кузатганда қизингизни.

Бўлмайди ҳеч бегоналар,
Чалинганда тароналар,
Кутар ўзга остоналар,
Узатганда қизингизни,
Кузатганда қизингизни.

Бахтли бўлсин куёв билан,
Гўзал толе берсин баланд,
Тўй кунда бўлинг хурсанд,
Узатганда қизингизни,
Кузатганда қизингизни.

Чақалоқлар олиб келсин,
Бир кун хурсанд бўлиб келсин,
Кўзларингиз бахтга тўлсин,
Узатганда қизингизни,
Кузатганда қизингизни.

Бошлаганда бешик тўйин,
Шеърлар ёзсин Аҳад Қаяом,
Бахтли одам йўқ сиздайин,
Узатганда қизингизни,
Кузатганда қизингизни.



●
М
Е
Н
И
Н
Г
●
Ю
Р
Т
И
М

ТҮЙЛАР МУБОРАК БЎЛСИН

А

ҳ

а

д

•

Қ

А

Ю

М

●

Муҳаббатдан чалинса соз,
Куйлар муборақ бўлсин.
Кўнгил бахтдан этгай парвоз,
Тўйлар муборақ бўлсин!

Бир ёқадан чиқариб бош,
Тўпланишиб дўст-қариндош,
Кувончдадир кексаю ёш,
Тўйлар муборақ бўлсин!

Кўзингиз бахтдан кулсин,
Уйингиз нурга тўлсин,
Хуш келибсиз бахт қасрига,
Тўйлар муборақ бўлсин!

Шодликдан қувнар юрак,
Юрагимда шудир тилак,
Бу оқшом энг гўзал эртақ,
Тўйлар муборақ бўлсин!

Муборақ бўлсин дийдорлар,
Ширин суҳбати хуморлар,
Қадри баланд қадрдонлар,
Тўйлар муборақ бўлсин!

Бугун шундай бир тантана,
Кўз ўнгимда байрам мана,
Табриклайман сизни яна,
Тўйлар муборақ бўлсин!

Сизга ҳамма дилсўзларим,
Ойдинчеҳра, гулюзларим,
Бахтли бўлинг, азизларим,
Тўйлар муборақ бўлсин!

ОҚИБАТЛИ ОДАМЛАР

Орамизда кўп ҳали,
Ориятли одамлар.
Жигарингдан-да яқин,
Оқибатли одамлар.

Гул умрин ҳалол безар,
Толейи нақшин ёзар.
Икки дунёси гўзал,
Охиратли одамлар.

Ҳаёт ҳам бир иморат,
Курашмоқдан иборат.
Меҳнатидан топар бахт,
Диёнатли одамлар.

Орамизда кўп ҳали,
Саховатли одамлар.
Адолатли одамлар,
Заковатли одамлар.

Кўнгил ёнган шамчироқ
Бир кун ўчади, бироқ.
Ортида қолдирар боғ,
Ҳаловатли одамлар.

Ҳар қадами минг ҳикмат,
Ҳар суҳбати минг бир бахт.
Борлиги минг бир давлат,
Хосиятли одамлар.

Ота-онадай яқин,
Юракка сақламас кин.
Қалби серҳиммат тўкин,
Гул ниятли одамлар.

●

М

Е

Н

И

Н

Г

●

Ю

Р

Т

И

М

А
х
а
д
•
Қ
А
Ю
М
◎

Гоҳида сотар дўстин,
Титади каму кўстинг.
Соф чизар у қалб кўзин,
Фазилатли одамлар.

Билмайди ёлғон, риё,
Ёлғонга боқмас қиё.
Жаннатдан келган гўё,
Фариштали одамлар.

Орамизда кўп ҳали,
Саодатли одамлар.
Арзир жонинг бергали,
Садоқатли одамлар.

Кимдир замон бошқа дер,
Келажакнинг ғамин ер.
Шукр бугун бор ахир,
Ҳидоятли одамлар.

Сабрда дер бахтини,
Ичга ютар дардини.
Қаричламас қадрини,
Қаноатли одамлар.

Орамизда кўп ҳали,
Диёнатли одамлар.
Меҳрга тўла қалби,
Муҳаббатли одамлар.

Илмин арзонга сотмас
Нафси кибрга ботмас.
Сендан манфаат кутмас,
Маърифатли одамлар

Аҳад Қаюм ижодин,
Уйлайди элнинг бахтин.
Тўғри баҳолар сатрин,
Мурувватли одамлар.

МУНДАРИЖА

Менинг юртим бунча гўзал, менинг юртим	3	
Кўз тегмасин Ўзбекистонга	4	
Сени севаман, Ватан	5	
Ёзарман	6	
Мен сендан кечмайман, Ватан	7	
Ўзбекистон.....	9	
Она тупроқ	10	
Адабиёт, эшикларинг оч	11	
Кечолмайман ватандан асло	12	
Ҳаёт гўзал	13	
Ўзбекистондан ҳам яхши жой борми	14	
Яшасин бу Ватан	17	
Ота-она ганимат	18	
Акалар, укалар	19	
Севиб яшанг шундай ватанни	20	
Ишдан чарчаб келиб	21	
Кечаги кунни унутма	21	
Самарқанд, Бухоро, Хива	22	
Фарғонажон	23	
Устоз муаллим	24	●
Ватан демасам	25	М
Чин бахт	26	Е
Аскарлар	27	Н
Ягонасан, муқаддасан ватан	28	И
9 май	29	Н
Шу ватан	30	Г
Ўзбегимнинг тўйи	32	●
Онам мени дард билан тукқан	33	Ю
Яшнаса ҳам фақат ватан яшнасин	33	Р
Устозимдан айирма, Оллоҳ	36	Т
Қутлов	37	И
Ўзбекистон келажаги буюк давлат	38	М
Бола	39	
Орзу-ҳавас қилар инсон фарзанди	40	
Устозим шу халқ	41	
Ижод машаққатли йўл	43	
Янги йил	43	

A	Маҳаллам	45
	Наврӯз	47
x	Байрам табриги	49
a	Сўнги кўнғироқ	50
d	Менинг коллежим	52
	Мактаб	54
•	Талабалик	56
Қ	Бизнинг конституция	58
	Темирйўлчилар	59
A	Спорт соғлиқ гаровидир	61
Ю	Ишбилармон тadbиркор	62
	Навойни билмаган одам	62
M	Васият	63
◎	Душанбадан якшанбагача	63
	Мустақиллик абадий бўлсин	64
	Ўзбекистон муқаддас замин	65
	Биздан обод ватан қолсин	66
	Юрт бойлиги	67
	Туғилган кун	68
	Саккизинчи март байрами	70
	Янги ҳаёт кошонаси қутлуғ келсин	71
	Санъатим	72
	Дубляж санъати	74
	Ким ўйлайди бу ватанни	75
	Чарчадим	77
	Дунёдаги энг гўзал аёл ким	78
	Дунёдаги энг азиз сиймодир аёл	79
	Устозим	81
	Бизнинг журналистлар	83
	Бухоро	85
	Тилак	87
	Сўрашади дўстларим	88
	Санъат	89
	Шукр қилиб яшаш керак	90
	Бу миллат	91
	Бизнинг футбол	92
	Тошкент	93
	Менинг ўлкам	94
	Тўйдан кейин	96

Ватанимни соғинаман	97	
Ватан нима	98	
Ватан омон бўлсин	99	
Ўзбегим байрамлари	101	
Ватанга муносиб фарзанд бўлайлик	102	
Шукрона	104	
Ватан	106	
Нурли-нурли ёруғ манзиллар	107	
Шифокорлар	108	
Инсоннинг бўлмасин қалби ногирон	110	
Бир яхши ном қолсин	111	
Ҳаётдаги энг чиройли кун	113	
Бугун шундай кунки	114	
Тилак	115	
Меҳр тиладим	116	
Дўст шундай бўларки	117	
Агар аёл истаса	118	
Муҳаббат ёш танламайди, кўнгил танлар	119	
Қизларнинг муҳаббати	120	
Ота-она дуоси	121	
Оналар ўйнасин шундай даврада	122	
Дилим	123	
Аёл бор дунёда	124	☉
Ватанни сев	124	<i>М</i>
Ҳазилкашларга	125	<i>Е</i>
Оқибат	126	<i>Н</i>
Насиҳат	126	<i>И</i>
Яқин ўтмиш	127	<i>И</i>
Оқибат йўқолди нечун	130	<i>Н</i>
Беморлардан ҳолин сўранг, беморлардан	131	<i>Н</i>
Баҳор муборак	132	<i>Г</i>
Янги йил	134	
Умр йўлдошим	135	•
Дўстларим, одамга одам ғанимат	136	<i>Ю</i>
Эрта-индин деб юраверсанг	137	<i>Р</i>
Йиғламасин ожиза аёл	138	<i>Р</i>
Шундай аёл эди менинг волидам	139	<i>Т</i>
Эй дўст	142	<i>И</i>
Синишимни соғинди кимлар	143	<i>М</i>

Азизларим, дийдорингиз ғанимат	145
Эй инсон, кўзингни оч	146
Онамга хат	149
Қариялар уйи	150
Барибир бошқача радио тинглаш	151
Мен ватанга нима бердим деб яша	152
Ота-онанг рози қил аввал	154
Бахти борлар шукрли бўлсин	155
Ватан	156
Байрам табриги	159
Умр	159
Қадамлар ҳикмати	160
Айтинг-чи, эртага биздан не қолар	161
Чақалоқлар бўшатмасин бешигингни	162
Баҳорни кутаман	163
Йигит бўлсин	164
Барчинойнинг рўмоли қани	165
Тарихда	166
Кўшиқ	169
Катта бўлсанг	170
Шур, Оллоҳим	171
Саҳна	171
Бахт	172
Тилинг бошқа, дилинг бошқа бўлмасин	173
Манманлик ёмон	174
Азизларим	175
Ўтганларнинг жойи жаннатда бўлсин	176
Юракдан ёзилган шеър	177
Устозга эҳтиром	178
Бир бор раҳмат айтганмисиз кўшнингизга	179
Узатганда қизингизни	181
Тўйлар муборак бўлсин	182
Оқибатли одамлар	183

AHAD QAYUM

**MENING
YURTIM**



**Toshkent
«TAFAKKUR»
2019**

MENING YURTIM BUNCHA GO'ZAL, MENING YURTIM

A

h

a

d

•

Q

A

Y

U

M

◎

Ta'rifi yo'q, tanho azal mening yurtim,
Yozsang bo'lar ming bir g'azal mening yurtim.
Dunyo kezib topolmaysiz bunday Vatan —
Mening yurtim buncha go'zal, mening yurtim.

Vatan uchun kecha-kunduz xizmatdaman,
Sening kabi men ham buyuk maqsaddaman,
Chiroyingga tilim loldir hayratdaman,
Mening yurtim, buncha go'zal mening yurtim.

Har sohada, har bir kasbda mahorat bor,
Yosh-u kekxa, har yurakda jasorat bor,
Adolat bor bu diyorda, adolat bor,
Mening yurtim buncha go'zal, mening yurtim.

Boshqachadur bu tuproqning farzandlari,
Dilni dilga bog'lar mahkam dilbandlari,
Tan olmoqda, qarang, dunyo davlatlari,
Mening yurtim buncha go'zal, mening yurtim.

Ozod yurtda, ko'zlarim shod, dilim ozod,
Manzil sari ketmoqdaman, yo'lim ozod,
Yurt mustaqil, Vatan obod, elim ozod,
Mening yurtim buncha go'zal, mening yurtim.

Qancha manzil, makonlarni borib ko'rdim,
Seningchalik tuproq yo'qdir, shuni bildim,
Seni istar, seni sevar faqat ko'nglim,
Mening yurtim buncha go'zal, mening yurtim.

Ta'rifi yo'q, tanho azal mening yurtim,
Yozsang bo'lar ming bir g'azal mening yurtim.
Dunyo kezib topolmaysiz bunday Vatan —
Mening yurtim buncha go'zal, mening yurtim.

KO'Z TEGMASIN O'ZBEKISTONGA

Shukr deyman qarab zamonga,
Shunday go'zal jannatmakonga,
Tinch farovon yer-u osmonga,
Sarboni bor shunday karvonga,
Ko'z tegmasin O'zbekistonga!

Kundan-kunga yangidan yangi,
Porloq otar kelajak tongi,
Mustaqilsan endi sen mangu,
Shukr deyman qarab zamonga,
Ko'z tegmasin O'zbekistonga!

Ilm-u hunar rivojda bugun,
Yoshlar qalbi ishonchda bugun,
Madh etmayin vatanni nechun,
Shunday go'zal jannatmakonga,
Ko'z tegmasin O'zbekistonga!

Bunday tuproq qayda bor yana,
Har insonning ko'ngli shod, mana,
Ezguliklar qilar tantana,
Tinch farovon yer-u osmonga,
Ko'z tegmasin O'zbekistonga!

Farzandimiz farzandigacha,
Necha asr o'tsa ham qancha,
Xizimatingga tayyordir barcha,
Sarboni bor shunday karvonga,
Ko'z tegmasin O'zbekistonga!

Ahad Qayum, sening shodliging,
Vataning tinch, ozoddir eling,
Shu el bilan bu umr yo'ling,
Ko'z tegmasin O'zbekistonga!
Ko'z tegmasin O'zbekistonga!

●

M

E

N

I

N

G

●

Y

U

R

T

I

M

A

SENI SEVAMAN, VATAN

h

So'zimga ishon chindan,
So'rasalar gar mendan,
Jonim fido shu elga,
Seni sevaman, Vatan.

a

d

•

Q

Yo'l berding sen ishonib,
Ishonchingni qozonib,
Xizimating qilay yonib,
Seni sevaman, Vatan!

A

Y

U

M

⊙

Yuragimda bir titroq,
Mehring qalbinga chiroq,
Ishon hammadan ko'proq,
Seni sevaman, Vatan!

Yulduzlisan, oylisan,
To'rt fasling quyoshlisan,
Hammadan chiroylisan,
Seni sevaman, Vatan.

Sensan yorug' koshonam,
Bugun baxtli zamonam,
O'zing, mehribon onam,
Seni sevaman, Vatan.

Madhingni kuylay qancha,
Oshig'ing yo'qdir mancha,
So'ngi nafasimgacha,
Seni sevaman, Vatan.

So'zimga ishon chindan,
So'rasalar gar mendan,
Jonim fido shu elga,
Seni sevaman, Vatan.

YOZARMAN

Adabiyot sha'ni bilan yozarman,
Odob ila, ma'ni bilan yozarman,
Men shunchaki izlamasman qofiya
Yuragimning qoni bilan yozarman!

Yozadirman sig'may ketsam olamga,
Ening dardi qo'shiladi nolamga,
Rahmim kelib xastagina onamga,
Yuragimning qoni bilan yozarman!

Goh yozarman qayg'u bilan, g'am bilan,
Goho yozgum ko'zimdagi nam bilan,
Zulmat ichra ketmoqdaman sham bilan,
Yuragimning qoni bilan yozarman!

Bu she'rlarga kimlar oshiq bo'libdir,
Ba'zilar mashhur qo'shiq bo'libdir,
Ko'ngil qulfin ochgan eshik bo'libdir,
Yuragimning qoni bilan yozarman!

Ijodimga xiyonatni bilmasman,
So'zni sotib tirikchilik qilmasman,
Dod desa ham jonga rahm qilmasdan
Yuragimning qoni bilan yozarman!

Meni ilhaq kutgan ko'zlarim uchun,
Aziz muxlislarim, do'stlarim uchun,
Va'da berib qo'ygan so'zlarim uchun,
Yuragimning qoni bilan yozarman!

Har kuni xatlar kelar, ey Ahad Qayum,
Bizlar seni yaxshi ko'ramiz, o'g'lim,
Ostonamda poylab tursa-da o'lim,
Yuragimning qoni bilan yozarman!

Adabiyot sha'ni bilan yozarman,
Odob ila, ma'ni bilan yozarman,
Men shunchaki izlamasman qofiya
Yuragimning qoni bilan yozarman!

●

M

E

N

I

N

G

●

Y

U

R

T

I

M

A MEN SENDAN KECHMAYMAN, VATAN

h

a

d

•

Q

A

Y

U

M

◎

Ahli donishlar hikmati,
Shudir sening tillalaring,
Yurt qalbiga bezak solgay,
Qo'shiqlar-u yallalaring,
Menga Vatan nimaligin
O'rgatganda allalaring,
Haq yo'lida fido bo'lsin,
Senga sadqa ruh ila tan,
Hattoki kechsam ham jondan,
Men sendan kechmayman, Vatan!

Onalarning poylarini
Eslatganda bozorlaring,
Otalarning joylarini
Izlatganda mozorlaring,
Og'alarning tulporlarin
Kishnatganda viqorlaring,
Yuragimda ming bir titroq,
Axir sening farzandingman,
Hattoki kechsam ham jondan,
Men sendan kechmayman, Vatan!

Buxorodan ketganman-u,
Buxorodan kechmaganman,
O'zga elni quchgan bilan,
O'z elimdan qochmaganman,
Yaproqlari uchgan bilan,
Ildizlari ko'chmaganman,
Shofirkonning sho'r tuprog'i
Menga zardir, oltin, ma'dan,
Hattoki kechsam ham jondan,
Men sendan kechmayman, Vatan!

Yuraginga sanchilganda
Ig'vogar kaslar mish-mishi,
Do'stlarimni ranjitganda
G'anim nodonlar qilmishi,
Nima istar, nima so'rar,
Bugun do'stlar dil xonishi,
Asl o'zbekning o'zligin siz,
So'rar bo'lsangiz gar mandan,
Hattoki kechsam ham jondan,
Men sendan kechmayman, Vatan!

Vatan, Vatan deb hayqirar,
Ahad Qayum nima uchun,
Kimdir der manfaat uchun,
Kimdir der ta'ma uchun,
Bu so'zning o'z ma'nosi bor,
Talqini bor hamma uchun,
Jonimni o'tga solmoq
Niyatim yo'qdir qasddan,
Hattoki kechsam ham jondan,
Men sendan kechmayman, Vatan!

Ahli donishlar hikmati,
Shudir sening tillalaring,
Yurt qalbiga bezak solgay,
Qo'shiqlar-u yallalaring,
Menga Vatan nimaligin
O'rgatganda allalaring,
Haq yo'lida fido bo'lsin,
Senga sadqa ruh ila tan,
Hattoki kechsam ham jondan,
Men sendan kechmayman, Vatan!



O'ZBEKISTON

A

h

a

d

•

Q

A

Y

U

M

⊙

Vatan ne, vatan iymon,
Unutma shuni, inson,
To'rt fasli yorug' osmon,
O'ZBEKISTON!

Kindik qonim tushgan yurt,
Dilda mehri toshgan yurt,
Yaxshilikka shoshgan yurt,
O'ZBEKISTON!

Har manzil go'sha obod,
Yana parvozi ozod,
Ozod el baxtidan shod,
O'ZBEKISTON!

Bo'y cho'zding ko'rdi jahon,
Kimliging bildi jahon,
Tuproq'i oltin makon,
O'ZBEKISTON!

Mudom shunday baxtga to'l,
Yaxshi kunda o'ynab kul,
Boshimda gultojim bo'l,
O'ZBEKISTON!

Vatan ne, vatan iymon,
Unutma shuni, inson,
To'rt fasli yorug' osmon,
O'ZBEKISTON!



ONA TUPROQ

Mehrim bordir sahrolaring,
Har bir tosh-u, har qoyangga,
Bosh egib ta'zim aylasam,
Har bir xas, bug'doypoyangga,
O'zga elni teng ko'rmasman,
Bir qatra nur, bir soyangga,
Ayt, seni mendanam ko'proq
Kim sevar, ey ONA TUPROQ?

Bir oh ursam, bitta ohim,
Yetdi-ku etti falakka,
Bir kun yashasa-da, qarang,
Vatan bordir kapalakka,
Ona tuproq bir gardingni,
Alishmam yetmish malakka,
Ayt, seni mendanam ko'proq
Kim sevar, ey ONA TUPROQ?

Ta'rifingga so'z aytmoqqa,
Kimdir axir bilganlarim,
Sendan bir zum yiroq ketsam
Qalbim yarim, baxtim yarim,
Ishon menga, ey onajon,
Yolg'on emas aytganlarim,
Ayt, seni mendanam ko'proq,
Kim sevar, ey ONA TUPROQ?

Bobodehqonim yuzlari
Otam bo'lib ko'ringaydir,
Har uchratgan munis ayol,
Onam bo'lib ko'ringaydir,
Har bir o'zbek yuragi bir
Olam bo'lib ko'ringaydir,
Ayt, seni mendanam ko'proq,
Kim sevar, ey ONA TUPROQ?

●

M

E

N

I

N

G

●

Y

U

R

T

I

M

A
h
a
d
•
Q
A
Y
U
M
◎

Biz kim bo'ldik nazar etmay
Oddiy elning hayotini,
Dunyolarga tanitmasak
Qoshg'ariyning avlodini,
Har lahzada yodda tutsak,
Navoiyning bayotini,
Ayt, seni bizdanam ko'proq
Kim sevar, ey ONA TUPROQ?

Mehrim bordir sahrolaring,
Har bir tosh-u, har qoyangga,
Bosh egib ta'zim aylasam,
Har bir xas bug'doypoyangga,
O'zga elni teng ko'rmasman,
Bir qatra nur, bir soyangga,
Ayt, seni mendanam ko'proq
Kim sevar, ey ONA TUPROQ?

ADABIYOT, ESHIKLARING OCH

Adabiyot, eshiklaring och,
Men ham ko'ray ko'hna arxivni.
Mendan majbur so'ramagin boj,
Kel, yozaylik yangi tarixni.

Adabiyot qo'l ber, do'stginam,
Hurmatingga bo'lay sazovor.
Senda bo'lsa bor haqiqat jam,
Men bo'lardim eng zo'r ijodkor.



KECHOLMAYMAN VATANDAN ASLO

O'zbekiston tengsiz gavharim,
Sen topilmas, bebaho zarim,
Sendan bir kun yiroqqa ketsam,
Baxtim yarim, bu ko'ngil yarim,
Men kecharman jonimdan, ammo
Kecholmayman Vatandan aslo.

Qanot berding, menga uchgin deb,
Cho'qqilarni zabt et quchgin deb,
Imkon berding yangi tarixda,
Yana bir sahifa ochgin deb.
Men kecharman jonimdan ammo,
Kecholmayman Vatandan aslo.

Dunyo kezdim, go'zaldir chindan,
Yurtparvarlik o'tgandir qondan,
Keldim deyman, aziz do'stlarim,
Men mustaqil O'zbekistondan.
Men kecharman jonimdan, ammo
Kecholmayman Vatandan aslo.

Bizga joni kuyuksan, Vatan,
Onam kabi suyuksan, Vatan,
Otam kabi asraysan meni,
Sen biz uchun buyuksan, Vatan.
Men kecharman jonimdan, ammo
Kecholmayman Vatandan aslo.

Sening isming yurakda aziz,
Sen ustozsan bizga, shubhasiz,
Kerak qilding shu tuproqqa sen,
Sensiz biz ham yo'qmiz shubhasiz.
Men kecharman jonimdan, ammo
Kecholmayman Vatandan aslo.

●

M

E

N

I

N

G

●

Y

U

R

T

I

M

A
h
a
d
●
Q
A
Y
U
M
●

Sening porloq toleing so'nmas,
Sen bo'lmasang, ijodim unmas,
Yashnab tursang, sen omon bo'lsang,
Ahad Qayum yozishdan tinmas.
Men kecharman jonimdan, ammo
Kecholmayman Vatandan aslo.



HAYOT GO'ZAL

Hayot go'zal, go'zal
Tuyg'ular bilan,
Hayot go'zal quvonch,
Kulgular bilan,
Hayot go'zal mehr,
Muhabbat sabab,
Hayot go'zal shirin,
Orzular bilan.

Atrofigda bo'lsa
Yaqinlar, do'stlar,
Yaxshi niyatlardan
Yashnasa ko'zlar,
Har ko'ngil dunyoda
Baxtini izlar,
Hayot go'zal, go'zal
Tuyg'ular bilan.



M

E

N

I

N

G



Y

U

R

T

I

M

**O'ZBEKISTONDAN HAM
YAXSHI JOY BORMI**

A

h

a

d

•

Q

A

Y

U

M

◎

Biznikidan go'zal

Oqqan soy bormi,

Oy bitta, bundan ham

Go'zal oy bormi,

Vatanini sevgan

Har o'zbek uchun

O'zbekistondan ham

Yaxshi joy bormi?!

Tushingda ko'rganing

O'ngda so'zlama,

Begona yurtlarda

Manzil ko'zlama,

Tuproq'ingdan aziz

Makon izlama,

O'zbekistondan ham

Yahshi joy bormi?!

Qara, rivojlanish,

O'zgarishlarga,

Dunyo havas qilgan

Bunday ishlarga,

Qancha imkon berdi

Bizdek yoshlarga,

O'zbekistondan ham

Yaxshi joy bormi?!

Baxtga to'lib yasha

Omading yormi,

Asragin g'ururing,

Nomus-u orni,

Ko'zlarimga qarab

Aytgin, ey yurtdosh,

O'zbekistondan ham

Yaxshi joy bormi?!

Bizning tuproqdan ham
Aziz bo'lganda,
Ketgan bo'lar edi
Amir Temurlar.
Bizning tuproqdan ham
Aziz bo'lganda,
Yig'lab sog'inmasdi
Mirzo Boburlar.

Ajdodlar qabrini
Ziyorat qiling,
Ko'ngilda ilmdan
Imorat qiling,
Shunday sajdagohga
Sadoqat qiling,
O'zbekistondan ham
Yaxshi joy bormi?!

Qay yurtda urushlar,
Qayda notinchlik,
Qay yurtda kasallik,
Qay yurtda ochlik,
Bizda esa qarang,
Osuda tinchlik,
O'zbekistondan ham
Yaxshi joy bormi?!

Bir viloyat nomi
Shoir nomida,
Hazrati Navoiy
Qalb ardog'ida,
Buyuk karvonimning
Sarboni bordir,
Aziz qoraqalpoq
Bir tomonimda.

●

M

E

N

I

N

G

●

Y

U

R

T

I

M

A
h
a
d
•
Q
A
Y
U
M
◎

Vaqt topib vodiyni
Sayohat qiling,
Samarqand sayqalin
Mo'jiza biling,
Buxoro-yu Xiva
Haybatin ko'ring,
O'zbekistondan ham
Yaxshi joy bormi?!

Boring Surxondaryo
Tomonlarga siz,
Qashqadaryo, Jizzax,
Sirdaryo tengsiz,
Bugungi Toshkentni
Kelib ko'ring siz,
O'zbekistondan ham
Yaxshi joy bormi?!

Ahad Qayum yozar
Sevib tuprog'in,
Bir lahza bosolmay
Qalbin titrog'in,
Abadiy yashnasin
Vatanim, bog'im,
O'zbekistondan ham
Yaxshi joy bormi?!

Biznikidan go'zal
Oqqan soy, bormi,
Oy bitta, bundan ham
Go'zal oy bormi,
Vatanini sevgan
Har o'zbek uchun,
O'zbekistondan ham
Yaxshi joy bormi?!

YASHASIN BU VATAN

O'zbekiston haqda,
O'zbeklar haqda,
Qancha qo'shiq aytdik,
Qancha she'r yozdik,
Shunday go'zal yurtda
Yashamoq baxt-da,
Yashasin bu vatan,
Hurlik, ozodlik!

O'zbekiston haqda,
O'zbeklar haqda,
So'zlamog o'zi
Bir dunyo shodlik,
Mustaqil diyorning
Ko'rkiga boq-da,
Yashasin bu vatan,
Hurlik, ozodlik!

Baxtning makonida
Obodsan, elim,
Tonglaring musaffo,
Ozodsan, elim,
Sening quvonchingdan
Yashnaydir dilim,
Yashasin bu vatan,
Hurlik, ozodlik!

Tarixing charxida
Aylangan tuproq,
Ajodlar o'gitin
Bir-bir yod oldik,
Sening isming dilga
Solgay ming titroq,
Yashasin bu vatan,
Hurlik, ozodlik!

●

M

E

N

I

N

G

●

Y

U

R

T

I

M

A
h
a
d
•
Q
A
Y
U
M
◎

O'zbekiston haqda,
O'zbeklar haqda,
Davlatimiz ismin
So'zlar yer-u ko'k!

Ey do'stim, bu millat
Gullagan vaqtda,
Yashasin bu vatan,
Hurlik, ozodlik!

O'zbekiston haqda,
O'zbeklar haqda,
Qancha qo'shiq aytdik,
Qancha she'r yozdik,
Shunday go'zal yurt-da
Yashamoq baxtda,
Yashasin bu vatan,
Hurlik, ozodlik!



OTA-ONA G'ANIMAT

Ne qildingiz onangiz uchun,
Qanday savob, qanday yaxshilik?
Biror marta otangiz uchun,
Ne qildingiz axir aytgulik?

Bolam-chaqam, to'y deb, tashvish deb,
Sog'likdan ham kechasiz hatto.
Qo'yibdilar buni taqdir deb,
So'ng ertaga kechikmang ammo.



●
M
E
N
I
N
G
●
Y
U
R
T
I
M

A

h

a

d

•

Q

A

Y

U

M

☉

AKALAR, UKALAR

Akalar, ukalar,
Opa-singillar,
Asrang bir-biringiz,
To'lsin ko'ngillar.
Yaxshi kun ko'p bo'lsin,
Mehrđan yashnang,
Do'stlarim, diydorga
Talpinib yashang.

Akalar, ukalar,
Opa-singillar,
Oramizda kim bor,
Kim yo'q ertaga.
Hasad emas, havas
To'lsin yurakda,
Hasad emas, havas
Qiling barchaga.

Shunda baxt eshigin
Ochadi sizga,
Shunda dil shodlikdan
Yana yengillar.
Yana nasib etsin
Uchrashmoq bizga,
Akalar, ukalar,
Opa-singillar.



SEVIB YASHANG SHUNDAY VATANNI

Yurtim baxti ko'nglim yashnatar,
Yagonadir jamoling naqshi,
Bulbul dilim yana sayratar,
Elni sevmoq bunchalar yaxshi!
Gullataylik shunday chamanni,
Sevib yashang shunday vatanni!

Har mehmonni suyib yayratar,
Boshimizda hurlik baxt qushi,
Ko'nglim baxtdan ifor taratar,
Elni sevmoq bunchalar yaxshi!
Gullataylik shunday chamanni,
Sevib yashang shunday vatanni!

Shunday xalqni qanday sevmayin,
Toringni ol, ey hofiz baxshi,
Ona tuproq madhing kuylayin,
Elni sevmoq bunchalar yaxshi!
Gullataylik shunday chamanni,
Sevib yashang shunday vatanni!

Yurtim baxti ko'nglim yashnatar,
Yagonadir jamoling naqshi,
Bulbul dilim yana sayratar,
Elni sevmoq bunchalar yaxshi!
Gullataylik shunday chamanni,
Sevib yashang shunday vatanni!



●
M
E
N
I
N
G
●
Y
U
R
T
I
M

A

ISHDAN CHARCHAB KELIB

h

Ishdan charchab kelib, hayotdan to‘yib,
Kimgadir zahrimni sochgim keladi,
Do‘stday yelkasiga boshimni qo‘yib,
Kimgadir qalbimni ochgim keladi.

a

d

⊙

Q

Kimgadir qo‘ng‘iroq qilsam band bo‘lar,
Tongacha yorishmas hech ko‘ngilxonam,
Meni shunday paytda kim ham tushunar,
Qani shu payt hayot bo‘lsaydi onam.

A

Y

U

M

⊙

KECHAGI KUNINGNI UNUTMA

Yashay desam baxtim yo‘q dema,
Orzuyim ko‘p, haqqim yo‘q dema,
Do‘st-u yordan holin so‘rmoqqa,
Ishlarim ko‘p, vaqtim yo‘q dema.

Yosh joning tashvishdan qaritma,
Qalbingni yolg‘ondan horitma,
Erta uchun ter to‘kaman deb,
Kechagi kuningni unutma!



SAMARQAND, BUXORO, XIVA

Samarqand, Buxoro, Xiva — uch asar,
Uchta buyuk surat,
Muzeylar aksii.
Ajdodlardan qolgan eksponatlar,
Xayolda mavjlanar hayratlar raqsi.

Har bir obida-yu, har minoraning
Yarim zarrasiga arzirmikanman.
Vatan — buyuklikka bordir daliling,
Sening qudratingga tarix berar tan.

Samarqand, Buxoro, Xiva — uch me'mor,
Uchta buyuk taqdir,
Uchta qabriston.
Uchta qit'a kabi ko'hna uch kitob,
Asrar ona bo'lib shu yer, shu osmon!

Vatan haqda she'rlar yozmay maqtanib,
Buyuk ostonalar changini arting.
Yaratgani uchun shunday tuproqqa,
Ollohga har kuni shukrlar ayting.

Tarix kitobini varaqlarkanman,
Goh yashnar, gohida sanchadi yurak!
Dunyoni hayratga solgan uch sahna,
Samarqand, Buxoro, Xiva — uch ertak.



●
M
E
N
I
N
G
●
Y
U
R
T
I
M

FARG'ONAJON

A

h

a

d

•

Q

A

Y

U

M

◎

Bag'ringda ham sog'inaman, ketgim kelmas,
Seni qanday-sevishimni hech kim bilmas,
Ko'zim ko'rib suluv-suluv o'lkalarni,
Dunyo kezdim, hech birisi senday bo'lmas,
Mehri mendek chanqoq bormi, Farg'onajon!
Sendan go'zal tuproq bormi, Farg'onajon!

Mehmoningni o'z bolangdan ko'p suyasan,
Begonaga o'z bolangdan ko'p kuyasan,
Farg'onajon, Farg'onajon, Farg'onajon,
Ona kabi diydorlardan sen to'yasan.
Jonga ortiq titroq bormi, Farg'onajon!
Sendan go'zal tuproq bormi, Farg'onajon!

Buxoroning minori deb ko'p she'r yozdim,
Qashqadaryo chinori deb ko'p she'r yozdim,
Ko'p she'r yozdim o'z tug'ilgan elim haqda,
Seni ko'rib men aqldan, rosti, ozdim.
Bundan ortiq maroq bormi, Farg'onajon!
Sendan go'zal tuproq bormi, Farg'onajon!

Shoirlarning tushidagi bog'larmi bu,
Erkin Vohid hayrat olgan tog'larmi bu,
Qadam qo'ysam aslo qaytib ketgim kelmas,
Umrimdagi eng baxtiyor chog'larmi bu,
Nega degan so'roq bormi, Farg'onajon,
Sendan go'zal tuproq bormi, Farg'onajon!

Ahad Qayum mingta she'r yoz, ming qo'shiq ayt,
Farzandidek seni o'g'lim deb kutgan payt,
Hech yerda yo'q bag'ri ochiq bu odamlar,
O'zbekiston degan yurtda borligi baxt.
Bag'ringdek keng quchoq bormi, Farg'onajon,
Sendan go'zal tuproq bormi, Farg'onajon!

USTOZ MUALLIM

Bilim maskan, hayot darsini,
Chaqib berib ilm mag'zini,
Sizga doim shogird tahsini,
Bering ilm, bering ta'lim
Yosh avlodga, USTOZ MUALLIM!

O'qituvchi – tarbiyabeshik,
O'qituvchi dunyoga eshik,
O'qituvchi o'quvchiga ilk
Bering ilm, bering ta'lim
Yosh avlodga, USTOZ MUALLIM!

Ming o'rgilsak kam boshingizdan,
Ming o'psak kam bu poyingizdan,
Navoiy ham o'rgangan sizdan,
Bering ilm, bering ta'lim
Yosh avlodga, USTOZ MUALLIM!

Sizda jamdir fan, taraqqiyot,
Tarixi el, til, adabiyot,
Sizlar borki yurt, millat obod,
Bering ilm, bering ta'lim,
Yosh avlodga, USTOZ MUALLIM!

Shoir qilgan Ahad Qayumni,
Yurtga mashhur qilgan ismimni,
Mohir etgan hunar, kasbimni,
Bering ilm, bering ta'lim
Yosh avlodga, USTOZ MUALLIM!



A
h
a
d
•
Q
A
Y
U
M
◎

VATAN DEMASAM

Osmonga tanishdir,
Yulduzning tili,
Daryoga tanishdir,
Dengizning tili,
Yaproqqa tanishdir,
Ildizning tili,
Kim bo'ldim shu yurtning
G'amin yemasam,
Tuproq'im demasam,
Vatan demasam.

Sochimning uchidan
Tirnog'imgacha,
Nafasim sanovchi
Tomog'imgacha,
Dilda kimman degan
So'rog'imgacha,
Yuragidan asriy
Dardin yulmasam,
Vatan deb suyangan
Farzand bo'lmasam.

Tug'ildimki bir dard
Ko'ksim yondirar,
Inson bir kamini
Qayda to'ldirar,
Inson insonligin
Qayda bildirar,
Yaxshi-yomon kunda
Men deb turmasam,
Yo'limni yaxshilik
Tomon burmasam.

Otamdan holing ne
Deya so'rmasam,
Onamning dardini
Ko'zga ilmasam,
Asli kimligimni
O'ylab ko'rmasam,
Kim bo'ldim shu yurtning
G'amin yemasam,
Tuproq'im demasam,
Vatan demasam.

Osmonga tanishdir,
Yulduzning tili,
Daryoga tanishdir,
Dengizning tili,
Yaproqqa tanishdir,
Ildizning tili,
Kim bo'ldim shu yurtning
G'amin yemasam,
Tuproq'im demasam,
Vatan demasam.

CHIN BAXT

Mehnat qilmay rohat topa olmaysiz,
Izzat qilmay, hurmat topa olmaysiz,
Mehr bermay, mehr ko'rmoq istamang,
Yolg'on yashab, chin baxt topa olmaysiz.

Unutmang ustozlar har o'git so'zin,
Umr juda qisqa, shoshiling, do'stim,
Vaqt oqar daryodir bermagay izn,
So'ng ertaga fursat topa olmaysiz.

⊙

M

E

N

I

N

G

⊙

Y

U

R

T

I

M

A

ASKARLAR

h

(*Qo'shiq*)

a

Vatanni asraydi harbiylar doim,
Shu ona tuproqni deydi o'z uyim,
Yurtim har sarhadi chegaram, qo'shnim,
Siz sabab bilmaymiz xavf-u xatarlar,
ASKARLAR, ASKARLAR, BIZNING
ASKARLAR!

d

•

Q

A

Y

U

M

⊙

Ota makonim deb orom bilmayin,
Siz sabab chaladi el tinchlik kuyin,
El xizmati juda og'irdir qiyin,
Sergak, ogoh bo'ling shom-u saharlar,
ASKARLAR, ASKARLAR, BIZNING
ASKARLAR!

Asrangsiz har zarra tuprog'imizni,
Ko'klarga ko'taring bayrog'imizni,
Har bitta ildiz-u yaprog'imizni,
Dushman nigohlardan doim asrarlar,
ASKARLAR, ASKARLAR, BIZNING
ASKARLAR!

Yodda tuting Temur hikmatlarini,
Mirzo Ulug'bekning xizmatlarini,
Tinglab Navoiyning dildardlarini,
Vatan ishonchini doim oqlarlar,
ASKARLAR, ASKARLAR, BIZNING
ASKARLAR!

Keksa, yosh o'spirin, erkag-u ayol,
Bu yurtda har oqshom uxlar bermalol,
Burchni ado eting, do'stlarim, halol,
Diyorim – faxrim deb qadam bosarlar,
ASKARLAR, ASKARLAR, BIZNING
ASKARLAR!

Vatanni asraydi harbiylar doim,
Shu ona tuproqni deydi o'z uyim...

YAGONASAN, MUQADDAS VATAN

Gulbo'ston, nur o'ragan maskan,
Dunyoni gul o'ragan gulshan,
Mustaqilsan, ey ona tuproq,
Yagonasan, muqaddas Vatan!

Alpomishning oltin beshigi,
Barchinoyning yangrar qo'shig'i,
Senga ochiq dunyo eshigi,
Yagonasan, muqaddas Vatan!

Temurday zot tug'ilgan diyor,
Navoiyni qilganding oshkor,
Buxoriyning o'chmas yodi bor,
Yagonasan, muqaddas Vatan!

Otam kabi navqironsan sen,
Onam kabi mehribonsan sen,
Olam kabi charog'onsan sen,
Yagonasan, muqaddas Vatan!

Vatan desam yongay yuragim,
Sen orzumsan, sensan tilagim,
Baxtim kabi o'zing keragim,
Yagonasan, muqaddas Vatan!

Ahad nechun yonadi bugun,
Yolg'onlardan tonadi bugun,
Kelajakning chin baxti uchun,
Yagonasan, muqaddas Vatan!

Gulbo'ston, nur o'ragan maskan,
Dunyoni, gul o'ragan gulshan,
Mustaqilsan, ey ona tuproq,
Yagonasan, muqaddas Vatan!

●

M

E

N

I

N

G

●

Y

U

R

T

I

M

9 MAY

A

h

a

d

•

Q

A

Y

U

M

◎

Sharaf deb millat yugin,
Vatanga bo'lib ustun,
Yurtim deb yutganlar xun,
O'chmagaydir chirog'i,
Nurga to'lgay tuprog'i.
Halollob ona sutin,
Yuzlari yorug' bugun,
Qaytganda qadri butun,
Unutilgay qiynog'i,
Oltin bo'lgay tuprog'i.
Qaydan tinchlik shamoli,
Yurtning baxt-u kamoli,
Bo'lmas mardning zavoli,
Essa ozod bayrog'i,
Tilga kirgay tuprog'i.
Daryolaring azizdir,
Ajdodlaring dengizdir,
Fidolaring tengsizdir,
Shudir dilning so'rog'i,
Mangu turgay tuprog'i.
O'tganlarni xotirlab,
Yana nomlarin eslab,
Bugun qoldim men o'ylab,
Nedir jonning titrog'i,
Haqqin eslanar chog'i,
Ko'milmagay mozori,
Tilga kirgay tuprog'i.

NAQORAT:

Yodimizga, yodimizga,
Siz — azizlar, jonimizga,
Yonimizda, yonimizda,
Yashagaysiz qonimizda.
O'ZBEKISTON GULLAGAY!

SHU VATAN

(*Qo'shiq*)

Ona zamin va inson,
Jon-u tandir, jon-u tan,
Beminnat ota makon,
Shu Vatandir, shu Vatan!

Asragaydir mardlari,
Dildan artib gardlarin,
Baxtdir menga dardlari,
Shu Vatandir, shu Vatan!

Yana takror aytaman,
Tug'ilsam gar qaytadan,
Menga aziz hammadan,
Shu Vatandir, shu Vatan!

Bunda tole yulduzim,
Shunda do'stlar ildizim,
Shamsi o'chmas kunduzim,
Shu Vatandir, shu Vatan!

Jondek aziz bu maskan,
Bag'rida gullar chaman,
Sahrolari ham gulshan,
Shu Vatandir, shu Vatan!

Ota-bobomdan meros,
Elparvarlik bizga xos,
Qaddi bastim etgan rost,
Shu Vatandir, shu Vatan!

Go'zal erur go'zaldan,
Dong taratgan azaldan,
Tushmagan she'r, g'azaldan,
Shu Vatandir, shu Vatan!

●

M

E

N

I

N

G

●

Y

U

R

T

I

M

A
h
a
d
•
Q
A
Y
U
M
◎

Tinglang navo kuylarin,
Ko'ring bayram, to'ylarin,
Tuzgan umr yo'llarim,
Shu Vatandir, shu Vatan!

Ko'rdim qancha diyorlar,
Qonga singdi shiorlar,
Ko'ngil nima, xumorlar,
Shu Vatandir, shu Vatan!

Ahadning har so'zini,
Yo'qotmasdan izini,
Yorug' aylar yuzini,
Shu Vatandir, shu Vatan!

Ona zamin va inson,
Jon-u tandir, jon-u tan,
Beminnat ota makon,
Shu Vatandir, shu Vatan!

USTOZ VA SHOGIRD

Tig'dek sanchib ustozning so'zi,
Ochildi-ku shogirdning ko'zi,
O'shal so'zga amal qilolmay,
Yig'lar edi ustozning o'zi.



O'ZBEGIMNING TO'YI

Kezib qancha millat-elatni,
Ko'rib qaytdim turli odatni,
Topolmadim jonga rohatni,
Ona yurtning bo'yi boshqacha,
O'zbekimning to'yi boshqacha.

Ko'zlardagi sururga qarang,
Davradagi fayz, nurga qarang,
Tillardagi shukrga qarang,
Kimning xayol-o'yi boshqacha,
O'zbekimning to'yi boshqacha.

Do'stlar, qo'lga qo'lni bog'laydi,
Xizmat uchun belni bog'laydi,
Yaqin diydor dilni chog'laydi,
Xushnud yoshlar so'yi boshqacha,
O'zbekimning to'yi boshqacha.

Siz ham kelib yayrangiz bir dam,
Unutingiz nima tashvish-g'am,
Bo'lolsangiz Ahadga hamdam,
Uning navo kuyi boshqacha
O'zbekimning to'yi boshqacha.

Kezib qancha millat-elatni,
Ko'rib qaytdim turli odatni,
Topolmadim jonga rohatni,
Ona yurtning bo'yi boshqacha,
O'zbekimning to'yi boshqacha.



M

E

N

I

N

G



Y

U

R

T

I

M

A

ONAM MENI DARD BILAN TUQQAN

h

a

d

•

Q

A

Y

U

M

◎

Onam meni dard bilan tuqqan,
DARD bilan men egizak edik...

Ikkimiz ham aka-ukadek

Bir ona bag'rida ulg'aydik...

Sen o'zingni ko'rsat aka deb,

U meni shaharga yubordi.

O'g'il bo'lib ukalik qilib,

Onamning yonida u qoldi.

Otamni ham yolg'iz qoldirmay,

DARD onamni guldek asraydi.

Shahardagi bedard akasi,

Onasini hech o'ylamaydi...

Iste'dodin sarflab erta-kech,

O'zini ko'rsata olmaydi...

YASHNASHA HAM FAQAT VATAN YASHNASIN

Topdim, zarhikmatlar

Oqqan chashmasin,

Izlang bizdek yurtga

Mehri tashnasin,

Har o'zbek shu el deb

Nafas olsin-u,

Har o'zbek shu el deb

Qadam tashlasin...

Yashnasa ham faqat

Vatan yashnasin,

Yashasa toabad

Vatan yashasin!

Har kimga yaxshilik

Yo'llagan diyor,

Mehrning taftidan

Gullagan diyor,
Har bir ildizidan
Yaprog'igacha
Yorug' manzillarni
Tilagan diyor!
Yashnasa ham faqat
Vatan yashnasin,
Yashasa toabad
Vatan yashasin!

Keksa, yosh, o'spirin,
Bolasigacha,
Yurt kezdin dehqonning
Dalasigacha,
Onalarning mungli
Allasigacha,
Oltindan azizdir

Har qarich tuproq,
Vatan bor hofizning
Yallasigacha...
Yashnasa ham faqat
Vatan yashnasin,
Yashasa toabad
Vatan yashasin!

Bizning boshqalardan
Hech kamimiz yo'q,
O'zimiz, ko'zimiz,
Bu ko'nglimiz to'q,
Bizning el oldida
Ko'p xizmatimiz,
Bizning el oldida
Niyatimiz ko'p.
Yashnasa ham faqat
Vatan yashnasin,
Yashasa toabad
Vatan yashasin!
O'zini tanigan

●

M

E

N

I

N

G

●

Y

U

R

T

I

M

A
h
a
d
•
Q
A
Y
U
M
◎

O'zbekka o'xshab,
Kelyapmiz ajdodlar
Izidan yashab,
Otam rozi bo'lsa
Olloh rozi deb,
Jannatni onalar
Poyiga to'shab...
Yashnasa ham faqat
Vatan yashnasin,
Yashasa toabad
Vatan yashasin!

Borib ayting o'sha
Elfurushlarga,
Vatanfurushlarga,
Tilfurushlarga,
Bobosin izini
Ko'mgan nokasga,
Vatanni bermaymiz
Yo'lfurushlarga.
Yashnasa ham faqat
Vatan yashnasin,
Yashasa toabad
Vatan yashasin!

Topdim, zarhikmatlar
Oqqan chashmasin,
Izlang, bizdek yurtga
Mehri tashnasin,
Har o'zbek shu el deb
Nafas olsin-u,
Har o'zbek shu el deb
Qadam tashlasin...
Yashnasa ham faqat
Vatan yashnasin,
Yashasa toabad
Vatan yashasin!

USTOZIMDAN AYIRMA, OLLOH

Falaklarning qo‘ynida uchgan,
Parvozimdan ayirma, Oллоh.
Ota-onam o‘rnida turgan
Ustozimdan ayirma, Oллоh.

Qay baxtli kun uchratding menga,
Deding, endi loyiq bo‘l unga,
Yetkazdirgan meni shu kunga,
Ustozimdan ayirma, Oллоh.

Tilla qilib, qop-qora toshni,
Baland ko‘tar, dedi bu boshni,
Ko‘zlarimdan oqizma yoshni,
Ustozimdan ayirma, Oллоh.

Shayton yo‘ldan adashtirgan chog‘,
Men u nomga keltirmayin dog‘,
Yolg‘iz boshin asragin o‘zing,
Ustozimdan ayirma, Oллоh.

Odam bo‘l deb ortimdan yurdi,
Bolasiday tarbiya berdi,
Bu dunyoda ne rohat ko‘rdi,
Ustozimdan ayirma, Oллоh.



●
M
E
N
I
N
G
●
Y
U
R
T
I
M

QUTLOV

A

h

a

d

•

Q

A

Y

U

M

⊙

Yoshlik fasli so‘linga o‘xshar,
Osmonda oy to‘linga o‘xshar,
Bu dunyoda shodlik timsoli,
Kuyov bilan kelinga o‘xshar,
Butun olam baxti sizdadir,
Bu kun davra taxti sizgadir!

Bir uzukka qo‘ygan ko‘zdeksiz,
Eng shirin aytilar so‘zdeksiz,
Ota-ona orzusi amal,
Sizga qarab quvonchi cheksiz,
Ahd-u vafo naqdi sizdadir,
Bu kun davra taxti sizgadir!

Bo‘ydoq va sho‘x kuyovjo‘ralar,
Qizlar tomon asta mo‘ralar,
Bizning yurtda ko‘cha-ko‘ydamas,
To‘yda qizning qo‘li so‘ralar,
Orzu-istak vaqti sizgadir,
Bu kun davra taxti sizgadir!

Shodliklari ko‘zida oshkor,
Tilak tilab takror va takror,
Havas ila sizga boqishar,
Uzoq-yaqindan kelgan do‘st yor,
Ertangi kun shahdi sizgadir,
Bu kun davra taxti sizgadir!

Yoshlik fasli so‘linga o‘xshar,
Osmonda oy to‘linga o‘xshar,
Bu dunyoda shodlik timsoli,
Kuyov bilan kelinga o‘xshar,
Butun olam baxti sizdadir,
Bu kun davra taxti sizgadir.

O'ZBEKISTON KELAJAGI BUYUK DAVLAT

Vatan desam, tomirlarim titragaydir,
Vatan desam, ta'rifga so'z yetmagaydir,
Vatan desam, ko'nglim quvna so'z ochmoqqa,
Vatan desam, yurak g'amga botmagaydir.
Mustaqillik Vatan baxti, aziz ne'mat,
O'zbekiston kelajagi buyuk davlat!

Olislarni ko'zlar bizning yoshlarimiz,
Baxt manzilin izlar bizning yoshlarimiz,
Yuksaklarga ko'targaydir Vatan madhin,
Istiqboldan so'zlar bizning yoshlarimiz.
Istiqloqning boshi baland, umri abad,
O'zbekiston kelajagi buyuk davlat!

Bu muqaddas zamin uzra ozod elim,
Gullab-yashnab ravnaq topar obod elim,
Baland ko'tar ozod yurtning bayrog'ini,
Taraqqiyot cho'qqisida nomzod elim,
Har bir o'zbek shu tuproq deb yongay albat,
O'zbekiston kelajagi buyuk davlat!

It huradi, karvon o'tar, sarbon chidar,
Munofiq do'st yarim yo'lda tashlab ketar,
Manzilgacha borolmagay elfurushlar,
Xudobezor dinfurushlar, elfurushlar,
Yurt tinch bo'lsin, deb tangridan so'rar Ahad,
O'zbekiston kelajagi buyuk davlat!

Vatan desam, tomirlarim titragaydir,
Vatan desam, ta'rifga so'z yetmagaydir,
Vatan desam, ko'nglim quvna so'z ochmoqqa,
Vatan desam, yurak g'amga botmagaydir.
Mustaqillik Vatan baxti aziz ne'mat,
O'zbekiston kelajagi buyuk davlat!

●

M

E

N

I

N

G

●

Y

U

R

T

I

M

BOLA

A

h

a

d

•

Q

A

Y

U

M

◎

Yerga ursa ko'kka sapchir tili chiqmay,
Bilganidan qolmasa gar so'zni uqmay.
Goh yelkada, goh ko'chada tinim bilmay,
O'jar, bebosh, sho'x bo'lmaydi qaysi bola,
Asli har bir xonadonning fayzi bola.
O'rni bo'lak, o'g'il bo'lsin, yo qiz bo'lsin,
Ortingizdan qoladigan bir iz bo'lsin.
Go'daklarning shovqinidan hovli to'lsin,
Avvalboshdan o'zbek borki dardi bola,
Uning uchun bu hayotning qadri bola.
O'zingiz ham bir eslang-a yoshligingiz,
Qani endi bir lahzaga qaytsa deysiz,
Tanbeh berib farzandingiz g'amin eysiz,
Ba'zan esa sizdan izzat kutar bola,
Ranjitsangiz goho ichga yutar bola.
Erka bo'lsa qulog'idan tortavermang,
Yelkasiga vazifalar ortavermang,
Shirin so'zni kanda qilmay hech ayamang,
Nafis guldek nozik g'uncha bo'lar bola,
Nima bo'lsa ulg'ayguncha bo'lar bola.
Nozik g'uncha bir kun gulga kirajakdir,
Bog'ingizga bo'y taratib turajakdir,
Bu bo'stoning nomi, do'stlar, kelajakdir,
Kelajakka nishonadir har bir bola,
Sizdan qolar koshonadir har bir bola.
Yerga ursa ko'kka sapchir tili chiqmay,
Bilganidan qolmasa gar so'zni uqmay.
Goh yelkada, goh ko'chada tinim bilmay,
O'jar, bebosh, sho'x bo'lmaydi qaysi bola.
Asli har bir xonadonning fayzi bola.



ORZU-HAVAS QILAR INSON FARZANDI DEB

Bu hayotda kimlar o'ksir izim yo'q deb,
Kimlar yig'lar shodon o'tgan ro'zim yo'q deb,
Hech kim aytmas, bu dunyodan ko'nglim to'q deb,
Jonini ham ayamayin dilbandi deb,
Orzu-havas qilar inson farzandi deb.

Jigarbandi qayg'usidan g'amga to'lib,
Gar bolasi shodon kulsa birga kulib,
Goho suvlar kechib, goho o'tda yonib,
Jonini ham ayamayin dilbandi deb,
Orzu-havas qilar inson farzandi deb.

Qilganlarim erta-bir kun qaytadi deb,
Qadrim bilib, bolam rahmat aytadi deb,
El ichida o'z o'rnini topadi deb,
Jonini ham ayamayin dilbandi deb,
Orzu-havas qilar inson farzandi deb.

Farzand uchun ota-ona mehrin berib,
Mehr ichra pinhon bo'lgan sehrin berib,
Yuzdan oshib yursam deydi baxtin ko'rib,
Jonini ham ayamayin dilbandi deb,
Orzu-havas qilar inson farzandi deb.

Bu hayotda kimlar o'ksir izim yo'q deb,
Kimlar yig'lar shodon o'tgan ro'zim yo'q deb,
Hech kim aytmas, bu dunyodan ko'nglim to'q deb,
Jonini ham ayamayin dilbandi deb,
Orzu-havas qilar inson farzandi deb.



M

E

N

I

N

G

•

Y

U

R

T

I

M

USTOZIM SHU XALQ

A
h
a
d
•
Q
A
Y
U
M
●

Ko'ngildan taralsa
She'r, qo'shiq-navo,
Dildan chiqqan sado
Dilga borgaydir,
Men bir jilg'adirman,
Vatan, sen daryo,
Eldan chiqqan sado
Elga borgaydir.
Men tinglagan sozim,
Ovozim shu xalq,
Aziz ona yurtim,
Ustozim shu xalq.

Ona bo'lib baxtim
Tilagan diyor,
Ota bo'lib boshim
Silagan diyor,
Hayot maktabimda
Muallim o'zing,
Yorug' manzillarga
Yo'llagan diyor.
Osmonim, qanotim,
Parvozim shu xalq,
Aziz ona yurtim,
Ustozim shu xalq.

Sendan ta'lim olgan
Ne-ne daholar,
Ne-ne donolar-u,
Aqli rasolar,
Ona bo'lib, ammo
O'z farzandidan
Vafolar ko'rmagan
Gohi vafolar.
Dilinga dildoshim
Hamrozim shu xalq,
Aziz ona yurtim,
Ustozim shu xalq.

Tuprog'i zar, qadri
Aziz o'lkasan,
Jannatmakon yurtim,
Tengsiz o'lkasan,
Mayda tuyg'ularni
O'chirib yoddan,
Buyuk muhabbatni
Yoqding dilga san.
Yelkamga yelkadosh
Chin do'stim shu xalq,
Aziz ona yurtim,
Ustozim shu xalq.

Seni bir ko'rmoqqa
Kimlar zor seni,
Toleying nurafshon,
Baxting yor seni,
Unutma, labbay deb
Xizimatingga shay
Ahad Qayum degan
O'g'ling bor sening.
Berdi shoir degan
Lavozim shu xalq,
Aziz ona yurtim,
Ustozim shu xalq.

Ko'ngildan taralsa
She'r, qo'shiq-navo,
Dildan chiqqan sado
Dilga borgaydir,
Men bir jilg'adirman,
Vatan, sen daryo,
Eldan chiqqan sado
Elga borgaydir.
Men tinglagan sozim,
Ovozim shu xalq,
Aziz ona yurtim,
Ustozim shu xalq.

●
M
E
N
I
N
G
●
Y
U
R
T
I
M

A

h

a

d

•

Q

A

Y

U

M

⊙

IJOD MASHAQQATLI YO‘L

Ijod mashaqqatli yo‘l,
Ko‘pdir iste’dodlilar.
Kimdir nolisa nuqul,
Kingadir omad kelar.

Adabiyot keng dargoh,
Ko‘pdir yangi vakillar.
Ey do‘st, sen xalqingga boq,
Ozod el nima istar.

Yozuvchi-yu shoirlar,
Ustozsiz pir-u komil.
Boshlandi yangi davr,
Ijod mashaqqatli yo‘l...

YANGI YIL

Men sendan ko‘p narsa
So‘raganim yo‘q,
Dillarga quvonch-u
Surur olib kel,
Kechagi kunimdan
Mening ko‘nglim to‘q,
Ertaga ham shunday
Bo‘lsin yangi yil.

Ertaga ham menga
Hamroh qil baxtni,
Doim butun saqla
Dildagi shahdni,
Do‘st-u yor buzmasin
Va‘da-yu ahdni,
Yangi umidlarga
To‘lsin yangi yil.

Yuraklarda armon
Qotib qolmasin,
Do'stlarim g'aflatga
Botib qolmasin,
Kim olisni ko'zlar
Aslo tolmasin,
Yaxshilarning baxti
Kulsin yangi yil.

Yangi oq qog'ozdek
Toza beg'ubor,
Yer yuzini qoplab
Yog'di oppoq qor,
Yam-yashil archaga
Bergin-u ifor,
Yonida qorbobo
Tursin yangi yil.

Seni eng intizor
Kutgan bolalar,
Eshikda sovg'alar
Kutgan bolalar,
Endi ulg'ayganin
Unutgan ular,
Qalbi boladek sof
Yursin yangi yil.

Sen esa kelasana,
Ketaverasan,
Boshimdan bir silab
O'taverasan,
Sehrli qo'shig'ing
Aytaverasan,
Mayli, har gal shunday
Kirsin yangi yil.

Men sendan ko'p narsa
So'raganim yo'q,
Dillarga quvonch-u
Surur olib kel,

●
M
E
N
I
N
G
●
Y
U
R
T
I
M

A Kechagi kunimdan
h Mening ko'nglim to'q,
a Ertaga ham shunday
d Bo'lsin yangi yil.

● **SEN PULNING QULI BO'LMA**

Q Birov ketidan yurma,
A O'zingning yo'ling bo'lsin,
Y Sen pulning quli bo'lma,
U Pul sening quling bo'lsin.

MAHALLAM

● Mahalla tarbiya
O'chog'i azal,
Mahalla urf-odat
Quchog'i azal,
Mahalla oqibat
Chirog'i azal,
Milliy qadriyatga
Eshik mahallam,
Ko'hna ma'rifatga
Beshik mahallam!

Nurga to'la kunduz,
Kechalarimiz,
Fayzin ko'ring kelib
Ko'chalarimiz,
Farzandniholimiz,
Ko'chatlarimiz,
Rizq-u barokatga
Eshik mahallam,
Halol harakatga
Beshik mahallam!

Har bitta xonadon
Ahildir, inoq,
Qo'shnining qo'shniga
Mehri ko'p qaynoq,

Yaxshilar yoningda
Yaxshidir qandoq,
Mehr-u saxovatga
Eshik mahallam,
Ilm-u zakovatga
Beshik mahallam!

Otamday azizdir
Keksa oqsoqol,
Onamday azizdir
Bunda har ayol,
Birga jam yaqinlar,
Qarindosh, do'st, yor,
Katta jamiyatga
Eshik mahallam,
Ahil jamoatga
Beshik mahallam!

Shunday tinch zamonda
Orzular gullar,
Qarindosh jigarband
Yaqindir dillar,
Pok, sof ko'ngillarda
Poklik tug'ilar,
Qadr-u oqibatga
Eshik mahallam,
Nomus, oriyatga
Beshik mahallam!

Ahad Qayum degan
Ismi aytib,
Nomimni yurtimga
Qo'yding taratib,
Rahmat, olamlarga
Baxtim yayratib,
Go'zal fazilatga
Eshik mahallam,
Ko'hna asliyatga
Beshik mahallam!

●
M
E
N
I
N
G
●
Y
U
R
T
I
M

NAVRO‘Z

A
h
a
d
•
Q
A
Y
U
M
◎

Quyoshli, nurafshon
Tenglar otganda,
Navbahor maysasi
Qo‘shiq aytganda,
Xushhavo bog‘larga
Qushlar qaytganda,
Bu yil butun bo‘lsin
Deymiz rizqi ro‘z,
Bizni yo‘qlab kelsa
Yana bir NAVRO‘Z!

Tun-u kun tinmayin
Shitirlar yomg‘ir,
Bizga nelarnidir
Shivirlar yomg‘ir,
Yoqimli shamollar
Esganda g‘ir-g‘ir,
Olam uyg‘onganda
Quvnab ketar ko‘z,
Bizni yo‘qlab kelsa
Yana bir NAVRO‘Z!

Belida belbog‘i,
Egnida chopon,
Hatto cho‘llarni ham
Qilgani bo‘ston,
Ko‘chat ek ko‘karsin,
Der bobodehqon,
Yelkada ketmoni
Haloldir non, tuz,
Deydi: Qut-baraka
Keltirsin NAVRO‘Z!

Bahorni to'ldirib
O'ynar kapalak,
Bir zum yomg'ir yog'sa,
Yana kamalak,
Doshqozonda tinmay
Qaynar sumalak,
Shoirlar shodligin
Aytsam til ojiz,
Ilhomlar mavsumin
Boshlaydi NAVRO'Z!

Ko'ngilni sehrlab
Sal g'oyibona,
Tillardan uchgan har
So'z shoirona,
Hofizlar ham kuylab
Qo'shiq tarona,
Qutlashar basharni
Qo'llarida soz,
Deydilar: Bu yil to'y
Ko'paysin, NAVRO'Z!

Quyoshli, nurafshon
Tonglar otganda,
Navbahor maysasi
Qo'shiq aytganda,
Xushhavo bog'larga
Qushlar qaytganda,
Bu yil butun bo'lsin
Deymiz rizqi ro'z,
Bizni yo'qlab kelsa
Yana bir NAVRO'Z!



BAYRAM TABRIGI

A

h

a

d

•

Q

A

Y

U

M

⊙

Qutlug' ayyom arafasida,
Baxt-u quvonch mushtarak bo'lsin,
Yangi kunning sarlavhasida,
Bayramingiz muborak bo'lsin!

Dil so'zlarim qabul et, yurtim,
Niyatingga mudom yet, yurtim,
Sinovlardan omon o't, yurtim,
Bayramingiz muborak bo'lsin!

Boshga tole, baxt qushi qo'nsin,
Yosh avlodlar ulg'aysin, unsin,
Yaxshilarning omadi kulsin,
Bayramingiz muborak bo'lsin!

Dard-u g'amdan yiroq yuringiz,
Tinch, osuda davron suringiz,
Xushnud damning ko'pin ko'ringiz,
Bayramingiz muborak bo'lsin!

Bu kun sizga tilak tiladim,
Yashab tolmas yurak tiladim,
Tabrigimni dildan yo'lladim,
Bayramingiz muborak bo'lsin!



SO'NGGI QO'NG'IROQ

O'tib ketdi, bolalik ham
Ilk muhabbat ham,
Yo'lingni jim kuzatgayman
Ko'zlarimda nam,
Dilim titrar sinfdosh qiz
Seni eslasam,
O'xshardik biz bir juft
Qushga, sinfdosh,
Endi yo'llarimiz
Boshqa, sinfdosh.

Bizga zafar tila,
Xayr, maktabim,
Yangi safar tila,
Xayr, maktabim,
Omon bo'l, bolalik,
Sayr, maktabim,
Ulg'aydik yana bir
Yoshga, sinfdosh,
Endi yo'llarimiz
Boshqa, sinfdosh.

Chalindi yana bir
So'nggi qo'ng'iroq,
Ertaga biz bundan
Ketgaymiz yiroq,
Aziz ustozlarni
Unutma biroq,
Ulg'aydik yana bir
Yoshga, sinfdosh,
Endi yo'llarimiz
Boshqa, sinfdosh.



M

E

N

I

N

G



Y

U

R

T

I

M

A
h
a
d
•
Q
A
Y
U
M
◎

Baxt omad yor bo'lsin
Qayda bo'lsak ham,
Shu diyordan olis
Joyda bo'lsak ham,
Qancha yig'lasak ham,
Qancha kulsak ham,
Ulg'aydik yana bir
Yoshga, sinfdosh,
Endi yo'llarimiz
Boshqa, sinfdosh.

Bilimlar mag'zini
Chaqib, uqingiz,
Bilmaganingizni
Topib o'qingiz,
Eng baland cho'qqilar
Sizning cho'qqingiz,
Ulg'aydik yana bir
Yoshga, sinfdosh,
Endi yo'llarimiz
Boshqa, sinfdosh.

Uchrangan to'siqdan
Cho'chimang aslo,
Hech kim buzolmagan
Bo'lsa ham hatto,
Yoddan chiqarmangiz
Do'stlarni ammo,
Ulg'aydik yana bir
Yoshga, sinfdosh,
Endi yo'llarimiz
Boshqa, sinfdosh.

Bizga zafar tila,
Xayr, maktabim...

MENING KOLLEJIM

Mustaqil Vatanda
Yorug' kelajak,
Barkamol avlodni
Yoshlar qurajak,
Yurtning ustunimiz
Bizlar bo'lajak,
Ilm poydevori
Mening kollejim,
Bilim xaridori
Mening kollejim.

Ilm-u fan o'chog'i,
Bilim quchog'i,
Yorug' manzil sari
Ustoz sabog'i,
Zukko talabaga
Kitob oftobi,
Vatan iftixori
Mening kollejim,
Millat nomus-ori
Mening kollejim.

Ozod bu diyorda
Ozod qushlarmiz,
Yurt xizmatiga shay
Nomzod yoshlarmiz,
Yangi manzillarga
Elni boshlarmiz,
Istiqlol niholi
Mening kollejim,
Kelajak iqboli
Mening kollejim.



M

E

N

I

N

G



Y

U

R

T

I

M

A
h
a
d
•
Q
A
Y
U
M
●

Shu yerda boshlanar
Kasb-u hunarim,
Hayotim ertasin
Bezagan zarim,
Shu yerda boshlanar
Bu umr yo'lim,
Bilimlar maydoni
Mening kollejim,
Ozod yurt ayvoni
Mening kollejim...

Mustaqil Vatanda
Yorug' kelajak,
Barkamol avlodni
Yoshlar qurajak,
Yurtning ustunimiz
Bizlar bo'lajak,
Ilm poydevori
Mening kollejim,
Bilim xaridori
Mening kollejim.

MAKTAB

Umr karvoniga
Ilk tetapoya,
Nurli manzillarga
Ilk zinapoya,
Sendadir har doim
Hayotning boshi,
Sendadir tafakkur
Kelajak, g'oya,
Ilm xazinasini
Durdona maktab,
Yuksak cho'qqilarga
Ostona maktab...
Bizni yaxshilikka

Qaratgan, ustoz,
Qalbimizga mehr
Taratgan, ustoz,
Bir umr so'zingiz
Yodda tutgaymiz,
Azizsiz, ming bilim
O'rgatgan, ustoz.
Kelajak avlodga
Koshona maktab,
Bilimga poydevor
Yagona maktab.

Sen ilk bor tutqazding
Qalam, daftarni,
Tanitding ziyodan
Dur-u gavharni,
Ko'nglimni yoritib
Nurafshon etding,
O'rgatding she'r nima,
Nazm, g'azalni.
Kitob o'qimasga
Begona maktab,
Ishyoqmas bolaga
G'amxona maktab.

Tingla, Ahad Qayum
So'zin, ey go'dak,
Tanigin olamning
Yuzin, ey go'dak,
Hayot nodonbozor,
G'irrom maydonmas,
Tanlagin buyuklar
Izin, ey go'dak,
Bir ermak o'yinchoq
Nodonga maktab,
Dononi ko'tarar
Osmonga maktab.
Umr karvoniga

●
M
E
N
I
N
G
●
Y
U
R
T
I
M

A
h
a
d
•
Q
A
Y
U
M
⑨

Ilk tetapoya,
Nurli manzillarga
Ilk zinapoya,
Sendadir har doim
Hayotning boshi,
Sendadir tafakkur
Kelajak, g'oya,
Ilm xazinasi
Durdona maktab,
Yuksak cho'qqilarga
Ostona maktab.

TALABALIK

Talabalik oltin
Davr deydilar,
Kimga nasib qilar,
Kimga esa yo'q.
Kimlardir bu nomning
Qadrin bildilar,
Kimlardir bu nomga
Keltirdilar dog'.
Yorug' kelajakka
Shahd talabalik,
Umrning gul davri
Baxt talabalik.

Mustaqil Vatanda
Azizdir inson,
Ozod yurt ovozi
Ko'klarni tutgay,
Ey, talaba do'stim,
Seni ushbu on
Eng yuksak cho'qqilar
Oldinda kutgay,
Inson uchun omad
Naqd talabalik,
Yuksak cho'qqilarga
Ahd talabalik.

Kimdir boshlar
Hayot ostonasini,
Kimdir boshlar
Sevgi afsonasini,
O'zbekning kimligin
Taniting elga,
Yashnating har
Ilm koshonasini.
Kamil ko'ngillarga
Mos talabalik,
Ilm intilganga
Xos talabalik...

Kelajakning
Egalari o'zingiz,
Bahor kabi yashnar
Qosh-u ko'zingiz,
Ajdodlaring
Qatoriga qo'shiling,
Yangi asr
Buyuklarin tizingiz,
Bilimsizlik tomon
Qasd talabalik,
Ilm sohibiga
Do'st talabalik.

Talabalik oltin
Davr deyдилar,
Kimga nasib qilar,
Kimga esa yo'q.
Kimlardir bu nomning
Qadrin bildilar,
Kimlardir bu nomga
Keltirdilar dog'.
Yorug' kelajakka
Shahd talabalik,
Umrning gul davri
Baxt talabalik.



M

E

N

I

N

G



Y

U

R

T

I

M

A

BIZNING KONSTITUTSIYA

h

Eng sara qonunlardan,

a

Qomusim-oftobro'ya,

d

Yozilgan tilla harfdan;

•

BIZNING KONSTITUTSIYA!

Q

Bering bir ahamiyat,

A

Jamdir davlat, jamiyat,

Y

Har modda yuksakniyat,

U

BIZNING KONSTITUTSIYA!

M

Sakkizinchi dekabr,

◎

Doim qilingay qadr,

Ozod Vatan haqqadir

BIZNING KONSTITUTSIYA!

Bayroq nima, gerb nima,

Vatan nima, yurt nima,

So'ra undan, tortinma,

BIZNING KONSTITUTSIYA!

Bizning konstitutsiya

Har yurakka bo'lsin jo,

Shunday ozod Vatanda,

Tinchlik so'nmasin aslo.

Sportmi yo san'atmi,

Fan yo madaniyatmi,

Jamlar ma'naviyatni,

BIZNING KONSTITUTSIYA!

Mustaqillik ne'matdir,

Qadrin bilgan Ahaddir,

O'qib-o'rgansang baxtdir,

BIZNING KONSTITUTSIYA!

Eng sara qonunlardan,

Qomusim-oftob ro'ya,

Yozilgan tilla harfdan,

BIZNING KONSTITUTSIYA!

TEMIRYO'LCHILAR

Vatan xizmati deb,
Bilmay halovat,
Borsin deb manzilga
Inson salomat,
Ko'rsatgali
Matonat-u jasorat,
Qancha uzoqlarni
Yaqin yo'l qilar,
BIZNING TEMIRYO'LLAR,
TEMIRYO'LCHILAR.

Yurtni o'ylamoqqa
Buyuk dil kerak,
Tog'day sabr kerak,
Temir qo'l kerak,
Yurtga qon tomirdek
Temiryo'l kerak.
Yorug' kelajakka
Ishora bular,
BIZNING TEMIRYO'LLAR,
TEMIRYO'LCHILAR.

G'animning so'ziga
Teskari borib,
Butun Osiyoni
Hayratga solib,
Uchar poezdlaring
Keltirivolib,
So'zin isbotlagan,
So'zida turar,
BIZNING TEMIRYO'LLAR,
TEMIRYO'LCHILAR.

◎

M

E

N

I

N

G

●

Y

U

R

T

I

M

Ey do'stim, bu tomon
Nazar sol bugun,
O'zbekning shahdidan
Dunyo lol bugun.
Shijoatda kim bor
Bizlardan ustun,
Yaxshilik istaydi,
Yaxshilik tilar,
BIZNING TEMIRYO'LLAR,
TEMIRYO'LCHILAR.

Boysun-u Qumqo'rg'on
Bir tomon bo'lsa,
Afg'on tomondan ham
Rahmatlar kelsa,
Hatto yer ostida
Manzillar qursa,
Yangi asrimizda
Yangicha kunlar,
BIZNING TEMIRYO'LLAR,
TEMIRYO'LCHILAR.

Yo'li porloq bo'lsin,
Karvoni buyuk,
Niyatlari buyuk,
Sarboni buyuk,
Tuproq'i buyukdir,
Osmoni buyuk,
Mohir chavandozdek
Otin choptirar,
BIZNING TEMIRYO'LLAR,
TEMIRYO'LCHILAR.



SPORT SOG'LIK GAROVIDIR

Sport sog'lik garovidir,
Bunda har dard shifo topgay,
Kim sog'likni qilsa qadr,
Albat bir kun baxti chopgay.

Sport sog'lik garovidir,
Sog'lom tanda sog' aql der,
Sport bilan baxting to'ldir,
Ishyoqmaslik yomon axir.

Yorug' kelajak uchun,
Sog'lom avlodlar kerak,
Sport sog'likka ustun,
Shuni istaydi yurak.

Dori-darmon, shifoxona
Tomon borging kelmasa sen,
Harakatda bo'lgin yana,
Sport sog'likka ustun.

Sport sog'lik garovidir,
Bizning shior, bizning shior,
Shundan tole baxting qidir,
Bo'lmay desang sen bemor!



●

M

E

N

I

N

G

●

Y

U

R

T

I

M

A
h
a
d
●
Q
A
Y
U
M
◎

ISHBILARMON TADBIRKOR

Yurt tayanchidir, do'stlar,
Iqtisod, hisob, bozor,
Halollikdan qad rostlar,
ISHBILARMON TADBIRKOR!

Elning foydasin izlar,
Qayda talab xaridor,
Vatan ravnaqin ko'zlar,
ISHBILARMON TADBIRKOR!

Qayda bor kam-u ko'stlar,
Unda ilm, iqtidor,
Qulaylik tomon moslar,
ISHBILARMON TADBIRKOR!

El koriga madadkor,
Yaxshilikka jonbozlar,
Har maqtovg'a sazovor,
ISHBILARMON TADBIRKOR!

NAVOIYNI BILMAGAN ODAM

Navoiyni bilmagan odam,
O'qib tahlil qilmagan odam,
O'zbekman deb yashab yuribdi,
Hali odam bo'lmagan odam,

Navoiyni bilmagan odam,
Otasini bilmaganday gap.
Yozib turib o'zbek tilida,
Bilmaganday xuddi biror harf.

VASIYAT

Otangdan, onangdan
Olgin nasihat.
Tirik jon, bugun bor,
Erta g'animat.
Keksalar o'giti,
Bilsang aslida,
Nasihat emasdir,
Balki vasiyat.

DUSHANBADAN YAKSHANBAGACHA

Hayotimni chamalab ko'rdim,
Qilinmagan ishlarim qancha.
Kunlarimni rejalab qo'ydim,
DUSHANBADAN
YAKSHANBAGACHA.

Hisob bilmas jaydari edim,
O'zni vaqtning izmiga berdim,
Bir yurakni yettiga bo'ldim,
DUSHANBADAN
YAKSHANBAGACHA.

Bir jonimga yetmishta mezon,
Nega vaqtga bo'ysunar inson?
Kunlar, oylar, yillar qildi qon,
DUSHANBADAN
YAKSHANBAGACHA.

Kimlardir shod, kimlardir xafa,
Bir zum tinmay aylanar hafta,
Dardga to'ldi bu umr daftar,
DUSHANBADAN
YAKSHANBAGACHA.

●
M
E
N
I
N
G
●
Y
U
R
T
I
M

Dushanbada dilga to'lar shahd,
Seshanbada go'yo omad naqd,
Chorshanbada topganingda baxt,
Payshanbada sarf etishdan qayt,
Jumā āytar bo'ldi endi vaqt,
Erta shanba, dam ol bir muddat,
Yakshanbada oxirgi muhlat,
DUSHANBADAN
YAKSHANBAGACHA.

MUSTAQILIK ABADIY BO'LSIN

O'zbekiston baxtidan kulsin,
Yurtim doim quvonchga to'lsin,
Ona xalqim istagi shudir,
MUSTAQILIK ABADIY BO'LSIN!

Bunga yetmoq oson bo'lmadi,
Yorug' kunlar armon bo'lmadi,
Zimdan turib kimlar kulmadi,
MUSTAQILIK ABADIY BO'LSIN!

MUSTAQILIK ABADIY BO'LSIN!
Millat uchun, shu tuproq uchun,
Butun dunyo bizlarni bilsin,
Bilsin yana o'zbekning kuchin!

Poyijannat onamsiz bizning,
Ayamangiz duoyingizni,
Ota, oching qo'llaringizni,
MUSTAQILIK ABADIY BO'LSIN!

Oh, bekafan ketganlar haqqi,
Rohat topmay o'tganlar haqqi,
Eng zo'r bo'lsin shu o'zbek xalqi,
MUSTAQILIK ABADIY BO'LSIN!

Demang, Ahad, senga ne tashvish,
Vatan uchun jonni og'ritish,
Dushman zoti olsin-u qarg'ish,
MUSTAQILIK ABADIY BO'LSIN!

O'ZBEKISTON MUQADDAS ZAMIN

Yashang, do'stlar, sezib baxt ta'min,
Unutingiz ko'ngilning g'amin,
Baland tuting yurtning bayrog'in,
O'ZBEKISTON MUQADDAS ZAMIN!

Vatan so'zin anglar bu millat,
Dunyo g'amin tinglar bu millat,
Sozi baland yangrar bu millat,
O'ZBEKISTON MUQADDAS ZAMIN!

Suvi oltin, tuprog'i oltin,
Qiyosi yo'q mehribon xalqin,
Ko'ring bugun o'zbekning baxtin,
O'ZBEKISTON MUQADDAS ZAMIN!

So'zlarimni tingla, ey g'anim,
Vatan buyuk bilganim manim,
O'zbek yana ko'tardi qadrin,
O'ZBEKISTON MUQADDAS ZAMIN!

Shunday ekan, nega kuylamay,
Kelajagin nega o'ylamay,
Dardlarini nega tinglamay,
O'ZBEKISTON MUQADDAS ZAMIN!

Ahad Qayum qaddi balanddir,
Ijod bilan tun-u kun banddir,
Yurt mehriga qalbi payvanddir,
O'ZBEKISTON MUQADDAS ZAMIN!

Yashang do'stlar sezib baxt ta'min,
Unutingiz ko'ngilning g'amin...

◎

M

E

N

I

N

G

●

Y

U

R

T

I

M

A BIZDAN OBOD VATAN QOLSIN

h Kelajakning avlodlari — Siz,
a Ishonchisiz O‘zbekistonning.

d Mustaqillik nomzodlari — Siz,

Tayanchisiz O‘zbekistonning.

• Navoiyning zuryodlari — Siz,
Q Suyanchisiz O‘zbekistonning.

A BIZDAN OZOD VATAN QOLSIN,

A BIZDAN OBOD VATAN QOLSIN!

Y O‘zga elda shoh bo‘lguncha,
U O‘z elingda gado bo‘l der,

M Yurt nomini dog‘ qilguncha,
● Jonni yurtga fido qil der.

Beshigingni xor qilguncha,
Ostonangni tillo qil der.

BIZDAN OZOD VATAN QOLSIN,

BIZDAN OBOD VATAN QOLSIN!

Yigirma birinchi asr,
Bizning asrimiz bo‘lsin,

Shu millat topib qadr,
Yayrasin, o‘ynab-kulsin,

O‘zbek degan go‘zal el,
Balolardan qutulsin,

BIZDAN OZOD VATAN QOLSIN,

BIZDAN OBOD VATAN QOLSIN!

Ahad so‘zlar alam bilan,
Nola aylar qalam bilan,

Kim baxtimiz ko‘rolmasa,
Ig‘vo qilmay yurolmasa,

O‘ynashmasin nolam bilan,
Ko‘zimdagi jolam bilan,

BIZDAN OZOD VATAN QOLSIN,

BIZDAN OBOD VATAN QOLSIN!

YURT BOYLIGI

O'zbekiston, ey jannat diyor,
Senda unib-o'sdik baxtiyor,
Tuproq'ingni ko'zga surgaymiz,
Vatan mehri chunki bizda bor.
BOBODEHQON, PAXTA VA DALA,
YURT BOYLIGI, BU – XIRMON,
G'ALLA!

Bir parcha non qo'lga yetguncha,
Egatlarda tong ottirgan sen.
Ta'zim, boshim yerga tekkuncha,
Quyoshni ham uyg'ontirgan sen.
BOBODEHQON, PAXTA VA DALA,
YURT BOYLIG'I, BU – XIRMON,
G'ALLA!

Mustaqil yurt bayrog'i baland,
Bizning diyor jannatga payvand,
Boshing endi sen baland tutgin,
El deb jonin bergan, ey farzand.
BOBODEHQON, PAXTA VA DALA,
YURT BOYLIGI, BU – XIRMON,
G'ALLA!

O'zi gohi yalang'och qolib,
Dunyolarni kiyintirgan el.
Fidoyilik maqomin olib,
Yaxshilikka bog'lagansan bel.
BOBODEHQON, PAXTA VA DALA,
YURT BOYLIGI, BU – XIRMON,
G'ALLA!

Qalam tutib Ahad Qayumga,
Deding, bizni kuyla, madhingga
Fayzi nurlar solgandir o'zi,
Yaratganim sening qalbingga.
BOBODEHQON, PAXTA VA DALA,
YURT BOYLIGI, BU – XIRMON,
G'ALLA!

●
M
E
N
I
N
G
●
Y
U
R
T
I
M

A
h
a
d
●
Q
A
Y
U
M
●

TUG‘ILGAN KUN...

Yilda bir marta
Nishonlansa ham,
Qalbingda pinhona
O‘qiydi afsun.
Olamning quvonchi
Go‘yo shunda jam,
Bir umr eslanar kun —
Tug‘ilgan kun.

Bu kunda ulg‘ayib
Yana bir yoshga,
Bir zum xotiralar
Aylanar boshda.
O‘ksinmang ko‘rib oq
Tushganin sochga,
Yoshlikni eslanar kun —
Tug‘ilgan kun.

Kimlar uchun bu kun
Bayramdek tatir,
Yuraklarni chertib
Qayta uyg‘otar,
Go‘yo bir mahalda
Baxt tongi otar,
Shodlikdan so‘zlanar kun —
Tug‘ilgan kun.

Yaqinlaring kelib
Dilga o‘t yoqsa,
Ko‘nglingga o‘zgacha
Ohanglar oqsa.
Qadri bilingaydir
Olisdan boqsa,
Goh qumsab izlanar kun —
Tug‘ilgan kun.

Qancha yaqin kelsa
Shuncha ko'p kutib,
Dardu g'amlarni ham
Biroz unitib.
Diydorning eng sohir
Ta'midan totib,
Yurakdan rozlanar kun —
Tug'ilgan kun.

Atrofdan yog'ilsa
Sovg'a-yu tabrik,
Ahaddan bo'lsin shu
Sizga esdalik.
Hayotingiz o'tsin
Bir kamsiz butun,
Yaxshilik ko'zlanar kun —
Tug'ilgan kun.

Yilida bir marta
Nishonlansa ham,
Qalbingda pinhona
O'qiydi afsun.
Olamning quvonchi
Go'yo shunda jam,
Bir umr eslanar kun —
Tug'ilgan kun.

IJOD BU...

Ijod, bu — qalbinning qayg'usi erur,
Ijod, bu — dardmning ko'zgusi erur,
Ming yillik muzlarning jilg'asi Ahad,
Dengizga aylanmoq orzusi erur.



SAKKIZINCHI MART BAYRAMIDA

A

h

a

d

•

Q

A

Y

U

M

⊙

Qo'shiq aytmang shamollarga siz,
Yuz tutmang hech zavollarga siz,
Baxt ulashing ayollarga siz,
Shirin so'zlar ayting kamida.

SAKKIZINCHI MART BAYRAMIDA!

Tinglang ko'ngil xitoblarini,
Oching tarix kitoblarini,
Ko'ring ayol shitoblarini,
Lazzat bo'ling hayot shamida,
SAKKIZINCHI MART BAYRAMIDA!

Aritmang hech labda kulgini,
Yurak sevar bunday tuyg'uni,
Oling, do'stlar, qo'lga cholg'uni,
Nur tarating umr shamida,
SAKKIZINCHI MART BAYRAMIDA!

Yiroq ketsang, zor kutgan ular,
Azob chekib, dard yutgan ular,
Siz deb o'zin unutgan ular,
May tutaylik bir ishq jomida,
SAKKIZINCHI MART BAYRAMIDA!

BOG'BON KO'PAYDI

Orzuni ko'p qildim, armon ko'paydi,
Maslahat osh qildim, nodon ko'paydi.
Yer ochdim, suv keldi, keyin bog' bo'ldi,
Mevaga kirganda bog'bon ko'paydi.

YANGI HAYOT KOSHONASI QUTLUG' KELSIN

Duo qiling, har yaxshining baxti kulsin,
Eshigidan yaqinlari yo'qlab tursin,
Surur to'lsin ko'zlarida,
Shukr bo'lsin so'zlarida,
Xudo bergan tole uyin asray bilsin.
Baxt qasrining ostonasi qutlug' kelsin,
YANGI HAYOT KOSHONASI
QUTLUG' KELSIN.

Qoqilmasin o'zi chopgan maydonida,
Qora bulut bo'lmasin hech osmonida,
Hech kim yo'lin to'solmasin,
Shiddatini kesolmasin,
Kamida tog' shahdi bo'lsin imkonida,
Toleyida yongan chiroq to'liq kelsin,
YANGI HAYOT KOSHONASI
QUTLUG' KELSIN.

Umri talosh bo'lmasin hech saroblarga,
Dil bermasin asli yolg'on xitoblarga,
Sabr yengsin qayg'ularin,
Toza tutsin tuyg'ularin,
Qalbi ko'chsin qadri asriy kitoblarga,
El oldida peshonasi yorug' bo'lsin,
YANGI HAYOT KOSHONASI
QUTLUG' KELSIN.

Yaxshilarning ko'zlarida bo'lmasin nam,
O'tmasinkim bu dunyodan hech biri kam,
Shunday farah, onlarida,
Jon bulaylik jonlarida,
Eslasalar goho Ahad shoirni ham,
Oqibatli do'stning o'rni ulug' bo'lsin,
YANGI HAYOT KOSHONASI
QUTLUG' KELSIN.

●

M

E

N

I

N

G

●

Y

U

R

T

I

M

A
h
a
d
●
Q
A
Y
U
M
◎

SAN'ATIM

Nolasi olamni
Quchgan san'atim,
Elning dard-u g'ami
Ko'chgan san'atim,
Ko'ngil osmonida
Uchgan san'atim,
Dunyo bahrida yuz
Ochgan san'atim,
Dillarga o'z mehrin
Sochgan san'atim!

San'atim, kimlarni
Qilolding buyuk,
San'atim, o'zingsan
El ichra suyuk,
San'atim, fig'oning
Buncha ham kuyuk,
Dillarga o'z mehrin
Sochgan san'atim,
Nolasi olamni
Quchgan san'atim!

Sen bilan qalbimning
Ovozi tutash,
Undagi oqqushlar
Parvozi tutash,
Yurak chalayotgan,
Tor sozi tutash
Eng sof chashmadan suv
Ichgan san'atim,
Dunyo bahrida yuz
Ochgan san'atim!

Goh millat ohining
Bir sasi bo'lding,
Armonidan so'ylab
Nafasi bo'lding,
Senga intilganning
Havasi bo'lding,
Mudom yaxshilikka
Shoshgan san'atim,
Dillarga o'z mehrin
Sochgan san'atim!

San'atim, sening sas
Sadoying menman,
San'atim, yo'lingda
Adoying menman,
San'atim, san'atim
Fidoying menman,
Nolasi olamni
Quchgan san'atim!
Elning dard-u g'ami
Ko'chgan san'atim!

Nolasi olamni
Quchgan san'atim,
Elning dard-u g'ami
Ko'chgan san'atim,
Ko'ngil osmonida
Uchgan san'atim,
Dunyo bahrida yuz
Ochgan san'atim,
Dillarga o'z mehrin
Sochgan san'atim!



M

E

N

I

N

G

●

Y

U

R

T

I

M

DUBLAJ SAN'ATI

A

h

a

d

•

Q

A

Y

U

M

◎

Xorijiy bir film aktoridan,
Sezamiz nimadir, ichida dardi,
Va xursand bo'lamiz dublaj boridan,
San'atda eng qiyin
Dublaj san'ati!

Badiiy film yo hujjatli film,
Bitta mikrofondada dunyoning qalbi,
Ovoz ustalarin nafasi oltin,
San'atda eng qiyin
Dublaj san'ati!

Yigirmanchi asr o'zbek dublaji,
Hattoki dunyoga dovrug' taratdi,
Eski kinolarning boshqacha gashti,
San'atda eng qiyin
Dublaj san'ati!

Hamza Umarovdan tortib bu yo'lda,
Afzal Rafiqovning ko'pdir xizmati,
Bularning ovozi o'n minglab rolda,
San'atda eng qiyin
Dublaj san'ati!

Juda og'ir deymiz teatr, kino,
Deymiz aktorning bormi talanti,
To'g'ri-ku, ochig'in tan oling, ammo
San'atda eng qiyin
Dublaj san'ati!

Xorijiy bir film aktoridan,
Sezamiz nimadir, ichida dardi,
Va xursand bo'lamiz dublaj boridan,
San'atda eng qiyin
Dublaj san'ati!

KIM O'YLAYDI BU VATANNI

Ening asriy dardlarini biz so'ylamasak,
Hasratlarin, nolalarin biz kuylamasak,
O'z jonini asrar sotqin o'zga diyorda,
Kim o'ylaydi bu Vatanni biz o'ylamasak!

Shu yurtning non, tuzini yeb tupurdi kimlar,
Oddiy xalqning nomidan deb gapirdi kimlar,
Bir g'ov kelsa o'z aybini yashirdi kimlar,
Kim ko'tarar bu Vatanni biz ko'tarmasak!

Har bir joyning o'z toshi-yu tarozisi bor,
Bu yoshlarning, kelajakning o'z orzusi bor,
Yuragida kimmiz degan bir tuyg'usi bor,
Kim anglaydi bu Vatanni biz anglamasak!

Bir kun kelib og'ir-yengil kunlar o'tadi,
Bu Vatan ham manziliga omon yetadi,
Kelajakning cho'qqilarin mahkam tutadi,
Kim yaraydi bu Vatanga biz yaramasak!

Shukr deyman kelajakka sadolaring bor,
Yaxshi-yomon kunlaringda fidolaring bor,
Jilg'alari toza bo'lgan daryolaring bor,
Kim tinglaydi bu Vatanni biz tinglamasak!

Bu shavkat-u shoningga ko'z tikkanlar qancha,
Do'stingman deb molingga ko'z tikkanlar
qancha,
Xanjar tutib joningga ko'z tikkanlar qancha,
Kim asraydi bu Vatanni biz asramasak!

Ustimizdan otlar solib yanchib ketdilar,
Bobolarim qabrin xokin sochib ketdilar,
Kimsan degan edi tarix, qochib ketdilar,
Kim o'nglaydi bu Vatanni biz o'nglamasak!

⊙

M

E

N

I

N

G

●

Y

U

R

T

I

M

A Kimdir senga qo‘lin cho‘zsa manfaat bilan,
h Yaxshiliklar qilmoq bo‘lsa bir minnat bilan,
a Har yerlarda vaysayversa har illat bilan,
d Kim maqtaydi bu Vatanni biz maqtamasak!

• Qadring bordir, o‘zingniki, tonglaring yorug‘,
Q Yaxshilarga baxt ulashgan kunlaring yorug‘,
A Yulduzlaring, oylaring bor, tunlaring yorug‘,
Y Kim ko‘karar bu Vatanda biz ko‘karmasak!

U Har bir kunni, har bir tongni g‘animat biling,
M Tinchlikni, xotirjamlikni bir ne‘mat biling,
• Istanqiz inson zotin bir millat biling,
• Kim yuksalar bu Vatanda biz yuksalmasak!

Jahonaro bugun yana o‘rnimiz bordir,
O‘zimizning bayrog‘imiz, gerbimiz bordir,
Hech yerda yo‘q mehnatsevar elimiz bordir,
Kim yayraydi bu Vatanda biz yayramasak!

Tiklaylik-da bugun yana Temuriylarni,
Asli qaydan bilsin hamma Boburiylarni,
Ruhlarini shod etaylik Navoiylarning,
Kim tiklaydi bu Vatanni biz tiklamasak!

“Dil ba yor-u, dast ba kor”ni aytgani uchun,
Naqshbandiy qadri yana qaytgani uchun,
Buxoriy-u Termiziylar yotgani uchun,
Kim yashaydi bu Vatanda biz yashamasak!

Shu Vatan deb fido bo‘lgan bag‘ri kuyukka,
Janglarida qalqon bo‘lgan ko‘ksi uyuqqa,
Jaloliddin joni qurbon shunday buyukka,
Kim o‘xshaydi bu Vatanda biz o‘xshamasak!

Shu yurt ichra nomi ulug' azizlaring bor,
Ilhom sig'mas shoirlar-u hofizlaring bor,
Quvvat bergin nomdor-u, nomsizlaring bor,
Kim kuyunar bu Vatanga biz kuyunmasak!

Yaxshilarning qatorida safim bo'lsa gar,
Xalqim uchun baxtiyorman nafim bo'lsa gar,
Ahad tolmas xizmatingdan umrim bo'lsa gar,
Kim suyanar bu Vatanga biz suyanmasak!



●
M
E
N
I
N
G
●
Y
U
R
T
I
M

CHARCHADIM

A

h

Charchadim...

a

Qaytadan boshlanmas umr,

d

Yaproqday hilpirab turibdi jonim,

•

Sog'indim

Q

Baxt qasrin ostonasini,

Pushaymonda o'tar nahot har onim.

A

Yoshlik. Bahor eding,

Y

Goh chaqmoq, yomg'ir,

U

Qaydan kutilmagan momaqaldiraq.

M

O'ylasam ba'zi bir xatolarimni,

◎

Qaltiroq bosadi, dilni qaltiroq...



DUNYODA ENG GO'ZAL AYOL KIM

Dunyoda eng go'zal ayol kim?
U singil, u opa, u ona, u yor.
Dunyoda eng go'zal ayol kim?
Sendan-da ko'p senga vafodor.

Dunyoda eng go'zal ayol kim?
Oppoq tongda nurday beg'ubor.
Dunyoda eng go'zal ayol kim?
Gulyashnatar dilni gulruksor.

Dunyoda eng go'zal ayol kim?
Farishtalar unga xaridor,
Dunyoda eng go'zal ayol kim?
Har qanday maqtovga sazovor.

Dunyoda eng go'zal ayol kim?
Go'zallikda qalbi betakror.
Dunyoda eng go'zal ayol kim?
Dardi bilan yashar baxtiyor.

Dunyoda eng go'zal ayol kim?
Maqtovlarni aylaydi inkor.
Dunyoda eng go'zal ayol kim?
Ergashadi ortidan bahor...

Ahad Qayum ta'rif aylagan,
Dunyoda eng go'zal ayol kim,
Otam umrin yorug' aylagan,
O'zingdirsan, ey onajonim!



A DUNYODA ENG AZIZ SIYMODIR AYOL

h
a
d
•
Q
A
Y
U
M
◎

Ko'rk-u nafosatin
Ta'riflash mahol,
Go'zallik, poklikka
Eng loyiq timsol.
Mehr-u muhabbati
Chashmadek zilol,
Sadoqat, vafoga
Har doim misol.
Chin so'zni aytganda
Olmangiz malol,
DUNYODA ENG AZIZ
SIYMODIR AYOL.

Ismin tilga olsam
Yorishar osmon,
Lutfin e'zozlasam
Yarashar har on.
Qalbin gar tinglasam
Jo'sh urar tug'yon,
Dardin kuyga solib
Dilim bo'ldi qon.
Tilagim, hech mahal
Ko'rmasin zavol,
DUNYODA ENG AZIZ
SIYMODIR AYOL.

Hayotda past-baland
Dovonlar ko'pdir,
Dilni o'rtaguvchi
Armonlar ko'pdir.
Bir manzil izlagan
Karvonlar ko'pdir,
Rost deb aytilguvchi
Yolg'onlar ko'pdir.
Har zamon ortidan
Ergashsin iqbol,
DUNYODA ENG AZIZ
SIYMODIR AYOL

Unsiz o'ylar ichra
G'arq bo'lib goho,
Xayollarim sokin
Suzganda tanho.
Ko'ngil tublaridan
Chiqarib sado,
Muattar sas bilan
Berganda ma'no.
Nafis jilolarin
Ko'rsatar xayol,
DUNYODA ENG AZIZ
SIYMODIR AYOL.

Qalblarni yashnatar
Guldek nafasi,
Olamda yagona
Mehrin shulasi.
Yaratganning bizga
Ulug' tuhfası,
Baxtiyor onlarning
Orzu-havasi.
Hamisha ortidan
Nur sochsin bahor,
DUNYODA ENG AZIZ
SIYMODIR AYOL.

Ko'rk-u nafosatın
Ta'riflash mahol,
Go'zallık, poklıkka
Eng loyiq timsol.
Mehr-u muhabbati
Chashmadek zilol,
Sadoqat, vafoga
Har doim misol.
Chin so'zni aytganda
Olmangiz malol,
DUNYODA ENG AZIZ
SIYMODIR AYOL.

◎
M
E
N
I
N
G
●
Y
U
R
T
I
M

USTOZIM

A

h

a

d

•

Q

A

Y

U

M

⊙

Ilm-u tafakkurdan
Dilga yo'l ochgan,
Qalblarga beminnat
Mehrini sochgan,
Go'yo quyosh tafti
Yuzida ko'chgan,
Siz sabab har mahal
Baland parvozim,
BAXTIMGA BOR BO'LING,
AZIZ USTOZIM!

Shogirdlar kamolin
O'ylab tun-u kun,
Halovat bilmasdan
Bag'rin etib xun,
Kelajak avlodning
Taqdiri uchun,
Jonin ayamagan
Bo'lganda lozim,
BAXTIMGA BOR BO'LING,
AZIZ USTOZIM!

Kim uchun dunyoda
Shuhrati aziz,
Kimgadir haq yo'lda
Zahmati aziz,
Sizga-chi, el-yurtning
Rahmati aziz,
Mudom baland erur
Sizga e'zozim,
BAXTIMGA BOR BO'LING,
AZIZ USTOZIM!

Zulmatda shamchiroq
Yo'lni yoritar,
Ilm har lahzada
Bizga kor etar,
Intilganga doim
Omad yor etar,
Ko'zim olisdadir,
Qo'limda sozim,
BAXTIMGA BOR BO'LING,
AZIZ USTOZIM!

Tinglashga ulgurmay
Qalbin sasini,
Anglaydi o'zgalar
Dil nolasini,
Ba'zan erkalolmay
O'z bolasini,
Bizlarga baxsh etgan
Bahor-u yozin,
BAXTIMGA BOR BO'LING,
AZIZ USTOZIM!

Insonga duch bo'lgay
Turfa xil yo'llar,
Gohi tog'lar oshsa,
Goh kezar cho'llar,
Ba'zan ta'qib etsa,
Chaqmoqlar, do'llar,
Hech vaqt adashmagay
Aql tarozim,
BAXTIMGA BOR BO'LING,
AZIZ USTOZIM!



A
h
a
d
•
Q
A
Y
U
M
◎

BIZNING JURNALISTLAR

Dunyoning narigi
Tomonida, ayt,
Nimalar bo'lyapti?
Kim xabar berar?
Elning xizmatiga
Tayyordir bu payt,
**BIZNING JURNALISTLAR,
MATBUOTCHILAR!**

Gazeta, jurnalmi
Yoki internet,
Oynayi jahonda
Bugun ne gaplar,
Yoki radioga
Qulog'ingni tut,
**BIZNING JURNALISTLAR,
MATBUOTCHILAR!**

Ommaviy axborot
Vositalari,
Eng so'nggi yangilik,
Hammasin bilar,
Yurt uchun jonkuyar
Bo'lar aksari,
**BIZNING JURNALISTLAR,
MATBUOTCHILAR!**

Biror ijodkorning
Ichki dunyosin...
Mashhur san'atkorlar
Qaydan tanilar,
Xalqqa tanishtirgan
Bir-bir hammani,
**BIZNING JURNALISTLAR,
MATBUOTCHILAR!**

Shular yomon desa
Kimnidir, yomon,
Yo kimni maqtasa
U ko'tarilar,
Baribir niyati
Yaxshilik tomon,
**BIZNING JURNALISTLAR,
MATBUOTCHILAR!**

Ahadjon Qayumov
Degan talaba,
Ahad Qayumman deb
Intervyu berar,
Boringizga shukr
Ming marotaba,
**BIZNING JURNALISTLAR,
MATBUOTCHILAR!**

Dunyoning narigi
Tomonida, ayt,
Nimalar bo'lyapti
Kim xabar berar?
Elning xizmatiga
Tayyordir bu payt,
**BIZNING JURNALISTLAR,
MATBUOTCHILAR!**

HAQIQAT

Pastga oqadi ko'z yosh,
Peshonang sho'rin yuvmas,
Achchiq bo'ladi doim,
Haqiqat shirin bo'lmas.

◎

M

E

N

I

N

G

●

Y

U

R

T

I

M

A
h
a
d
•
Q
A
Y
U
M
◎

BUXORO

Bag'rida saqlangay
Tarix rovoni,
Elimning ko'hna bir
Qadim makoni,
Dunyoga ovoza
Shavkat-u shoni,
Asrlardan bergay
Nido Buxoro!
Jonim senga bo'lsin
Fido, Buxoro!

Imkon ber dildagi
So'zim aytayin,
Ravnaq top har mahal
Zavol ko'rmayin,
Nek baxt zamindasan
Yashna kun sayin,
Shodlig-u quvonchga
To'lsin, Buxoro!
Hamisha iqboling
Kulsin, Buxoro!

Qayda bo'lmay,
Qalbim senga oshiqar,
Mehring yuraginga
Ziyodek oqar.
Sening madhing kuylash
Dilga xush yoqar,
Menga aziz har bir
Garding, Buxoro!
Bergin mayli olay
Darding, Buxoro!

Sendan olis ketgach,
Qadring bildim men,
Senga dilband bo'lib,
Nima qildim men,
Goh eslab sog'insam
Bag'rim tildim men,
Onamdek mehribon
Yuzing, Buxoro!
Otamdek madadkor
O'zing, Buxoro!

Har qarich tuprog'ing
So'ylar rivoyat,
Olis o'tmishingdan
Qilgay hikoyat,
Har garding muqaddas
Bilgayman g'oyat,
Ko'ksi to'la armon,
G'amgin Buxoro!
Hasratlaring buncha,
Rangin, Buxoro!

Bag'rida saqlangay
Tarix rovoni,
Elimning ko'hna bir
Qadim makoni,
Dunyoga ovoza
Shavkat-u shoni,
Asrlardan bergay
Nido Buxoro!
Jonim senga bo'lsin
Fido, Buxoro!



M

E

N

I

N

G



Y

U

R

T

I

M

A
h
a
d
•
Q
A
Y
U
M
⊙

TILAK
(XXI asr yoshlariga)

Yangi ming yillikning
Poydevori Siz,
Buyuklar safining
So'ng nomzodlari.
Vatan kelajagin
Sizlar qurasiz,
Erkin asrimizning
Yosh avlodlari.

Bilim olmoqlikka
Bor Sizda g'ayrat,
Faqat olg'a yurib,
Qoqilmang hech vaqt,
Hamroh bo'lsin Sizga,
Doimo omad,
Erkin asrimizning
Yosh avlodlari.

Shod qiling, bobolar
Ruhi pokini,
Buxoriy, Termiziy
Zurriyodlari.
Saqlang ko'hna tarix
Shon-shukuhini,
Erkin asrimizning
Yosh avlodlari.

Yurt ertasin o'ylamoq
Farzdir Sizga,
Millatning ishongan
Kuch, najotlari.
Shu tuproq muqaddas
Har birimizga,
Erkin asrimizning
Yosh avlodlari.

Porloq ming yillikning
Poydevori Siz,
Daholar safining
Chin nomzodlari.
Vatan kelajagin
Sizlar qurasiz,
Erkin asrimizning
Yosh avlodlari.

Ozod asrimizning
Yosh avlodlari...



◎

M

E

N

I

N

G

●

Y

U

R

T

I

M

SO'RASHADI DO'STLARIM

A

h

a

d

•

Q

A

Y

U

M

◎

So'rashadi do'stlarim
Senda ham dard bormi deb,
Kuladi-yu ko'zlarim,
Yig'laydi qalbm o'ksib.

Dunyoning tashvishidan,
G'am to'ladi ichimga,
Armonim bo'lgan bilan,
Aytolmayman hech kimga.

Dard so'zini baxt bilan,
Almashtirdim lug'atda,
Baxtimdir dardim mening,
Dard ham baxtdir Ahadga.



SAN'AT

Qil ustida karvondir san'at,
G'amdevorda narvondir san'at,
Dilbo'stonda bog'bondir san'at,
Dilsaroyda sultondir san'at.

Har ko'ngilda sohibmehmondir,
Kimga orzu, kimga armondir,
Ko'zyoshlardan sizgan marjondir,
Qil ustida karvondir san'at.

San'at — hayot umrning sozi,
San'at — har bir qalbning ovozi,
San'at — dardning baxtga parvozi,
G'amdevorda narvondir san'at.

Malham topgay yolg'iz ko'ngillar,
Shoirlar-u hofiz ko'ngillar,
Bezaklanar ojiz ko'ngillar,
Dilbo'stonda bog'bondir san'at.

Shoir etgan Ahad Qayumni,
Ro'yoblarga sohib orzumni,
Oshkor etgan pinhon tuyg'umni,
Dilsaroyda sultondir san'at.

Qil ustida karvondir san'at,
G'amdevorda narvondir san'at,
Dilbo'stonda bog'bondir san'at,
Dilsaroyda sultondir san'at.



◎

M

E

N

I

N

G

●

Y

U

R

T

I

M

A

SHUKR QILIB YASHASH KERAK

h

Taqdirda borini ko'rib yuribmiz,
Sekin rizqimizni terib yuribmiz,
Kim do'st-u kim dushman bilib yuribmiz,
Birni ko'rib, o'nni ko'rib fikr qilib,
Shukr qilib yashash kerak, shukr qilib!

Q

A

Y

U

M

●

Oyog'imiz yurib turgani baxt-ku,
Ko'zlarimiz ko'rib turgani baxt-ku,
Yuragimiz urib turgani baxt-ku,
Birni ko'rib, o'nni ko'rib fikr qilib,
Shukr qilib yashash kerak, shukr qilib!

Boylik deb, baxtidan kechganni ko'rdik,
Iymonmas, yolg'onni quchganni ko'rdik,
Pul uchun lafzidan qochganni ko'rdik
Birni ko'rib, o'nni ko'rib fikr qilib,
Shukr qilib yashash kerak, shukr qilib!

Bu dunyo o'tkinchi, bu dunyo bir kam,
O'tib ketar har bir g'animat bu dam,
Halovat topaylik, dilni bosmay g'am,
Birni ko'rib, o'nni ko'rib fikr qilib,
Shukr qilib yashash kerak, shukr qilib!

Hayot juda qisqa, qaytmas bu fursat,
Yozganidan ortiq bo'lmaydi albat,
Xotirjamlik bilan o'tgan har kun baxt,
Birni ko'rib, o'nni ko'rib fikr qilib,
Shukr qilib yashash kerak, shukr qilib!

Ahad Qayum istar, azizlar, sizdan,
Baxt manzili yiroq ketmayin bizdan,
Chiroyli yod qolsin har bitta izdan,
Birni ko'rib, o'nni ko'rib fikr qilib,
Shukr qilib yashash kerak, shukr qilib!

BU MILLAT

Boshidan oshsa ham
O'zin tashvishi,
O'zgalar g'amini
Yeydi bu millat.
Yelkada tursa ham
Zamonning toshi,
Dunyoni ko'tarsam
Deydi bu millat.

Kim yashar savlati
Soxtasi bilan,
Qiziqmas jamiyat
Ertasi bilan,
Beminnat oq oltin
Paxtasi bilan,
Dunyoni bezatib
Qo'ydi bu millat.

Biz o'zbekimiz, do'stlar,
Shuni unutmang,
Asli kimligimiz
Bilib yashaylik,
Uyg'oning, ey xalqim,
G'aflatda yotmang,
Elim deb, yurtim deb
Yonib yashaylik.

Mustaqillik oliy,
Aziz ne'matdir,
Vatan qadri aziz
Jondan qimmatdir,
Mehr bera olsak
Ona tuproqa,
Bu farzandlik burch ham,
Buyuk himmatdir!

●

M

E

N

I

N

G

●

Y

U

R

T

I

M

A
h
a
d
•
Q
A
Y
U
M
◎

BIZNING FUTBOL

Ozod diyor O‘zbekiston,
Sport-sog‘lom tanda iqbol,
Yurtga tirkak, Vatanga shon,
Bizning futbol, bizning futbol!

Hayot o‘zi qiziq o‘yin,
Kimga oson, kimga qiyin,
Yuksalaver borgan sayin,
Bizning futbol, bizning futbol!

Mustaqil yurt nomi baland,
Sen shu nomni oqla, farzand,
Hech maydonda yemasin pand,
Bizning futbol, bizning futbol!

Yaxshilikka ko‘p bahona,
Sizga o‘yin to‘p bahona,
Hakamlar fidokorona,
Bizning futbol, bizning futbol!

Topib tarix ildizlarin,
Sizga omad yulduzlarin,
Yo‘qotmasin muxlislarin,
Bizning futbol, bizning futbol!

Ozod diyor O‘zbekiston,
Sport – sog‘lom tanda iqbol,
Yurtga tirkak, Vatanga shon,
Bizning futbol, bizning futbol!



TOSHKENT

Yozsang sig' mas g' azal,
TOSHKENTIM,
Do'stga do'stsan azal,
TOSHKENTIM,
Tarixing bor dunyoga doston,
Bag'ring ochiq, go'zal,
TOSHKENTIM.

Mehmoninga mehring bo'lakcha,
Mezbondirsan sehning bo'lakcha,
Qadring bo'lak, baxting bo'lakcha,
Jahon ichra gavhar
TOSHKENTIM.

Kimlarning dilida armonsan,
Kimlarning tilida dostonsan,
Kimlarga manzil-u makonsan,
Quchog'i keng shahar
TOSHKENTIM.

Erta baxti kulajaksan sen,
Juda buyuk bo'lajaksan sen,
Bizga yorug' kelajaksan sen.
Boshlab qutlug' safar
TOSHKENTIM.

Yozsang sig' mas g' azal,
TOSHKENTIM,
Do'stga do'stsan azal,
TOSHKENTIM,
Tarixing bor dunyoga doston,
Bag'ring ochiq, go'zal,
TOSHKENTIM.

●

M

E

N

I

N

G

●

Y

U

R

T

I

M

A
h
a
d
●
Q
A
Y
U
M
●

MENING O'LKAM

Tarixda buyuklar
Zanjirin tuzgan,
Qo'ynida jahonzabt
Temurlar o'sgan,
Mehr bulog'idan
Gullagan maskan,
Ma'vo topilmagay
Bundan-da ko'rkam,
Bu mening o'lkamdir,
Bu mening o'lkam.

Elning zahmatidan
Cho'llar bog' bo'ldi,
G'alla-yu paxtadan
Xirmon tog' bo'ldi,
Kim yurtga qo'llashdi,
Toley kuldi.
Yaxshiga yondashgan
O'tmagay bir kam,
Bu mening o'lkamdir,
Bu mening o'lkam.

Qushlarga in bo'lur
Yerdagi xas ham,
Birdek nafas olur
Sog'-u nokas ham,
Men sizga birma-bir
Ta'rifin aytsam,
Davronlar zalvorin
Ko'targan yelkam,
Bu mening o'lkamdir,
Bu mening o'lkam.

Bahorda orombaxsh
Anhor, soylari,
Yoshlar bilan to'lar
Ko'cha-ko'ylari,
Bunda o'zgachadir
Bayram to'ylari,
Tinchlik nashidasin
Totishar xurram,
Bu mening o'lkamdir,
Bu mening o'lkam.

Men senga zarracha
So'zladim alhol,
So'zlarimga ishon,
Ey sohibjamol,
Pokiza sevgidan
Qilganda xayol,
Bir bora nazar sol
Atrofga erkam,
Bu mening o'lkamdir,
Bu mening o'lkam.

Tarixda buyuklar
Zanjirin tuzgan,
Qo'ynida jahonzabt
Temurlar o'sgan,
Mehr bulog'idan
Gullagan maskan,
Ma'vo topilmagay
Bundan-da ko'rkam,
Bu mening o'lkamdir,
Bu mening o'lkam.

●

M

E

N

I

N

G

●

Y

U

R

T

I

M

TO‘YDAN KEYIN

A

h

a

d

•

Qo‘shiq aytsang yarashadi kuydan keyin,
Dono odam o‘y suradi o‘ydan keyin,
Niyat qilar uyda bola-tug‘ilganda,
O‘zbek yana to‘y boshlaydi to‘ydan keyin.

Q

A

Y

U

Ko‘rsam deydi farzandining baxtlarini,
Qursam deydi toleyidan taxtlarini,
O‘zgartirmay necha yillik odatlarini,
O‘zbek yana to‘y boshlaydi to‘ydan keyin.

M

●

Bunday kunda qashimas hech boshlarini,
Hisoblamas yaxshi kunda xarjlarini,
Sanamayin to‘kilgan oq sochlarini,
O‘zbek yana to‘y boshlaydi to‘ydan keyin.

Sabr qilar og‘ir-yengil kunlar ko‘rib,
Pishib ketgan har bir dardni yengaverib,
Har qandayin g‘am tashvishni chetga surib,
O‘zbek tag‘in to‘y boshlaydi to‘ydan keyin.

Ba‘zilar bor sherdan olib filga berar,
Salom bersang aligini pulga berar,
Unga qarang topganini elga berar,
O‘zbek yana to‘y boshlaydi to‘ydan keyin.

Ko‘ngil uyi obod bo‘lar so‘zlar bilan,
Yaxshi-yomon kunda bo‘ling do‘stlar bilan,
Qo‘l bersangiz Ahad shoir sizlar bilan,
O‘zbek yana to‘y boshlaydi to‘ydan keyin.



VATANIMNI SOG'INAMAN

Bahor hidi tark etmasin chamanimni,
Asra, Oллоh, har bir dur-u ma'danimni,
Qayda bo'lmay ikki ko'zim orqadadir,
Vatanimni sog'inaman, Vatanimni.

Ustozlarim tilidagi gavharlarim,
Ming fayz ila kulgan shom-u saharlarim,
Meni kutgan qishlog'im-u shaharlarim,
Vatanimni sog'inaman, Vatanimni.

Qayda bo'lmay, qayda yurmay mehri tortar,
Bolaligim o'tgan joylar sehri tortar,
Ota-bobom yotgan joylar meni chorlar,
Vatanimni sog'inaman, Vatanimni.

Yarim ko'nglim, biri kami to'lgan bilan,
Davlat, omad hamma narsam bo'lgan bilan,
Yurolmayman dildan mag'rur, qaddim
baland,
Vatanimni sog'inaman, Vatanimni.

Begonadir, yuzlari-yu, ko'zlari ham,
Yuragimga yotdir aytgan so'zlari ham,
Nima qilay, o'zbekmas-da o'zlari ham,
Vatanimni sog'inaman, Vatanimni.

Nima deysiz, o'z yurtimga qoyilman-da,
Ona vatan mehriга men moyilman-da,
Ko'ngil bilan hisoblashgan shoirman-da,
Vatanimni sog'inaman, Vatanimni.

Kimdir deydi esingni yig', Ahad Qayum,
Dunyo kezgin, yig'gin boylik, tillo, buyum,
Nima qilay, ko'nmaydi-da bunga ko'nglim,
Vatanimni sog'inaman, Vatanimni.



M

E

N

I

N

G



Y

U

R

T

I

M

VATAN NIMA

A

h

a

d

•

Q

A

Y

U

M

⊙

Vatan nima? Vatan, bu—
Jonday aziz bir tuyg‘u,
Qayda bo‘lsang ham ko‘ngling
Vatanda yashar mangu!

Vatan nima? Vatan, bu—
Sen yaproqsan, ildiz u,
Sen osmonsan yulduz u,
Daryo bo‘lsang, ildiz u...

Vatan nima? Vatan, bu —
Sajdagohday maskan bu,
Har tuyg‘udan baland bu,
Joningga jon dilband bu?

Bir bor o‘ylaganmisan,
Qalbing qiynaganmisan,
Dildan so‘raganmisan,
Vatan nima? VATAN — bu.

Onam ko‘zidagi dard,
Otam so‘zidagi shart,
Vatan nima? Vatan, bu —
Bolam dilidagi shahd!

Vatan nima? Vatan, bu —
Jonday aziz bir tuyg‘u,
Qayda bo‘lsang ham ko‘ngling
Vatanda yashar mangu!



VATAN OMON BO'LSIN

Har borgan manzil-u,
Joylarimiz ham,
Har irmog'-u anhor,
Soylarimiz ham,
Ismingdan qorishgay
Kuylarimiz ham,
Har bitta nolamiz
Mingta "oh" bo'lsin,
Vatan omon bo'lsin,
Vatan bor bo'lsin!

Har bitta go'daging,
Bek-u Xoqonim,
O'g'il Temur bo'lsa,
Qiz — Bibixonim,
Tunni tongga ular
Bobodehqonim,
Paxta-yu, g'alladan
Xirmon tog' bo'lsin,
Vatan omon bo'lsin,
Vatan bor bo'lsin!

Ahli donishlaring
Maskani ichra,
Ko'ngilning ifor-u,
Mahzani ichra,
Qo'llar obod etar,
Gulshaning ichra,
Har bosilgan qadam,
Gullab bog' bo'lsin,
Vatan omon bo'lsin,
Vatan bor bo'lsin!

◎

M

E

N

I

N

G

●

Y

U

R

T

I

M

A
h
a
d
•
Q
A
Y
U
M
◎

Qadrini qarichlab
O'lchamagan yurt,
Iymonning qahriga
Uchramagan yurt,
Yaprog'i ildizdan
Ajramagan yurt,
Ahadning ham mudom,
Baxti chog' bo'lsin,
Vatan omon bo'lsin,
Vatan bor bo'lsin!

Har borgan manzil-u,
Joylarimiz ham,
Har irmog'-u anhor
Soylarimiz ham,
Ismingdan qorishgay
Kuylarimiz ham,
Har bitta nolamiz
Mingta "oh" bo'lsin,
Vatan omon bo'lsin,
Vatan bor bo'lsin!



O'ZBEKNING BAYRAMLARI

Yaxshi kunda gullagay
Qalbimning olamlari,
Mudom yashnar, o'Imagay
O'zbekning bayramlari!

Yo'l aylanib yo'l oshar,
Yil aylanib yil oshar,
Kim o'zarga bellashar,
O'zbekning bayramlari!

Ko'nglim gavhari zari,
Yashnaydi yosh-u qari,
Ko'paysin borgan sari,
O'zbekning bayramlari!

Quvnashib xush davralar,
Qanday ajib lahzalar,
Baxt elchisi sanalar,
O'zbekning bayramlari!

Ahad Qayum kuylagan,
Yonib-jo'shib kuylagan,
To'yni to'yga ulagan,
O'zbekning bayramlari!

Yaxshi kunda gullagay,
Qalbimning olamlari,
Mudom yashnar, o'Imagay,
O'zbekning bayramlari!



●
M
E
N
I
N
G
●
Y
U
R
T
I
M

**VATANGA MUNOSIB
FARZAND BO‘LAYLIK**

A
h
a
d
•
Q
A
Y
U
M
●

Yurakka-jo qilib
Elning dardini,
Ko‘zga to‘tiyo deb
Har bir gardini,
Shu elga bosh egib
Bilib qadrini,
Yurt uchun jon bergan
Ajdodlar haqi
Vatanga munosib
Farzand bo‘laylik.

Onadek muqaddas
Bilib tuprog‘in,
Jonidek asrolgan
Har xas, yaprog‘in,
Millatning ishongan
Suyangan tog‘i,
Yurt uchun jon bergan
Ajdodlar haqi,
Vatanga munosib
Farzand bo‘laylik.

Shu zaminda o‘sib
Ulg‘aydik, mana,
Parvozimiz ozod,
Bilmadik ta’na,
Ayting, ey do‘stlarim,
Ne kerak yana.
Yurt uchun jon bergan
Ajdodlar haqi,
Vatanga munosib
Farzand bo‘laylik.

G'iybat-u ginalar
Dilxonang buzar,
Farishta ham ahil
O'lkada kezar,
Ahilga yondashib
Birlashgan o'zar,
Yurt uchun jon bergan
Ajdodlar haqi,
Vatanga munosib
Farzand bo'laylik.

Mardlarga makondir
Bizning bu diyor,
Har yigitning dilda
Nomus-ori bor,
Elning yaxshi-yomon
Kunida tayyor,
Yurt uchun jon bergan
Ajdodlar haqi,
Vatanga munosib
Farzand bo'laylik.

Ey Vatan, boshimda
Sog'-omon turgin,
Qalbdan mangu yorug'
Maskanim bo'lgin,
Ajdodim yo'lini
Bizga ham bergin,
Yurt uchun jon bergan
Ajdodlar haqi,
Vatanga munosib
Farzand bo'laylik.

◎

M

E

N

I

N

G

●

Y

U

R

T

I

M

SHUKRONA

A

h

a

d

•

Q

A

Y

U

M

◎

O'tayotgan har bir kunga
Shukrona qilib,
Do'st-u yoring diydorini
G'animat bilib,
Eng oliy baxt o'z yurtingda
Toleying kulib,
El kuniga yarasang gar
Hech bo'lmaysan xor,
Bu kunlarga yetganlar bor,
Yetmaganlar bor.

Kimlar oldin, kimlar keyin
O'tib ketadir,
Bilganlarin ichlariga
Yutib ketadir,
Qay birlari manzil-tomon
Tomon borib yetadir,
Dunyo ekan savdosiga
Avragan bozor,
Bu kunlarga yetganlar bor,
Yetmaganlar bor.

Vatan desa qalbi uyg'oq
Bedorlar bordir,
Malham kutib, dili xasta
Bemorlar bordir,
Har lahzasi yilga arzir
Bahorlar bordir,
To'rt-besh kunlik g'amxonada
Yashang baxtiyor,
Bu kunlarga yetganlar bor,
Yetmaganlar bor.

Ro'zg'oringiz bisotida
Kami bo'lsa ham,
Dilingizning dard-u armon
G'ami bo'lsa ham,
Ko'zingizning pinhon tutgan
Nami bo'lsa ham,
Shukronangiz qilavering
Takror va takror,
Bu kunlarga yetganlar bor,
Yetmaganlar bor.

Oqibatdek imorat ham
Nogoh qulasa,
Mehr bulog'idan oqqan
Chashma tugasa,
Duo qiling, Ahad sizga
Mehr tilasa,
Ortingizdan bir yaxshi so'z
Qolsin-da yodgor,
Bu kunlarga yetganlar bor,
Yetmaganlar bor.

O'tayotgan har bir kunga
Shukrona qilib,
Do'st-u yoring diydorini
G'animat bilib,
Eng oliy baxt o'z yurtida
Toleying kulib,
El kuniga yarasang gar
Hech bo'lmaysan xor,
Bu kunlarga yetganlar bor,
Yetmaganlar bor.



●
M
E
N
I
N
G
●
Y
U
R
T
I
M

VATAN

A

h

a

d

•

Q

A

Y

U

M

⊙

Tuprog'i tilloga teng,
Menga aziz hammadan,
Bag'ri osmondanam keng,
Vatan!

Otam qaddin rostlagan,
Onam dil pardozlagan,
Shoir dilim sozlagan,
Vatan!

Kel, birodar, kel, ey do'st,
Yurtim haqda ochdim so'z,
Biz qosh bo'lsak, udir ko'z,
Vatan!

Kindik qonim tushgan yurt,
Yaxshilikka shoshgan yurt,
Mehridaryo toshgan yurt,
Vatan!

Ahaddek kuychi o'g'lin,
Tog'dek ko'tarib ko'nglin,
Tilagandir oq yo'lin,
Vatan!

Tuprog'i tilloga teng,
Menga aziz hammadan,
Bag'ri osmondanam keng,
Vatan!

Vatan, sen qontomirim,
Bahorimsan, yomg'irim,
Peshonamsan, taqdirim,
Vatan!

NURLI-NURLI YORUG‘ MANZILLAR

Nurli-nurli yorug‘ manzillar,
Chorlayverar bizni baxt tomon.
Bormisiz, ey dilga yaqinlar,
Bormisiz, ey do‘stlarim, omon.

Nurli-nurli yorug‘ manzillar,
Qo‘l cho‘zmoqda bizlarga hamon.
Bormisiz, ey qalbi sohirlar,
Bormisiz, ey eski qadrdon.

Nurli-nurli yorug‘ manzillar,
Karvonimiz eting nurafshon.
Chap bermasin bizga razillar,
Iymonimiz bizga sharaf-shon.

Nurli-nurli yorug‘ manzillar,
Osmonimda bo‘lingiz narvon.
Yo‘limizda to‘shalgan gullar,
Manzillarday yorug‘dir davron.

Nurli-nurli yorug‘ manzillar,
Sizga bo‘lsin shu ro‘yi jahon.
Shu tolega mushtoqdir dillar,
Qalbimizga bo‘ling siz mehmon.



●
M
E
N
I
N
G
●
Y
U
R
T
I
M

A

VATAN UCHUN

h

O'zi uchun nelar qilmadi bu zot,
Ishlatib aqli-yu, qancha farosot,

a

d

Vatan uchun aytgin ne qilding desam,
Tili ham aylanmay qoldi-ku, hayhot!

•

Q

A

Y

U

M

◎



SHIFOKORLAR

Ustoz Ibn sino
Ta'limin olib,
Har talpingan jonga
Bergaysiz malham.
Tolmangiz har dardning
Davosin topib,
Sog'lom kelajak-ka
Qo'yingiz qadam.
Siz sabab dard nima
Bilmas bemorlar,
Tan-u jon tabibi
Siz shifokorlar!

Bittagina kichik
Muammomizni
Dunyoga yoyamiz
Goh o'rni kelsa.
Garovlarga qo'yib
Hayotingizni,
Yordamga shoshasiz
Goh o'rni kelsa.
Oyoqqa turadi
Qancha nochorlar,
Tan-u jon tabibi
Siz shifokorlar!

Oppoq ko'ngil bilan
Oppoq libosda,
Dunyoni qutqargan
Farishtalarday.
Darddan xalos etib
Keyin birpasda,
Tuzalib ket deysiz
Kasal bo'lma, hay,
Qancha xazonbog'lar
Bo'ldi gulzorlar,
Tan-u jon tabibi
Siz shifokorlar!

●

M

E

N

I

N

G

●

Y

U

R

T

I

M

A
h
a
d
•
Q
A
Y
U
M
●

Sizsiz Ahaddayin
Bemor shoirlar,
O'ttizga ham to'lmay
O'lib ketardi,
Sizsiz yaxshilikka
Doim moyillar,
Tabibsiz bu olam
G'amga cho'kadi.
Siz uchun kam biling
Madh-u ash'orlar,
Tan-u jon tabibi
Siz shifokorlar!

Ustoz Ibn Sino
Ta'limin olib,
Har talpingan jonga
Bergaysiz malham.
Tolmangiz har dardning
Davosin topib,
Sog'lom kelajakka
Qo'yingiz qadam.
Siz sabab dard nima,
Bilmas bemorlar,
Tan-u jon tabibi,
Siz shifokorlar!



INSONNING BO'LMASIN QALBI NOGIRON

Dardingizga shifo so'rang bemorlar,
Sizga rahmi kelar, Oллоh mehribon,
Tananing kemtigin tuzatsa bo'lar,
Insonning bo'lmasin qalbi nogiron!

Har bitta insonning ko'ngil olami
Tashqi ko'rinishda bo'lganda ayon,
Ko'ringan bo'lardi hammaning kami,
Insonning bo'lmasin qalbi nogiron!

Oyog'i yo'q, qo'li, ko'zi yo'qlar bor,
Onasidan xasta tug'ilganlar xor,
Ularning azobi yuzida oshkor,
Insonning bo'lmasin qalbi nogiron!

Hammamiz nogiron aslida, do'stlar,
Hammamiz kasalmiz, og'ir dardlimiz,
Kim mansab, kim shuhrat, boylik g'amida,
Yuqimli dard yetgan kasal qalbimiz...

Xor-zor bo'lib yotgan bechoraga biz,
Jirkanib qaraymiz ustidan kulib,
Naqqoshning ustidan kulgan bo'lamiz,
Naqshga bepisand biz baho berib.

Ey siz, qanotida imkoni borlar,
Ana, yoningizda mehrga zorlar,
Oллоhning hukmi bu muhtoj nochorlar,
Insonning bo'lmasin qalbi nogiron!

Kitobingiz o'qidik Ahad Qayum der,
Deydilar bizga ham atab yozing she'r,
Sizlarni ko'rmasam ko'zim bo'lsin ko'r,
Insonning bo'lmasin qalbi nogiron!

●
M
E
N
I
N
G
●
Y
U
R
T
I
M

A

BIR YAXSHI NOM QOLSIN

h

a

d

•

Q

A

Y

U

M

◎

Pul bilan o'lchamang
Insonning qadrin,
Bitta chin-de'st-izlang
Yorug' olamdan.
Mol-davlat o'lcholmas
Ko'ngilning narxin,
Bir yaxshi nom qolsin
Sizdek odamdan.

Mansab, o'rin, joyni
Talashmoq xato,
Baxtni boylik bilan
O'lchamang aslo,
Yashamoqdan bo'lsin
Doim bir ma'no,
Bir yaxshi nom qolsin
Sizdek odamdan.

Kimdir der maslahat
Bermoq osondir,
Muammolar ichra
Yonmoq yomondir,
Tushunib yetasiz
Bunga qachondir,
Bir yaxshi nom qolsin
Sizdek odamdan.

Qo'lingizni mushtlab,
To'kmang g'azabni,
Yaxshilar yashaylik
Asrab asabni,
Halol, toza yashab,
Qadrlab kasbni,
Bir yaxshi nom qolsin
Sizdek odamdan.

To'g'ri, rejadagi
Ishlar hali ko'p,
Yordam qo'lin cho'zar
Gohida do'st yo'q,
Yurakni og'ritmang
Dilga solib cho'g',
Bir yaxshi nom qolsin
Sizdek odamdan.

Ahad Qayum bilgin
Dunyo bevafo,
Kim nafsiga quldir,
Dardi bedavo,
Ko'ngilga qulf osmang,
Qilmang benavo,
Bir yaxshi nom qolsin
Sizdek odamdan.

Pul bilan o'lchamang
Insonning qadrin,
Bitta chin do'st izlang
Yorug' olamdan.
Mol-davlat o'lcholmas
Ko'ngilning narxin,
Bir yaxshi nom qolsin.
Sizdek odamdan.

KO'NGIL GAVHARI

Qo'lingdan ketsa ham eng asl gavhar,
O'ksinma, borimdan bo'ldim deb judo.
Ko'ngil gavharingdan olib tur xabar,
Uni yo'qotishdan asrasin Xudo.



M

E

N

I

N

G



Y

U

R

T

I

M

A HAYOTDAGI ENG CHIROYLI KUN

h

Hayotdagi eng chiroyli kun,
Kuning o'tsa yaxshilik uchun.

a

d

Hayotdagi eng-chiroyli-kun,
Yurak sezsa oqibat kuchin.

•

Q

Hayotdagi eng chiroyli kun,
Dil quvonchdan yashnasa mamnun,
Chin do'stlaring yoningda bo'lsa,
Yuragingda qolmaydi tugun.

A

Y

U

M

◎

Osmonlardan kutib omadni,
Yo'qotmagin yerdagi baxtni.
So'ng ertaga qaytarolmaysan,
Bir lahzaga orqaga vaqttni.

Hayotdagi eng chiroyli kun,
Bajarsang sen farzandlik burching,
Ota-onang oilang uchun,
Butun umr sarflagin kuching.

Do'stlarim bor baxtinga ustun,
Yashayapman qalbim shod-mamnun.
Hayotdagi eng chiroyli kun,
Eng baxtli kun, albatta bugun.

SHUNDAY KATTA OLAM ICHRA

Shunday katta olam ichra
Kichkina bir odamman,
Kichkina bir odam ichra
O'zi katta olamman!

BUGUN SHUNDAY KUNKI...

Bugun shunday kunki yaxshi niyatlar,
Va yaxshi insonlar uchrashgan kundir.
Bugun shunday kunki do'sti dilbandlar,
Va qalbi osmonlar uchrashgan kundir.

Do'stlarim diydori dardimga davo,
Do'stlarim diydori qalbinga shifo,
Xush niyatli dilga baxti yor bo'lsin,
Baxtinga do'stlarim doim bor bo'lsin!

Omad! Mansab! Boylik! Busiz yashayman,
Jonday do'stlarimsiz, axir men kimman?!
Ey mardi do'st, oqibat degan so'z uchun,
Do'stlar yashayapman, balki siz uchun.

Sizsiz yolg'iz karvon bo'lib qolardim,
Balki beshikdayoq o'lib qolardim,
Ne kunlar solmadi dushman boshimga,
Shukrkim bo'ldingiz sizlar qoshimda.

Bugun shunday kunki orzu-armonlar,
Omad ortingizdan ergashgan kundir,
Bir umr kutilgan axir bu onlar,
Ko'zimiz quvonchni talashgan kundir.

Bugun shunday kunki baxt-u omadlar,
Va sohbsiyratlar uchrashgan kundir,
Bugun shunday kunki yaxshi odatlar,
Va sohbsavlatlar uchrashgan kundir.

Bu dunyo aslida aylana gardun,
Ey do'st, yashayapmiz biz nima uchun?
Dunyoga keldikmi yashaylik shodon,
Yaxshi inson uchun bermoq kerak jon.

●

M

E

N

I

N

G

●

Y

U

R

T

I

M

A Yaxshi kunda ko'plab yog'ilsa tilak,
h Yaxshi kunda kiyilar ko'ylak,
a Yaxshi kunda shunday yorishar yurak,
Sizga baxt libosi yarashgan kundir.

d Hofiz, nolangdan ayt, ey sozanda, chal,
• Bu hayot shunchalar azobki, chigal.
Q Odam yashar qondosh dilbandi uchun,
A Baxtqasrin quradi farzandi uchun.

Y Ey farzand, unutmang otangning darsin,
U Unutmang onangga farzandlik qarzing.
M Vatan omon bo'lsa oila butun,
Dunyoda hech joy yo'q Vatandan ustun!

• Musofir yurtlarda yurgan do'stlarim,
Ollohdan sizlarga omad so'radim.
Hech kimning ko'zidan oqmasin yoshi,
Doim baland bo'lsin O'ZBEKning boshi.

Bugun shunday kunki sohibsuratlar,
Va sohibjur'atlar uchrashgan kundir,
Bugun shunday kunki yaxshi sifatlar,
Va do'sti Ahadlar uchrashgan kundir...



TILAK

Quvonchdan baxt tomon shoshadi yurak,
To'y-u tomoshalar tinchlikdan darak,
Shodlikka to'ldiring baxt ostonasin,
Yashirmang ko'ngilda ne bo'lsa istak.

Do'st-u yor birlashib bo'lsa bir bilak,
Har mehmon azizsiz o'ringiz bo'lak,
Dunyoda eng katta yaxshilik nima,
Bitta shirin so'z-u, bir go'zal tilak.



©

M

E

N

I

N

G

●

Y

U

R

T

I

M

MEHR TILADIM

A

h

a

d

•

Q

A

Y

U

M

⊙

Men siz bilan do'st-u birodar,
Nasib etsa qiyomat qadar,
Omon bo'ling, ko'rmangiz kadar,
Oqibat-u iymon so'radim,
Qalbingizdan mehr tiladim.

Bu dunyoga kelganmiz nechun,
Bir yaxshi yod qoldirmoq uchun,
Vafo qilmas bu foniychun,
Yo'lingizga intiq qaradim,
Qalbingizdan mehr tiladim.

Bu kun shunday yorug' kun ekan,
Dard-u g'amdan darig' kun ekan,
Baxt ulashar ulug' kun ekan,
Men bu kunni yilga uladim,
Qalbingizdan mehr tiladim.

Yaxshilikdan men tolmayman hech,
Ahad hamroh sizga erta-kech,
Sadoqat — bu shunday sohir kuch,
Men shu kuchdan sehr tiladim,
Qalbingizdan mehr tiladim.

Men siz bilan do'st-u birodar,
Nasib etsa qiyomat qadar,
Omon bo'ling, ko'rmangiz kadar,
Oqibat-u iymon so'radim,
Qalbingizdan mehr tiladim.

DO‘ST SHUNDAY BO‘LARKI

Do‘st shunday bo‘larki,
Yoningda turib,
Siringni fosh etmas ishonganingda,
G‘am cheksang g‘amingni sen bilan yutib,
Sen bilan shod kulsin quvonganingda.

Do‘st shunday bo‘larki,
Ranjisang undan,
Shubha-yu gumonga ko‘milganingda,
Eshigingni hatlab, kechmaydi sendan,
Nomingni bulg‘amas sen tonganingda.

Kimligini bir kun isbotlaydi u,
Qalbingdan o‘chirar araz, ginangni,
Sendan o‘zmoqlikni qilmaydi orzu,
Butkul unutadi qilgan ta‘nangni.

Do‘st shunday bo‘larki,
Olislab ketsang,
Oyda, yilda bir bor yo‘qlamasang ham,
Rishtalaring o‘zib havolab ketsang,
Sen uchun qalbida faqat yeydi g‘am.

Do‘st shunday bo‘larki,
Sinamoq bo‘lib,
Men uchun joningni ber desang agar,
Ko‘ksidan yuragin shart uzib olib,
Shu zahot ma ol deb qo‘lida tutar.

Do‘st shunday bo‘larki,
Yoningda turib,
Siringni fosh etmas ishonganingda,
G‘am cheksang g‘amingni sen bilan yutib,
Sen bilan shod kulsin quvonganingda.

⊙

M

E

N

I

N

G

⊙

Y

U

R

T

I

M

A

AGAR AYOL ISTASA...

h

Agar ayol istasa,
Yigitni sher qiladi,
Agar ayol istasa,
Erkakni yer qiladi.

a

d

•

Q

Agar ayol istasa,
Qasrni go'r qiladi.
Agar ayol istasa,
Baxt ta'min sho'r qiladi.

A

Y

U

Agar ayol istasa,
Yo'g'ingni bor qiladi.
Agar ayol istasa,
Bahoring qor qiladi.

M

⊙

Agar ayol istasa,
Xasni chinor qiladi.
Agar ayol istasa,
Paxsang minor qiladi.

Agar ayol istasa,
Erkakni xor qiladi.
Milyon makrin ishlatib,
Dunying tor qiladi.

Agar ayol istasa,
Ahadni zor qiladi.
Agar ayol istasa,
Baxtiga yor qiladi.

Agar ayol istasa,
Yigitni sher qiladi,
Agar ayol istasa,
Erkakni yer qiladi.

MUHABBAT YOSH TANLAMAYDI, KO'NGIL TANLAR

Har bir oshiq boqqa kirsam bir gul tanlar,
Nolalari qalbiga mos bulbul tanlar,
Odamlarga parvo qilmang, odamlarga,
Muhabbat yosh tanlamaydi, ko'ngil tanlar.

Yoshim o'tgach sevdim desa hayron
bo'lmang,
Sochingdagi oqni sana deya kulmang,
Zinhor o'tgan yillarni siz hisob qilmang,
Muhabbat yosh tanlamaydi, ko'ngil tanlar.

Seymaganlar shirin baxtni qaydan bilsin,
Dili yo'qlar bu ne'matni qaydan bilsin,
Bag'ri muzlar muhabbatni qaydan bilsin,
Muhabbat yosh tanlamaydi, ko'ngil tanlar.

Sevgi sizdan so'rab eshik qoqmas ekan,
Ko'ngil so'zin aslo aql uqmas ekan,
Bilsangiz u tosh yurakka sig'mas ekan,
Muhabbat yosh tanlamaydi, ko'ngil tanlar.

Qo'rqmay boqing muhabbatning ko'zlariga,
Yuzingizni mahkam bosing yuzlariga,
Shubha qilmang Ahad Qayum so'zlariga,
Muhabbat yosh tanlamaydi, ko'ngil tanlar.

Har bir oshiq boqqa kirsam bir gul tanlar,
Nolalari qalbiga mos bulbul tanlar,
Odamlarga parvo qilmang, odamlarga,
Muhabbat yosh tanlamaydi, ko'ngil tanlar.

©
M
E
N
I
N
G
●
Y
U
R
T
I
M

QIZLARNING MUHABBATI

A

h

a

d

•

Q

A

Y

U

M

◎

Nimadan kelib chiqar,
Baxtsizlik musibati,
Bir atirgulga o'xshar,
Qizlarning muhabbati!

Qo'l tegmagan gulguncha,
O'n sakkizga to'lguncha,
Juda nozik tushuncha,
Qizlarning muhabbati!

Yigit sevsa albatta,
Borib aytadi shartta,
Dilda qolar alamda,
Qizlarning muhabbati!

Ichida qolar dardi,
Xazonko'ylakdir baxti,
Arzon etar gulqadrin,
Qizlarning muhabbati!

So'zin bog'lab so'ziga,
Qarolmay ishq ko'ziga,
Dushman bo'lar o'ziga,
Qizlarning muhabbati!

Ahad, nedur bu g'avg'o,
Bitta boshda ming savdo,
O'zbekchilikda xato,
Qizlarning muhabbati!

Nimadan kelib chiqar,
Baxtsizlik musibati,
Bir atirgulga o'xshar,
Qizlarning muhabbati!

OTA-ONA DUOSI

Alloh yetkizsa gar kam bo'lmagaysan,
Tuzi halol kasb-u kordan qolmasang.
Yo'qsa, butun umr g'amda yashaysan,
OTA-ONANG DUOSINI OLMASANG!

Har doim duo ol, madad bo'lgaydir,
Rizqing butun bo'lib baxting kulgaydir.
Doim nimadandir ko'ngil to'lmaydi,
OTA-ONANG DUOSINI OLMASANG!

Shukr qil, kam bo'lsa gar bisotingda,
Nimadir qoldirmoq bo'lgin ortingda.
Egarsiz qolgaysan saman otingda,
OTA-ONANG DUOSINI OLMASANG!

Axir bilolmaysan ertang ne bo'lar,
Dardmandlar tuzalib, sog' yurgan o'lar.
Hayoting g'unchasi ochilmay so'lar,
OTA-ONANG DUOSINI OLMASANG!

Payt bermay kamaring bog'la, ey do'stim,
Yaxshi ish boshlasang hamroh man o'zim.
O'tkinchi g'avg'olar topmagay to'zim,
OTA-ONANG DUOSINI OLMASANG!

Ahadning so'zidan shubhaga borma,
Sal og'irroq botsa ko'nglingga olma.
Olisdan baxt izlab bekorga tolma,
OTA-ONANG DUOSINI OLMASANG!

Alloh yetkizsa gar kam bo'lmagaysan,
Tuzi halol kasbu kordan qolmasang.
Yo'qsa, butun umr g'amda yashaysan,
OTA-ONANG DUOSINI OLMASANG!



M

E

N

I

N

G



Y

U

R

T

I

M

A
h
a
d
•
Q
A
Y
U
M
◎

ONALAR O'YNASIN SHUNDAY DAVRADA

Kelin-u qizlarning jamolin ko'rib,
Farzandin quvonchin, kamolin ko'rib,
Shunday kun ko'zlari quvonchga to'lib,
Ko'ngillar quvnasin shunday davrada,
Onalar o'ynasin shunday davrada.

Yaxshi-yomon kunlar boshdan o'tgandi,
Axir, bu kunlarni qancha kutgandi,
Bugun eng baxtiyor uning dilbandi,
Ko'ngillar quvnasin shunday davrada,
Onalar o'ynasin shunday davrada.

Do'stlar tildan tushmas shundayin hikmat,
Onalar oyog'i ostida jannat,
Beozor, duokor, mehri beminnat,
Ko'ngillar quvnasin shunday davrada,
Onalar o'ynasin shunday davrada.

Uyning farishtasi onajonimiz,
Yaxshi kunlar keldi mehribonimiz,
Barakaga to'ldi dasturxonimiz,
Ko'ngillar quvnasin shunday davrada,
Onalar o'ynasin shunday davrada.

Kelin-u qizlarning jamolin ko'rib,
Farzandin quvonchin, kamolin ko'rib,
Shunday kun ko'zlari quvonchga to'lib,
Ko'ngillar quvnasin shunday davrada,
Onalar o'ynasin shunday davrada.



DILIM

Dilim — daryo, undan faqat sen oqasan,
Dilim — yulduz, unga faqat sen boqasan.

Dilim — uzuk, uni faqat sen taqasan,
Dilim — bemor, dardin faqat sen topasan.

Dilim — tushdir, uni o'zing uyg'otasan,
Dilim — ufqdir, quyoshdek kelib botasan,

Dilim — nurdir, sen yanada yoritasan,
Dilim — hurdir, uning jufti farishtasan.

Dilim — tog'dir, yuksaklarga qaratasan,
Dilim — bulut, yomg'irlarning yurtidasan,

Dilim — guldir, gulg'unchaning kaftidasan,
Dilim — cho'g'dir, muhabbatning taftidasan.

Dilim — oshiq, shom-u sahar tilidasan,
Dilim — shoir, har bir yozgan satridasan,

Dilim — dengiz, ummonlarning qa'ridasan,
Dilim — bahor, sen ko'klamning bag'ridasan.

Dilim — daryo, undan faqat sen oqasan,
Dilim — yulduz, unga faqat sen boqasan,



AYOL BOR DUNYODA

A

h

a

d

•

Q

A

Y

U

M

⊙

Ayol bor dunyoda baxt bor, iqbol bor,
Ayol bor dunyoda shirin xayol bor,
Ayol bor dunyoda ishq bor, visol bor,
Ayol bor dunyoda sohibjamol bor.

Ayol bor dunyoda pariruxsor bor,
Ayol bor dunyoda ul gulruxsor bor,
Ayol bor dunyoda gul bor, bahor bor,
Ayol bor dunyoda oshig'i zor bor.

Ayol bor dunyoda gulga misol bor,
Ayol bor dunyoda dilga timsol bor,
Ayol bor dunyoda malak dildor bor,
Ayol bor dunyoda vasli diydor bor.

Ayol bor dunyoda hofiz-u tor bor,
Ayol bor dunyoda qo'shiq, ash'or bor,
Ayol bor dunyoda Ahadga yor bor,
Ayol bor dunyoda lablari ol bor.

VATANNI SEV

Vatanni sev, vatan deb yasha,
Vatan bilan sen gulla, yashna,
Vatan uchun nafas ol, do'stim,
Doim bo'lgin vatanga tashna.

Ona yurtim, elim, tuprog'im,
Ildizlarim, gulim, yaprog'im,
Vatan bizga otaday ulug',
Onamizday mehri chirog'im...

HAZILKASHLARGA

Quvnoqlar, zukkolar hamda donolar,
Soʻzlari boy, kulgu, oʻxshatishlarga,
Hech kim xafa boʻlmas, tahsinda qolar,
Hazillar yarashar hazilkashlarga!

Yuzingizga kulgu yugursa xandon,
Sizlar rohat oling, siz boʻling shodon,
Fikrlari chaqqon, soʻzlari biyron,
Hazillar yarashar hazilkashlarga!

Sanʼat fidolari zahmatkashlarga,
Mehr yoʻlidagi mehnatkashlarga,
Omad yulduzlari ergashib yursin,
Hazillar yarashar hazilkashlarga!

Ayolni chayonga oʻxshatgan shular,
Bolani shaytonga oʻxshatgan shular,
Xotinini tuqqan qaynonasini
Kobra-yu ilonga oʻxshatgan shular,
Sahnada bu odat mumkin yoshlarga,
Hazillar yarashar hazilkashlarga!

Chin dildan istaymiz samimiyatni,
Kuling, ardoqlangsiz shunday neʼmatni,
Xato tushunmangiz, doʻstlar, Ahadni,
Hazillar yarashar hazilkashlarga!

Quvnoqlar, zukkolar hamda donolar,
Soʻzlari boy, kulgu, oʻxshatishlarga,
Hech kim xafa boʻlmas tahsinda qolar,
Hazillar yarashar hazilkashlarga!

⊙
M
E
N
I
N
G
●
Y
U
R
T
I
M

OQIBAT

A

h

a

d

•

Q

A

Y

U

M

●

Ota bo'lmay, tushunmaysan otangni,
Ona bo'lmay, tushunmaysan onangni.
Havolarga sarf-etmayin kuchingni,
Ado etgin, sen farzandlik burchingni.

Sen yolg'onchi yaldolarga uchmagin,
Mol-u dunyo, tillolarga uchmagin.
Senga yordam bergay ro'zi oxirat,
Oqibatdir, oqibatdir, oqibat.

Onang poyin bir bor tavof aylasang,
Shu amal deb ne tong jannatga tushsang.
Agar bugun xabar olsang otangdan,
Bu yaxshilik erta qaytar bolangdan.

Savoblarga to'lsin desang gar ro'zim,
Oqibatning jilovin qo'yima, do'stim.

NASIHAT

Otam ko'p nasihat qilar uqtirib,
Shoshilmagin, o'g'lim, bo'lg'in ehtiyot,
Sen mening yoshimga yetguncha hali,
Hali ulgurasan oldinda hayot.

Otamga ham, qarang, uqtirar bobom,
Shoshilmagin deydi, bo'lg'in ehtiyot.
Sen mening yoshimga yetguncha hali,
Hali ulgurasan oldinda hayot.



YAQIN O‘TMISH

Kimdir ishonadi, kimdir esa yo‘q,
Yomon qiynalganman hayot yo‘lida,
Dushmanlarimdan-ku mening ko‘nglim to‘q,
Ishonchlar yig‘ladi do‘stim qo‘lida!

Netay, men birovga o‘xshayolmasam,
Kimlargadir qarab yashayolmasam,
Qorani bu oq deb, yo‘qni bor qilib,
Nodonni yaxshi deb maqtayolmasam...

Kimdir ishonadi, kimdir esa yo‘q,
Baxtsiz sarson o‘tdi qancha yillarim,
Ochlik, yupunlikda issiqmi, sovuq,
Omadsizday edi barcha yo‘llarim.

Bir kun jahlim chiqdi,
Yig‘lab yubordim,
Nahotki, shunchalar baxtsiz odamman,
Otamdan biroz pul so‘rab yolvordim,
Nahotki, shunga ham haqsiz odamman.

Kimdir ishonadi, kimdir esa yo‘q,
Ikki kunda bir ham ovqatlanmasdan,
Bir kunda ikkita kitob o‘qirdim,
Jonimni qiynardim, ataylab, qasddan.

Kunlar o‘tar edi shunday sudralib,
Eng arzon ijara uylardan bezib,
Bir kuni bor-ey deb yuklarim olib,
Qishlog‘imga qaytdim umidim uzib.

— Ota, — dedim, — endi hammasi tamom,
Na shoir, na aktor, na odam bo‘ldim,
Matematik bo‘lsin degandi bobom,
O‘zimni bekorga olovga urdim.

●

M

E

N

I

N

G

●

Y

U

R

T

I

M

A Otam menga rahm qilmay qo'ygandi,
h Ol, — dedi qo'limga ketmonni tutib —
a Bu rol o'ynash emas, qo'shiqchilikmas,
d Taltayib ketibsan shaharda yurib...

• Alam qilib ketdi, Ichimga yutdim,
Otamning nigohi dilga sanchdi o'q,
Q O'sha kun daladan she'r yozib qaytdim,
A Kimdir ishonadi, kimdir esa yo'q.

Y Menga qarab uchta singlim yig'lardi,
U Onam qiynalardi holimga qarab,
M Meni sevgan o'sha aktrisa qiz,
• Bir bora ortimdan bormadi so'rab...

— Biror ish topaylik, — dedim buvinga,
Buvim dedi: — Uylan, ana senga ish.
Buvimning aytganin qilsam bo'larkan,
Buvim o'tib qoldi kelmasidan qish.

Xudoga tavakkal qildim so'ng yana,
Hech kimning gapiga quloq solmadim,
Bir dasta she'rimni quchog'lab mana,
Ortga qaytdim so'ng bor sinay omadim...

She'rlarim bosmadi biror gazeta,
Eshigin ochmadi bitta nashriyot,
Nahotki, iste'dod yo'q edi menda,
Shahdimni sindirma, ey adabiyot.

Dildagi gaplarim, Minglab she'rlarim,
Nahotki, hech kimga kerak bo'lmasa,
Bir qishloqdan kelgan menday aktor,
Omadin topolmay nochor yig'lasa.

Umidimni uzib rejissorlardan,
Taniqli, taniqsiz san'atkorlardan,
Oxir yana ortga qaytmoqchi edim,
Javob kelib qoldi bastakorlardan.

Bir nechta she'rlarim kuyga solinib,
San'atkorlar ijro eta boshladi,
Ismim xalq ichida tilga olinib,
Boshimdan bulutlar keta boshladi.

Ko'z ochib yumguncha yashin tezlikda,
Omad tulporida ko'rdim o'zimni,
Yaratgan sharmanda qilmadi shukr,
O'zi yorug' qildi yuzimni...

Kimdir ishonadi, kimdir esa yo'q,
O'tmishimdan bugun yig'lab gapirsam,
Ortimda qarasam yuragimda cho'g',
Rost bo'lsin yurakdan o'chib ketgan g'am.

Kimdir ishonadi, kimdir esa yo'q,
Yosh boshimdan o'tdi qancha tuhmatlar,
Qancha nohaqlig-u qancha nomardlik,
Ko'ngil sindirish-u qancha g'urbatlar.

Endi siz ham menga ishonib, ota,
Sizga hasratlarim endi aytish yo'q,
Vatanim deb katta yo'lga chiqqanman,
Ishonib, hech qachon ortga qaytish yo'q...

Kimdir ishonadi, kimdir esa yo'q,
Yomon qiynalganman hayot yo'lida,
Dushmanlarimdan-ku mening ko'nglim to'q,
Ishonchlar yig'ladi do'stim qo'lida!



◎

M

E

N

I

N

G

●

Y

U

R

T

I

M

A
h
a
d
•
Q
A
Y
U
M
●

OQIBAT YO‘QOLDI NECHUN

O‘g‘ilning otaga mehri yo‘q, qarang,
Akaning ukaga qadri yo‘q, qarang,
Qornidan talashib tushgan jigarlar,
Onasin yo‘qlashga vaqti yo‘q, qarang,
Sizlarga ne bo‘ldi odamlar bugun,
Orada oqibat yo‘qoldi nechun?

Boshingga qo‘nganda davlatqush, omad,
Atrofingda to‘lar soxtado‘st, ulfat,
O‘likmi, tirikmi deb bir yo‘qlamas,
Yelkangga ozgina tushganda kulfat,
Nahotki, sotarlar do‘stni pul uchun,
O‘rtada oqibat yo‘qoldi nechun?

Jon qo‘shning yilda bir olmasa xabar,
Yaqinlar chet elda yursa darbadar,
Jigaring ozgina yaxshilik qilib,
Salomni minnatdan boshlasa agar,
Nahotki, mol-dunyo odamdan ustun,
Orada oqibat yo‘qoldi nechun?

Bu millat mehrdan qaddin rostlagan,
Vatanning yuziga oyoq bosmagan,
Sayyohlar atayin ko‘rib ketardi,
O‘zbek darvozaga zanjir osmagan,
Oh, qulflar osildi qalbda qo‘rg‘oshin,
Orada oqibat yo‘qoldi nechun?

Otasidan olib tarbiya-yu pand,
Onasin bag‘rida ulg‘ayib dilband,
Eshigini yopsa norozi qilib,
Shayton sherik bo‘lar non, dasturxonga,
Baraka unmaydi ul xonadonda...

Onaga talpingan go'dakdek shogird,
Ulug' ustozining ta'limin olib,
Sal o'tmay raqobat tishlarin qayrar,
Ustozning bor ilmin egallab bo'lib,
Bir iflos manmanlik bulg'abdi ichin,
Ado etolmabdi qasamin, burchin...

Ey Ahad, besh kunlik dunyo o'tkinchi,
Yashamoqdan ma'no nedur aytgin-chi,
Hayvondek nafs quvsa inson bolasi,
Vijdon kuyib ketsa dilning tayanchi,
Hech kim bo'lolmaydi dunyoga ustun,
Orada oqibat yo'qoldi nechun?

Sevgan oshiqlarda vafo qolmadi,
Yoshlar muhabbatning darsin olmadi,
Erkakmijoz ayollarning yuzini,
Ayolmijoz erkaklar ko'rolmadi,
Seza olmadilar libosda ichin,
O'rtada oqibat yo'qoldi nechun?

O'g'ilning otaga mehri yo'q, qarang,
Akaning ukaga qadri yo'q, qarang,
Qornidan talashib tushgan jigarlar
Onasin yo'qlashga vaqti yo'q, qarang...
Sizlarga ne bo'ldi odamlar bugun,
Orada oqibat yo'qoldi nechun?



M

E

N

I

N

G



Y

U

R

T

I

M

A
h
a
d
•
Q
A
Y
U
M
©

BEMORLARDAN HOLIN SO'RANG, BEMORLARDAN

Kam bo'lmasin, jigarlarim, do'st, yorim deb,
Bolam, chaqam, uyim, joyim, ro'zg'orim-deb,
Yaxshiligin ayamadi hech kimsadan,
Kerak ekan el-u yurtga darkorim deb.
Kuch-quvvati ketib qolsa madorlardan,
Bemorlardan holin so'rang, bemorlardan.
Keragida foydalanib, bor bo'lgan kun,
Yolg'izlatib qo'ymang sizga zor bo'lgan kun,
Siqilma deng, yaxshi kunlar oldinda deng,
Ko'zlariga keng uylari tor bo'lgan kun.
O'chirmangiz o'rinlarin qatorlardan,
Bemorlardan holin so'rang, bemorlardan.
Ko'zin tikib, kecha-kunduz yo'lingizga,
U mushtoqdir bugun bitta shirin so'zga,
Umid bering, hali uzoq yashaysan deng,
Bu dunyodan umidini uzgan ko'zga.
U hayotga qaytar go'zal diydorlardan,
Bemorlardan holin so'rang, bemorlardan.
Ildizingiz sug'orguvchi daryo edi,
Oh desangiz yoningizda tayyor edi,
Qay muammo yuzingizni sarg'aytirsa,
Tabib edi, dardingizga shifo edi.
Yarim joni xasta yotgan bedorlardan,
Bemorlardan holin so'rang, bemorlardan.
Ayrim dardga shifokor ham ojiz bo'lar,
Keksalar der: odam taftin odam olar,
Jon og'risa goho dori-darmon emas,
Ko'ngil bir do'st yordamiga muhtoj qolar,
Bezib ketsa, to'yib ketsa ozorlardan,
Bemorlardan holin so'rang, bemorlardan.
Bu yaxshilik, yaxshi kunda qaytar bir kun,
Bemor ko'zlar yig'lamasin aslo yum-yum,
Eshiklarin ochib kiring mo'jizadek,
Do'stlar, sizdan shuni tilar Ahad Qayum.
Sog'lik so'rab, umr so'rab bahorlardan,
Bemorlardan holin so'rang, bemorlardan.

BAHOR MUBORAK

Oshiqlik fasliga
Alyor muborak,
Tabriklayman takror,
Takror muborak,
Yoshlik ayyomi bu,
Baxt ayyomi bu,
Do'stlar, barchangizga
BAHOR MUBORAK!

Hamma bir-birini
Qutlaydi shodon,
Lolaqizg'aldoqlar
Ranglari alvon,
Ey dil, shodlikka to'l
Yayragin quvon,
Do'stlar, barchangizga
BAHOR MUBORAK!

Yasharish fasli bu,
Yashnarish fasli,
Ko'klamda uyg'onar
Tabiat asli,
Ko'ring mo'jizaning
Yam-yashil qasrin,
Do'stlar, barchangizga
BAHOR MUBORAK!

Sovuq qahratonning
Avji pallasi,
Qorning vahimasi,
Qishning chillasi,
Uyg'onish faslining
Go'zal allasi,
Do'stlar barchangizga
BAHOR MUBORAK!

⑤

M

E

N

I

N

G

●

Y

U

R

T

I

M

A
h
a
d
•
Q
A
Y
U
M
●

Men shunday xursandman,
Shodman baxtimdan,
Ona tuprog'imdan,
Ozod xalqimdan,
Yahshilikdan dilda
So'rayman tilak,
Do'stlar, hammamizga
BAHOR MUBORAK!

Yangidan toleyi,
Kulsin har kimni,
Risq ro'zi butundir,
Shukur elimning,
Shodligini ko'ring
Ahad Qayumning,
Do'stlar, barchangizga
BAHOR MUBORAK!

Oshiqlik fasliga
Alyor muborak,
Tabriklayman takror,
Takror muborak,
Yoshlik ayyomi bu,
Baxt ayyomi bu,
Do'stlar barchangizga
BAHOR MUBORAK!



YANGI YIL

Qorni o'yinchoqdek o'ynar yangi yil,
Yaxshilik qo'shig'in kuylar yangi yil,
Qorbobo-yu, qorqiz archasi bilan,
Butun yer yuzini qutlar yangi yil.

Bu yil ham yangi yil yaxshi yil bo'lsin,
Bu dunyo shodlikka, quvonchga to'lsin,
Baxtli bo'ling! Sizga eng shirin tilak,
Eng go'zal orzular, eng go'zal ertak.

Bu yil nimalardan so'ylar yangi yil,
Dilni havaslarga boylar yangi yil,
Elning nimasi ko'p, yaxshi kuni ko'p,
Ko'paysin bayramlar, to'ylar, yangi yil.

Yangi yil, yangi yil, eng go'zal kundir,
Keksa-yu yosh birdek unga maftundir,
Bir kunda shuncha ko'p baxt berasanki,
Bir kunlik shodliging yildan uzundir.

Kim uchun parvozga bir qanot bugun,
Xayollar besarhad keng ozod bu kun.
Odamlar ko'chada bayram qilyapti,
Ahad Qayum uchun hisobot bu kun.

Qorni o'yinchoqdek o'ynar yangi yil.
Yaxshilik qo'shig'in kuylar yangi yil,
Qorboboyu qorqiz archasi bilan,
Butun yer yuzini qutlar yangi yil.



UMR YO'LDOSHIM

A
h
a
d
●
Q
A
Y
U
M
●

Yostiqlarga bir kun botsa gar boshim,
Meni sotib ketsa do'st-u sirdoshim,
Sarg'aygan yuzlarim yuvsa ko'zyoshim,
O'sha kun men uchun kim achinar, kim,
Eng avval kuyunar umr yo'ldoshim!

Bag'rimda ulg'ayib taniblar hayot,
Yonimda olarlar tarbiya, sabot,
Farzandlarim ketar uchirib qanot,
Yostiqlarga bir kun botsa gar boshim,
Eng avval kuyunar umr yo'ldoshim!

Tirik jon, xastalik quchishi mumkin,
Omad qushi boshdan uchishi mumkin,
Hatto muxlislarim kechishi mumkin,
Meni sotib ketsa do'st-u sirdoshim,
Eng avval kuyunar umr yo'ldoshim!

Qarindosh, jigarim, olam g'animat,
Otam g'animatdir, onam g'animat,
Sarg'aygan yuzlarim yuvsa ko'zyoshim,
Yoshim qirqdan oshib, kelib bir fursat,
Eng avval kuyunar umr yo'ldoshim!

Qolsa mehribonlar yig'lashib yum-yum,
Qabring uzra ma'yus kim sog'inar kim,
Seni dildan eslab, ey Ahad Qayum,
O'sha kun men uchun kim achinar, kim,
Eng avval kuyunar umr yo'ldoshim!



DO‘STLARIM, ODAMGA ODAM G‘ANIMAT

Baxtim o‘tkinchidir, nolam g‘animat,
Bu kunlar g‘animat, olam g‘animat,
Qadrlab yashaylik go‘zal hayotni —
Do‘stlarim, odamga odam g‘animat.

Boshga balo bo‘lar tilning ofati,
Unutmang, bitmaydi dil jarohati,
Tirigida bo‘lsin har kimning qadri,
Do‘stlarim, odamga odam g‘animat.

Baxt boylikda emas, insoniylikda,
Iymondan qimmatroq hech narsa yo‘q-da,
Shoshma, tirikchilik demagin, to‘xta,
Do‘stlarim, odamga odam g‘animat.

Mehribon, yaqinim sog‘indim sizni,
Oqibat rishtasi bog‘lasin bizni,
Mehr-muhabbatga buraylik yuzni,
Do‘stlarim, odamga odam g‘animat.

Yaxshilikdan bo‘lsin har qanday suhbat,
Boshingga balodir ig‘vo-yu tuhmat,
Diydorga to‘yaylik ne berar g‘iybat,
Do‘stlarim, odamga odam g‘animat.

Kimga omad chopib kerilib ketsa,
Boylikka mansabga berilib ketsa,
Ortidan ne qolar dunyodan o‘tsa,
Do‘stlarim, odamga odam g‘animat.

Bugun bizga nasib etibdi diydor,
Ertaga kimdir yo‘q, kimdir esa bor,
Ota-onangizni etmang intizor,
Do‘stlarim, odamga odam g‘animat.

●
M
E
N
I
N
G
●
Y
U
R
T
I
M

A
h
a
d
•
Q
A
Y
U
M
◎

Qalbini tushungin Ahad Qāyumning,
Yaxshilik bezaydi mening yo‘limni,
Farqin anglab oling hayot-o‘limning,
Do‘stlarim, odamga odam g‘animat.

Bu kunlar g‘animat, olam g‘animat,
Otam g‘animatdir, onam g‘animat,
Yaxshilik tilaylik bir-birimizga,
Do‘stlarim, odamga odam g‘animat.

ERTA-INDIN DEB YURAVERSANG

Erta-inding deb yuraversang,
Tugamaydi tashvishing bir on.
Eng baxtliman bugun men degin,
O‘zing uchun yashagin inson.

Erta-inding deb yuraversang,
Kim-kimlar yo‘q ertaga axir.
G‘animat bil har bitta damni,
Imkon bermas ertaga taqdir.

O‘zing uchun yashagin, inson.
Xabar olgin ota-onangdan,
Ko‘zingni yum, chuqur nafas ol,
Barcha g‘aming chiqsin taningdan.

Ibodot qil, Xudodan so‘ra,
O‘zing bilan qilaverma jang.
Umring tugab qoladi, Ahad,
Erta-inding deb yuraversang.



YIG'LAMASIN OJIZA AYOL

Buncha zebo, bu go'zal xilqat,
Ta'rifi yo'q, mo'jiza ayol,
Kaft uchida asraylik faqat,
Yig'lamasin ojiza ayol!

Sevgisini rashkka yo'ymangiz,
Diydoridan sevib to'ymangiz,
Uni aslo' yolg'iz qo'ymangiz,
Yig'lamasin ojiza ayol!

Tog'lar hayron ayol sabridan,
Mehr qaynar o'tli bag'ridan,
O'ksimasin nomard jabridan,
Yig'lamasin ojiza ayol!

Ayol borki, dunyo munavvar,
Ayol borki, bu hayot go'zal,
Ayol borki, go'zal she'r, g'azal,
Yig'lamasin ojiza ayol!

Gul umriga bo'lib tirgaklar,
Baxtdan zavqqa to'lsin yuraklar,
Hushyor bo'ling, aziz erkaklar,
Yig'lamasin ojiza ayol!

Ahad Qayum so'raydi sizdan,
Onasi bor har o'g'il-qizdan,
Baxtli yashab o'tsin har ayol,
Onajonlar oshsinlar yuzdan.
U singildir, u opa, u yor,
Yig'lamasin ojiza ayol!



A
h
a
d
•
Q
A
Y
U
M
◎

SHUNDAY AYOL EDI MENING VOLIDAM

Shunday ayol edi
Mening volidam,
Farzand uchun hatto
Jonin berardi,
Biror bir ishimni
Maslahat qilsam,
Otangdan so'ray-chi,
Bolam, der edi.

Onam borligi-da,
Tirikligida,
Hayot go'zal edi,
Yashash zo'r edi.
Ona, sog'ligingiz
Yaxshimi desam,
Otangdan so'ray-chi,
Bolam, der edi.

Otamning ishlari
Yurishmay qolsa,
Onam yig'lar edi,
Qiynalar edi,
Men qanday bolaman,
Onajon, desam,
Otangdan so'ray-chi,
Bolam, der edi.

Onamning birgina
Shu so'zlarida,
Butun bir tarbiya
Kitobi borday,
Yuragimga chizgan
Nur izlarida,
Onam xotirasi
Qalbinga yorday.

Esimda, bir kuni
Kasalxonada,
Onam yotar edi
Dardga qamalib,
Qo'linga bir g'ijim
Qog'oz berdilar,
O'kirib yubordim
Qog'ozni o'qib.

O'g'lim, mendan xafa
Emasmisizlar?
Maktubda shundayin
So'zlar bor edi.
Bizdan rozimisiz,
Onajon, desam,
Otangdan so'ray-chi,
Bolam, der edi.

Mening yo'limga zor
Jufti halolim,
Sening mehring bilan
Dardim ariydi.
Maslahat so'rasa
Bolalarimiz,
Otangdan so'raylik
Desang qaniydi.

Menga kerak emas
Sevgi izhori,
Yoki Parijdagi
Romantikalar,
Farzandiga har bir
O'zbek ayoli,
Otangni qadrla
Deb o'rgatsalar.

●
M
E
N
I
N
G
●
Y
U
R
T
I
M

A
h
a
d
•
Q
A
Y
U
M
◎

Shunday ayol edi:
Mening volidam,
Farzand uchun hatto
Jonin berardi,
Biror bir

Maslahat qilsam men agar,
Otangdan so'ray-chi,
Bolam, der edi.

Do'stlar, xafa bo'lmang
Ahad Qayumdan,
Og'ir botgan bo'lsa
Nasihatlarim,
Sizlarga so'zladim
Biroz dardimdan,
Meni tushunarsiz
Jigarbandlarim.

YAXSHILAR UMRI

Gulni uzsang bandidan, so'ldi degani emas,
Jon uzilsa yashab ham bo'ldi degani emas,
Goho yaxshilar umri qabrdan boshlangaydir,
Go'rga kirdi degani, o'ldi degani emas.

TOSH BO'LMASIN DILIDA

Qo'rqma agar tosh ko'rsang,
Dushmaningning qo'lida.
Ehtiyot bo'l ishqilib,
Tosh bo'lmasin dilida.

EY DO'ST

Tug' ilmoq, yashamoq har bir boshda bor,
Kimlarga omad yor, kimlar baxtga zor.
Kimningdir gul umri so'lganda bekor,
O'yla, bu umrning savdosin, ey do'st,
Tingla bu ko'ngilning sadosin, ey do'st.

Ey do'st, yaxshilikning umri uzoqdur,
Yomonning har bosgan izi tuzoqdur.
Yolg'onchilik nedur, oxiri chohdur,
Olg'in ota-onang duosin, ey do'st,
Xato yozma ko'ngil inshosin, ey do'st.

Baxtning ildizi bu sabr deganim,
Ey do'st, besabrlik jabr deganim.
Yaxshilik oxiri qadr deganim,
Tushun, zarhikmatlar ma'nosin, ey do'st,
Ko'tarma nodonlar g'avg'osin, ey do'st.

Sevgini rad etmoq gunohdir azal,
O'zga yurt Vatandan bo'lolmas afzal.
Eng avval dilxonang bezatgin go'zal,
Topgaysan har dardning da'vosin, ey do'st,
Qilmagin buyuklik da'vosin, ey do'st.

Atrofga boq, sendan pastroqlaram ko'p,
Dushmanlar ichida do'stroqlaram ko'p.
Gulzorlar ichinda tuzoqlaram ko'p,
Olarsan rohatlar jazosin, ey do'st,
Orttirma joningning jafosin, ey do'st.

Sen uchun Ahaddan sharhi nasihat,
Bir yaxshi, bir kuni yomon vaziyat.
Bir kuni chekmayin desang aziyat,
Tanigin olamlar podshosin, ey do'st,
Qilmagin gumrohlar xatosin, ey do'st.

◎

M

E

N

I

N

G

●

Y

U

R

T

I

M

SINISHIMNI SOG'INDI KIMLAR

A

h

a

d

•

Q

A

Y

U

M

◎

Kulishimni sog'indi kimlar,
So'lishimni sog'indi kimlar.
Yonishimni kutganlar ham bor,
Sinishimni sog'indi kimlar...
Do'stingman deb choh qazdilar, oh,
Men u chohga sig'madim biroq.
Goho ayol makriga uchdim,
Goh ko'ngilning og'usin ichdim...

Do'sti jonim, jondan azizsan,
Oqibatning zanjirin tuzsan.
Yuragimga ursalar xanjar,
Yonimda tur qiyomatgacha.
Egik boshim sog'indi kimlar,
Ko'zda yoshim sog'indi kimlar.
O'lishimni kutganlar ham bor,
Tinishimni sog'indi kimlar.

Ingrayverar ichimda yurak,
Yig'layverar ne qilmoq kerak.
Aka-uka, qarindoshdan goh,
Begonalar keladi mardoq.

O, sevgilim xiyonatlaring,
Qalbim yirtar jinoyatlaring.
Eh, zerikdim yolg'onlardan men,
Charchab ketdim yomonlardan men...
Yurak og'rir, mozorim imlar,
O'lsam ko'zim bosganda qumlar.
Sevishimni kutganlaram bor,
Sovishimni sog'indi kimlar.

Foniy dunyo havasidan kech,
Yolg'onlarning hammasidan kech.
Pul, ayollar, ko'ngilxushliklar
Tiriklayin go'ringga tiqar.

Erkakman deb ko'krak kerganlar,
Qilmishlari ayoldan battar...
Pok nomimni qorib g'iybatga,
Savlatimni ko'rolmadilar.

Hayot, otam bag'rini yashnat,
Onajonim ko'zyoshlarin art.
Iflos, dushman hasadchilardan,
Qachon butkul qutulaman, ayt.
Oldindadir hali chin-hazil,
Oldindadir hali yo'l-manzil.
Aytishimni kutganlar ham bor,
Qaytishimni sog'indi kimlar...
G'amlar ko'rsa murg'ak yelkamda,
Ota-onam siqiladi-da.
Ba'zilarga o'xshab sotilib,
Kechmaganman ona Vatandan...

Buxorodan ketib Toshkentga
Naf teksin deb ona elimga.
AHAD QAYUM ijod yo'lida,
Yaxshi niyat tukkan diliga.
O'lishimni kutganlaram bor,
Tinishimni sog'indi kimlar,
Ko'nishimni sog'indi kimlar,
Sinishimni sog'indi kimlar...

Navoiyning dilxonasidan,
Umar Xayyom mayxonasidan.
Hofiz elim taronasidan,
Muhabbatning gulxonasidan.
Ijodxona koshonasidan,
Adabiyot ostonasidan.
Ketishimni kutganlaram bor,
Kelishimni sog'indi kimlar.
Kulishimni sog'indi kimlar,
So'lishimni sog'indi kimlar...

◎

M

E

N

I

N

G

●

Y

U

R

T

I

M

A **AZIZLARIM, DIYDORINGIZ G'ANIMAT**

h
a
d
•
Kimga aytay yurakdagi dardimni,
Sizdan boshqa kim ham bilar qadrimni,
Poyingizga to'kay sog'inchlarimni,
Bugun yonimdasiz shu ham bir ne'mat,
Azizlarim, diydoringiz g'animat.

Q
A
Y
U
Yaqinlarim, diydoringiz g'animat,
Boshimga ish tushsa kelgan yonimga,
Qoningiz tutashdir tomir qonimga,
Yuraginga madad, jonsiz jonimga,
Shu qaynoq mehringiz men uchun himmat,

M
•
Meni o'ylab tunlar orom bilmagan,
Bolam deya, ne kunlarni ko'rmagan,
Olamga yaxshilik sochib tinmagan,
Onajonim, diydoringiz g'animat,
Otajonim, diydoringiz g'animat.

Goho dilga dunyo tordek sig'madi,
Menga qarab jon talashib yig'ladi,
Garchi bugun yana omad yo'qladi,
Sening har nafasing jonimdan qimmat,
Suyukligim, diydoringiz g'animat.

Yahshiliklar muhabbatdan tug'ilsin,
Hasadgo'ylar boshi endi egilsin,
Nolalarim yurak toringiz chertsin,
Doim nomim yorug' aylangiz faqat,
Farzandlarim, diydoringiz g'animat.

Ahadning so'zlarin olib nasihat,
Biroz hasrat to'ksa beringiz ruxsat,
Savobdir yahshilik haqdagi suhbat,
Olgan nafasimiz ekan omonat,
Bu kunlarim, diydoringiz g'animat.

EY INSON, KO'ZINGNI OCH...

Bir tomonda yaxshilik,
Bir tomonda yomonlik,
Bir tomonda haqiqat,
Bir tomonda tubanlik,
Bir tomonda xudbinlik,
Bir tomonda manmanlik,
Ey inson, ko'zingni och,
Boshdan emasdir bu bosh,
Ey inson, ko'zingni och,
Boshingga urilmay tosh!

Bilib qo'y yorug'likdan
Zulmatgacha bir qadam,
Omadni qo'ldan bersang,
Kulfatgacha bir qadam,
Muhabbating sotsalar
Nafratgacha bir qadam,
Ey inson, ko'zingni och,
Baxting bo'lmayin talosh,
Ey inson, ko'zingni och,
Boshingga urilmay tosh!

Orttiray deb mol-davlat,
Boshingga orttirma dard,
Ota-onang g'animat,
Ketib qolmayin fursat,
Akangga qil oqibat,
Ukangga qil, oqibat,
Yaxshilik qil, yaxshilik,
Dunyoga mehringni soch,
Ey inson, ko'zingni och,
Boshingga urilmay tosh!

●

M

E

N

I

N

G

●

Y

U

R

T

I

M

A Omad kelsa shukr qil,
h Kulfat eshik qoqmasdan,
a Yorug'likdan bahra ol,
d Zulmat eshik qoqmasdan,
Ming kitob o'qisang-u

• Ma'nosini uqmasdan,
Q Bir ustoz etagin tut,
A Otaday mehri quyosh,
Y Ey inson, ko'zingni och,
Boshingga urilmay tosh!

U Quzg'unlarga yem bo'lgay,
M Qanoti sinsa burgut,
☉ Toshdan battar xor bo'lgay
Zargar bo'lmasa yoqut,
Go'r qazma sen o'zingga,
O'zinga yasab tobut,
Ey inson, ko'zingni och,
Yolg'oning bo'lmayin fosh,
Ey inson, ko'zingni och,
Boshingga urilmay tosh!

Hayot ko'hna imorat,
Kurashmoqdan iborat,
Bir tomonda diyonat,
Bir tomonda xiyonat,
Bir tomonda adolat,
Bir tomonda razolat,
Kim o'g'ri-yu, kim to'g'ri,
Kim baland yoki kim past,
Ey inson, ko'zingni och,
Ko'zingga to'lmayin yosh,
Ey inson, ko'zingni och,
Boshingga urilmay tosh!
Unutmagin donolar
So'zin bilib aytadi,

Birovga ozor berma,
Farzandingga qaytadi,
Ehtiyot bo'1, dushmaning
Xatolarining kutadi,
Ey inson, ko'zingni och,
Yomon xayollardan qoch,
Ey inson, ko'zingni och,
Boshingga urilmay tosh!

Bu to'rt kunlik dunyoda,
Bir boshda bor bir o'lim,
Ming shukr, taqdirimdan
To'ladir mening ko'nglim,
Shukr qilib yashashni
So'raydi Ahad Qayum,
Ey inson, ko'zingni och,
Ketib qolmasin quvonch,
Ey inson, ko'zingni och,
Boshingga urilmay tosh.

Bir tomonda yaxshilik,
Bir tomonda yomonlik,
Bir tomonda haqiqat,
Bir tomonda tubanlik,
Bir tomonda xudbinlik,
Bir tomonda manmanlik,
Ey inson, ko'zingni och,
Toshdan emasdir bu bosh,
Ey inson, ko'zingni och,
Boshingga urilmay tosh!



M

E

N

I

N

G



Y

U

R

T

I

M

ONAMGA XAT

A

h

a

d

•

Q

A

Y

U

M

◎

Bu hayotning loy ko'chalari,
Oyog'imni toyirdi, ona.

Buxoroga ko'p borolmayman,

Toshkent bizni ayirdi, ona!

Yil sanaydi bechora otam,

Qachon sizni baxtli qilaman,

Toshkentlarda ijod qilsam ham,

Buxoroni yaxshi ko'raman!

Nima qilay, Vatanim uchun,

Bir fidokor jangchi bo'lay deb,

Ko'rsatsin deb qurolning kuchin,

Tig'dan o'tkir she'rlarim yozib.

Xotinining bag'rida pisib,

Yotadigan mudroqlar emas,

Vatan uchun ko'ksini tutib,

Fidokorlar kerak unga bas.

Sog'inasiz, yig'laysiz kel deb,

Ijod mendan ustunmi deysiz,

Xatlar yozib shaharga har kun,

Qaytib bergin o'g'limni deysiz...

Mening bitta qurbonim bilan,

O'zbekiston yana gullasa,

Rozi bo'ling, onajon, mendan,

Xalqim meni dildan qo'llasa.

Mehnatkash el dardini yozib,

O'g'lingman deb yozarman yona,

Endi faqat sizning farzandmas,

Butun yurtning o'g'liman, ona.

Yil sanaydi bechora otam,

Qachon sizni baxtli qilaman,

Toshkentlarda ijod qilsam ham,

Buxoroni yaxshi ko'raman!

QARIYALAR UYI

Qariyalar uyi jonli teatr,
Fojiali kitob, eng dardli kino,
Qariyalar uyi — murdasiz qabr,
Baxt so'zi begona sovuq bir bino...

Ko'zlarda qadrning mungli maktubi,
Tarbiya alamdan uraverar do'q,
Qariyalar uyi, umidsiz sabr,
DUNYO — har insonning uvolidan qo'rq.

Nogironga yordam bera olmaysan,
Na iloj, Ollohim shunday yaratgan,
Yetimning-ku boshin asta silaysan,
Ammo ularni-chi, hayot qarg'atgan!

Ayb yo'qdir ularning farzandlarida,
O'zlari shunaqa tarbiya bergan,
Kimning manfaati bo'lsa qo'l cho'zib,
Savobdan foyda yo'q deya o'rgatgan.

Mabodo adashgan bo'lsam ming uzr,
Otalar, onalar, keksa nigohlar,
Arpa ekib bug'doy o'rmagan hech kim,
Har balo o'zingiz o'rgatgan hunar...

Ularning jazosi ne dersiz balki,
Achchiqni kesadi achchiq haqiqat,
Oqqadarning o'g'li oqqadar bo'lgay,
Unga ham farzandi qaytargay albat.

Qariyalar uyi jonli teatr,
Fojiali kitob, eng dardli kino,
Qariyalar uyi — murdasiz qabr,
Baxt so'zi begona sovuq bir bino...

●

M

E

N

I

N

G

●

Y

U

R

T

I

M

BARIBIR BOSHQACHA RADIO TINGLASH

A

h

a

d

•

Q

A

Y

U

M

•

Yarim tun, ko'nglimga dunyo sig'maydi,
Xayollar suraman ishlarim tingach,
Eski xotiralar qalbim qo'msaydi,
Baribir boshqacha radio tinglash!

Shunday rivojlangan yangi asrda,
Kimdir der yangilik haqda gapir-da,
Menga esa yoqar yurakni anglash,
Baribir boshqacha radio tinglash!

Mumtoz qo'shiqlardan g'azallargacha,
Tinglagum badiiy asarlargacha,
She'rmi, qo'shiqmi yo masallargacha,
Baribir boshqacha radio tinglash!

Televizor, internet, hammasi bo'lak,
Menga asabimning tinchligi kerak,
Agar sokinlikni istasa yurak,
Baribir boshqacha radio tinglash!

Kimdir der zamon tez, oqibat chalkash,
Tarbiya yo'llari ayqash-u uyqash,
Yotvolib kitoblar o'qish boshqa-yu.
Baribir boshqacha radio tinglash!

Ahad Qayum yashar to'lqinlar ichra,
Bo'lar-bo'lmas gapdan qulog'i charchab,
Dunyo g'avg'olarin bir zumga tashlab,
Baribir boshqacha radio tinglash!

Yarim tun, ko'nglimga dunyo sig'maydi,
Xayollar suraman ishlarim tingach,
Eski xotiralar qalbim qo'msaydi,
Baribir boshqacha radio tinglash!

MEN VATANGA NIMA BERDIM DEB YASHANG

Yurtni balandparvoz
Soʻzlar bilanmas,
Beminnat, xokisor
Soʻz bilan boshlang,
Ustozlar oʻgiti
Ulugʻ hikmatdars,
Har tongda Vatan deb
Siz qadam tashlang,
Vatan menga nima
Berdi deb emas,
Men Vatanga nima
Berdim deb yashang.

Tuproqni toptamay
Bir gʻayur nokas,
Buyuk ostonaga
Jonigiz toʻshang, ●
Ey doʻstlar, yurt nomin M
Koʻtaraylik bas, I
Ajdodlar ismiga E
Munosib yashang, N
Vatan menga nima I
Berdi deb emas, N
Men Vatanga nima G
Berdim deb yashang. ●

Har kuni Vatan deb ●
Oling siz nafas, Y
Ozod bayrogʻini U
Balandroq ushlang, R
Butun dunyo qilsin T
Bizlarga havas, I
Choʻqqilar zabt eting, I
Dovonlar oshing. M

A
h
a

Vatan menga nima
Berdi deb emas,
Men Vatanga nima
Berdim deb yashang.

d

•

Q

A

Y

U

M

◎

Ozod O'zbekiston,
O'zbekim uchun,
Obod O'zbekiston,
Hur elim uchun,
Mustaqillik, birlik
Shu yurtim uchun,
Faxrim, iftixorim,
G'ururim uchun,
Kulsangiz Vatanning
Baxtidan kuling,
Yig'lasangiz Vatan
Baxti deb yig'lang,
Vatan menga nima
Berdi deb emas,
Men Vatanga nima
Berdim deb yashang.

Shoirmi, hofizmi
Yoki bastakor,
Qarang har sohada
Xalqim baxtiyor,
Elning baxtini yoz,
Ey Ahad Qayum,
Yurt deb yashamoqni
Qilgin ixtiyor,
Gulbo'ston, shunday nur
O'ragan maskan,
Shodlikka cho'miling,
Qalbingiz xushlang,
Vatan menga nima
Berdi deb emas,
Men Vatanga nima
Berdim deb yashang.

OTA-ONANG ROZI QIL AVVAL

Ey farzand, o'yla mukammal,
Eskirmas bu hikmati azal,
Do'st-u yoring tanishdan oldin,
Ota-onang rozi qil avval!

Otda yursang yo'ldan qoch dema,
Ota-onam hali yosh dema,
Duosin ol, fursatni berma,
Ota-onang rozi qil avval!

Orzu-havas boylik yo mansab,
Bo'lgan kuning barini to'plab,
Oxiri sen ketarsan tashlab,
Qolarsan-ku ulardan ajrab,
Butun umr kaftingda asrab,
Ota-onang rozi qil avval!

Oxir yig'lab qolmagin yana,
Pushaymonlar vayronasida,
Oqibatning ostonasida,
Ota-onang rozi qil avval!

Sotqin do'stga qo'lingni berma,
Ayyor ko'zga dilingni berma,
Chaqirganda aslo kuttirma,
Ota-onang rozi qil avval!

Ulg'aytirgan seni u bedor,
Goh quvonchda, gohida bemor,
Dunyoni qo'y, bor, yoniga bor,
Ota-onang rozi qil avval!

Ahad Qayum nasihat so'zi,
Derlar dunyo besh kunlik o'zi,
Yig'lmasin ularning ko'zi,
Ota-onang rozi qil avval!

◎

M

E

N

I

N

G

●

Y

U

R

T

I

M

A

BAXTI BORLAR SHUKRLI BO‘LSIN

h

Bu dunyo o‘tkinchi, bu dunyo bir kam,
Kimnidir baxt yo‘qlar, kimni esa g‘am,
Kim hayotdan shodon, kimning ko‘zi nam,
Baxti borlar shukurli bo‘lsin,
Dardi borlar sabrli bo‘lsin.

a

d

•

Q

A

Y

U

M

⊙

Kim baland cho‘qqini pastga almashar,
Tilladay baxtini xasga almashar,
Dushmanni bir sodiq do‘stga almashar,
Baxti borlar shukurli bo‘lsin,
Dardi borlar sabrli bo‘lsin.

Yo‘qchilikda burda nonni qadr etib,
Tuz ham totmay, qaro kunga sabr etib,
Omad kelsa, yaqinlarga jabr etib,
Baxti borlar shukurli bo‘lsin,
Dardi borlar sabrli bo‘lsin.

Noshukrlik boshga bir kun ofat solar,
Noshukrlik el ichra oh, rasvo qilar,
Noshukrlik shaytoniylik paydo qilar,
Baxti borlar shukurli bo‘lsin,
Dardi borlar sabrli bo‘lsin.

Ash‘or bitib, Ahad, ayt neni izlar,
Faqat yaxshilikni u sizga ko‘zlar,
To‘g‘ri yo‘ldan adashmaylik aslo, do‘stlar,
Baxti borlar shukurli bo‘lsin,
Dardi borlar sabrli bo‘lsin.

Bu dunyo o‘tkinchi, bu dunyo bir kam,
Kimnidir baxt yo‘qlar, kimni esa g‘am,
Kim hayotdan shodon, kimning ko‘zi nam,
Baxti borlar shukurli bo‘lsin,
Dardi borlar sabrli bo‘lsin.

VATAN

Duo olib qilsak
Elning xizmatin,
To jonimiz tirik
Ekan shu tanda.
Esga olib ajdodlarning
Hikmatin,
Vatan qurmoq kerak
Shunday Vatanda!

Yaxshilar nomini
Biz yod etaylik,
Elni chorlab, yurtni
Obod etaylik,
Yana yakdil xalqni
Bunyod etaylik,
Vatan qurmoq kerak
Shunday Vatanda!

Baxting kulib bo'y
Qo'shilsin bo'yingga,
Olloh o'zi nazar
Qilsin uyingga,
Ko'zlaring yashnasin
Bayram, to'yingda,
Vatan qurmoq kerak
Shunday Vatanda!

Umr kitobida
Sahifamiz ko'p,
Sinovlarga to'la
Daqiqamiz ko'p,
Hali yurt oldida
Vazifamiz ko'p,
Vatan qurmoq kerak
Shunday Vatanda!

●

M

E

N

I

N

G

●

Y

U

R

T

I

M

A
h
a
d

Mana shu el deylik
Mening bisotim,
Toza o'tgan deylik
Yetti avlodim,
Ming yilga arzisiz

•

Har bitta odim,
Vatan qurmoq kerak
Shunday Vatanda!

Q
A
Y
U
M

Xalqim kelajagi
Yuksalib borar,
Yorug' manzillari
Sari intilar,
Do'stlar erta uchun
Nimamiz qolar,
Vatan qurmoq kerak
Shunday Vatanda!

Shu zaminda ravon
Bo'lsin yo'limiz,
Yulduzlarga yetsin
Cho'zsak qo'limiz,
Omon bo'lsin
Mehmondo'st shu elimiz,
Vatan qurmoq kerak
Shunday Vatanda!

Har kim ham o'z
Ertasini o'ylagay,
So'ylaganda
Dilidagin so'ylagay,
Xalqim degan inson
Yashar, o'lmagay,
Vatan qurmoq kerak
Shunday Vatanda!

Ey Ahad, ijoding
Imkoningdadir,
To'g'ri yo'lda yurmoq
Vijdoningdadir,
Vatan uchun yashash
Iymoningdadir,
Vatan qurmoq kerak
Shunday Vatanda!

Duo olib qilsak
Elning xizmatin,
To jonimiz tirik
Ekan shu tanda.
Esga olib ajdodlarning
Hikmatin,
Vatan qurmoq kerak
Shunday Vatanda!

QUDRAT VA ZULMAT

Kulfatga eltguvchi
Yo'l ekan lazzat,
Omadga eltguvchi
Yo'l ekan kulfat,
Chorasizlik – chora,
Goh baxtsizlik – baxt,
Qudratga eltguvchi
Yo'l ekan zulmat!



◎

M

E

N

I

N

G

●

Y

U

R

T

I

M

A

h

a

d

BAYRAM TABRIGI

Qutlug' ayyom arafasida,
Baxtu quvonch mushtarak bo'lsin,
Yangi kunning bir mujdasida,
Bayramingiz muborak bo'lsin!

Q

A

Y

U

M

●

Dil so'zlarim qabul et, yurtim,
Niyatingga mudom yet, yurtim,
Sinovlardan omon o't, yurtim,
Bayramingiz muborak bo'lsin!

Boshga tole, baxt qushi qo'nsin,
Yosh avlodlar ulg'aysin, unsin,
Yaxshilarning omadi kulsin,
Bayramingiz muborak bo'lsin!

Dardu g'amdan yiroq yuringiz,
Tinch, osuda davron suringiz,
Xushnud damning ko'pin ko'ringiz,
Bayramingiz muborak bo'lsin!

Bu kun sizga tilak tiladim,
Yashab tolmas yurak tiladim,
Tabrigimni dildan yo'lladim,
Bayramingiz muborak bo'lsin!

UMR

Umr — charxpalak,
Yurak — g'ildirak,
Ko'ngil — jabrko'l,
Mehr — bir chelak...

Umr — charxpalak,
Yashamoq kerak.
Yo'qotmoq asli
Topmoqdan darak...

QADAMLAR HIKMATI

Xolis hukm sari bu umr karvon,
Qalbim nigohlari olisni ko'zlar.
Ko'zlarim umidda, yo'llarim ravon,
Qadamlar hikmatin o'ylayman, do'stlar.

Yig'ladim, oqibat ostonasida,
Kirolmay, muhabbat koshonasiga,
Sonsiz gunohlarning vayronasida,
Qadamlar hikmatin o'ylayman, do'stlar.

Bu dunyoda har kim bir yo'l izlaydi,
Kimdir pul, kimlardir ko'ngil izlaydi,
Kimdir g'amnok, kimdir baxtdan so'zlaydi,
Qadamlar hikmatin o'ylayman, do'stlar.

Yovga insof tilab, do'stga yarasam,
Haqdan yangi kunga mazmun so'rasam,
Dilimda ming afsus ortga qarasam,
Qadamlar hikmatin o'ylayman, do'stlar.

Qay bir qadam menga omad keltirdi,
Qay bir qadam menga kulfat keltirdi,
Goh oldimda minglab yolg'on yo'l turdi,
Qadamlar hikmatin o'ylayman, do'stlar.

Ko'zguga tikilib, ko'zinga boqsam,
O'zimni izlayman, o'zinga boqsam,
Nahot shu men deyman izingga boqsam,
Qadamlar hikmatin o'ylayman, do'stlar.

Yurak amri bilan aql chalkashdi,
Oyoq esa arosatda adashdi,
Kim molim, kim jonimga ko'z qadashdi,
Qadamlar hikmatin o'ylayman, do'stlar.

●

M

E

N

I

N

G

●

Y

U

R

T

I

M

A
h
a
d
•
Q
A
Y
U
M
●

Vatanda azizdur, har bir qarich yer,
Kimdir shu tuproqdan harom-harish yer,
Hali manzilgacha bordir qancha yo'l,
Qadamlar hikmatin o'ylayman, do'stlar.

**AYTING-CHI,
ERTAGA BIZDAN NE QOLAR**

Dunyoga bir marta keladi odam,
Bir marta yashaydi, bir marta o'lar.
Do'stlarim, bir savol so'rasam sizdan,
Ayting-chi, ertaga bizdan ne qolar?

Kimlardir bir umr mol-dunyo yig'sa,
Kimdir shon-shuhrati bilan maqtanar.
Havoyilik bilan umrimiz o'tsa,
Ayting-chi, ertaga bizdan ne qolar?

Unutma, ey do'stim, unutma, g'anim,
Inson bu dunyoga bir marta kelar.
Fursatim g'animat, bezovta ko'nglim,
Ayting-chi, ertaga bizdan ne qolar?

Tarix beshafqatdir, dunyo va'daboz,
Yolg'onlar kulingni ko'kka sovurar.
Tunlari yulduzga boqgum beovoz,
Ayting-chi, ertaga bizdan ne qolar?

Sevgilim, yuragim qo'lingda bugun,
Meni qo'yvor deya senga yolvorar.
Qalbidamda ochilmay yotar bir tugun,
Ayting-chi, ertaga bizdan ne qolar?

Tushlarim aylanib borar rostiga,
Ba'zida hayot ham tushdek tuyular.
Biz dardlar orttirsak dardlar ustiga,
Ayting-chi, ertaga bizdan ne qolar?

CHAQALOQLAR BO'SHATMASIN BESHIGINGNI

Derlarki ostonadan boshlanar Vatan,
Jaranglasa tulporlarning tuyoqlari.
Vatan ne deb so'rasangiz, do'stlar, mendan,
Mendan avval tilga kirar tuproqlarim.
Ostonasi tillo bo'lsin eshigingni,
Chaqaloqlar bo'shatmasin beshigingni.

Gulni eksang unsa hamki gultuvakda,
Ildizlari toshni teshib qayga borar.
Ming asrni ildizlagan bu yurakda,
Har oqshomda dunyo kelib dilin yorar.
Eskirtirmas Alpomishning qo'shig'ini,
Chaqaloqlar bo'shatmasin beshigingni.

Bayroqlar ham tikilgaydir bir matodan,
Ma'nolari jilolamish ranglarini.
Yurtni asrab ofatlardan bir balodan,
Kimlar senga ustun bo'ldi angladingmi?
Shuni o'ylab boshingni bir qashidingmi,
Chaqaloqlar bo'shatmasin beshigingni.

Yetti o'lka kezdirsa ham tirikchilik,
Tilamchi ham Olloh bergan rizqni topar.
O'zbekimizda qonda oqar o'zbekchilik,
Kimligimiz unutmaylik, ey birodar.
Bolalaring talashganda qoshig'ingni,
Chaqaloqlar bo'shatmasin beshigingni.

Derlarki ostonadan boshlanar Vatan,
Jaranglasa tulporlarning tuyoqlari.
Vatan ne deb so'rasangiz, do'stlar, mendan,
Mendan avval tilga kirar tuproqlarim.
Ostonasi tillo bo'lsin eshigingni,
Chaqaloqlar bo'shatmasin beshigingni.

⊙

M

E

N

I

N

G

●

Y

U

R

T

I

M

A BAHORNI KUTAMAN

h Yo'qotsam ko'ngildan madorni,
a Yo'qotsa tanu jon qarorni,
d Maysa kabi qorning ostidan
● Bahorni kutaman, bahorni.

Q Ko'nglimga sig'masa muhabbat,
A Yurakda qolmasa bir toqat,
Y Atirguldand tutgali savat,
U Bahorni kutaman, bahorni.

M Qalxim ezsa hasratlar yuki,
Armonlardan charchasam yoki,
● Bahorning o'zida, hattoki,
Bahorni kutaman, bahorni.

Kirgali ilhomning qasriga,
Qaytganda bu dunyo asliga,
Yashash-chun, yoshlikning fasliga,
Bahorni kutaman, bahorni.

Ko'nglimni chog' etgan dildordek,
Kipriklarim hatto xumordek,
Ba'zida visoldek, diydordek,
Bahorni kutaman, bahorni.

Yo'qotsam, ko'ngildan madorni,
Yo'qotsa, tanu jon qarorni,
Maysa kabi qorning ostidan
Bahorni kutaman, bahorni.



YIGIT BO'LSIN

Rustamga

Vatan desa o't chaqnasin yuragidan,
Kattalardan olgan darsi o'git bo'lsin.
Gullar unsin cho'lda zarbi bilagidan,
Shu yurt uchun joni qalqon yigit bo'lsin.

Otasiga o'xshab ketar qarashlari,
Bobosining xuddi o'zi yurishlari,
Kattalardek xayol surib turishlari,
Sirti oddiy, asli purdon yigit bo'lsin.

Derlar bola bilinadi yoshligidan,
Onasi ko'p nolimasin sho'xligidan,
Kelin qilsa qizlarning eng ko'hligidan,
Bosiqligi elda doston yigit bo'lsin.

Asl yigit, yaxshilikka kamar bog'lar
Manmanlarning to'dasidan qochar bo'lar.
Haq so'zini isbotlaydi, o'jar bo'lar,
Shijoati dilda pinhon yigit bo'lsin,

O'zbek degan elni tanib bildi jahon,
Miyig'ida kulganlarni etib hayron.
Yelkasida qanot bo'lsin halol vijdon,
Bel bog'lasa kutar maydon yigit bo'lsin.

Kim bo'lsa ham o'rni bo'lsin el safida,
Niyat qildik, mayli, polvon yigit bo'lsin,
Odam bo'lsin bo'lganda ham eng kamida,
Shuhrati Rustami doston yigit bo'lsin.

Vatan desa o't chaqnasin yuragidan,
Kattalardan olgan darsi o'git bo'lsin.
Gullar unsin cho'lda zarbi bilagidan,
Shu yurt uchun joni qalqon yigit bo'lsin.

●

M

E

N

I

N

G

●

Y

U

R

T

I

M

A
h
a
d
•
Q
A
Y
U
M
●

BARCHINOYNING RO‘MOLI QANI

Bugun qizlar sochin o‘rmaydi,
Er yigitlar kurash bilmaydi,
—So‘rashga ham tilim bormaydi,-----
Alpomishning belbog‘i qani?
Barchinoyning ro‘moli qani?

Qizlar kiymas atlas ko‘ylaklar,
Qayga ketdi arslon bilaklar,
Shahar kezib kuyar yuraklar,
Alpomishning belbog‘i qani?
Barchinoyning ro‘moli qani?

Bir yonim rus, bir yon Yevropa,
Shamoldek tez chopar bu moda,
O‘y suraman g‘amimga bota,
Alpomishning belbog‘i qani?
Barchinoyning ro‘moli qani?

Yo‘qni ko‘rib, yo‘q-da desangiz,
To‘qni ko‘rib to‘q-da desangiz,
Qorani ham oq-da desangiz,
Alpomishning belbog‘i qani?
Barchinoyning ro‘moli qani?

Kumushbibi hayosin izlab,
Otabeklar yuribdi yig‘lab,
Ahad Qayum qolmoqda so‘rab,
Alpomishning belbog‘i qani?
Barchinoyning ro‘moli qani?



TARIXDA

(Jamol Kamol g'azaliga muxammas)

Elim, sahroga aylangan dengizlar ozmu tarixda?
 Elim, suvsiz chirib yotgan ildizlar ozmu tarixda?
 Elim, aytmogqa armoning afsuslar ozmu tarixda?
 Elim, qatlingga qasd etgan yovuzlar ozmu tarixda?
 Ilondek sudralib yotgan josuslar ozmu tarixda?

Ammo sen ketmading idrab,
 joyingda yotmading mudrab,
 Qo'liga osh-u non berding,
 birovlar kelsa suv so'rab,
 Shuncha asr yashading-u
 qolmading qo'llarga qarab,
 G'animlar keldilar tig'
 o'qtalib yo zambarak sudrab,
 Qutayba, Fon Kaufman,
 Kaykovuslar ozmu tarixda?

Bugun og'iz juftladimmi
 tarixingdan so'z ochmakka,
 Bugun yolg'on zanjirlarin
 fursati yetti yechmakka,
 Sen nishon bo'lding mudom-u
 begona qahrin sochmakka,
 Kelishdi barchasi noningni yeb,
 qoningni ichmakka,
 Nahanglar, ajdaholar,
 yalmog'izlar ozmu tarixda?

Aslida ilm-u ma'rifat
 osmonida narvon bo'lding,
 Yelkangga olib bor yukin,
 karvon bo'lding, sarbon bo'lding,
 Qornini to'yg'azib so'ngra,
 o'zing ojiz yomon bo'lding,
 Talon bo'lding, elim,
 zanjirga tushding notavon bo'lding,
 Diyonatga tupurgan shum
 dayuslar ozmu tarixda?

Ⓢ
 M
 E
 N
 I
 N
 G
 ●
 Y
 U
 R
 T
 I
 M

A Yuragimning tub-tubida,
 h qandaydir tikonlar sanchar,
 a Yuragimni qandaydir dard,
 d qayg'u-yu alamlar yanchar,
 • Ichingdagi dushmanlaring
 bo'g'zingga nish urdi qancha,
 O'zingdan chiqqaning ham
 Q goh o'zingga sirmadi xanjar,
 A Munofiq tug'ilar, zog'lar,
 Y tovuslar ozmu tarixda?
 U
 U Zahar bo'ldi ichar suving,
 M og'uga to'ldi-ku oshing,
 Go'rdam ham tik yotding goho,
 • kimga kerak bo'ldi loshing,
 Yomg'irdan tinmadi bahor,
 qahratonda qoldi qishing,
 Yomonlar egdilar boshing,
 g'animlar to'kdilar yoshing,
 Surib, surguncha xaydoshlar
 hibslar ozmu tarixda?

 Yolg'ondan foyda yo'qdurkim,
 buni aytding, buni bilding,
 Yetti iqlim ziyo oldi,
 savod berib odam qilding,
 Tuzlug'ingga tupurdilar,
 oh, o'zing isnodda qilding,
 Fig'on qilding, edim qullikka qarshi,
 qo'zg'alon qilding,
 Olovli yillaringdan o'tli izlar ozmu tarixda?

 Yarim joning bo'lsin omon,
 yarim ko'ngling bo'lsin omon,
 Shoirlaring so'zin eshit,
 elim, uyg'on, elim, uyg'on,
 Fursatni boy berma aslo,
 qo'lingda bo'lganda imkon,

Kurashga yo'lladi iymon,
kurashda qo'lladi iymon,
Kurashchi mard yigit,
mardona qizlar ozmu tarixda?

Oftobni ko'rsin bahorlar,
bahorni ko'rsin-u qishlar,
Bahorni ko'rganda qishlar,
g'animlarning tilin tishlar,
Qo'lidan ne kelsa qildi,
yelkangdan tushsin deb toshlar,
Bugun qasringga dushmanlar
zavodlardan zahar yo'llar,
Zaharni chora bilgan
chorasizlar ozmu tarixda?

Bekorga ota-onang,
bolangning yoshin to'ktirma,
Ey Ahad, sen xatolarni xato
yo'sinda uqtirma,
Kerak, nokerak yumushga,
dilni gulxanda yoqtirma,
Aziz noming omon bo'lsin,
elim, ko'nglingni cho'ktirma,
Seni deb jonidan kechgan
azizlar ozmu tarixda?

AJDODLARNING SHIDDATI

Ajdodlarning shiddatli
Qadamlari zarbidan.
Shahd o'sib boraverar
Avlodlarning qalbida.

●

M

E

N

I

N

G

●

Y

U

R

T

I

M

A

h

a

d

•

Q

A

Y

U

M

•

QO'SHIQ

Yurak ohim, dilxohim qo'shiq,
Dil sirimdan ogohim qo'shiq,
Yukingali dargohim qo'shiq,
Bolalikdan hamrohlim qo'shiq.

Ich-ichimda nedir yonsa ham,
Do'st-u yorning mehri tinsa ham,
Suygan gulim mendan tonsa ham
Bolalikdan hamrohlim qo'shiq.

Dil o'zicha tanlaydi ma'shuq,
Kim bulbulga, kim gulga oshiq,
Yolg'izlikda dardlarim ichgan,
Bolalikdan hamrohlim qo'shiq.

Qo'shiq deb nelardan kechmadim
Ming shukr bir yonib o'chmadim,
Yolg'on xayollarga uchmadim,
Bolalikdan hamrohlim qo'shiq.

Aytar so'zim sizga, azizim,
Ochiq ekan shu ikki ko'zim,
Osmonimda yongan yulduzim,
Bolalikdan hamrohlim qo'shiq.

Ishq mayidan sarxushman, mastm....,
Kimga armon, kimga havasman,
Ozod yurtda ozod nafasman,
Bolalikdan hamrohlim qo'shiq.



KATTA BO‘LSANG

Akbar Aliga

Katta bo‘lsang kim bo‘lasan, bilib ol,
Uchuvchi, quruvchi yo o‘qituvchi.
Undan avval sen yaxshilab bilim ol,
Undan avval bo‘lgin yaxshi o‘quvchi.

Katta bo‘lsang kim bo‘lasan, o‘ylab ol,
Shifokormi, fidokormi, ijodkor.
So‘zlarimni sen miyangga joylab ol,
Undan avval bo‘lgin yaxshi o‘quvchi.

Katta bo‘lsang kim bo‘lasan bir savol,
Rassommi, shoirmi, yoki bastakor.
San‘atkormi, aktor yo rejissor,
Undan avval bo‘lgin yaxshi o‘quvchi.

Balki senga sport yoqar, ayta qol,
Basketbolmi, tennismi yoki futbol,
Undan avval hamma fanni uqib ol,
Undan avval bo‘lgin yaxshi o‘quvchi.

Katta bo‘lish qochib ketmaydi sira,
Cho‘qqilar oldinda kutmoqda, qara,
Erta senikidir, eng oldin marra,
Undan avval bo‘lgin yaxshi o‘quvchi.

Katta bo‘lsang kim bo‘lasan, o‘ylab ol,
Paxtakormi, prokurormi, tadbirkor.
So‘zlarimni sen miyangga joylab ol,
Undan avval bo‘lgin yaxshi o‘quvchi.

Katta bo‘lsang kim bo‘lasan, bilib ol,
Uchuvchi, quruvchi yo o‘qituvchi.
Undan avval sen yaxshilab bilim ol,
Undan avval bo‘lgin yaxshi o‘quvchi.

●

M

E

N

I

N

G

●

Y

U

R

T

I

M

SHUKR, OLLOHIM

A

h

a

d

•

Q

A

Y

U

M

◎

Iymon degan davlat berding,
shukr Oллоhim, shukr, Oллоh,

Ijod degan savlat berding,
shukr, Oллоhim, shukr, Oллоh.

Boshim silab bandam deding,
mudom rizqim butun qilding,

Halolimdan ne'mat berding,
shukr, Oллоhim, shukr, Oллоh.

Ibodatim qabul bo'ldi,
bugun yana baxtim kuldi,

Yuraginga jur'at berding,
shukr, Oллоhim, shukr, Oллоh.

Muhabbatning azobini,
ishqning achchiq sharobini,

Sevgi degan qismat berding,
shukr, Oллоhim, shukr, Oллоh.

So'ylayapman el dardini,
ko'tarsam deyman qadrini,

Bunga o'zing fursat berding,
shukr, Oллоhim, shukr, Oллоh.

Ahad degan noming olib,
yashayapman ma'no terib,

Shunday yaxshi odat berding,
shukr, Oллоhim, shukr, Oллоh.



SAHNA
Tohir Saidovga

Yelkadagi tashvishi qolib,
Tomoshaga yugurar sahna.
Muxlislarin ko'nglini olib,
Yashashga ham ulgurar sahna.
Goh qiynalsa ich-ichdan yonib,
Nelarnidir o'y surar sahna.
Chin ixlosmand mehridan qonib,
Yuragi to'q, kun ko'rar sahna.
Dunyo dardin ichiga yutib,
Goh sekin, goh tez yurar sahna.
San'at uchun fidolar kutib,
Bedorlikda kun ko'rar sahna.
Xudo bergan Tohir Saidni
Boshlariga ko'tarar sahna.
Shu yurt uchun fido artistning,
Ko'krigidan ko'karar sahna.



◎

M

E

N

I

N

G

●

Y

U

R

T

I

M

A
h
a
d
•
Q
A
Y
U
M
◎

BAXT

Davlat bilan o'lganmaydi baxt,
Savlat bilan o'lganmaydi baxt,
Omad bilan o'lganmaydi baxt,
Baxtim yo'q deb qilmagin armon,
Do'stim, umring o'tmasin yolg'on.

Dildan yig'lab kula olsang gar,
Ko'zi ochiq yura olsang gar,
O'z kuningni ko'ra olsang gar,
Bu dunyoga qaytib kelmassan,
Yashashni bil, baxtsiz emassan.

Kecha osmon qorayib ketdi,
Dunyo menga torayib ketdi,
Sabr qildim barchasi o'tdi,
Yo'qotmadim dildan shahdimni,
Shukr yana topdim baxtimni.

Baxt degani osmonda bo'lmas,
Ko'kda turib ko'zga ko'rinmas,
Izlayversang bir kaming to'lmas,
Ahad shoir dilidagi dard,
Uning uchun, axir, katta baxt!



TILING BOSHQA, DILING BOSHQA BO'LMASIN

Manzil boshqa, yo'ling boshqa bo'lmasin,
Vatanni sev, eling boshqa bo'lmasin,
Soxta surat bilan yashama aslo,
Tiling boshqa, diling boshqa bo'lmasin.

Kimniki ko'nglida qora dog'i bor,
O'z do'stin ko'rolmay yashar fe'li tor,
Hech kimga zarracha bermagin ozor,
Tiling boshqa, diling boshqa bo'lmasin.

Kimga omad kelsa hasad qilmagin,
Kimdan omad ketsa g'iybat qilmagin,
Yaxshini yomon deb tuhmat qilmagin,
Tiling boshqa, diling boshqa bo'lmasin.

Yo'q joydan bir ig'vo izlamachilar,
O'rtani buzguvchi tuzlamachilar,
Yomon ko'pdir ikki yuzlamachilar,
Tiling boshqa, diling boshqa bo'lmasin.

Do'sting xato qilsa aytgin yuziga,
Ammo aldamagin qarab ko'ziga,
Nima gaping bo'lsa gapir o'ziga,
Tiling boshqa, diling boshqa bo'lmasin.

Nasihat aylading sen — Ahad Qayum,
Kimdir anglamadi, anglab yetdi kim,
Yolg'on so'zlaguncha, jim yashagin, jim,
Tiling boshqa, diling boshqa bo'lmasin.

●

M

E

N

I

N

G

●

Y

U

R

T

I

M

MANMANLIK YOMON

- A*
h Kamtar bo‘l, kamtar bo‘l, kamtar bo‘l, inson.
a Bilib qo‘y topmoqdan yo‘qotmoq oson.
d Hech qachon berilma kibru havoga,
● Manmanlik yomondir, manmanlik yomon.
- Q* Do‘st bor, dasturxonda oshingni eydi,
A Do‘stlar bor, maydonda boshingni eydi,
Y Yiqilsang, qo‘l cho‘zmas, battar bo‘l, deydi,
U Manmanlik yomondir, manmanlik yomon.
- M* Uch narsaning doim qochgin zarbidan,
● Ichkilik, qarzdorlik, ayol makridan,
Sinib ketish oson shular jabridan,
Manmanlik yomondir, manmanlik yomon.
- Doim ota-onang yodingga solgin,
Qarindosh, qondoshdan sen xabar olgin,
Kamtarlik darsini mukammal bilgin,
Manmanlik yomondir, manmanlik yomon.
- Qora dog‘ tushmasin, dilingni asra,
Pul topsang kerilma, fe‘lingni asra,
O‘zingni bosib ol, tilingni asra,
Manmanlik yomondir, manmanlik yomon.
- Yaxshiyu yomonning sharhini qilgin,
Do‘st bilan dushmanning farqini bilgin,
Ahad Qayum so‘zin quloqqa ilgin,
Manmanlik yomondir, manmanlik yomon.
- Kamtar bo‘l, kamtar bo‘l, kamtar bo‘l, inson.
Bilib qo‘y, topmoqdan yo‘qotmoq oson.
Hech qachon berilma kibru havoga,
Manmanlik yomondir, manmanlik yomon.

AZIZLARIM

Yonimdasiz, jonday jigar yor do'stlarim,
Meni sevgan, meni kutgan muxlislarim,
Men aslida yashayapman siz bor uchun,
Mening baxtim shu emasmi, azizlarim?!

Qalbim mushtoq kutgan kunni ko'zim ko'rdi,
Onam ko'rmay ketgan baxtni qizim ko'rdi,
Dil shodlikni xayoldamas, o'zin ko'rdi,
Mening baxtim shu emasmi, azizlarim?!

Ozod yurtda, ozod qanot parvozlarim,
Shukr deyman ardoqlandim, e'zozlandim,
Oilam tinch, baxtidan shod farzandlarim,
Mening baxtim shu emasmi azizlarim?!

Osmonimda yonar bugun yulduzlarim,
Topganim siz, mehri daryo dengizlarim,
Siz-u bizga nasib etdi diydor bugun,
Mening baxtim shu emasmi, azizlarim?!

Kimdir mening yo'llarimga intizormi,
Esleydigan, izlaydigan kimdir bormi,
Suhbatimga, san'atimga intizormi,
Mening baxtim shu emasmi, azizlarim?!

Ta'zimdaman, bosh egaman poyingizga,
Xizmatdaman, sizning bayram to'yingizga,
Meni ko'rib shod qaytsangiz uyingizga,
Mening baxtim shu emasmi, azizlarim?!

Yonimdasiz, jonday jigar yor do'stlarim,
Meni sevgan, meni kutgan muxlislarim,
Men aslida yashayapman siz bor uchun,
Mening baxtim shu emasmi, azizlarim?!

●
M
E
N
I
N
G
●
Y
U
R
T
I
M

O‘TGANLARNING JOYI JANNATDA BO‘LSIN

A

h

a

d

•

Q

A

Y

U

M

◎

Tiriklik bir ne‘mat, o‘lim bir hikmat,
Yaxshilarning qabri rahmatga to‘lsin,
Xotira naqshida qolgaylar albat,
O‘tganlarning joyi jannatda bo‘lsin!

Oqibatli bo‘ling, qadrli bo‘ling,
Har g‘animat kunga shukrli bo‘ling,
Ko‘z yoshingiz arting sabrli bo‘ling,
O‘tganlarning joyi jannatda bo‘lsin!

Yaxshi so‘zlar bilan yodga olaylik,
Doim haqlariga duo qilaylik,
Olohdan munosib ajrim so‘raylik,
O‘tganlarning joyi jannatda bo‘lsin!

Davralar to‘rida e‘zoz bo‘ldilar,
Mehribon do‘st, ota, ustoz bo‘ldilar,
Qalblar osmonida parvoz qildilar,
O‘tganlarning joyi jannatda bo‘lsin!

Kim bevaqt o‘limning ohidan kuyar,
Kimdir farzandining dog‘idan kuyar,
Kimlardir yolg‘izlik chog‘idan kuyar,
O‘tganlarning joyi jannatda bo‘lsin!

Tiriklik bir ne‘mat, o‘lim bir hikmat,
Yaxshilarning qabri, rahmatga to‘lsin
Xotira naqshida qolgaylar albat,
O‘tganlarning joyi jannatda bo‘lsin!

YURAKDAN YOZILGAN SHE'R

Ko'kni ko'zlagan ko'ngil,
Yuksaklarga yetadi,
Yurakdan yozilgan she'r,
Yuraklarga yetadi.

Vatan uchun, xalq uchun,
Shahd bilan yozish kerak,
Xudo bergan iste'dod,
Dard bilan yozish kerak.

Yig'lab yozilgan satr,
Har ko'ngilni yig'latar,
Shunchaki yozilgan she'r,
Oq qog'ozni bulg'atar.

Mukofot ilinjida,
Mansabga oshiq bo'lib,
So'zni sotib bo'lmaydi,
Dardga xiyonat qilib.

Qancha oqqush qanotin,
Qirqishdilar ko'planib,
Ijod qilish o'rniga
Tosh otarlar to'planib.

To'rt qator she'ring agar,
Qo'shiq bo'lib yangrasa,
Biz uchun yozibdi deb,
El yurakdan tinglasa.

Boshingga omad kelsa,
G'iybat bilan yeyishar,
Mehnating ko'zga ilmay,
Shuhratga o'ch deyishar.

●

M

E

N

I

N

G

●

Y

U

R

T

I

M

A,
h
a
d
•
Q
A
Y
U
M
●

Qarg'alarning bulbuldek,
Tinglanmasligi-ku baxt,
Shukr, hammaning yuzin
Ko'rsatadi axir vaqt.

Millionlab-muxlisning
Mehrini bitta zarrasin,
Ular qayerdan bilsin
Samimiy dil suhbatin.

O'zlari ucholmayin,
Boshqani ko'rolmaslar,
Tutab-tutab kun ko'rib,
Bir umr yonolmaslar.

O'ylama, Ahad Qayum,
Ranjitganda ig'vogar.
Qarg'alar bulbullikka
Bo'laversin da'vogar.

Ko'kni ko'zlagan ko'ngil,
Yuksaklarga yetadi,
Yurakdan yozilgan she'r
Yuraklarga yetadi.



USTOZGA EHTIROM

Taqlid qilmay o‘zga ohang ovozlarga,
Ustozlarga havas qildim, ustozlarga,
Shoirlikni havas qilgan jigarlarim,
Ergashaylik so‘z mulkiga, hassoslarga.

Yaxshi kun ko‘p bayram bo‘ldi, hayit bo‘ldi,
Qay ijodkor, qay zamonga oid bo‘ldi,
Bir paytlari ot choptirib yurgan yigit,
Qarang bugun Sirojiddin Sayyid bo‘ldi.



M

E

N

I

N

G



Y

U

R

T

I

M

BIR BOR RAHMAT AYTGANMISIZ QO'SHNINGIZGA

A

h

a

d

•

Q

A

Y

U

M

⊙

Hozir bo'lar bir ish tushsa boshingizga,
Tug'ishgandek jon kuydirar qoshingizda,
Uyu ro'zg'or tashvishlardan-biroz ortib,
Bir bor rahmat aytganmisiz qo'shningizga?!
Mahalla-ko'y, bordi-keldi, salom-alik,
Qo'shningiz tinch bo'lsa agar, qaddingiz tik,
Ham quvonchu g'amingizga bo'lgan sherik,
Bir bor rahmat aytganmisiz qo'shningizga?!
Ortingizdan g'iybat gaplar so'zlamasa,
Yaqin bo'lib bir manfaat ko'zlamasa,
Raqib bo'lib sizdan xato izlamasa,
Bir bor rahmat aytganmisiz qo'shningizga?!
To'y-tadbirda hech yonimdan jilmaysiz deb,
Jigarimdan kamroq xizmat qilmaysiz deb,
Yaxshilikni aslo minnat qilmaysiz deb,
Bir bor rahmat aytganmisiz qo'shningizga?!
Azizlarim, yosh qo'shilsin yoshingizga,
Olloh o'zi yor bo'lsin har ishingizga,
Har kun issiq-sovug'ingiz so'rab turgan,
Bir bor rahmat aytganmisiz qo'shningizga?!
Yon qo'shnini jon qo'shni deb odat bilgan,
Omad kelsa hasad emas, havas qilgan.
Chin yurakdan hurmat bilan yaxshi ko'rgan,
Bir bor rahmat aytganmisiz qo'shningizga?!
Qo'shnichilik ming yilchilik degan gap bor,
Ahad Qayum aytar sizga takror-takror,
Qadrin biling, g'animatdir bugun diydor,
Bir bor rahmat aytganmisiz qo'shningizga?!
Hozir bo'lar bir ish tushsa boshingizga,
Tug'ishgandek jon kuydirar qoshingizda,
Uyu ro'zg'or tashvishlardan biroz ortib,
Bir bor rahmat aytganmisiz qo'shningizga?!

Mehr bergan mehr topmay qolmagay,
Sabr qilgan qadr topmay qolmagay,
Yaxshilar baxt topar, yomonlar kulfat,
Qahr qilgan jabr topmay qolmagay.

So'z qadrini bilgay, rost so'zga muhtoj,
Yolg'onlarga emas, bir rostga muhtoj,
Hasadgo'y o'ziga dushman orttirar,
Mard yigit do'st izlar, u do'stga muhtoj.

Mehnat qilgan rohat topmay qolmagay,
G'iybat qilgan kulfat topmay qolmagay,
Zahmat chekkan rahmat olar albatta,
G'iybat qilgan nafrat topmay qolmagay.

Daryolar bilgaydir dengizlar qadrin,
Yaproqlar his qilgay ildizlar qadrin,
Yulduzlar nur sochgay yulduzlar tomon,
Azizlar bilgaydir azizlar qadrin.

Olimning bolasi zolim bo'lmagay,
Zolimning bolasi olim bo'lmagay,
Bug'doy ekan arpa o'rmas hech qachon,
Dono bilganini nodon bilmagay.

Qaytar dunyo ishin ko'r, Ahad Qayum,
Kimdir oldda yurar, ortda yurar kim,
Bu zanjiri savdo, ming boshda g'avg'o,
Tug'ilmoq haqiqat, bir boshda o'lim.

Mehr bergan mehr topmay qolmagay,
Sabr qilgan qadr topmay qolmagay,
Yaxshilar baxt topar, yomonlar kulfat,
Qahr qilgan jabr topmay qolmagay.

●

M

E

N

I

N

G

●

Y

U

R

T

I

M

UZATGANDA QIZINGIZNI

A

h

a

-d

•

Q

A

Y

U

M

⊙

Yig'lamang siz onajon,
Yig'lamang siz otajon,
Baxt tilang borsin omon,
Uzatganda qizingizni,
Kuzatganda qizingizni.

Bo'lmaydi hech begonalar,
Chalinganda taronalar,
Kutar o'zga ostonalar,
Uzatganda qizingizni,
Kuzatganda qizingizni.

Baxtli bo'lsin kuyov bilan,
Go'zal tole bersin baland,
To'y kunida bo'ling xursand,
Uzatganda qizingizni,
Kuzatganda qizingizni.

Chaqaloqlar olib kelsin,
Bir kun xursand bo'lib kelsin,
Ko'zlaringiz baxtga to'lsin,
Uzatganda qizingizni,
Kuzatganda qizingizni.

Boshlaganda beshik to'yin,
Sherlar yozsin Ahad Qayum,
Baxtli odam yo'q sizdayin,
Uzatganda qizingizni,
Kuzatganda qizingizni.



TO'YLAR MUBORAK BO'LSIN

Muhabbatdan chalinsa soz,
Kuylar muborak bo'lsin.
Ko'ngil baxtdan etgay parvoz,
To'ylar muborak bo'lsin!

Bir yoqadan chiqarib bosh,
To'planishib do'st-qarindosh,
Quvonchdadir keksayu yosh,
To'ylar muborak bo'lsin!

Ko'zingiz baxtdan kulsin,
Uyingiz nurga to'lsin,
Xush kelibsiz baxt qasriga,
To'ylar muborak bo'lsin!

Shodlikdan quvna yurak,
Yuragimda shudir tilak,
Bu oqshom eng go'zal ertak,
To'ylar muborak bo'lsin!

Muborak bo'lsin diydorlar,
Shirin suhbat xumorlar,
Qadri baland qadrdonlar,
To'ylar muborak bo'lsin!

Bugun shunday bir tantana,
Ko'z o'ngimda bayram mana,
Tabriklayman sizni yana,
To'ylar muborak bo'lsin!

Sizga hamma dilso'zlarim,
Oydinchehra, gulyuzlarim,
Baxtli bo'ling, azizlarim,
To'ylar muborak bo'lsin!



M

E

N

I

N

G



Y

U

R

T

I

M

QO'IBATLI ODAMLAR.

A

h

a

-d-

•

Q

A

Y

U

M

◎

Oramizda ko'p hali,
Oriyatli odamlar.
Jigaringdan-da yaqin,
Oqibatli odamlar.

Gul umrin halol bezar,
Toleyi naqshin yozar.
Ikki dunyosi go'zal,
Oxiratli odamlar.

Hayot ham bir imorat,
Kurashmoqdan iborat.
Mehnatidan topar baxt,
Diyonatli odamlar.

Oramizda ko'p hali,
Saxovatli odamlar.
Adolatli odamlar,
Zakovatli odamlar.

Ko'ngil yongan shamchiroq,
Bir kun o'chadi biroq.
Ortida qoldirar bog',
Halovatli odamlar.

Har qadami ming hikmat,
Har suhbatini ming bir baxt.
Borligi ming bir davlat,
Xosiyatli odamlar.

Ota-onaday yaqin,
Yurakka saqlamas kin.
Qalbi serhimmat to'kin,
Gul niyatli odamlar.

Gohida sotar do'stin,
Titadi kamu ko'sting.
Sof chizar u qalb ko'zin,
Fazilatli odamlar.

Bilmaydi yolg'on, riyo,
Yolg'onga boqmas qiyo.
Jannatdan kelgan go'yo,
Farishtali odamlar.

Oramizda ko'p hali,
Saodatli odamlar.
Arzir joning bergali,
Sadoqatli odamlar.

Kimdir zamon boshqa der,
Kelajakning g'amin yer.
Shukr bugun bor axir,
Hidoyatli odamlar.

Sabrda der baxtini,
Ichga yutar dardini.
Qarichlamas qadrini,
Qanoatli odamlar.

Oramizda ko'p hali,
Diyonatli odamlar.
Mehrğa to'la qalbi,
Muhabbatli odamlar.

Ilmin arzonga sotmas,
Nafsi kibrga botmas.
Sendan manfaat kutmas,
Ma'rifatli odamlar.

Ahad Qayum ijodin,
O'ylaydi elning baxtin.
To'g'ri baholar satrin,
Muruvvatli odamlar.

◎

M

E

N

I

N

G

●

Y

U

R

T

I

M

MUNDARIJA

Mening yurtim buncha go'zal, mening yurtim	190
Ko'z tegmasin O'zbekistonga	191
Seni sevaman, Vatan	192
Yozarman	193
Men sendan kechmayman, Vatan	194
O'zbekiston	196
Ona tuproq	197
Adabiyot, eshiklaring och	198
Kecholmayman vatandan aslo	199
Hayot go'zal	201
O'zbekistondan ham yaxshi joy bormi	202
Yashasin bu Vatan	205
Ota-onaga g'animat	207
Akalar, ukalar	208
Sevib yashang shunday vatanni	209
Ishdan charchab kelib	210
Kechagi kunni unutma	210
Samarqand, Buxoro, Xiva	211
Farg'onajon	212
Ustoz muallim	213
Vatan demasam	214
Chin baxt	215
Askarlar	216
Yagonasan, muqaddasan vatan	217
9 may	218
Shu vatan	219
O'zbekimning to'yi	221
Onam meni dard bilan tuqqan	222
Yashnasa ham faqat vatan yashnasin	222

Ustozimdan ayirma, Oллоh	225
Qutlov	226
O‘zbekiston kelajagi buyuk davlat	227
Bola	228
Orzu-havas qilar inson farzandi deb	229
Ustozim shu xalq	230
Ijod mashaqqatli yo‘l	232
Yangi yil	232
Mahallam	234
Navro‘z	236
Bayram tabrigi	238
So‘nggi qo‘ng‘iroq	239
Mening kollejim	241
Maktab	242
Talabalik	244
Bizning konstitutsiya	246
Temiryo‘lchilar	247
Sport sog‘liq garovidir	249
Ishbilarmon tadbirkor	250
Navoiyni bilmagan odam	250
Vasiyat	251
Dushanbadan yakshanbagacha	251
Mustaqillik abadiy bo‘lsin	252
O‘zbekiston muqaddas zamin	253
Bizdan obod vatan qolsin	254
Yurt boyligi	255
Tug‘ilgan kun	256
Sakkizinchi mart bayrami	258
Yangi hayot koshonasi qutlug‘ kelsin	259
San‘atim	260
Dublyaj san‘ati	262
Kim o‘ylaydi bu vatanni	263
Charchadim	266
Dunyodagi eng go‘zal ayol kim	267
Dunyodagi eng aziz siymodir ayol	268
Ustozim	270
Bizning jurnalistlar	272
Buxoro	274
Tilak	276
So‘rashadi do‘stlarim	278
San‘at	279

Shukr qilib yashash kerak	280
Bu millat	281
Bizning futbol	282
Toshkent	283
Mening o'lkam	284
To'ydan keyin	286
Vatanimni sog'inaman	287
Vatan nima	288
Vatan omon bo'lsin	289
O'zbekimning bayramlari	291
Vatanga munosib farzand bo'laylik	292
Shukrona	294
Vatan	296
Nurli-nurli yorug' manzillar	297
Vatan uchun	298
Shifokorlar	299
Insonning bo'lmasin qalbi nogiron	301
Bir yaxshi nom qolsin	302
Ko'ngil gavhari	303
Hayotdagi eng chiroyli kun	304
Shunday katta olam ichra	304
Bugun shunday kunki	306
Tilak	307
Mehr tiladimi	308
Do'st shunday bo'larki	309
Agar ayol istasa	310
Muhabbat yosh tanlamaydi, ko'ngil tanlar	311
Qizlarning muhabbati	312
Ota-onaduosi	313
Onalar o'ynasin shunday davrada	314
Dilim	315
Ayol bor dunyoda	316
Vatanni sev	316
Hazilkashlarga	317
Oqibat	318
Nasihat	318
Yaqin o'tmish	319
Oqibat yo'qoldi nechun	322
Bemorlardan holin so'rang, bemorlardan	324
Bahor muborak	325
Yangi vil	327

Umr yo'ldoshim	328
Do'stlarim, odamga odam g'animat	329
Erta-indin deb yuraversang	330
Yig'lamasin ojiza ayol	331
Shunday ayol edi mening validam	332
Ey do'st	335
Sinishimni sog'indi kimlar	336
Azizlarim, diydoringiz g'animat	338
Ey inson, ko'zingni och	339
Onamgaxat	342
Qariyalar uyi	343
Baribir boshqacha radio tinglash	344
Men vatanga nima berdim deb yasha	345
Ota-onang rozi qil avval	347
Baxti borlar shukrli bo'lsin	348
Vatan	349
Bayram tabrigi	352
Umr	352
Qadamlar hikmati	353
Ayting-chi, ertaga bizdan ne qolar	354
Chaqaloqlar bo'shatmasin beshigingni	355
Bahorni kutaman	356
Yigit bo'lsin	357
Barchinoyning ro'moli qani	358
Tarixda	359
Qo'shiq	362
Katta bo'lsang	363
Shukr, Ollohim	364
Sahna	365
Baxt	366
Tiling boshqa, diling boshqa bo'lmasin	367
Manmanlik yomon	368
Azizlarim	369
O'tganlarning joyi jannatda bo'lsin	370
Yurakdan yozilgan she'r	371
Ustozga ehtirom	373
Bir bor rahmat aytganmisiz qo'shningizga	374
Uzatganda qizingizni	376
To'ylar muborak bo'lsin	377
Oqibatli odamlar	378

Адабий-бадиий нашр

Аҳад ҚАЮМ

МЕНИНГ ЮРТИМ

(шеърлар тўплами, кирилл ва лотин ёзувида)

Масъул муҳаррир: *А.Қоржовов*
Муҳаррир: *О.Қанаев*
Дизайнер: *Р.Ташматов*
Мусахҳиҳ: *М.Холиқова*
Саҳифаловчи: *Г.Курбанбаева*

Нашриёт лицензияси: АИ № 231 16.11.2012
Босишга 11.07.2019 йилда берилди. Қоғоз бичими 84x108 ¹/₁₆
“Virtec Times UZ” гарнитурасида офсет усулда
босилди. Нашр босма табағи 23,5
Адади 3000. Буюртма № 58

«ТАФАККУР» нашриёти
100115, Тошкент, Чилонзор кўчаси, 1а-уй.

“Dizayn-Print” МЧЖ ЎИЧК босмахонасида чоп этилди.
100054. Тошкент шаҳри, Чўпон ота кўчаси, 28-а уй.